ALFRAGANUS UNIVERSITY



UCHINCHI RENESSANS – TA'LIM VA TARAQQIYOT: O'TMISH, BUGUN VA KELAJAK

mavzusidagi

II XALQARO TALABALAR KONFERENSIYASI

2024-yil 14-noyabr

UCHINCHI RENESSANS – TA’LIM VA TARAQQIYOT: O‘TMISH, BUGUN VA KELAJAK

mavzusidagi
II Xalqaro talabalar
Konferensiyasi

Alfraganus universiteti

Chimkent universiteti

Muxtor Auezov nomidagi Janubiy Qozog‘iston universiteti

B.Gafurov nomidagi Xo‘jand Davlat universiteti

Xo‘jand shahridagi Tojikiston aniq fanlar va texnologiylar instituti

Mas’ul muharrir:

Muhammadismoil Maxmudov

Alfaraganus universiteti rektori

Konferensiya tashkilotchlari:

Xurshidbek Kurbanov

Alfaraganus universiteti iqtidorli talabalar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i

Mashhura Yo‘ldashova

Alfraganus universiteti Iqtisodiyot fakulteti 3-kurs talabasi

Taqrizchilar:

Nozim Muminov

Alfaraganus universiteti prorektori

Mavluda Raximshikova

Muxtor Auezov nomidagi Janubiy Qozog‘iston universiteti

Mo‘minjon Xo‘jayev

“Alfaraganus” Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi rahbari

Adhamjon Mirzachaev

“Alfaraganus” Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi xodimi

Anjuman tezislarining ilmiy saviyasiga ilmiy maslahatchi va muallif javobgar hisoblanadi.

Alfraganus university Ilmiy-texnikaviy kengashining 2024-yil 31-oktyabrdagi 2-sonli majlisida nashrga tavsiya etilgan.

ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI

Abdug‘aniyev M.N.
Alfraganus universiteti Turizm fakulteti
turizm va mehmondo‘stlik yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Ilmiy maslahatchi: Tilovmurodov D.F.

Annotatsiya: Ziyorat turizmi jahon turizm bozorida o‘z ahamiyatiga ega segment hisoblanadi. Ushbu maqolada ziyorat turimining rivojlanishiga ta’sir etuvchi ommillar o‘rganilgan va uni rivojlantirishga oid takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, turizmni rivojlantirish, mintaqaviy turizm, ziyorat turizmi, ziyorat meroslari.

Аннотатsія: Паломнический туризм является важным сегментом мирового туристического рынка. В данной статье изучены факторы, влияющие на развитие паломничества, и разработаны предложения по его развитию.

Ключевые слова: туризм, развитие туризма, региональный туризм, паломнический туризм, паломническое наследие.

Abstract: Pilgrimage tourism is an important segment of the world tourism market. In this article, the factors affecting the development of pilgrimage are studied and suggestions for its development are highlighted.

Keywords: tourism, tourism development, regional tourism, pilgrimage tourism, pilgrimage heritage.

Bugungi kunda turizm o‘zining o‘ziga xos xususiyatlari bilan jahon iqtisodiyotidagi eng yirik va eng daromadli tarmoqlardan biriga aylandi va mintaqalarning rivojlanishi uchun uchun zamin yaratdi. Xususan O‘zbekistonda bu sohani rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunga kelib, dunyoda ibodat va ziyoratgohlarni o‘rganishga qiziqish kuchaygan, chunki ziyoratgohlar insonlar kundalik hayotining ajralmas qismi bo‘lib kelmoqda. Ziyorat turizm bozori ziyorat turlarni: muqaddas joylarni ziyorat qilish qadimdan bizgacha yetib kelgan masjid, cherkov, ibodatxonalarda ziyorat amallarini barajrish uchun sayohat mahsulotlarini qamrab oladi. Evropa aholisining katta qismi nasroniy bo'lsa-da, so'nggi bir necha yil ichida halol turizm, shuningdek, ma'naviy turizmga bo'lgan talab o'sib bormoqda.

The Global Religious Tourism Market ma’lumotlariga ko‘ra ziyorat turizm bozori 2023 yildagi iqtisodiy ulushi 15,5 milliard dollarga yetib 2024 va 2032-yillar oralig‘ida 10,2 foiz o‘sib 37,2 milliard dollarga yetishi prognoz qilindi[1]. Ushbu segmentga asoslanib ko‘pgina Yevropa davlatlari hamda Yaponiya, Xitoyda ziyoratchi turistlarni jalb qilish uchun ziyorat turizmida halol konsepsiya (halal concept) a’lohida e’tibor qaratmoqda. Bu yo‘sinda ziyorat turizmining tarifi muhim hisoblanadi.

Ziyorat turizmi diniy yoki ma’naviy maqsadlarda sayohat qilishni anglatadi, Ziyorat turizmi - bu madaniy turizm segmentidagi to‘rtta ixtisoslashgan turistik maqsad: ziyorat qilish, muqaddas joylarni o‘rganish, cherkov, masjid ibodat maqsadida sayohatlarni o‘z ichiga olgan tendensiya hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval

Ziyorat turizmining maxsus nishalari[2]

Maxsus Nisha	Ta’rifi	Maqsadli bozor	Destinatsiyalar
Ziyorat	Diniy yoki ma’naviy maqsadlarda ziyoratgohlarga qilinadigan sayohat	Ziyoratchilar	Ayasofiya, Makka va Madina, Quddus, Machi pichu, Tano taroja
Ziyorat meroslari	Qadimdan bizgacha yetib kelgan diniy obidalar va meroslar	Barcha turdagi sayyohlar	Ajanta g‘orlari, Miriuksa, Aachen, Piazza del Duammo
Masjid, Cherkov va Ibodatxona	E’tiqot qilinadigan obyektlar	Barcha turdagi sayyohlar	Sulton Ahmad, Santiago de Kompostello
Ziyorat amallari	Ibodat qilish, muqaddas		Umra, Haj

[1] The Global Religious Tourism Market’s Barometer (2023) – Statistik ma’lumotlari ba’zasi
[2] Xorij adabiyotlari tahlili asosida muallif ishlanmasi

	marosimlarni bajarishga sayohatlar	Ziyoratchilar va Barcha turdagi sayyohlar	

Ziyorat turizmi – turli din odamlarining ziyorat maqsadidagi sayyohatlaridir. Odatga koʻra, u diniy maqsadli sayohatlarga tegishli boʻlib ziyoratchilar uchun alohida ahamiyatga ega boʻlgan boshqa turlar bilan integratsiyalangan sayohatlar tushuniladi. Koʻpgina turoperatorlar ushbu ixtisoslashgan turlarni birlashtirib ziyorat turlarni taklif qilish imkoniyatiga ega boʻladi.

Oʻzbekistonda ziyorat turizmi. Oʻzbekistonda turizmni yanada rivojlantirish boʻyicha chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Milliy sayyohlik brendini rivojlantirish, xorijdan kelayotgan mehmonlarga borcha shart - sharoitlar yaratish ularning talablarini inobatga olgan holda mavjud sayyohlik yo nalishlarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Yurtimizda qadimiy va tarixiy shaharlari Samarqand, Buxoro, Xorazm, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida joylashgan boʻlib muqaddas qadamjolarni va yodgorliklarni ziyorat qilishdan iborat boʻlgan ziyorat dasturlarini ishlab chiqish orqali ushbu sohani rivojlanishiga keng yoʻl ochib berilmoqda.

Qolaversa, Ipak yoʻli madaniyatlar va sivilizatsiyalarning kesishish markazi boʻlib kelgan. Viloyatlarimizda islom, buddizm va xristian dinlariga tegishli noyob yodgorliklar saqlanib qolgan. Shu yillarda boshqa davlatlardan kelayotgan Shohi zinda, Imom al-Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Goʻri Amir, Xoʻja Ahror, Pahlavon Maxmud, Zangi ota hamda Hakim at-Termiziy ziyoratgohlariga turistlar oqimi ortmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi "Oʻzbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora tadbirlari toʻgʻrisida" gi PF-6165-son farmoni oʻz natijalarini bermoqda. Farmonda sayyohlar uchun shart-sharoitlar yaratish, ziyorat turizm salohiyati yuqori boʻlgan madaniy meros obeyktlariga restavratsiya qilish va ziyorat vizalarini ishlab chiqish koʻzda tutulgan. Ziyorat turimini rivojlantirishga yuzaga kelayotgan muammolar mavjud:

1. Ziyorat turlarni tijoratlashtirishda reklamalardan foydalanilmasligi
2. Ziyorat turlarni boshqa turlar bilan integratsiyalanmaganligi

3. Ziyorat obyektlari atrofida infratuzlmalarning tanqisligi
4. Ziyor obyektlarida gid-tarjimonlarning yetmovchiligi

Xulosa qilib aytganda ushbu maqolaning maqsadi O‘zbekistonda ziyorat turizmining omillarini o‘rganib ziyorat turizmini rivojlantirishga takliflar berilgan ziyorat turizmini yo‘nalishlari butun dunyodan xorijiy sayyohlarning jalb qilmoqda. Sayyohlik kampaniyalarining integratsiyalangan ziyorat turlarini ishlab chiqishi, turistik tashkilotlar tomonidan ziyorat turizmining yangi segmentlaridan foydalanish, madaniy meros obidalariga, ziyoratgohlarga va qadomjolarga borish uchun sifatli tashish xizmatlarini tashkil etish, ziyorat turizmini yanada barqaror rivojlantirish uchun marketing strategiyalarni ishlab chiqish ziyorat turizmini rivojlanishida ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Xalilov, S. (2022). Milliy turizm tarmog’ida mehmonxonalar marketing faoliyatini samarali tashkil etishga xorij tajribalarini qo’llash.

2. Сайфутдинов, Ш. (2022). Ўзбекистонда Зиёрат туризмини ривожлантиришнинг ижтимоий-иқтисодий механизмлари. Архив научных исследований, 4(1).

3. Tilovmurodov, D. (2024). Imkoniyati cheklanganlarga to ‘siqsiz turizm xizmatlarini tashkil etish istiqbollari.

4. Islomovich, P. R. (2024). Turizm xizmatlarini rivojlantirish va sifatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish. Journal of Economy, Tourism and Service, 3(5), 28-30.

ASTRO TURIZM VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Abdullayeva Saodatxon Murod qizi –
Alfraganus Universiteti Turizm fakulteti 3-bosqich talabasi.
Ilmiy maslahatchi: Qutlimurotov Fayzullo Sa'dullayevich –
Alfraganus Universiteti Xalqaro turizm menejmenti
kafedrasi katta o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqoladan ko'zlangan asosiy maqsad astro turizmning kelib chiqishi va uning mazmun mohiyatini, yo'nalishlarini, bugungi kundagi ahamiyatini keng yoritib berishdan iborat, chunki, so'nggi bir necha yil ichida sayyohlik sanoatining eng noodatiy yo'nalishi hisoblangan astro turizmga qiziqish sezilarli darajada oshdi.

Kalit so'zlar: Astro turizm, astromantika, osmon, yulduzlar, sayyoralar, yulduz turkumlari, quyosh tutilishi, meteorit, kometa.

Abstract: The main goal of this article is to explain the origin of astro tourism and its essence, trends, and importance today, because in the last few years, interest in astro tourism, which is considered the most unusual direction of the tourism industry, has increased significantly increased.

Keywords: Astro tourism, astromantics, sky, stars, planets, constellations, solar eclipse, meteorite, comet.

Аннотатsiя: Основная цель данной статьи – объяснить зарождение астро туризма и его сущность, направления и значение на сегодняшний день, поскольку в последние несколько лет возрос интерес к астро туризму, который считается самым необычным направлением туристической индустрии значительно возросла.

Ключевые слова: Астро туризм, астромантика, небо, звезды, планеты, созвездия, солнечное затмение, метеорит, комета.

Astronomiya sivilizatsiya paydo bo'lganidan beri mavjud bo'lgan tadqiqot sohasi bo'lib, yulduzlarga qarash, ularni tomosha qilish uzoq vaqtlardan beri qalbni tinchlantiradigan hayrat manbai bo'lib kelgan. Bugungi kunda jamiyat tobora kengayib borayotgan virtual olamga qanchalik chuqurroq kirib borayotgani sari, biz koinot haqidagi dunyoqarashimizni kengaytirish zaruratini shunchalik ko'p his qilmoqdamiz. Astro turizm, sayyohlik sanoatining oxirgi yo'nalishi bo'lib,

insonlarni galaktikalar bilan hech qachon tasavvur qilmagan tarzda bog‘lab qo‘yadi. “Astro turizm” atamasi ilmiy-fantastik filmlardagi kabi eshitilishi mumkin, ammo bu haqiqiy va rivojlanayotgan tendensiyalardan biri hisoblanadi. U yer sayyorasidan chiqmasdan turib koinot jismlarini o‘rganish imkoniyatini taqdim etadi. Sayohatchilar tungi osmondagi yulduzlar, sayyoralar va yulduz turkumlarini dunyoning turli joylardagi noyob maskanlardan kuzatishlari mumkin. Bu kosmos bilan bir bo‘lish, undagi o‘rnimizni tushunish va tungi osmonning ajoyib hayratli manzaralaridan baxramand bo‘lish demakdir. Astro turizm - bu astronomik hodisalarni ko‘rish maqsadida sayohat qilish, shuningdek, har qanday ifloslanish, olomon va tirbandlikdan holi bo‘lgan yerlarga borib, bepoyon osmonga e’tibor qaratish va bir necha soat davomida koinotda joylashgan yulduzlar, sayyoralar va yulduz turkumlarini tomosha qilishdir.

So‘nggi bir necha yil ichida insonlar orasida astro turizmga qiziqish sezilarli darajada oshdi. Qiziqishning ortishi davom etayotgan urbanizatsiya bilan bog‘liq jarayon bo‘lib, shahar aholisi atrof-muhitning ifloslanishi tufayli tungi osmon jismlari ko‘rinishidan tobora ko‘proq mahrum bo‘lmoqda. Dunyo miqyosida kuzatilgan pandemiya astro turizmning yuksalishida ham muhim rol o‘ynadi. Pandemiya vaqtidagi turli cheklovlar tufayli ko‘pchilik insonlar yulduzlarni tomosha qilish va astronomiyadan tasalli topdilar, chunki bu vaqtda ular uyda qolishlari va uy atroflari bilan cheklanishlari kerak edi. Astro turizm nafaqat samoviy jismlarning jozibasi, shuningdek, tabiat bilan bog‘lanish, yulduzli osmon ostida osoyishtalikni topish va koinotning go‘zalligidan zavqlanish hamdir. Astro turizm ilm-fan, tabiat va ma’naviyatni o‘zida mujassam etgan noyob turizm yo‘nalishi hisoblanadi.

Astro turizm salomatlikka ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Yulduzlarga qarash terapevtik jarayon bo‘lib, insonga xotirjamlik va tinchlik hissini beradi. Bu ongni rag‘batlantiradi va band hayotimizdan uzilib, koinot bilan bog‘lanishimizga imkon beradi. Yulduzli osmonning osoyishtaligi ham xotirjam uyquga yordam beradi, bu esa astro turizmni bevosita sog‘lomlashtirish ya’ni rekreatsion turizm bilan o‘zaro bog‘liqligini anglatadi.

Astro turizmga bo‘lgan talab butun dunyo bo‘ylab bir nechta asosiy yo‘nalishlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Bunday joylardan biri Koh Kud, Tailand. Fevraldan oktyabrgacha davom etadigan rasmiy yulduzlar

mavsumida o‘zining betakror manzaralari bilan mashhur bo‘lgan ushbu manzil turistlarga ajoyib astronomiya tajribasini taqdim etadi.

Shimoliy Angliyada joylashgan Shimoliy York Moors milliy bog‘i ham yulduzlarni tomosha qilish uchun ajoyib manzarani taklif etadi. Yorkdagi Grand Hotel tomonidan taqdim etilgan xizmatlar to‘plami bilan sayohatchilar shaharning atrof-muhit ifloslanishidan uzoqda joylashgan Shimoliy York Moors Dark Sky qo‘riqxonasida tungi osmon sayohatidan bahramand bo‘lishlari mumkin.

Astro turizm faqat yulduzlarni tomosha qilish bilan cheklanmaydi. Misol uchun, Texasning Ostin shahrida butun dunyo bo‘ylab astro sayyohlarni o‘ziga tortadigan ajoyib astronomik hodisa – to‘liq quyosh tutilishiga guvoh bo‘lishning noyob usullari mavjud. Sog‘lomlashtirishga yo‘naltirilgan mehmonxonalar va kurortlar tobora ko‘proq mehmonlarga osmonni tomosha qilish, kometalarni kuzatish, yulduz turkumlarini kuzatish va yaltiroq kenglikdagi naqshlarni aniqlash uchun o‘zida yetarlicha sharoitlarni yaratmoqda. Bunga misol qilib, Buyuk Britaniyadagi Port Lympne mehmonxonasini ko‘rsatishimiz mumkin. Ushbu mehmonxona mehmonlarga shoh o‘lchamdagi o’rindiqlarga qulay joylashib, yulduzlarni o‘rganish imkonini beruvchi Shisha gumbazli Lookout Bubbleni ochdi. Arabiston ko‘rfazining sharq tomonida joylashgan Zulal Wellness Resort esa Qatar cho‘li bilan o‘ralgan bo‘lib, u kosmos haqida ko‘proq bilmoqchi bo‘lgan oilalar va bolalar uchun maxsus mahorat darslari va yulduzlarni tomosha qilish, astromantika mashg’ulotlari uchun eng yaxshi manzildir. Desert & Delta Safari kompaniyasi Botsvana va Namibiya bo‘ylab yulduzlarni kuzatmoqchi bo‘lgan sayohatchilar uchun sayohatlar uyushtiradi, bu yerda mehmonlar dunyodagi eng katta tuzli kvartiralardan biri bo‘lgan Makgadikgadi panlari kabi uzoq joylarda chodirlarda,yulduzli osmon manzarasi ostida tunashlari mumkin. Xuddi shunday, Tswalu Janubiy Afrikaning Safari lageri bo‘lib, Korannaberg tog‘laridagi uyqu palubasiga yulduzli yotoqlari o‘rnatilgan.

2024-yil astronomiya nuqtai nazaridan hayratlanarli tutilishlardan tortib ajoyib meteor yomg‘irlarigacha bo‘lgan ajoyib yil bo‘ldi. Astro turizmning kelajagi yorqin. Texnologiya va astronomiya sohasidagi uzluksiz taraqqiyot bilan imkoniyatlar cheksizdir. 2024-yilda quyosh faolligining eng yuqori cho‘qqisida, quyosh zarralari Yer atmosferasiga kirib kelganida paydo bo‘ladigan Shimoliy yorug‘lik deb nomlanuvchi tabiiy yorug‘lik displeyi eng ajoyibi bo‘ldi, Shimoliy Amerikada quyoshning to‘liq

tutilishi kuzatildi, Quyoshda 2024-yil yozining eng kuchli chaqnashi yuz berdi, Superoy hodisasi roʻy berdi, Sayyoralar paradi boʻlib oʻtdi. 2024-yilda Parij Olimpiya va Paralimpiya oʻyinlari kabi yirik tadbirlar 2024-yilgi astro sayyohlar rejalarida ham muhim rol oʻynadi. Shaharning Sena daryosini tozalash kabi keng koʻlamli loyihalari sayyohlarga astro turizmni boshdan kechirishlari uchun maqbul muhitni taqdim etdi.

Xulosa qilib aytganda, astro turizm passiv diqqatga sazovor joylarga sayyohlar tashrifini oshirish, osmon jismlarini oʻrganish, oʻqitish va koʻngil ochish uchun faol, qiziqarli kashfiyotlarga aylantirishga qaratilgan. Astro sayohat kelajagi texnologik innovatsiyalar, madaniy haqiqiylik, iqtisodiy ong va shaxsiy farovonlikka kuchli turtki beradi va uygʻunlashtiradi.

Adabiyotlar roʻyxati

1.Norchayev A., Raximova D. Mintaqaviy turizm resurslari. Darslik – T.: Yangi nashr, 2022-yil, 245 b.

2.Sayfutdinov Sh., Ruziyev Sh. Turistik biznes barqarorligi. Oʻquv qoʻllanma – T.: Iqtisodiyot, 2019-yil, 168 b.

3.Xalilov S. Milliy turizm tarmogʻi: raqobat ustunliklari va rivojlanish strategiyasi. Monografiya – T.: Innovatsion rivojlanish, 2022-yil, 212 b.

4.Sayfutdinov Sh., Ruziyev Sh. Turistik biznes barqarorligi. Oʻquv qoʻllanma – T.: Iqtisodiyot, 2019-yil, 168 b.

5.Кусков А.С. Туристкое ресурсоведение. Учебное пособие для студ. высш. Учеб заведение. - М.: Издателский сентр “Академия”, 2008 год, -208 с.

МЕҲМОНХОНАЛАРДА СЕРВИС СИФАТИНИ САМАРАЛИ БОШҚАРИШ

Азимжонов А.Ш. –
Alfraganus университети Туризм факультети
туризм ва меҳмондўстлик йўналиши 1-босқич талабаси;
Илмий маслаҳатчи: иқтисодиёт фанлари доктори Халилов С.Ш.

Аннотатsія: Мазкур тезис меҳмонхоналарда хизмат сифатининг турлари ва ўзига хос хусусиятларига бағишланган. Тезисда, шунингдек, ҳар бир меҳмонхоналарда учраб турувчи муаммолар, меҳмонхонанинг статусига зарар келтирувчи омилларга ечим ўз аксини топган.

Калит сўзлар: меҳмонхона хизматини таққослаш (юлдузлар), хизмат сифати, хизмат сифатини таъминловчи мезонлар, эмпатия.

Abstract: This thesis is devoted to the peculiarities of service quality in hotels. The thesis also reflects solutions to the small problems that every hotel often faces.

Key words: comparison of hotel service (stars), quality of service, criteria defining the quality of service, empathy.


Хизмат сифатига ёндашувларни бир-биридан фарқлашнинг асосий белгиси меҳмонхонанинг статусидир, яъни меҳмонхонанинг махсус тоифаланган юлдузлари ҳисобланади. Биз ҳеч қачон уч юлдузли меҳмонхонадан беш юлдузли меҳмонхонанинг хизматини, хизмат пакетларини ва хизмат сифатини талаб қила олмаймиз. Аввалambор, хизмат сифатига ойдинлик киритиш ўринли. Хизмат сифати деганда сервис корхонаси ўз мижозларининг эҳтиёжларини тушуниши ва уларни қондириш ўлчови тушунилади. Бу нафақат хизматнинг ишончлилиги, тезлиги ва аниқлиги каби техник жиҳатлари, балки эмпатия, сезгирлик ва хушмуомалалик каби ҳиссий жиҳатлари билан ҳам белгиланади.

Хизмат кўрсатиш сифатини қандай яхшилашни тушуниш ҳар қандай сервис корхонаси учун энг асосий қадамдир. Эмпатия – бу бошқаларнинг ҳис-туйғуларини тушуниш қобилияти. Эмпатия вазиятга бошқаларнинг дунёқарашидан келиб чиққан ҳолда назар солишга имкон беради. Бу қобилият бизга ўз-ўзидан ижтимоий ва профессионал муносабатларни ривожлантиришга имконият яратади.

Туризм ва меҳмондўстлик соҳасида бу қобилиятга талаб юкори даражада. Хизмат сифати (Service Quality) категориясининг замонавий концепциясида қуйидаги ифода мавжуд:

SQ = P – E

Бунда P – хизмат кўрсатиш натижаси (Performance), E – эса мижоз томонидан хизмат истеъмолидан кутилган ижтимоий наф (Expectations).



1-расм. Хизмат сифатини кафолатли таъминлаш мезонлари

Хизмат сифатини баҳолаш ва яхшилаш алоҳида масъулиятли жараён. Бу йиллаб йиғилган тадқиқот ва тажрибаларни талаб қилади. Хизмат сифати ҳақида чуқурроқ тушуниш учун хизмат сифатининг асосий мезонларини билиб олиш лозим (1-расм).

Хизматнинг ишончлилиги, хизматнинг аниқлиги, таъсирчанлик, хизмат сифатини таъминлаш параметрлари мониторинги ва эмпатия асосий сифат мезонлари ҳисобланади. Ўзбекистонда иккита турдаги меҳмонхоналар мавжуд, яъни маҳаллий бренд остидаги меҳмонхоналар ва дунё миқёсидаги бренд меҳмонхоналар. Маҳаллий меҳмонхоналарда ташкилий-иқтисодий муаммолар мавжуд. Энг кўп учрайдиган муаммолар сирасига қуйидагилар киради:

1.Хизмат кўрсатиш стандартига қатъий риоя қилмаслик;

2.Персонал менежментига масъул департамент томонидан кадрлар сиёсатининг тизимли йўлга қўйилмаганлиги;

3.Сервис персонали меҳнатини рағбатлантиришнинг самарали ташкил этилмаганлиги;

4.“Front Office” ходимлари учун қулай эргономик шароитларнинг яратилмаганлиги;

5.Айрим топ-менежерлар профессионал компетенциясидаги бўшлиқлар.

Хулоса қилиб айтганда, хизмат сифатининг нафақат меҳмонхона хўжалигида, балки барча касбларда ўрни катта. Шундан келиб чиқиб, меҳмонхона менежерлар корпуси юқорида санаб ўтилган ечимталаб масалаларга доимий диққатли бўлиши талаб этилади.

Адабиётлар рўйхати:

1.Шадибекова Д. Ўзбекистонда хизматлар соҳасини ривожлантириш: муаммолар ва ечимлар. Монография – Т.: Иқтисод-молия, 2021 йил, 136 б.

2.Амонбоев М., Халилов С. Барқарор туризм ривожланиши. Ўқув қўлланма – Т.: Иқтисодиёт, 2021 йил, 110 б.

3.Пардаев М. Иқтисодиётни стратегик ривожлантиришнинг инноватsion моделлари. Монография. Т.: Фан ва технологиялар нашриёт-матбаа уйи. 2022 й., 228 б.

4.Абидова Д. Ўзбекистонда экологик меҳмонхоналар фаолиятини юритиш методологиясини такомиллаштириш. Монография – Т.: “Илм-фан ва инноватsiя” нашриёти, 2023 й., 100 б.

5.www. unwto.org – Бутунжаҳон туризм ташкилотининг расмий сайти.

6.www.uzbektourism.uz – Ўзбекистон Республикаси Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги ҳузуридаги Туризм қўмитаси расмий сайти.

PROSPECTS FOR DEVELOPMENT OF EXTREMAL TOURISM IN THE REGIONS

Isakova G.I –
Alfraganus University, Tourism Faculty
The 2nd year of tourism student
Scientific supervisor: Tilovmurodov D.F.

Abstract: Today, extremal tourism is a direction that attracts young tourists and is gaining its place in the tourism market. This article explores the ways of developing extreme tourism in the regions. Proposals for the development of extreme tourism have been developed.

Keywords: extremal tourism, active types, tourism market, tourist, regional tourism, extreme activity.

Annotatsiya: Bugungi kunda yosh turistlarni jalb qilayotgan va turizm bozorida o‘z o‘rniga ega bo‘layotgan yo‘nalish ekstremal turizm hisoblanadi. Ushbu maqolada hududlarda ekstremal turizmni rivojlantirish ommilari o‘rganilgan. Ekstremal turizmni rivojlantirishga oid takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ekstremal turizm, aktiv turlar, turizm bozori, turist, minqataviy turism, ekstremal faoliyat.

Аннотатsiя: Сегодня экстремальный туризм – это направление, которое привлекает молодых туристов и завоевывает свое место на туристическом рынке. В данной статье исследуются пути развития экстремального туризма в регионах. Разработаны предложения по развитию экстремального туризма.

Ключевые слова: экстремальный туризм, активные виды, туристический рынок, турист, региональный туризм, экстремальная деятельность.


Nowadays, the field of tourism is rapidly developing. As a result, the types of tourism are increasing. Focusing on extreme tourism, Extreme tourism is defined as the movement of people outside their comfort zone to travel to remote, exotic, and possibly unknown areas. Extreme tourism is a type of tourism in which tourists engage in adventures such as skydiving, mountain climbing, and scuba diving.

Nowadays, people are paying attention to the development of extremal tourism. Because this idea are increasing one's interest. So, this option is being discussed by them. In the fast-paced world, there are special interest tourism types of Uzbekistan. For instance, reforms are being transferred about sport, extremal, and passive recreation tourism by seekers. Tourists have a burning desire to go places that are remarkable, silent, adrenaline-filled, and full of scenic destinations. Therefore, the more the government can create more opportunities related to extreme tourism, the more become development in society.

Secondly, the deep learning of foreign experiences, the growth of MICE, ecotourism, epicure junior tourism, and attracting investors who come from foreign countries may play a vital role in the tourism field. Apart from this, Tourists can learn about extremal tourism, they might obtain enough knowledge about countries where were being developed related to sightseeing places. So that, there might be merits and demerits of extremal tourism. One of the best sides is that it may bring more benefits to a country on the financial side. Because a nation that can be full of green space might attract a lot of tourists. Extremal tourism could aggrandize travelers' interests. Their children could learn news about how to be clever. If tourists can go to places with their children that include mountains, they may be beneficial.

Extremal tourism requires not only physical fitness and courage. Extremal tourism is a type of tourism that has developed and is spreading widely in many European countries. Mostly young people are interested in this type of tourism and want to get real adrenaline. For this reason, Extreme tourism attracts more young people. Almost every type of extreme tourism requires training and skills. Extreme

Currently, there are tens or even hundreds of types of active tourism, the most common of which are mountaineering, kayaking, diving, rafting, paragliding, cycling, trekking, hore riding and mountain tourism. There is also an exotic type of extreme tourism. Extreme tourism is not only one of the promising types of tourism business, it attracts more people. New unexplored places for extreme tourism are emerging, the emergence of new types of tourism is proof of this. Extreme tourism is not only of high quality, but all its types require certain skills, appropriate equipment, experience, and high professionalism (picture-1).



Picture -1. Types of extremal tourism .

Many countries take advantage of it to develop their economy look for ways to come. Today, the most modern industry recognized around the world is tourism. Because a small amount of money is spent in this area, you can use this service for years with a small amount of money.

Paragliding - parachuting and paragliding are the most popular forms of extreme tourism recreation. Traditional parachutes are especially popular in Ukraine due to their relatively cheap price. Paragliders have personal equipment that allows them to make difficult jumps. These include group acrobatics, skysurfing, pole vaulting, and others.

Rafting and kayaking - rafting is a descent of inflatable boats on fast rivers with a crew of four or six people. A kayak is the same as a rowboat, with only one paddler in the boat.

Diving - diving shows a particular growth in popularity - in various bodies of water. At least 20 million divers are registered in the world.

Alpinism is one of the most extreme sports. Mountaineering requires excellent physical and psychological preparation, as well as special skills. In

recent years, significant reforms have been implemented in our country regarding the development of sports, extreme sports, and recreation. Nevertheless, there are a number of directions that require modern requirements and support.

Based on the literature review there are some problems highlighted to develop extremal tourism in regions.

a.Lack of extremal activity tools and instructions

b.Lack of anti-danger signs and evacuation green road

c.Lack of medical services in remote areas

d.Lack of advertisement and promotional activities

In conclusion, Uzbekistan should not be limited to one branch of tourism and should be developed following the example of other countries in the world. In the first place, it is necessary to accelerate the flow of domestic tourists, to create favorable conditions for them, and to organize recreation areas and sanatoriums for residents on the mountain slopes. Currently, the majority of tourists visiting our country are over 50 years old. To attract young tourists to our country, it is necessary to further develop bi-sports and extreme tourism, eliminate shortcomings in this area, and create favorable conditions for them. In this place, it is necessary to pay attention to the issue of personnel training.

References

1. Xalilov, S. (2021). Milliy turizm tarmog'i raqobat ustunliklarini rivojlantirishda marketing innovatsiyalarining qo'llanilishi.

2. Sultonovich, S. S., & Kulshreshtha, S. (2019). The main directions of development of international tourism in Uzbekistan. International Journal of Tourism & Travel, 12.

3. Dostonbek, T. (2023). The industry of tourism and its contributions to economic and regional development in the Republic of Uzbekistan. World scientific research journal, 21(1), 63-74.

4. https://www.alliedmarketresearch.com/adventure-tourism-market

5. Djuraevna R. M. et al. Development Prospects for Digital Economy Development in Uzbekistan //Academic Journal of Digital Economics and Stability. – 2021. – С. 58-64

6. G'ulomxasanov E., Ruziyev B., Akramov S. Turizmda destinatsiya // Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 143-150.

ОСОБЕННОСТИ ГЕОТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

Студент Alfraganus University
Кодирова Мухлисахон
Руководитель: Кутлимуротов Файзулло Садуллаевич

Аннотатsiя: Геотуризм часть научного туризма. Одним из интеллектуальных путей интегратsiй наук о Земле с обществом видится геотуризм. Часто это направление относят к промышленному туризму. Благодаря своему удобному географическому и климатическому расположению Узбекистан имеет очень высокий потенциал для развития этого направления. Ландшафт территории Узбекистана формировался на протяжении 1 миллиарда лет, в течении этого огромного периода проходили различные космогенные и геологические процессы. Цель исследования заключается в изучении подходов к понятию геотуризм, его характеристики выявлении связи данного термина с понятием «устойчивый туризм».

Ключевые слова: геотуризм, флора и фауна, развития туризма в Узбекистане, природа.

Abstract: Geotourism is part of scientific tourism. One of the intellectual ways of integrating earth sciences with society is geotourism. Often this direction is attributed to industrial tourism. Due to its convenient geographical and climatic location, Uzbekistan has a very high potential for the development of this area. The landscape of the territory of Uzbekistan was formed over 1 billion years, during this huge period various cosmogenic and geological processes took place. The purpose of the study is to study approaches to the concept of geotourism, its characteristics to identify the connection of this term with the concept of "sustainable tourism."

Key words: geotourism, flora and fauna, tourism development in Uzbekistan, nature.

Annotatsiya: Geoturizm ilmiy turizmning bir qismi hisoblanadi. Yerga oid fanlarni integratsiyalashning intellektual yo‘llaridan biri

geoturizmdir. Ko‘pincha bu yo‘nalishni sanoat turizmiga ham yo‘naltirish mumkun. O‘zbekiston ushbu yo‘nalishni rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega. O‘zbekiston hududi landshafti 1 milliard yil davomida shakllanib, ushbu ulkan davr davomida turli kosmogen va geologik jarayonlar bo‘lib o‘tgan. Tadqiqotdan maqsad geoturizm tushunchasiga yondashuvlarni, uning tavsiflarini o‘rganishdan iborat.

Kalit so‘zlar: geoturizm, flora va fauna, O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish, tabiat.

Геотуризм – это туризм, связанный с геологическими достопримечательностями и направлениями. Геотуризм (туризм с геологической основой) имеет дело с абиотической природной и искусственной средой. Геотуризм был впервые определен в Англии Томасом Альфредом Хоузом в 1995 году. Геотуризм определяется как туризм, который поддерживает или усиливает отличительный географический характер места — его окружающую среду, наследие, эстетику, культуру и благополучие его жителей. В Узбекисатне много ресурсов для развития этой сферы туризма, так как в этой стране много геопарков которые многие не знают.

В 1995 году, за год до формирования концепции устойчивого туризм (1996 г.) Т.А. Хозе начинает писать о необходимости оценки, защиты и управления объектами и ландшафтами, которые имеют ценность с точки зрения геологического наследия и разнообразия. Так зарождается новое направление туризма – геотуризм. Его первоначальное определение (Hose, 1995, 1996) и связанный с ним подход были приняты и продвигались ЮНЕСКО в ее первоначальной документatsiи по геопарку.

Цель исследования: Цель исследования заключается в изучении и анализе подходов к понятию геотуризм, его характеристик и точек его соприкосновения с устойчивым туризмом. В связи с поставленной целью была охарактеризована эволюция термина «геотуризм» от геоконсерватsiи геосайтов до вида устойчивого туризма, определены причины, вызывающие изменения в понимании данного термина и усложнение его характеристик, а также выявлены связи данного термина с понятием «устойчивый туризм»

По мнению специалистов сферы, геотуризм к таким объектам Узбекистана, как Бештюбе, Аяз-Кала, Кокча, Плато Устюрт, Заамин,

Джизакская область Угам-Чаткальский natsiональный парк, Ташкентская область Китабский natsiональный геопарк, Кашкадарьинская область Горы Байсунтау, Сурхандарьинская область Нижне-Амударьинский биосферный заповедник, западный Тянь-Шань, Ташкентская область, Холодные пустыни Турана, Навоинская область, плотина Ханбанди, Джизакская обл., горы Канка, Ташкентская область, Сармишсай, Навоинская область и другие локatsii может стать интересным дополнением к культурно-историческим турам в Узбекистан. Нужно дополнить что многие из этих геопарков входят в список ЮНЕСКО.

В 2011 году ЮНЕСКО так же пересмотрела свое понимание термина геотуризм. Эта туристическая деятельность должна поддерживать и усиливать самобытность территории, учитывая ее геологию, окружающую среду, культуру, эстетику, наследие и благополучие ее жителей (Декларatsiя Арука, 2011). Данное определение не отражает специфику именно геотуризма. С таким же успехом его можно было бы отнести и к экологическому, и к устойчивому туризму. Для формирования понятийного аппарата геотуризма необходимо рассмотреть классификatsiю геотуризма, поскольку важно понимать, с какой целью туристы будут посещать геосайты и геоморфозиты, какой вид туристической деятельности будет находиться в основе главного и сопутствующего элементарного рекreatsionного занятия. Поскольку геотуризм ЮНЕСКО и его основоположником Т.А. Хозе позиционируется как вид устойчивого туризма, то соответственно любая туристическая деятельность должна быть направлена на поддержание равновесия и устойчивости. Согласно ЮНЕСКО, геопарки создавались как территории, которые продвигают охрану и использование геологического наследия на устойчивой основе, а также способствуют экономическому благосостоянию людей, которые там живут. Соответственно, в зависимости от целей совершения поездок в геотуризме целесообразно выделять:

1) геотуризм экологической направленности;

2) геотуризм познавательной направленности (изучение геологического наследия региона и морфо-литогенной основы ландшафта);

3) геотуризм научной направленности или академический;

4) геотуризм по интересам (коллекционирование минералов, окаменелостей и горных пород; изучение драгоценных и полудрагоценных камней и др.);

5) геотуризм деловой направленности (в рамках развития промышленного туризма по объектам добывающей отрасли с целью перенятия опыта patsионального использования ресурсов);

6) геотуризм спортивной направленности (спелеотуризм).

Заключение. В рамках исследования были рассмотрены теоретические аспекты геотуризма как устойчивого вида туризма и представлен перечень определений «геотуризм», применяемый как в учебной практике, так и в науке в Узбекистане и за рубежом. Но не смотря на сформированную теоретик методологическую основу теоретикам и практикам в области геотуризма предстоит приложить еще немало усилий, чтобы каждый из его видов учитывал в своей деятельности критерии устойчивости.

Вывод. Узбекистан развивающая страна по всех направлениях в том числе и по туризму. Третий ренессанс повод для развития геотуризма в Узбекистане так как наша страна имеет перспективы в направлении геотуризм.

Список литературы

:

1. Амонбоев М., Гимранова О. «Региональный туризм». Учебное пособие. - Т.: IQTISODIYOT, 2019. -199 стр.

2. Кусков А. С. Туристское ресурсоведение: учебное пособие для студентов высшее учебное заведение— Москва; Издательский центр «Академия» 2008 год. 208с.

3. Халилов С. Hatsиональная туристическая сеть: конкурентные преимущества и стратегия развития. Монография - Т.: Инноватsионное развитие, 2022. 212 с.

4. Safayeva S.R. Turizm va O‘zbekiston milliy merosi. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2017 yil, -155 b.

5. https://uzbekistan.travel/ru/v/geoturizm.

ЭКОТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТУРИСТИК МАҲСУЛОТЛАРНИ ФАОЛ ТАРҒИБ ҚИЛИШ УСУЛЛАРИ

Машарова Садина
Alfraganus университети TUR-22-1 гуруҳ талабаси
Илмий маслаҳатчи: **Юсупов Саидвали**
Alfraganus университети Халқаро туризм менежменти кафедраси доценти, PhD

Аннотатsiя: Ушбу тезисда экотуризмни ривожлантиришда туристик маҳсулотларни ҳаракатлантириш усуллари келтирилган бўлиб, унда экотуризм хизматларига талабни шакллантириш ва уни рағбатлантириш тизимининг таркибий қисмлари, экотуризмда маркетинг муҳитига таъсир этувчи омиллар ва бошқа масалалар ёритилган.

Калит сўзлар: Туристик маҳсулотлар, туристик корхоналар, экотуризм, экотуризм хизматлари, сайёҳлик фаолияти, сайёҳлик компанияси, потенциал истеъмолчилар, мақсадли истеъмолчилар, ҳудудий бозорлар, ахборот.

Аннотатsiя: В статье представлены методы продвижения туристского продукта в развитии экотуризма, освещены составляющие системы формирования спроса на экотуристские услуги и его продвижения, факторы, влияющие на маркетинговую среду в экотуризме и другие вопросы.

Ключевые слова: Туристский продукт, туристские предприятия, экотуризм, экотуристские услуги, туристическая деятельность, туристическая компания, потенциальные потребители, целевые потребители, региональные рынки, информатsiя.

Abstract: This article presents the methods of promoting tourist products in the development of ecotourism, the components of the system of formation of demand for ecotourism services and its promotion, factors affecting the marketing environment in ecotourism and other issues are covered.

Keywords: Tourist products, tourist enterprises, ecotourism, ecotourism services, tourism activity, tourism company, potential consumers, target consumers, regional markets, information.

Бугунги кунда экотуризмни ривожлантиришда туристик маҳсулотларни ҳаракатлантириш масалаларини ўрганиш ва ҳаётга татбиқ этиш алоҳида аҳамият касб этади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 31 майдаги «Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳасини трансформatsiя қилиш ва ваколатли давлат органи фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-81-сон Фармонида айнан экотуризмни ривожлантириш билан боғлиқ вазифалар ҳам белгилаб берилган [1].

Сайёҳлик фаолиятини тижоратлаштириш нуқтаи назаридан, кўплаб сайёҳлик операторлари ва сайёҳлик компанияларининг пайдо бўлиши, сайёҳлик бозорининг сезиларли ўсиши ва унинг субъектлари ўртасида рақобатнинг кучайиши, сайёҳлик корхонасининг даромадларини максимал даражада кўпайтиришга қаратилган сайёҳлик маҳсулотини фаол равишда илгари суриш зарур.

Экотуризм хизматларини бозорга ҳаракатлантириш тизими, туристик маҳсулотларга бўлган талабни таъминлаш мақсадида, компания томонидан ахборот, ишонч ҳосил қилиш ёки эслатиш учун ишлатиладиган тадбирлар ва ҳаракатлар мажмуини англатади (1-расм).

Экотуризм хизматларига талабни шакллантириш ва уни рағбатлантириш тизимининг рақобатбардошлигини таъминлашда маркетинг муҳитига таъсир кўрсатувчи омиллар алоҳида аҳамият касб этади (2-расм). Аслида, ҳаракатлантиришнинг асосий мақсади экотуристик маҳсулотларни жорий этишни таъминлайдиган шарт-шароитларни яратишдан иборат бўлиб, у қуйидагиларга асосланган:



1-расм. Экотуризм хизматларига талабни шакллантириш ва уни рағбатлантириш тизимининг таркибий қисмлари[3]

- потенциал истеъмолчиларнинг илгари сурилган туристик маҳсулотга бўлган қизиқишини ошириш;

- потенциал истеъмолчиларни сайёҳлик маҳсулотини сотиб олиш бўйича амалга оширадиган ҳаракатларини рағбатлантириш тизимини шакллантириш.

Шу боисдан ҳам, туристик маҳсулотни илгари суриш, ўзига хос бошқарув вазифаларини бажарилишини таъминлаши керак:

1. Бозорга киритилаётган янги туристик маҳсулотлар тўғрисида истеъмолчилар ва бошқа манфаатдор шахсларни хабардор қилиш.

2. Ахборотларни тарқатиш ва истеъмолчилар ҳамда бошқа манфаатдор томонларни таклиф этилаётган туризм маҳсулотлари тўғрисида хабардорлигини ошириш.

3. Тавсия этилаётган туризм маҳсулотларини сотиш ҳажмини ошириш ва рағбатлантириш.

4. Сайёҳлик компаниясининг ўз имижини яратиши ва сақлаб туриши.

5. Туризм маҳсулотларини биргаликда илгари суриш, сайёҳлик учун жозибадор минтақани яратиш ва қўллаб-қувватлаш, сайёҳлик манфаатларини илгари суриш мақсадида савдо тармоғи иштирокчилари ва бошқа манфаатдор томонлар (давлат органлари ва ташкилотлар, жамоат бирлашмалари, сайёҳлик компаниялари ва бошқалар)нинг саъйи-ҳаракатларини мувофиқлаштириш.

[3] Муаллиф тадқиқотлари асосида ишлаб чиқилган.



2-расм. Экотуризмда маркетинг муҳитига таъсир этувчи омиллар[4]

Туристик маҳсулотни илгари суриш бўйича тадбирлар нафақат охирги фойдаланувчиларга, балки сайёҳлик хизматларини (туроператорлар), воситачиларни (саёҳат агентлари), ишлаб чиқарувчидан потенциал истеъмолчига туристик маҳсулотни олиб борувчи тарқатиш тармоғининг бошқа аъзоларига, шунингдек, туристик маҳсулотни сотиб олиш қарорига таъсир кўрсатадиган янги аудиторияларга қаратилган бўлади ва бунда барча иштирокчиларнинг маркетинг коммуникatsiялари тизими самарадорлигига алоҳида эътибор берилиши керак.

[4] Муаллиф тадқиқотлари асосида ишлаб чиқилган.

Туристик корхоналар турли турдаги туристик маҳсулотларни илгари суришни амалга оширадилар. Энг катталари, одатда, туристик маҳсулотларни илгари суриш, бошқалари эса сайёҳлик маҳсулотини илгари суриш учун масъул бўлган битта мутахассиси бўлган турли хил маркетинг функцияларини амалга оширадиган ходимлар таркибида ихтисослашган тузилмавий бўлинмаларга эга. Кичик бизнес субъектлари таркибида, лавозимга ўтказиш функцияси ходимларнинг бир вақтнинг ўзида бир нечта бошқарув функцияларини бажариши туфайли расмий равишда акс эттирилмайди. Ўз навбатида, реклама топшириқларини туризм корхонаси ўз-ўзидан ёки мустақил равишда амалга ошириши мумкин, ёки корхона факторинг орқали реклама қилишни бошқариши мумкин. Мавжуд вариантлардан бирини танлаш қуйидаги омиллар билан белгиланади:

- ҳудудий бозорларга киришнинг бевосита каналлари мавжудлиги;

- реклама нархи;

-туристик маҳсулотни, шунингдек зарурий малакага эга мутахассисларни тарғиб қилиш тажрибаси;

- туристик маҳсулотнинг хусусиятларини билиш;

- махфийлик.

Туризм маҳсулотини рағбатлантиришнинг самарали стратегиясини ишлаб чиқиш сайёҳлик компанияси томонидан қабул қилинган умумий маркетинг стратегияси асосида амалга оширилади. Туристик сайёҳлик йўналишларини шакллантиришни ўз ичига олувчи экологик сайёҳлик маҳсулотини рағбатлантиришнинг ўзига хос хусусияти унинг мақсадли тарғиботига муҳтож бўлиб, бу сайёҳлик бозорининг ошкоралигини ва унинг ривожланишининг прогноз қилинишини таъминлайди.

Ташкилий жиҳатдан сайёҳлик маҳсулотини илгари суриш учун самарали тизимни яратиш жараёни қуйидагиларни ўз ичига олади [2].

1.Туристик маҳсулотарни сотиш бозорини ўрганиш. Туристик фирма бозорнинг ёки унинг сегментининг ривожланганлик хусусиятларига эга бўлиши керак, яъни унинг ҳудудий чегаралари, салоҳияти, индивидуал туризм маҳсулотлари учун потенциал савдо ҳажмини баҳолаш, истеъмол талабининг тури, рақобат интенсивлиги, нарх тенденциялари, муайян маркетинг ишларига истеъмолчиларнинг эътибори, энг самарали оммавий ахборот воситалари, бу ҳудудда

фаолият юритиш ва ҳ.к. Бозорнинг ҳозирги ҳолатини, мақсадли истеъмолчиларни, мақсадли сегментнинг талаблари ва имкониятларини, рақобатчиларнинг ниятларини билмасдан туриб, бозорга экотуризм хизматларини ҳаракатлантириш мумкин эмас. Бозорнинг ривожланишидаги тенденцияларни аниқламасдан туриб, бозор жараёнларини тартибга солиниши ва унга туристик фирма фаолиятининг мослашиши қийин.

2.Мақсадли истеъмолчиларни яратиш ва тадқиқ қилиш. Потенциал истеъмолчилар ва истеъмолчилар гуруҳларини экотуризм хизматларига бўлган талабларини тўлиқ таъминлаш нуқтаи назаридан, туристик маҳсулотни илгари суриш учун истиқболли турлар аниқланади. Ушбу босқичда олиб бориладиган изланишлар демографик, ижтимоий-иқтисодий ва психологик хусусиятларни (турмуш тарзи, қарашлар, фикр-мулоҳазалар, ниятлар, мотивлар, хулқ-атвор) бирлаштирадиган мақсадли аудиториялар ҳақида дастлабки маълумотларни тўплашга қаратилган. Тадқиқот натижалари экотуризм хизматларини бозорларга ҳаракатлантириш учун энг самарали усул ва воситаларни яратиш, реклама воситаларини танлаш, хабарларнинг мазмуни ва бошқаларни яратиш жараёнига кўпроқ объектив ёндошиш имконини беради.

3.Туристик маҳсулотни таҳлили ва унинг рақобатбардошлигини баҳолаш. Ушбу босқичда сайёҳлик маҳсулотининг сифати, иқтисодий ва истеъмолчи хусусиятларини таҳлил қилиш, унинг янгиланиши, ўзига хос хусусиятлари, афзалликлари ва рақобатбардош устунликларини баҳолаш амалга оширилади. Таҳлил натижалари бизга туристик маҳсулотнинг истеъмолчилар эътиборини жалб қилиш имкон берадиган ўзига хос хусусиятларини аниқлашга, шунингдек, унинг яхшиланиши ва кўрсатилаётган хизматлар сифатини яхшилаш бўйича чора-тадбирлар режасини ишлаб чиқишга имкон беради.

4. Сотув тармоғи иштирокчилари туристик маҳсулотлар сотувини амалга оширишга бевосита ёки билвосита таъсир кўрсатадиган шахслар, давлат органлари, жамоат ташкилотлари билан алоқларни ўрнатиш ва таҳлил қилиш алоҳида аҳамият касб этади. Таҳлил натижалари сайёҳлик маҳсулотларини биргаликда илгари суришни ташкил этиш, уларнинг турли даражадаги ҳаракатлари (туризм сектори бўйича уюшмалар ва жамоат ташкилотлари, алоҳида сайёҳлик компаниялари)ни бирлаштириш ва мувофиқлаштириш учун

асосий иштирокчиларни ташкил этишга имкон беради. Қўшма ташвиқот ҳукумат томонидан қўллаб-қувватланади, туризм учун минтақанинг жозибадор образини яратиш, қўшимча молиявий ресурсларни жалб қилиш, рағбатлантириш учун қўлланиладиган усуллар ва воситалар кўламини кенгайтириш, жавобгарлик чегараларини белгилаш, амалга оширилаётган реклама тизимини қамраб олиш ва кучини ошириш имконини беради [3].

5. Истеъмолчиларнинг ва бошқа манфаатдор томонларнинг муайян эътиборига эришишни таъминлайдиган ҳаракатлантириш мақсадини белгилаш. Мақсадлар аниқ шакллантирилиши, етарлича тўлиқ бўлиши, уларни ўлчаш ва уларнинг эришиш даражасини баҳолаш имконияти бўлиши керак. Мақсадларнинг характери танлов турини, усулларини, реклама каналларини ва бошқаларни танлашни белгилайди.

6. Ривожланиш усуллари, воситалари ва каналларини яратиш. Қабул қилинган қарорлар туристик маҳсулот турини, мақсадли бозор хусусиятларини, воситачилар, етказиб берувчилар ва бошқа манфаатдор томонларни қўллаб-қувватлаш каби омилларга таъсир қилади. Реклама тарғиботи усулини танлашда реклама мурожаатлари ишлаб чиқилади. Реклама усулларидан фойдаланилмаганда, сайёҳлик маҳсулотини ҳаракатлантиришнинг бошқа бир дастакларини танлаш орқали амалга оширилади.

7.Тақдимот режасини ишлаб чиқиш. Сайёҳлик маҳсулотларини реклама қилиш дастури доирасида амалга оширилаётган аниқ тадбирларни ишлаб чиқиш, масъул шахсларни ва ижрочиларни белгилаш, тадбирларни ўтказиш муддатини, тарғиб қилиш муддатини ва интенсивлигини таъминлаш тушунилади.

8.Тараққиёт бюджетининг шаклланиши. Умумий бюджет тарғиб қилиш усуллари, бозор сегментлари, экотуризм хизматларининг турлари, сотилиш муддатлари билан тақсимланади.

9.Ривожланиш дастурини амалга ошириш. Ушбу босқичда эришилган натижалар мониторинг қилинади, аниқланган четланишлар, компания ташқи ва ички муҳитидаги ўзгаришлар ҳисобга олинади.

10.Сайёҳлик маҳсулотларини реклама қилиш дастурининг самарадорлигини баҳолаш. Туристик маҳсулотни сотиш ҳажмининг

ўзгариши натижасида алоқалар самараси ва иқтисодий самарадорлиги баҳоланади [3].

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, тақдимот дастури танланган реклама услублари орқали белгиланган мақсадга мувофиқлигини таъминлайди. Сайёҳлик маҳсулотини илгари суриш тизимида реклама ва ҳаракатлантиришнинг бошқа услубларини қўшиб олиб бориш мақсадга мувофиқдир.

Адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 31.05.2023 йилдаги қарори, ПҚ-171-сон.

2. Сафарова Н.Н., Туризм ривожланишининг илмий-назарий асослари. /Монография/ - Тошкент: "IFMR" нашриёти, - 2017. 220 бет.

3. Туристик ҳудуд рақобатбардошлиги. Б.Н.Навруззода таҳрири остида. "Дурдона" нашриёти. Бухоро, – 2017. 156 бет.

TARIXIY-MADANIY TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUVNI SHAKLLANTIRISH

Ruziqulova Maxliyo G'ayrat qizi –
Alfraganus Universiteti Turizm
mutaxasisligi 2-kurs magistranti.
Ilmiy maslahatchi:
Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li –
Alfraganus Universiteti dotsenti,
iqtisodiyot fanlari doktori.

Annotatsiya. Ushbu ilmiy ish tarixiy-madaniy turizm sohasini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning zarurati va ahamiyatini yoritadi. Innovatsiyalar turizm sohasida raqobatbardoshlikni oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va madaniy merosni asrab-avaylashda katta rol o'ynaydi. Raqamli texnologiyalar, virtual va kengaytirilgan haqiqat kabi innovatsiyalar turistlarga yangi tajribalar taqdim etish orqali ularning qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Misollar orqali innovatsion yondashuvlarning samaradorligi namoyish etilgan.

Kalit so‘zlar: tarixiy-madaniy turizm, innovatsion yondashuv, raqamli texnologiyalar, virtual haqiqat, kengaytirilgan haqiqat, madaniy meros.

Abstract. This research highlights the necessity and importance of innovative approaches in the development of cultural and historical tourism. Innovations play a crucial role in enhancing competitiveness, improving service quality, and preserving cultural heritage. Digital technologies, such as virtual and augmented reality, provide tourists with new experiences, increasing their interest in cultural tourism. Examples are provided to demonstrate the effectiveness of these innovative approaches.

Keywords: cultural tourism, innovative approaches, digital technologies, virtual reality, augmented reality, cultural heritage.

Аннотатsія. Жаҳонда корпоратив ижтимоий масъулиятнинг иқтисодиётга татбиқ қилиниши, компания ва истеъмолчилар нуқтаи назаридан корпоратив ижтимоий масъулиятнинг аҳамияти ҳис қилиниши, компания имижи ва ушбу муносабатлардаги иштирокчилар хатти-ҳаракатлари сингари муаммоларга муҳим илмий-амалий аҳамият касб этувчи тадқиқот йўналиши сифатида тобора кўпроқ эътибор қаратилмоқда.

Калит сўзлар: корпоратив ижтимоий масъулият, модел, долзарблиги, Ўзбекистон, ёшлар.

Abstract. In the world, more and more attention is paid to problems such as the application of corporate social responsibility to the economy, the perception of the importance of corporate social responsibility from the point of view of the company and consumers, the image of the company and the behavior of participants in this relationship, as a research direction of significant scientific and practical importance.

Key words: corporate social responsibility, model, relevance, Uzbekistan, youth.

Абстракт. В мире все больше внимания уделяется таким проблемам, как применение корпоративной социальной ответственности в экономике, восприятие важности корпоративной социальной ответственности с точки зрения компании и потребителей, имидж компании и поведение участников этих отношений, как направление исследований, имеющее важное научное и практическое

значение.

Ключевые слова: корпоративная социальная ответственность, модель, актуальность, Узбекистан, молодежь.


Мазкур илмий тадқиқотларда корпоратив ижтимоий масъулият стратегияларининг компаниялар учун қандай афзалликлар яратиши, шу жумладан бренд садоқати, истеъмолчилар ишончи ва узоқ муддатли барқарор ривожланишни таъминлашдаги ўрни ва роли чуқур тадқиқ этилмоқда. Айниқса, ривожланаётган бозорларда барқарор бизнес амалиётлари ва ижтимоий масъулиятнинг иқтисодий тараққиётга таъсири долзарб тадқиқот йўналишлари сифатида эътироф этилмоқда. Ҳозирги кунда жаҳонннинг етакчи илмий марказларининг илмий изланишларида корпоратив ижтимоий масъулиятнинг нафақат иқтисодий самарадорлигини ошириш, балки ижтимоий адолат ва экологик барқарорликка эришишдаги муҳим аҳамияти ҳам кенг кўламда ёритилмоқда.

Ўзбекистонда корпоратив ижтимоий масъулиятни тадқиқ этиш, хусусан, йирик корхоналар бошқарувини жаҳон моделларига мослаштириш бўйича тадқиқотлар ўтказиш жуда муҳим ҳисобланиб, унда халқаро инвеститсияларни жалб этишда корпоратив ижтимоий масъулиятнинг роли алоҳида ўрин тутади. Шу билан бирга, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-йил 2-декабрдаги ПҚ-436-сонли қарори билан тасдиқланган “Яшил ривожланиш” дастури ва Ўзбекистон Республикаси Президенти Мурожаатномасида таъкидланган вазифаларда жамиятимизда мавжуд ижтимоий-иқтисодий муаммоларни бартараф этишга кўмаклашувчи корпоратив ижтимоий масъулият амалиётини жорий этиш вазифалар белгилаб берилган.

Мазкур вазифаларни бажариш жараёнида корпоратив ижтимоий масъулиятнинг ижтимоий ва экологик масалаларга таъсири, маҳаллий ва халқаро моделларга мослаштириш ҳамда корхоналар ва жамият ўртасидаги муносабатларни мустаҳкамлаш бўйича кенг кўламли тадқиқотлар олиб борилишини тақозо қилмоқда. Бу йўналишдаги илмий тадқиқотлар нафақат корпоратив ижтимоий масъулият амалиётларининг иқтисодий самарадорлигини ошириш, балки ижтимоий адолат ва экологик барқарорликка эришишга кўмаклашади.

Ҳозирги кунда халқаро амалиётда “корпоратив ижтимоий масъулият” (КИМ) тушунчасининг ягона таърифи мавжуд эмас. Бу атама ташкилотлар ўз фаолиятининг ходимларга, актсиядорларга, пудратчиларга, маҳаллий ҳамжамиятларга ва атроф-муҳитга таъсири учун жамият манфаатларини ҳисобга олган ҳолда жавобгар бўлиш деган тушунчани англатади.

Жамиятда КИМнинг назарий ривожланиши корпоратив ижтимоий масъулиятнинг тор йўналишдаги фойдани максимал даражада оширишдан ижтимоий, иқтисодий ва экологик фаровонликни ўз ичига олган кенгроқ, қамраб олувчи тушунчага эволютсиясини таъкидлайди. Дастлаб Милтон Фридман томонидан корпоратив эгоизм назарияси сифатида консепсияланган бўлиб, қонуний чегаралар ичида фойда олишни таъкидлаган, КИМ назарияси кейинчалик кенгайди. АҚШ Иқтисодий ривожланиш қўмитаси томонидан ишлаб чиқилган алтруистик корпоратив ижтимоий масъулият назарияси шунчаки фойда олишдан ташқари жамият фаровонлигини оширишда бизнеснинг фаол ролини қўллаб-қувватлайди. Шу билан бирга, оқилона эгоизм назарияси мувозанатли нуқтаи назарни тақдим этади, бунда корхоналар қулай ижтимоий муҳитни яратиш орқали узоқ муддатли фойда олишни кутган ҳолда ижтимоий дастурларга сармоя киритади.




1-расм. Корпоратив ижтимоий масъулият билан боғлиқ назарияларнинг эволюцияси[7]

КИМ назариясининг кейинги ривожланиши Кероллнинг КИМ пирамидасини тақдим этган, у бизнеснинг фойда олиш билан бир қаторда кўп қиррали масъулиятини, жумладан, ахлоқий хатти-ҳаракатлар ва хайрияни қўйишни таърифлайди. Кейин учта асосий консепсия ушбу истиқболни кенгайтириб, корхоналарнинг яхлит бизнес операцияларини учун ижтимоий, иқтисодий ва экологик ўлчовлар бўйича ўз таъсири ва самарадорлигини баҳолашга чақирган.

[7] Расмда келтирилган назариялар асосида муаллиф томонидан тузилган

Манфаатдор томонлар назарияси ҳамма манфаатдор томонлар эҳтиёжларини эътиборга олиш, инклюзивлик, тенглик ва ижтимоий манфаатларни рағбатлантириш орқали КИМ кўламини янада кенгайтирди.



2-расм. КИМнинг асосий тушунчалари[8]

Бу назарий ишланмалар корхоналарнинг жамият тараққиётида муҳим рол ўйнаши ва КИМга яхлит ёндашувни қабул қилиш муҳимлигини тан олишга ўтишни таъкидлайди. Мазкур эволютсия КИМнинг мураккаб табиати, унинг бизнес ва жамият учун эҳтимолий фойдаларни ўрганиш зарурати тобора ортиб бораётган эътирофини акс эттиради.

Жамият ва бизнес учун КИМнинг фойдалари. Корпоратив ижтимоий масъулиятнинг жамиятга таъсирини ўрганиш анъанавий бизнес соҳасидан анча ташқарига чиққан кўп қиррали таъсирни ёритиб беради. КИМ ташаббуслари атроф-муҳит муаммоларини ҳал қилиш ва ижтимоий фаровонликни рағбатлантириш, ижобий иқтисодий ўсиш ва жамият фаровонлигига ҳисса қўшиш орқали иқтисодий ривожланишга ёрдам беришини кўрсатди. Ривожланаётган ҳудудларда ҳал қилувчи аҳамиятга эга таълим соҳасидаги ютуқлар КИМ саъй-ҳаракатларининг яна бир фойдаси бўлиб, компаниялар инсон капиталини яратиш ва таълим инфратузилмасини яхшилашга кўпроқ сармоя киритмоқда.

Атроф-муҳитни муҳофаза қилиш КИМ эътиборининг асосий йўналиши сифатида намоён бўлади, бунда корхоналар ўз экологик изларини камайтириш ва барқарор амалиётларни ривожлантириш учун масъулиятни ўз зиммасига олади. КИМ сиёсати доирасида тўғри меҳнат шароитлари ва бандлик моделларига эътибор меҳнат ҳуқуқлари ва меҳнат шароитларини яхшилашга олиб келган ва ахлоқий бизнес амалиётлари учун намуна бўлган. Бундан ташқари,

[8]Жадвалда келтирилган назариялар асосида муаллиф томонидан тузилган

КИМ жамоаларда ижтимоий масъулият маданиятини ривожлантиради, жамият ишончини оширади ва коррупсияни камайтиради. Бу саъй-ҳаракатларнинг якуни яхшиланган инвеститсия муҳити ва кенг экспорт имкониятларида кўринади, чунки ижтимоий масъулиятли корхоналар кўпроқ инвесторларни жалб қилади ва жаҳон бозорларида тан олинади.

Хулоса. Юқоридаги берилган маълумотлар асосида қуйидаги хулосага келишимиз мумкин:

Корпоратив ижтимоий масъулият фақат хайрия фаолияти эмас, балки стратегик восита ҳамдир, бу асосий бизнес operatsiяларига интегratsiялашса, компаниянинг узоқ муддатли муваффақиятига ҳисса қўшади.

КИМнинг мавжуд фойдаларга қарамай, компанияларда уни амалга оширишда, жумладан харажатлар, хабардорлик етишмаслиги ва КИМ фаолиятининг таъсирини баҳолашдаги қийинчиликларга дуч келинади.

Истеъмолчилар КИМ ҳақида билимга эга бўлиш ва истеъмолчи хатти-ҳаракатлари ўртасидаги муносабатларни КИМга нисбатан истеъмолчи афзалликлари воситачилик қилади.

Бу истеъмолчилар хатти-ҳаракатининг назарий моделларида мураккаб йўлни кўрсатиб, КИМ ҳақида хабардорликни аниқ истеъмолчи ҳаракатларига айлантиришда афзалликларнинг муҳим воситачи қадам сифатида ҳаракат қилишини таъкидлайди.

МОНИТОРИНГ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

и.ф.н., доцент
УСМАНОВА РАНО МИРЖАЛИЛОВНА
Alfraganus университети
rano.usmanova25@gmail.com
phone: +998 97 775 27 65
ORCID ID: 0009-0008-7594-7983

к.э.н., доцент

Аннотатsiя: Мақолада таълим сифатини самарали бошқариш йўллари кўриб чиқилган бўлиб, бу функцияни мониторинг амалга оширади. Мониторинг олий таълим муассасасида илмий-таълимий фаолиятдаги ўзгаришларни узлуксиз илмий асосланган кузатиш жараёни бўлиб, кузатув натижаларини муассасани бошқаришга қўшиш мақсадида амалга оширилади.

Аннотатsiя: В статье рассматривается пути эффективного управления качеством образования, функцию которого выполняет мониторинг. Под мониторингом понимается процесс непрерывного научно обоснованного отслеживания изменений в научно-образовательной деятельности вуза с целью включения результатов наблюдений в управление вузом.

Abstract: The article examines effective ways of managing education quality, a function fulfilled through monitoring. Monitoring is understood as a continuous, scientifically grounded process of tracking changes in the scientific and educational activities of a university, aimed at integrating the results of observations into university management.

Ключевые слова: высшее образование, качество образования, рынок труда, спрос на образования, предложение образования, мониторинг.

Калит сўзлар: олий таълим, таълим сифати, меҳнат бозори, таълимга талаб, таълим таклифи, мониторинг.

Keywords: higher education, quality of education, labor market, demand for education, supply of education, monitoring.

Адабиётлар шархи.

Таҳлиллар шуни кўрсатадики, мамлакатимизда таълим соҳасининг иқтисодий жиҳатларини тадқиқ қилиш XX асрнинг 90-йиллари ўрталаридан бошланган. Унгача бўлган даврда Э.Ғ.Набиев хизмат кўрсатиш соҳасининг такрор ишлаб чиқариш жараёнидаги ўрни билан боғлиқ муаммоларни таҳлил этишда инсон капитали ва унинг жамғарилиши билан боғлиқ жиҳатларни тадқиқ этган[9].

С.С.Ғуломов ўз китобида мустақиллик йилларида таълим хизматлари бозорининг асосий субъекти бўлган олий таълим тизими ривожланишининг ўзига хос хусусиятларини ёритиб берган. Унинг фикрича, «Таълим шунчаки жамият ҳаётининг томонларидан биригина эмас, балки умуман жамиятни ривожланишнинг етакчи тизимини ҳосил қилувчи омил бўлмоқда»[10].

М.Х.Саидов эса олий таълимни инвестициялаш, бошқариш ва унинг маркетинги бўйича тадқиқотлар олиб борган[11].

Методология.

Тадкикот ишида кузатиш, умумлаштириш, омилли ва динамик таккослаш, мантикий тахлил усулларидан фойдаланилган

Современный этап развитие системы образования в Узбекистане является важным фактором процветания республики, устойчивого роста экономики, обеспечения занятости населения. Какие бы реформы ни предпринимались в республике, они все направлены во благо человека, на формирование прогрессивного общественного сознания, на воспитание гармонично развитого поколения. Особо пристальное внимание уделяется на сферу подготовки кадров, осуществляя постоянную заботу и поддержку сферы образования, воспитания гармонично развитого поколения. Именно это является условием и гарантией формирования нового общественного сознания, дальнейшего улучшения социально политического климата в стране, прогресса и процветания Узбекистана, его достойного места в международном сообществе.

---

3 Набиев Э. Сфера услуг в национальном воспроизводстве: Автореферат. дис.док.экон.наук. – Ташкент: ТашГУ, 1994. - С. 36.

[10] Гулямов С.С. Образование в Узбекистане, день сегодняшний- М.: Алма-матер, 2006,С.20-21

[11] Саидов М.Х. Экономика, инвестиции и маркетинг высшего образования. – Т.: Молия, 2002- 332 с.

В условиях постоянных происходящих реформ, высшие учебные заведения республики особое внимание уделяют особое внимание эффективности проведения мониторинга, в целях улучшения качества образования, причиной которого является высокая степень конкуренции на рынке образовательных услуг.

Необходимость, оценки качества высшего образования, в высших учебных заведений как процесс, появился из-за роста количества высших учебных заведений и высокого спроса со стороны населения, то есть «массовость высшего образования». Хотелось бы отметить, что одним из преимуществ высшего учебного заведения является его уровень конкурентоспособности, который определяется, критериями оценок мониторинга.

В процедуру мониторинга вовлечены все участники процесса:

1-административно-управленческие работники,

2-научно-педагогические работники,

3-обучающиеся.

Просмотрим содержание аккредитatsionного мониторинга в системе оценки качества образования, в частности рассмотрим ряд показателей:

1-средний балл тестовых экзаменов обучающихся;

2-наличие электронной информatsionной– образовательной среды;

3-доля обучающихся, успешно завершивших обучение по образовательной программе высшего образования, от общей численности обучающихся, поступивших на обучение по соответствующей образовательной программе высшего образования;

3-доля выпускников, выполнивших обязательства по договорам о целевом обучении по соответствующим направлениям подготовки/специальностям высшего образования, от общего количества выпускников обучавшихся по договорам о целевом обучении;

5-доля научно-педагогических работников имеющих ученую степень и (или) ученое звание, награды, международные почетные звания или премии, в том числе полученные в иностранном государстве и признанные в республике;

6-доля работников из числа руководителей и работников организatsiй. Обозначенные показатели применяют при проведении

аккредитатsiи основной образовательной программы высшего образования, реализуемой в высших учебных заведениях.

Целью проводимых мониторингов, является анализ деятельности вузов и выявление неэффективных вузов и их реорганизатsiи.

Объектами мониторинга выступают следующие характеристики, это есть:

-доступность,

-открытость,

-конкурентоспособность,

-эффективность высшего образования.

Однако в конечном счете все эти характеристики (доступность, конкурентоспособность, эффективность) являются лишь характеристиками качества, и вызванные ими социальные эффекты, являются индикаторами мониторинга, которые напрямую воздействуют на качество образования, на социальный статус индивида, на формирование общества государства.

По требованию времени -домохозяйства, работодатели, органы государственного управления заинтересованы в наличии системы измерителей качества образования. В целях создания системы контроля качества существует система мониторинга, которая показывает эффективность государственных и частных высших учебных заведений. Целью мониторинга качества высшего образования можно считать своевременное выявление специфики качественных и количественных изменений в степени удовлетворенности рынка труда, государства, общества и отдельной личности процессами и результатами образования.

1.Выпускники высшего учебного заведения не соответствует требованиям рынка труда.

2.Неучастие работодателей в разработке образовательных программ, так как работодатели они не проявляют интерес ко взаимодействию с вузом в данном направлении, и воспринимают эту работу за дополнительную нагрузку, не дающую должного эффекта.

3.Практическая реализатsiя реформ в сфере образования в большинстве случаев встречает два препятствия – недостаток информатsiи о существующих проблемах и отсутствие механизмов их решения.

Группа аккредитatsionных критериев и показателей

Анализ учебных планов и программ	Соответствие учебных планов
Анализ профессорско-преподавательского состава	1-Доля профессорско-преподавательского состава с ученой степенью кандидата и доктора наук, доля штатных профессорско-преподавательского состава 2-Научная активность 3-Методическая активность 4-Повышение квалификатsiи
Материально-техническое обеспечение учебных программ	1-Обеспеченность помещениями 2-Обеспеченность лабораториями, спец. аудиториями 3-Обеспечение расходными материалами
Электронно-информатsионное обеспечение учебного процесса	1-Книгообеспеченность 2-Обеспечение дисциплин электронными ресурсами 3-Наличие лицензионного ПО, доступ в Интернет
Научно-исследовательская работа профессорско-преподавательского состава	1-Научные школы 2-Научные программы 3-Научные гранты и хоздоговорные темы
Анализ студентов (формализованная оценка знаний)	1-Успеваемость студентов 2-Процент отсева студентов за весь срок обучения
Научная работа студентов	1-Студенческие публикатsiи 2-Студенческие научные гранты
Организатsiя системы контроля знаний	1-Формы контроля текущей успеваемости

	2-Наличие балльно-рейтинговой системы
Востребованность выпускников	1- Трудоустройство студентов
Фактическое трудоустройство выпускников	
Средняя зарплата профессорско-преподавательского состава	
Удовлетворенность учащихся условиями и результатами программы обучения	

Ещё одним фактором характеризующим качество образования являются -будущие возможные доходы выпускников, то есть, их заработная плата является важнейшей характеристикой для выпускника на рынке труда, так как в ней заложена оценка специалиста работодателями с точки зрения его производительности, наличия у него определенных компетенций и способностей, качества полученного им образования и размеров накопленного человеческого капитала. Так же существуют и ряд других характеристик, которые могут повлиять на будущие доходы выпускников, перечислим их, это:

1-Элитарность вуза, востребованность выбранной специальности, успеваемость—эти характеристики полученного образования определяют качество выпускника. Элитные вузы располагают квалифицированными преподавателями, благоприятной учебной атмосферой, разнообразной библиографией, хорошо оснащенными лабораториями. Еще одним фактором, влияющим на заработную плату выпускников, является востребованность выбранной специальности. Выпускники востребованных либо дефицитных специальностей получают более высокую заработную плату по сравнению с другими специалистами вследствие действия законов спроса и предложения на рынке труда.

2-Фактором, ограничивающим эффективность измерения качества образования есть -семейный капитал. Под семейным капиталом принято понимать совокупность финансового, социального,

культурного и человеческого капитала семьи. В качестве показателей для измерения семейного капитала могут использоваться: доход семьи, образование родителей, профессия родителей, тип семьи (полная/неполная), размер семьи, количество детей, количество книг в домашней библиотеке и т.д. Например, семьи с высоким доходом имеют возможность инвестировать значительные средства в образование детей; могут субсидировать процесс поиска работы, в результате у выпускника появляется дополнительное время для выбора места; имея связи, могут способствовать устройству детей на высокооплачиваемую и престижную работу; могут предоставить детям семейные финансовые средства, которые те могут инвестировать в собственный бизнес.

3-К социально-демографическим характеристикам, влияющим на уровень заработной платы, исследователи относят: • пол; • возраст (в том числе возраст окончания вуза); • семейное положение; • этническую/расовую принадлежность; • наличие детей.

Основными критериями оценки качества образования были разработаны дополнительные показатели:

1-образовательная деятельность,

2-научно-исследовательская деятельность,

3-международная деятельность,

4- финансово-экономическая деятельность,

5-инфраструктура.

6-положение выпускников на рынке труда (профиль деятельности, уровень дохода и занятость);

7-informatsiя об учреждениях высшего образования (управление, инфраструктура, финансовые показатели);

8-данные о профессорском составе и исследовательской деятельности вузов (количественные показатели, сведения о профессиональной квалификatsii, исследовательские проекты);

9- сведения об учащихся (социально-экономические характеристики);

10- informatsiя об образовательных программах (направления подготовки, местоположение, численность учащихся, плата за обучение, мобильность учащихся и преподавательского состава).

Ценности образования формируются вместе с изменением общества, формирования современной личности, прогрессивных

общественных отношений создают новые социальные ценности. Вузы готовят кадры для реального сектора экономики, значит и работодатель заинтересован получить работника, адаптивного к реалиям происходящим в natsiональной экономике.

Смысл мониторинга заключается в том, чтобы систематизировать разрозненную информatsiю, получить конкретную картину изменений, происходящих в деятельности вуза в определенный момент времени, и на основе полученных данных предвидеть возможные пути, направленные на поддержку и развитие положительных изменений и на торможение нежелательных. Результаты, полученные на различных уровнях мониторинга, анализируются и служат основой для принятия управленческих решений, связанных с изменением содержания учебного процесса и его оснащения.

Из выше сказанного следует, что мониторинг качества образования – это процесс отслеживания состояния качества образовательного процесса в любой момент времени, объективная оценка результативности которого является функцией «обратной связи», позволяющей оперативно реагировать на сложившийся образовательный процесс в вузе и управлять им.

Список используемой литературы

1. Монография. Таълим хизматлари бозорида иқтисодий муносабатларни такомиллаштириш. Р.М.Усманова, А.Қодиров, А.М.Турсунов, 2015

2.Абулқосимов Х.П. Шаклланаётган бозор иқтисодиётида инсон омили ва уни фаоллаштириш - Т., ТМИ, 2006.-187 б.

3.Бабаян С.А., Зуев В.М. Кадры в условиях рынка - М.: Экономика, 1992. -160 с.

4.Becker G. Human Capital. N.Y.: 1964 - 43 p.

5.Бартенев С. Экономические теории и школы–М.: Бек,1999.-352 с.

6.Теория и практика интегративных исследований в гуманитаристике / [Р. М. Ковалева и др. ; редкол.: Р. М. Ковалева (гл. ред.) и др.] ; БГУ. Минск : БГУ, 2021. 295 с. .

7.Макарова М. В. Управленческий консалтинг в сфере образования : учеб. пособие для учреждений высшего образования / М. В. Макарова. М. : Юрайт, 2021. 79 с. : ил.

XUDUDIY STRATEGIK REJALASHTIRISHNI AMALGA OSHIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASIDAN FOYDALANISH

Boybekova Sarvinoz Baxtiyorovna
Alfraganus University Menejment
ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar:
Nazarov Nazirjon Narzilloyevich
Alfraganus University katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada O'zbekiston mintaqalarini strategik rejalashtirish tizimini takomillashtirish maqsadida chet el tajribasidan foydalanish va uni hududlarimiz salohiyatidan kelib chiqib tadbiq kilish borasida fikr yuritilgan. Har bir mamlakat o'zining rivojlanish bosqichlaridan, qiyin davrlaridan kelib chiqqan holda rivojlanishning direktiv, indikativ va strategik rejalashtirish turlaridan foydalanganlar. Bu esa turli mamlakatlarga turlicha natija ko'rsatgan. Maqolada aynan mamlakatlarning qabul qilingan turli xil dasturlar to'g'risida ham fikrlar keltirilgan.

Kalitli so'zlar: strategik rejalashtirish, mintaqaviy rivojlanish, direktiv, indikativ va strategik rejalashtirish, mintaqaviy siyosat, strategik rejalashtirish tizimi.

Abstract: This scientific article discusses the use of foreign experience in order to improve the strategic planning system of the regions of Uzbekistan and its application based on the potential of our regions. Each country used directive, indicative and strategic types of development based on its development stages and difficult periods. This has given different results to different countries. The article also contains opinions about the various programs adopted by the countries.

Key words: strategic planning, regional development, directive, indicative and strategic planning, regional policy, strategic planning system.

Аннотатsия: В данной научной статье рассматривается использование зарубежного опыта в целях совершенствования системы стратегического планирования регионов Узбекистана и его применение с учетом потенциала наших регионов. Каждая страна использовала директивный, индикативный и стратегический типы

развития исходя из этапов своего развития и сложных периодов. Это дало разные результаты в разных странах. В статье также содержатся мнения о различных программах, принятых странами.

Ключевые слова: стратегическое планирование, региональное развитие, директивы, индикативное и стратегическое планирование, региональная политика, система стратегического планирования.

Mamlakatimiz mintaqalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini rejalashtirish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Hozirgi vaqtda global bozor makonini shakllantirish jadal sur'atlarda o'tmoqda, bu xom ashyo bozorlari uchun ham, yuqori darajadagi qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan innovatsion mahsulotlar, texnologiyalar va xizmatlar uchun ham xalqaro raqobatni kuchaytiradi. Birinchi navbatda ilg'or innovatsilarga, raqamli texnologiyalarga nisbatan raqobat kuchayib, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga bo'lgan talab ortib bormoqda va natijada global salbiy tendensiya o'sishi davom etmoqda. Bunday sharoitda asosli milliy, tarmoq, mintaqaviy va korporativ strategiyalarning ahamiyati, ularni uzoq muddatli xarakterdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda foydalanishda ortadi.

Umuman olganda, asoslantirilgan ustuvorliklar, strategiyalarni amalga oshirishning samarali shakllari va usullari davlatlar va korporatsiyalarning xalqaro raqobatdosh pozitsiyalarini mustahkamlashning eng muhim omillariga aylanmoqda. Shu sababli, ma'lum mamlakatlarning o'rta va uzoq muddatli rivojlanishiga oid milliy, tarmoq va mintaqaviy strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish tajribasini o'rganishga qiziqish tabiiydir[12].

Shu o'rinda, "Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti"ning "Katta yigirmatalik" (G20) davlatlarida amalga oshirilgan mintaqalarni strategik rejalashtirish bo'yicha yondashuvlarni tadqiq etish alohida ahamiyatga ega.

Germaniya. 2007 yildan boshlab Germaniya hukumati mamlakatni iqtisodiy o'sishini ta'minlashda mintaqaviy xususiyatlarga muvofiq mamlakatni barqaror rivojlantirish bo'yicha strategik rejalashtirishni iyerarxik tarzda tashkil etdi. Mintaqaviy investitsiya dasturlari Germaniya Federativ Respublika (GFR)si hududining uchdan ikki qismini maqsadli rivojlanish dasturlari bilan qamrab olgan. GFRning asosiy qonunida hatto

[12]Мирзиёева С.Ш. Анализ опыта Узбекистана по разработке стратегий развития страны и регионов//Управленческое консультирование №3 2019.61 с.

zamonaviy ma’noda maqsadli dasturga mos keladigan “ijtimoiy vazifa”ning maxsus tushunchasi mavjud. Ushbu vazifalar qamrab olgan asosiy yo‘nalishlardan biri bu hududlarda iqtisodiy iqlimni yaxshilashdir. Mamlakat sharqida “mintaqaviy iqtisodiy tuzilmani takomillashtirish” maqsadli dasturlari shakllantirildi. Ushbu dasturlarga sanoat va infratuzilmani rivojlantirish uchun federal byudjetidan subsidiyalar ajratildi, bu esa o‘z navbatida investitsiya jarayonini keng joylashtirish uchun zamin yaratdi. Germaniyada ko‘pincha indikativ rejalashtirish orqali rivojlanishni ta’minlashga imkoniyat beriladi va shu asosda ko‘p ishlar amalga oshiriladi[13].

Kanada. Kanadada bozor sharoitida barcha sohalar va sohalarni qamrab oladigan keng qamrovli dastur faqat reja- konsensus, reja- jamoat roziligi shartnomasi sifatida amalga oshiriladi. Bunday rejani tuzishda, ideal holda, har xil darajadagi boshqaruv organlari (Markaz - viloyat - munitsipalitet) va hukumat, biznes va jamiyat manfaatlari va xoxishlari muvofiqlashtirilishi kerak. Ma’lumotlarga qaraganda, eng yaxshi natijalarga ushbu manfaatlar birlashtirilganda va reja ishlab chiqqanlar tomonidan amalga oshirilganda erishilgan. Tashqi majburiy rejalarni amalga oshirish qiyinroq. Shuning uchun, Kanada rejalashtirish texnologiyalarida nafaqat rejalashtirish natijasi, balki jarayonga ham katta e’tibor beradi. To‘g‘ri tashkil etilgan rejalashtirish jarayoni manfaatdor tomonlarning aksariyati va keng jamiyatning rejani ishlab chiqishda ishtirok etishiga imkon beradi. Kanadacha yondashuvdagi asosiy narsa - rejalashtirish bosqichida kerakli natijani ko‘rish, uni qanday o‘lchashni tushunish, baholash, variantlarni ko‘rib chiqish, o‘z vaqtida tuzatishlar kiritish, odamlarni bu jarayonga qanday jalb qilish to‘g‘risida qaror qabul qilish va buni qanday boshqarish kerakligini o‘z ichiga oladi. Boshqarish bosqichidan keyin amalga oshirish bosqichi (resurslardan foydalanish) natijaga qanchalik yaqin ekanliklarini ko‘rsatadigan ko‘rsatkichlardan foydalanish bilan boshlanadi. Kanadada avvalambor yakuniy natijani odamlar hayot darajasi va sifatidagi o‘zgarishlarga katta e’tibor beriladi[14].

Xitoy. Xitoyda bosqichma-bosqich mintaqaviy siyosat olib borilmoqda, unga ko‘ra mamlakatning turli qismlari turli xil stavkalar va miqyoslarda jahon iqtisodiy aloqalari tizimiga kiritilgan. Birinchi bosqichda

[13]Бауэр В.П. Французский и Китайский опыт для совершенствования Российской системы стратегического планирования. Власть. № 04.м.2020.

[14] Concepts and Strategies of Spatial Development in Germany 2007.

bular turli xil davlat koʻmagi bilan taʼminlangan Sharqiy Xitoy viloyatlari tanlashdi. Xususan, ular maxsus (koʻproq liberal) soliq, bojxona va moliyaviy rejimga, chet el investitsiyalarini jalb qilish rejimiga, shuningdek, infratuzilma loyihalariga davlatning katta mablagʻlariga boʻysungan. Sharqiy provinsiyalar Xitoyning qolgan hududlarini iqtisodiy rivojlanishi uchun lokomotivga aylanadi deb taxmin qilingan edi. Ushbu siyosat tufayli sharqiy Xitoy ajoyib iqtisodiy yutuqlarga erishdi. Shu bilan birga, uning qolgan mintaqalari iqtisodiy rivojlanishiga taʼsiri cheklangan boʻlib qolmoqda - iqtisodiy islohotlar davrida hatto iqtisodiy farqlash kuchaygan.

Rossiya. Rossiya qonunchiligida soʻnggi yillarda mintaqalarni rivojlantirishning milliy maqsadlarini amalga oshirishda "Rossiya Federatsiyasi rivojlantirish strategik maqsadlari toʻgʻrisida"gi qaroriga asosan 2018 yilda tasdiqlangan Rossiya Federatsiyasining strategik rejalashtirish toʻgʻrisidagi Federal qonuni qabul qilindi. Shu jumladan, boshqa koʻplab huquqiy hujjatlar davlat dasturlari va milliy loyihalar yaratildi. Aynan strategiyalarda mamlakat, mintaqa yoki shahar miqyosidagi "milliy gʻoya"ning asosiy maqsadi – "missiya"ni shakllantirishga eʼtibor qaratiladi. Dasturlar koʻproq quyidagi savollarga javob beradi - qayerda va qanday tezlikda harakat qilish kerak, va rejalarda harakatning oʻziga xos vositalari va belgilangan vazifalarni bajarish usullari haqida gap boradi.

AQSH. Qoʻshma Shtatlarning hududni tashkil qilish masalalari yirik turli mintaqaviy maqsadlarga moʻljallangan dasturlar va loyihalar doirasida hal etiladi. AQSH hukumati soʻnggi yillarda mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda yangi yoʻnalishda yondashib, mintaqaviy dasturlarni ishlab chiqishda ularni ikki toifaga boʻladi. Bular asosan biznes dasturlari va qoʻllab-quvvatlash faoliyati dasturlari hisoblanadi. Birinchi toifaga toʻgʻridan-toʻgʻri aholiga har qanday xizmatlarni koʻrsatishga qaratilgan dasturlar kiradi, masalan, tibbiy yordam, uy-joy, transport, aloqa, taʼlim va boshqalar. Ikkinchi toifadagi dasturga esa, maʼmuriy xizmatlar, kadrlar tayyorlash, uskunalarni ekspluatatsiya qilish, ilmiy-tadqiqot ishlari, axborotni qoʻllab-quvvatlash va boshqalar kabi qoʻllab-quvvatlovchi faoliyatni rivojlantirishga moʻljallangan dasturlar kiradi. Ikkinchi toifadagi dasturlar, qoida tariqasida, asosiy faoliyat dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur boʻlgan sharoitlarni yaratishga moʻljallangan.

Yevropa ittifoqi. Shuni taʼkidlash kerakki, deyarli barcha Yevropa mamlakatlarida hududlarni rivojlantirishga masʼul boʻlgan maxsus idoralar

yoki maʼmuriy organlar, shuningdek mintaqalarni rivojlantirishni qoʻllab-quvvatlash uchun maxsus byudjet mablagʻlari tashkil etilgan. Shunga koʻra chegaralararo va mintaqaviy hamkorlik strategiyalari va dasturlar ishlab chiqiladi. Yevropa mintaqalarining transchegaraviy hamkorlik dasturlarida 100 dan ortiq transchegaraviy iqtisodiy rayonlar mavjud. Dasturlar transchegaraviy gumanitar aloqalar va turizmni rivojlantirishga, atrof-muhitni muhofaza qilish, kichik va oʻrta biznes, transchegaraviy transport loyihalarini amalga oshirishga koʻmaklashadi[15].

Xulosa oʻrnida shuni aytish joizki,xorijiy mamlakatlar tajribasiga tayangan holda mintaqalarimizdagi salohiyatni chuqur tahlil qilib, mos strategik reja ishlab chiqishimiz, oʻsha hududlarni qolaversa davlatning iqtisodiyotini rivojlantirgan boʻlar edik. Xorijiy mamlakatlar tajribasi bizga vaqt va resurslarni tejashga yordam beradi, chunki ishlab chiqilgan va hayotga tadbiq qilingan strategik rejalar turli xil yondashuvlarni natijasi toʻgʻri yoʻl tanlashimizga imkon beradi.

Tashqi muhitni oʻrganish (skanerlash), ichki muhitni tekshirish (skanerlash), missiya, maqsadlar, vazifalar va harakatlar rejasini shakllantirish, rejani amalga oshirish, rejani kuzatish va baholash bularning barchasini amalga oshishi strategik rejalashtirishning muvoffaqiyatli bajarilganligidan dalolat beradi.

Hozirgi sharoitda barcha hududlarda mavjud resurslardan samarali foydalanish hisobiga maksimal yuqori iqtisodiy oʻsishni taʼminlash uchun shart-sharoit, zamonaviy infratuzilma tizimini shakllantirish, tadbirkorlikni barcha hududlarda teng imkoniyatlar yaratish, mahalliy tadbirkorlik tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash lozim.

Strategik reja aholining hayot sifatini yaxshilash va hududning potensialini rivojlantirish, hokimiyatning uzluksizligini taʼminlash, mantiqiy asosda qurilgan uzoq muddatli siyosatni amalga oshirish uchun samarali vosita sifatida ishlatilishi mumkin boʻladi. Chet davlatlarning muvaffaqiyatli tajribasi Oʻzbekistonda strategik rejalashtirish jarayonini optimallashtirish va shu bilan jahon bozorlarida oʻzining raqobatbardosh maxsulotlari bilan qolaversa barcha sohalarda peshqadamlardan biri boʻlishiga shubha tugʻdirmasligiga ishonamiz.

[15]Якоблева С.И. Стратегическое планирование регионов и городов //учеб. пособ. 2015г. Тверской государственный университет. 268с.

TURKIY BUYUKLARNING IQTISODIY G‘OYALARI MOHIYATI

Boybekova Sarvinoz Baxtiyorovna
Alfraganus University Menejment ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar Qurbonov Jasurbek Pozilovich
Alfraganus Universiteti Iqtisodiyot
kafedrasi dotsenti, Phd

Annotatsiya: Ushbu moqola Sharq Uyg‘onish davrining buyuk mutafakkirlari Abu Nasir Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Xojib kabi bir qancha bobokalonlarimizning asarlarida oqilona davlat tizimi, insoniyat jamiyati haqidagi nodir va dono fikrlar bilan birga buyuk Amir Temur qay tariqa o‘z saltanatini boshqarganligi xususida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Yaqin va O‘rta Sharq , buyuk mutafakkirlarimiz, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy hayot, Farobiyning Aristotelga sharhi, mamlakatni boshqarish, Amir Temurning oqilona yurishlari va timsoli.

Annotation: this moqola in the works of several of our great-grandfathers , such as Abu Nasir Farabi,Ibn Sina,Beruniy, Yusuf Khos Khojib, the great thinkers of the Eastern renaissance, along with a rational state system, rare and wise thoughts about human society, we will be able to see how the Great Emir Timur ruled his kingdom.

Keywords: the near and Middle East , our great thinkers, economic, political and spiritual life,Pharoah's commentary on Aristotle, the governance of the country, the rational walks and embodiment of Amir Temur.

Аннотатsiя: эта статя в трудах несколких наших предков , таких как великие мыслители Восточного возрождения Абу Насер Фараби, Ибн Сина, Беруни, Юсуф хос-Хаджиб, наряду с редкими и мудрыми мыслями о разумном государственном устройстве, человеческом обществе, мы сможем увидет, как великий эмир Тимур правил своим сарством.

Ключевые слова: Ближний и Средний Восток, наши великие мыслители, экономическая, политическая и духовная жизн,комментарий Фараби к Аристотелю, управление страной, разумные походы и воплощение Амира Темура.

X-XII asrlarga kelib O‘rta Osiyo ilg‘or ijtimoiy tafakkurning Sharqdagi yirik markazlaridan biriga aylandi. O‘rta Osiyo Yevropani Osiyo bilan

bog‘lovchi yirik moddiy, madaniy va savdo markaziga aylandi. Bu jarayonlar bir-biridan minglab chaqirim uzoqlikdagi davlatlar, xalqlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni shakllantirdi. Bu davrda butun dunyoga tanilgan Al-Farg‘oniy, Al-Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Nizom-ul-mulk va boshqa ko‘plab mutafakkirlar yashab ijod qilishdi. Ularning asarlarida iqtisodiy g‘oyalar ham o‘z aksini topgan. Sharq renessansi davridagi olimlar ushbu davrdagi tijorat, mulkdorlik sirlarini bayon etganlar. Ularning asarlaridagi umumbashariy iqtisodiy tafakkur bugungi kunda ham dolzarbligi bilan muhim o‘rin tutadi. Ibn Sino (980-1037) ning fikricha: “ Hayvon tabiati ne’matlariga qanoat qiladi, odamlarga esa tabiat ne’matlari kamlik qiladi, u ovqat, kiyim-kichak va uy-joyga ehtiyoj sezadi. Hayvon tabiat ne’matlarini o‘zlashtirib oladi, odam esa o‘z mehnati bilan o‘ziga ovqat, keyim-kechak, joy yaratadi. Shu maqsadda inson dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullanishi kerak”.

Yusuf Xos Xojib “Odamga foydasi tegmaydigan odam – o‘lik, essiz o‘tgan umr emas, essiz sarflangan mehnat”, - deydi. (1069 – yil “Qutadg‘u bilig” asarini yaratgan).

IX-XII asrlarda butun dunyoga tanilgan Xorazmiy, Farg‘oniy, Ibn Sino, Ibn Rushd, Yusuf Xos Xojib va boshqa ko‘plab mutafakkirlar yashab, ijod qilishdi. Ularning asarlarida muhim iqtisodiy g‘oyalar ham o‘z aksini topgan. Sharq uyg‘onishi davridagi olimlar shu davrdagi tijorat, mulkdorlik sirlarini bayon etganlar. Ularning ko‘plari hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Yuqoridashilardan kelib chiqib dastlab 873-950 yillarda yashab ijod qilgan Abu Nasr Ibn Muhammad Farobiy haqida fikr yuritamiz. Farobiy O‘rta asr davri tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilimlarning qariyb barcha sohalarini o‘z ichiga oluvchi 160 dan ortiq risola yaratgan qomusiy olim sifatida tan olinadi. Uning sharq olamidagi shuhrati shu darajada ediki, uni Aristoteldan keyingi yirik mutafakkir “Muallim as-Soniy” - “Ikkinchi mualim”,- deb atay boshladilar. Farobiy iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy hayot katta voqiyalarga boy bo‘lgan ilk o‘rta asr davrida yashadi. Bu davrda Yaqin Sharqda feodal munosabatlar rivojlandi. Ishlab chiqarish kuchlari o‘sdi, hunarmandchilik, shahar hayoti yuksaldi, irrigatsiya tizimlari, yirik me’moriy inshootlar barpo etildi, yangi shaharlar vujudga kedi, jamiyatning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotida ularning roli oshdi va halifalikning turli hududlari o‘rtasida shuningdek, Hindiston, Vizantiya, Xitoy, Afrika, O‘rta yer dengizi qirg‘og‘i shaharlari bilan tashqi savdo aloqalari kuchaydi. Farobiy asarlarida, uning ijtimoiy-falsafiy

g‘oyalarida usha davrning tub ziddiyatlari, ularning yutuqlari va kamchiliklari cheklanganligi, ijobiy va salbiy tomonlari aks etgan.

Amir Temur janglar ichida emas, balki ko‘proq o‘ylar ichida aks ettiriladi. Amir Temurning murakkab tabiati va tajribali hukmdor va o‘ychil mutafakkir sifatida davlatni ushlab turguvchi tayanchlarni**:** “Mo‘l xazina, yagona shoh, yengilmas lashkar”, - deya belgilaydi. Uning jahongirlik tabiati suruvga bitta cho‘pon bo‘lganiday, xalqni ham bir podshoh boshqarishi kerakligi borasidagi qanoatida nomoyon bo‘ladi. Johonni mo‘g‘ullar istilosidan qutqarib qololgan barlosiy botir, olamda tengi yo‘q. Temurbek Samarqandda qo‘lida shamshir-u tagida tulpor bilan jang- jadal shavqida yurardi. Hukmi oliy bilan “Kuch bu- adolatda” degan so‘zlarini namoyon etgan. Buyuk bobokolonimiz aytadilarki, “Men onamdan shamshir bilan tug‘ilmagandim”, garchi u buyuk janglarni olib borgan bo‘lsada u bunday jaholatni istamagan. Sarkarda o‘z xalqini boshqa buzg‘unchi bosqinchilardan himoya qilishga, tilikni o‘z xalqiga berishni istagan. U birinchi Chingiziylarga qarshi kurash olib borib, ularni yengadi va shuhrat qozonadi. Amir Temur qancha yerlarni o‘ziga buysundirsa, shuncha xalqining osudachiligi va tinchligi bardavom bo‘lib, sokin yerlar esa yer yuzi bo‘ylab yoyilar edi. Uning rafiqasi Bibixonim Temur uchun osudalik farishtasi edi, garchi ularning farzandi bo‘lmasada Temur uchun suyukli rafiqa,maslahatchi va oqil sherik bo‘lgan. Boshqa davlat shohlari Amir Temur huzuriga o‘z elchilarini yuborib ularning hayotini xavf ostiga qo‘ygan bir vaqtda, Amir Temur ularga parvardigor xohishi bilan omonlik beradi. U aytadiki, “Do‘stlashmoqchi bo‘lgan har bir inson bir-birlarini fe’l-atvorlarini bilishlari shart. Bu dunyoni buzadigan gumon, mish-mishdir. Siz o‘ylarsiz, Amir Temur boylikka o‘ch deb, menga yetgay bir burda non hamda qultum suv. Taftish qilib ko‘ring qani bor xazinamni, ortiqcha aqcha toparmisiz sababi – ayon. Ne orttirsam barchasini lashkarlarim-u mamlakatning manfaati uchun sarfladim: Shahar qurdim, ariq qazdim, yo‘llar o‘tkazdim. Men – Amirman, jahongirman! Raqiblarim-chi , chumolidek faxm etar ulkan dunyoni, o‘zlaridek maydagina manfaat uchun Alloh bergan buyuk baxtni barbod qilurlar. Bo‘yin tovlar hamkorlikdan, ulug‘ ishlardan, men adolat o‘rnatgali yo‘lga chiqqanman”. Buyuk sarkardamizning imoni, jasorati, bilmi, o‘ziga ishonchi yetukligi va vijdon qudratligi shunchalar ustunki, u xatto o‘z dushmanlari o‘limi uchun ham fotiha o‘qishga qodir bo‘lgan haqiqiy sohibqiron musulmon edi. Xuddi shunday bir voqea Sulton Boyazid uchun o‘qilgan ta’ziyada bo‘lgan va

sohibqiron-“ Xudo uni raxmat qilsin, o‘lim muqarar. Yetkazingiz amirlar-u shahzodalarga ta’ziyaga kechikmasdan yetib borgaymiz”,- dermish. Keng dunyoning yarmini egallagan Temur o‘z ota-onasining xoki poklarini ziyorat qilish uchun mushtoq bo‘ladi, u bir Keshlik Sharif ismli yilqichini uchratadi va shunday mayuslik bilan, “Keng dunyoning qadam yetmas bir burchagidan qo‘yib yuborsalar ko‘zimni boylab, hech adashmay Kesh shahrini topib borardim. U joydadir ota-onam xoki poklari, eng beg‘ubor yillarimni o‘tkazgan edim jang-jadaldan charchagan vaqtlarim, tushlarimga kirar o‘sha osuda damlar, xotirlayman poygalar-u ko‘pkarilarni. Mening asl zuvalamni pishitgan u yurt, ikki dunyo qarzdorman uning qoshida. Keshdan kelgan mehmonlarga to‘n kiydirilsin! Shunday zaynda buyuk sohibqironning so‘ngi janggi bu Chin (Xitoy) tomon borgan bir mahalda og‘ir kassalik bilan sarkardalari qoshida o‘z haybatini yo‘qotmasdan oxirgi nutqini so‘zlaydi, o‘z saltanatini esa nabirasi Pirmuhammad Jahongirga toj-u taxtni uzoq saqla deya qo‘ynidan “Tuzukot” kitobini uzatadi. Vatanni o‘z onasidek asrab-avaylab kelgan Amir Temur shunday inson edi. Yillar o’tsa hamki uning savlati nomi bilan birga haligacha tirikdek guyo, faqat Amir Temur ruhi emas, balki boshqa buyuk bobokalonlarimiz ham tarix sahifalarini yaratgan va biz hozirda shu sahifalarni varaqlamoqdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.A.Razzoqov, Sh.Toshmatov, N.O‘rmonov, F.Egamberdiyev “Iqtisodiy
Talimotlar tarixi” (o‘quv qo‘llanma),2005-yil.
2.Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri”. “Yangi asr avlodi”,2022-yil.
3.Abdulla Oripov “Sohibqiron”,2022-yil.

‘‘MINTAQALARDA XUSUSIY TA’LIMNING O‘ZIGA XOS O‘RNI’’

Davletov Murodbek Islom o‘g‘li
Alfraganus Universitety iqtisodiyot fakulteti
Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Egamberdiyev Muzaffar PhD dostent v.b.
“Iqtisodiyot” kafedrasi o‘qituvchisi
Tel:+998999692658
davletovm342@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mintaqalarda xususiy ta’limning o‘ziga xosligi, rivojlanishi uning dolzarb o‘rni va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Xususiy ta’lim, raqobat, ta’lim sifati, infratuzilma, investitsiyalar, innovatsiyalar, kadrlar tayyorlash, iqtisodiy rivojlanish.

Аннотатsiя: В статье рассматривается роль частного образования в регионах, его развитие и значимость.

Ключевые слова: Частное образование, конкуренция, качество образования, инфраструктура, инвестиции, инноватsiи, подготовка кадров, экономическое развитие.

Abstract: The article discusses the role of private education in regions, its development, and importance.

Keywords: Private education, competition, education quality, infrastructure, investments, innovations, human resources, economic development.

Bugungi kunda ta'lim tizimida davlat sektoriga qaratilgan islohotlar bilan bir qatorda xususiy ta'limning rivojlanishi ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Xususiy ta'limning mintaqalardagi rivoji jamiyatdagi raqobatbardoshlik, ta'lim sifati va innovatsiyalarni joriy etish orqali yangi imkoniyatlar ochmoqda. Xususan, xususiy ta'lim muassasalarining

kengayishi va ular tomonidan taklif qilinayotgan oʻquv dasturlari mintaqaviy infratuzilma va iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi.

Mintaqalarda xususiy ta'limning oʻrni va uning ahamiyatini chuqur oʻrganish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada mintaqalarda xususiy ta'limning oʻziga xos jihatlari, raqobat muhiti va ta'lim sifatiga ta'siri muhokama qilinadi, shuningdek, ushbu sohani rivojlantirish boʻyicha taklif va tavsiyalar beriladi.

Muhokama

Oʻzbekistonning 2030-yilgacha boʻlgan taʼlim strategiyasi taʼlim tizimini rivojlantirish, sifatni oshirish, inklyuziv va barqaror taʼlim muhitini yaratish kabi maqsadlarni oʻz ichiga oladi.Xususiy taʼlim muassasalari mintaqalarda taʼlim tizimiga yangicha yondashuvlarni joriy qilmoqda. Ular taʼlim sifatini oshirish va raqobat muhitini shakllantirish orqali davlat muassasalariga qoʻshimcha ravishda taʼlim olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

1.Raqobat muhiti va taʼlim sifati: Xususiy taʼlimning rivojlanishi taʼlim tizimida raqobatni kuchaytirib, muassasalar sifatini oshirishga turtki beradi. Raqobatning mavjudligi muassasalarni zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, malakali oʻqituvchilarni jalb qilish va oʻquvchilarga sifatli bilim berishga undaydi. Bu, oʻz navbatida, talabalarning taʼlim olish darajasini oshirib, bozor iqtisodiyoti sharoitida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash imkonini beradi.

2.Innovatsion texnologiyalar: Taʼlim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qoʻllash, taʼlim muassasalari zamonaviy oʻqitish texnologiyalari va innovatsion yondashuvlarni tatbiq qilish orqali kadrlar tayyorlashda oldingi oʻrinni egallashga intiladi. Bu jarayonda yangi texnologiyalar, xorijiy taʼlim tizimlaridan olingan tajribalar va interaktiv oʻqitish usullarining keng qoʻllanilishi taʼlimning sifatini oshirishga xizmat qiladi.

3.Ijtimoiy ahamiyat: Mintaqalarda xususiy taʼlimning rivojlanishi, bir tomondan, iqtisodiy rivojlanishga hissa qoʻshsa, boshqa tomondan, aholining turmush darajasini yaxshilashga koʻmaklashadiXalqaro hamkorlik Taʼlim sohasida xalqaro tashkilotlar va boshqa davlatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish.

Ushbu strategiya O‘zbekistonni global ta’lim maydonida raqobatbardosh qilib, yosh avlodni zamonaviy talablarga mos keladigan bilimlar va ko‘nikmalar bilan ta’minlashga qaratilgan.

Natija

Mintaqalarda xususiy ta’limning rivojlanishi nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga ham katta hissa qo‘shmoqda. Raqobat muhiti, innovatsiyalarni joriy qilish va malakali kadrlar tayyorlash sohasida xususiy ta’limning ahamiyati ortib bormoqda. Xususiy ta’lim muassasalarining faoliyati ta’lim tizimiga yangi imkoniyatlar kiritish bilan bir qatorda, mintaqaviy infratuzilma va investitsiyalarni ham rivojlantiradi.

Biroq, ushbu sohaning yanada rivojlanishi uchun davlat tomonidan rag‘batlantiruvchi choralar ko‘rilishi zarur. Shu bilan birga, ta’lim sifatini nazorat qilish, malakali kadrlar tayyorlash dasturlarini yo‘lga qo‘yish va investitsiyalarni jalb qilish masalalari ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Takliflar

1. Xususiy ta'limni rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlari: Xususiy ta’lim muassasalarini davlat tomonidan soliq imtiyozlari va grantlar bilan qo‘llab-quvvatlash. Bu dasturlar orqali mintaqalarda ta'lim sifati va imkoniyatlarini kengaytirish mumkin bo‘ladi.

2. Ta'lim sifatini nazorat qilish: Xususiy ta’lim muassasalarining ta’lim sifati ustidan doimiy ravishda mustaqil nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish. Bu tizim ta’limning yuqori darajada qolishini ta'minlash uchun zarur.

3. Innovatsiyalar va kadrlar tayyorlash dasturlari: Xususiy ta'lim muassasalarida o‘qituvchi kadrlar malakasini oshirish dasturlarini kengaytirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha dasturlarni yaratish.

4. Ta'limni iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘lash: Xususiy ta’lim muassasalari va mahalliy sanoat korxonalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish. Bu kadrlar tayyorlash va ishchi kuchi bozorining talablarini hisobga olgan holda ta’lim dasturlarini tuzishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda mintaqalarda xususiy ta'lim muhim o‘rin egallab, ta'lim sifatini oshirish, raqobat muhitini yaratish va iqtisodiy rivojlanishga ko‘maklashmoqda. Shu bilan birga, xususiy ta'lim muassasalari ta'lim tizimiga innovatsion yechimlarni olib kirishda muhim rol o'ynaydi. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va sifat nazorati tizimlari bu sohaning yanada rivojlanishiga zamin yaratadi. Mintaqalarda xususiy

ta'limning barqaror rivojlanishi aholi uchun yangi imkoniyatlar ochib, hududiy iqtisodiyotning mustahkamlanishiga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta'lim to‘g‘risidagi qonuni”2020.
2."Ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturi," O‘zbekiston Respublikasi, 2022.
3. UNESCO, "Private Education and Regional Development," 2019.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, "Xususiy ta’lim”2021.

Participation of free economic zones in the world economy and their role in the economy of developing countries

Habibjonov Usmonjon Sherzodjon o’g’li
Master of Nordic International university
habibjonovusmonjon9@gmail.com
(ORCID 0009-0005-6345-483X)


-qo'shiq she'r va musiqa haqida tushuncha berish;

Qo‘shiq o‘rgatishdan avval ovoz sozlash mashqlari bajariladi. Bunda ovozning sof va tiniq sozlanishiga erishish, ularni toliqtirib qo‘ymaslik maqsadida notalar o‘rniga so‘zlar qo‘yib, musiqiy shaklda kuylanadi. Bunday kuylash o‘quvchilarning talaffuzini rivojlantiradi.

Ovoz sozlash mashqlari bolalarga yaqin bo‘lgan she’riy misralar, tez aytishlar, o‘yin sanoqlaridan tashkil topgan bo‘lishi mumkin. Boshlang‘ich sinflarda musiqiy asarlarning diapazoni kvinta oralig‘ida bo‘lishi, seksta intervalidan oshmasligi lozim.

Ovoz sozlash mashqlaridan so‘ng qo‘shiq o‘rgatishga o‘tib, avval qo‘shiq matni va mualliflari haqida qisqagina ma’lumot suhbat tarzida beriladi. Suhbat o‘quvchilarda mavzu haqida to‘liq tushunchaga ega bo‘lish, fikr mulohaza yuritib uni ifodalash kabi omillarni rivojlanishiga yordam beradi.

Ritmik jixatdan o‘quvchilarga qiyinchilik tug‘diradigan qo‘shiqlarni ritmini avval chapak yordamida o‘rganib, so‘ng so‘zlar bilan takrorlab, so‘z va ritm aniq o‘zlashtirilgandan so‘ng ohang yo‘li o‘rgatilishi tavsiya etiladi.

Boshlang‘ich sinflarda musiqa madniyati darslarida ularning tez toliqishlarini inobatga olgan holda amaliy mashg‘ulotlardan so‘ng musiqa tinglash va musiqa ijodkorligi xamda bolalar musiqa asboblarida jo‘r bo‘lish kabi faoliyat turlarini amalga oshirish mumkin. **4-5-6-sinflarda** xam ovoz sozlash va qo‘shiq o‘rganish jarayonlari quyi sinflarniki kabi bo‘lib, ovoz diopazanini sekunda va tersiya intervaligacha ko‘tarish mumkin.

7-sinf o‘quvchilari mustaqil fikr yuritadigan, aqlan va jismonan rivojlangan bo‘lib, musiqiy va estetik didlari shakllangan bo‘ladi. O‘smir yoshga mo‘ljallangan barcha turdagi ovoz sozlash mashqlari ham shunga xos tanlanadi. Ovoz sozlash mashqlari qo‘shiqlardan olingan lavhalar ko‘rinishida bo‘lishi hamda notalarning nomlari bilan berilishi mumkin. Bunda mashqlar quyi sinflarga qaraganda ritmik va ohang jihatdan o‘rganiladigan qo‘shiqqa yaqin va murakkabroq bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Bu yoshdagi o‘quvchilarning ijro repertuariga alohida e’tibor berish talab etiladi. CHunki ularning ijro maxorati darajasi ancha o‘sgan, ko‘nikma va malakalari shakllangan bo‘ladi. Ularga milliy mumtoz qo‘shiqlarimiz bilan bir qatorda zamonaviy kuy-qo‘shiqlarni ham kuylatib, ijro maxoratiga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T., «O‘zbekiston», 1995.
2. I.A.Karimov. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T., «O‘zbekiston», 1992.
3. T.Mahmudov. Mustaqillik va ma'naviyat. T., «Sharq», 2001.
4. R.Abdullaev. Milliy istiqlol va musiqa. T., 2002.
5. Yu.Rajabiy. Musiqa merosimizga bir nazar. T., 1978.
6. I.Akbarov. Musiqa lug‘ati. T., «O‘qituvchi», 1997.
7. A.Odilov. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi. T., «O‘qituvchi», 1995.

ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR BILAN KORREKSION MASHG'ULOTLAR TASHKIL ETISH

ORCID:009-0008-8370-8771
Karimova Zulfiya Abduraxmanovna
Alfraganus universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi
Xojamurodova Xadicha
Alfraganus universiteti Pedagogika fakulteti Maxsus pedagogika (logopediya) yo’nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalrning pedagogik va psixologik tasnifi, ular bilan olib boriladigan surdopedagogik va logopedik korreksion ishlarni tashkil qilish, shuningdek bu mashg‘ulotlarning o‘ziga xosligi, tashkil etilish uslublari, mashg‘ulotlar mazmuni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Eshitish qobiliyati, zaif eshituvchi, surdopedagog, logoped, korreksion ish, eshituv idroki, statik va dinamik muvozanat, eshitish qoldig‘i, og‘zai nutq.

Аннотатsiя: В статье рассматривается педагогическая и психологическая классификатsiя детей с нарушениями слуха, описывается организатsiя сурдопедагогической и логопедической коррекционной работы с ними, а также освещаются особенности этих занятий, методы их проведения и содержание.

Ключевые слова: Слух, слабослышащий, сурдопедагог, логопед, коррекционная работа, слуховое восприятие, статическое и динамическое равновесие, слуховой остаток, устная речь.

Abstract: The article examines the pedagogical and psychological classification of children with hearing impairments, describes the organization of surdopedagogical and logopedic corrective work with them, as well as the features of these classes, methods of their conduct and content.

Keywords: Hearing, hearing impaired, surdopedagogue, speech therapist, correctional work, auditory perception, static and dynamic balance, auditory residue, oral speech.

Hozirgi paytda eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni tarbiyalash va o‘qitish muammolari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda umumta’lim muassasalariga jalb qilingan ushbu toifadagi bolalarni o‘qitish va tarbiyalash jarayonlari kengayib bormoqda. Mustaqil nutq ko‘nikmalariga ega bo‘lgan o‘quvchilar, agar ular nutqida unchalik katta bo‘lmagan grammatik xatolar va talaffuzdagi kamchiliklar mavjud bo‘lsa ham, umumta’lim maktabida (sinfda) ta’lim olishlari mumkin.

Umumta’lim maktabidagi o‘qitish sharoitlari maxsus maktabdagidan farqlanadi. Bu sinf xonasidagi murakkab akustik vaziyat, sinfdagi o‘quvchilar sonining ko‘pligi, dars davomida doimiy ravishda ko‘p tomonlama muloqot rejimida ishlash hamda leksik, grammatik, fonetik va fonematik jihatdan xilma-xil bo‘lgan katta hajmdagi nutqiy materiallarni o‘z ichiga oladi. Umumta’lim sinflarida ta’lim olayotgan eshitish qobiliyati buzilgan bolalar atrofdagilar bilan muloqot qilish va muvaffaqiyatli ta’lim olishlari uchun eshitish moslamasidan uzluksiz foydalanishlari, surdopedagog va logoped bilan maxsus tizimli tuzatish ishlarini muntazam olib borishlari zarur. Bunday birgalikdagi surdopedagogik va logopedik ta’sir korreksion ishlarning samaradorligini oshirish imkonini beradi. O‘qituvchi-defektolog (surdopedagog) va logoped darslarni birgalikda rejalashtiradi va o‘tkazadi, bunda leksik hamda grammatik mavzularni qamrab olinadi. Shu tarzda ular bolaning o‘quv materialini to‘liq o‘zlashtirishini ta’minlaydi.

Mashg‘ulotlar mazmuni bolalarning nutqiy rivojlanishiga, ularning yoshiga, bolalar bog‘chasi yoki ular o‘qiyotgan maktab sharoitiga qarab o‘zgaruvchan bo‘ladi. Bunday bolalarda eshitish idrokini rivojlantirish ularning o‘qish muvaffaqiyatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir va faqat maktabdagi mashg‘ulotlar bilan cheklanmaydi. Bu ish uyda ham,

oilada ham olib boriladi va o‘qituvchi tomonidan tashkil etiladi. Ta’limning barcha yillari davomida tibbiy profilaktika va davolash tadbirlari (jumladan, dori-darmonlar muolajalari, fizioterapiya, maxsus davolovchi jismoniy tarbiya va boshqalar) zarur.

Umumta’lim muassasalarida bunday bolalar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik tuzatish ishlari eshitish qobiliyati buzilishi keltirib chiqaradigan muammolarni inobatga olgan holda tashkil etiladi.

Shuni tushunish lozimki, eshitish qobiliyatining buzilishi faqatgina eshitish idrokining miqdoriy pasayishi emas, balki bolaning butun ruhiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan eshitish tizimining sifat jihatidan qaytarilmas va barqaror o‘zgarishidir. Bu insonning rivojlanishida eshitishning ahamiyati bilan izohlanadi.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda psixikaning tarkibiy qismlari eshitadigan bolalarga nisbatan boshqacha nisbatlarda rivojlanadi:

-ko‘rgazmali va tushunchaviy fikrlash shakllarining rivojlanishidagi nomutanosiblik;

-yozma nutqning og‘zaki nutqdan ustunligi;

-ayrim idrok tizimlarining rivojlanmaganligi, boshqalarining nisbatan saqlanib qolganligi (teri sezgirligi saqlanib qoladi, to‘g‘ri ta’lim va tarbiya berilganda ko‘rish idroki rivojlanadi va eshitish idroki shakllanadi);

-normal eshitadigan bolalarga nisbatan ruhiy rivojlanish sur’atlarining o‘zgarishi: tug‘ilgandan so‘ng ma’lum vaqt o‘tgach yoki eshitish qobiliyatini yo‘qotgandan keyin ruhiy rivojlanishning sekinlashuvi va keyingi davrlarda ta’lim hamda tarbiyaning munosib sharoitlarida tezlashuvi.

Korreksion ishlarni tashkil etishda, bunday bolalarning psixologik-pedagogik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashini amalga oshirishda, ularga xos bo‘lgan xususiyatlardan kelib chiqish muhim ahamiyatga ega.

Diqqatning xususiyatlari.

- diqqat hajmining pasayishi - eshitish qobiliyati buzilgan bolalar bir vaqtning o‘zida kamroq elementlarni idrok eta oladilar;

- diqqat barqarorligining kamroq bo‘lishi, natijada ko‘proq charchash kuzatiladi, chunki ma’lumot eshitish-ko‘rish asosida qabul qilinadi. Eshituvchi o‘quvchida mashg‘ulot yoki dars davomida analizatorlar almashadi - o‘qishda ko‘rish analizatori, materialni tushuntirishda esa eshitish analizatori yetakchi bo‘ladi. Eshitish qobiliyati buzilgan bolada bunday almashinuv yo‘q - ikkala analizator ham doimiy ravishda faol bo‘ladi;

- diqqat koʻchish surʼatining pastligi: eshitish qobiliyati buzilgan bola uchun bir oʻquv harakatini yakunlash va boshqasiga oʻtish uchun maʼlum vaqt kerak boʻladi;

- diqqatni taqsimlashdagi qiyinchiliklar.

Xotira xususiyatlari.

- obrazli xotira ogʻzaki xotiraga qaraganda yaxshiroq rivojlangan (barcha bosqichlarda va har qanday yoshda);

-ogʻzaki xotiraning rivojlanish darajasi soʻz boyligiga bogʻliq. Bolada oʻquv materialini yodlab olish uchun ancha koʻproq vaqt talab etiladi, eshitish qobiliyati pasayishining deyarli barcha darajalarida ogʻzaki xotira sezilarli darajada orqada qoladi.

Tafakkur xususiyatlari.

- eshitish qobiliyati buzilgan bolalarda faoliyatning yetakchi turi takroriy (reproduktiv) faoliyat hisoblanadi, chunki ularning asosiy fikrlash turi koʻrgazmali-harakatli boʻlib, koʻrgazmali-obrazli fikrlash endigina shakllanayotgan boʻladi, ogʻzaki-mantiqiy fikrlash esa rivojlanishning bu bosqichida deyarli kuzatilmaydi.

- eshitish qobiliyati buzilgan bolalar barcha harakatlarni "qolip asosida" bajaradilar, ularning tafakkuri juda aniq va muayyan boʻlganligi sababli, ijodiy faoliyat haqida gapirish erta hisoblanadi.

Hissiy soha rivojlanishining oʻziga xos xususiyatlari.

- eshitishi zaif boʻlgan bola koʻpincha muayyan vaziyatlarda atrofdagilarning hissiy holatlarini toʻliq anglay olmaydi va shu sababli ularga hamdardlik koʻrsata olmaydi;

- eshitishida nuqsoni boʻlgan bola nozik hissiy ifodalanishlarni uzoq vaqt davomida farqlay olmaydi va bu holat oʻsmirlik davrida ayniqsa yaqqol namoyon boʻladi.

Shaxslararo munosabatlar.

Zaif eshituvchi bola uchun pedagog shaxslararo munosabatlarni shakllantirishda muhim rol oʻynaydi;

- eshitmaydigan va zaif eshitadigan bolalarda asossiz ravishda uzoq vaqt oʻzini yuqori baholash saqlanib qoladi. Bu ularning yoshligidan boshlab kattalar tomonidan yutuqlari ijobiy baholanish muhitida boʻlganligi bilan izohlanadi;

-oʻqituvchi va sinfdoshlari tomonidan eshitish qobiliyati buzilgan bolaning imkoniyatlari haqiqiy baholanishi natijasida tajovuzkor xatti-harakatlar namoyon boʻlishi mumkin;

-pedagog bilan ustuvor muloqot;

-“Noagressiv tajovuzkorlik” - eshitish qobiliyati buzilgan bolaning suhbatdosh e’tiborini jalb qilish uchun noverbal vositalardan foydalanishi (qo‘lidan ushlab olish, yelkasiga qoqish, juda yaqin kelish, tengdoshining og‘ziga tikilib qarash va hokazo), bu eshitadigan bolalar tomonidan tajovuzkorlik namoyon bo‘lishi sifatida qabul qilinadi.

Atrofdagi odamlar bilan muloqotning o‘ziga xos xususiyatlari:

- eshitish qobiliyati sust bo‘lgan bola so‘zlovchining yuzini yaxshi ko‘rsa, atrofdagilarning nutqini idrok etishi osonroq bo‘ladi;

- ko‘pincha bolalarning noto‘g‘ri javoblari yoki javob berishdagi qiyinchiliklari ayrim so‘zlarning ma’nosini bilmasligi, gapning notanish shaklda ifodalanishi, suhbatdoshning g‘ayrioddiy talaffuzi tufayli yuzaga keladi;

- “Hammasi tushunarli bo‘ldimi?” degan savolga javoban eshitishida nuqsoni bo‘lgan bola, garchi tushunmagan bo‘lsa ham, ko‘pincha tasdiqlab javob beradi;

- eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolaning uzoq davom etadigan monologik nutqni idrok etishi va tushunishi qiyin kechadi;

- suhbat vaziyatlarida sezilarli qiyinchiliklarga duch keladi;

- eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolada eshituvchilar bilan muloqotda psixologik to‘siqlar mavjud.

Harakat sohasining xususiyatlari.

Eshitmaydigan bolalarda, asosan, quyidagi kamchiliklar kuzatiladi:

- harakatlarning aniq muvofiqlashtirilishi va ishonchliligining yetarli emasligi;

- harakat ko‘nikmalarini o‘zlashtirishdagi sekinlik;

- statik va dinamik muvozanatni egallashdagi qiyinchiliklar;

- harakatlar ravonligi va mutanosibligining buzilishi;

- fazoviy mo‘ljal olish qobiliyatining pastligi;

- alohida harakatlarni bajarish va umuman harakat sur’atining sekinligi.

Maktabgacha yoshdagi kar va zaif eshituvchi bolalar bilan ishlashning samaradorligi ko‘p jihatdan uni amalga oshirishning bir qator shartlariga rioya qilinishiga bog‘liq bo‘ladi.

1. Eshitish-nutq muhitini yaratish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar turli xil tovush kuchaytiruvchi qurilmalar yordamida atrofdagilar nutqini doimiy ravishda idrok etishlari uchun zarur sharoitlarni ta’minlash;

- eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan muntazam ravishda maqsadli nutqiy muloqot o‘rnatish;

bolalarning muloqotini rag‘batlantiruvchi tabiiy va maxsus yaratilgan vaziyatlardan foydalanish;

- kar va zaif eshituvchi bolalar bilan muloqotda o‘qituvchilar, eshituvchi ota-onalar, qarindoshlar va tanishlar tomonidan og‘zaki nutqdan asosiy aloqa vositasi sifatida foydalanish.

2. Bolalarning kompleks eshitish va nutq qobiliyatini tekshirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- eshitish holatini pedagogik usulda tekshirish (tovush kuchaytirgich moslamasiz);

- nutqni eshitib idrok etish imkoniyatlari va rivojlanish zaxiralarini aniqlash (tovush kuchaytirgich moslamadan foydalangan holda);

- o‘quvchilarning suhbatdoshni tushunish va bog‘liq nutq orqali o‘zini tushuntira olish qobiliyatlarini o‘rganish;

- talaffuzni tahliliy tekshirish.

3. Eshitish qobiliyati buzilgan o‘quvchilarning eshitish funksiyasini rivojlantirish va og‘zaki nutqini shakllantirishga differensiatsiyalashtirilgan yondashuvni amalga oshirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- o‘qitishning boshlang‘ich bosqichida bolalarning tipik guruhlari uchun ularning eshitish funksiyasi holati, nutqiy rivojlanish darajasi, og‘zaki nutqni eshitish-ko‘rish va eshitish idrok etish ko‘nikmalari, talaffuz malakalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan eshitish idrokini rivojlantirish va talaffuzni tuzatish bo‘yicha turli darajadagi dasturlardan foydalanish;

- og‘zaki nutqni idrok etish va qayta tiklash ko‘nikmalarini rivojlantirishning joriy va davriy baholanishi;

- o‘qitishning turli tashkiliy shakllarida og‘zaki nutq ustida ishlashning uzviyligi. Barcha mutaxassislar tomonidan korreksion-rivojlantiruvchi ishlar natijalarini birgalikda muhokama qilish.

4. Korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni to‘g‘ri rejalashtirish.

I bosqich - nutq materialini idrok etish. Ishning maqsadi bolaning eshitish tasavvurlarini shakllantirish (aniqlashtirish), muayyan nutq birligining aniq eshitish obrazini shakllantirishdan iborat. Idrok etish

bosqichi ko‘rgazmali tayanchdan (jadvalchalar, rasmlar, real predmetlardan) va nutq materialini taqdim etishning aniq belgilangan ketma-ketligidan (bola nimani eshitishini va qanday ketma-ketlikda eshitishini biladi) majburiy foydalanishni nazarda tutadi.

II bosqich - nutq materialini farqlash. Maqsad - cheklangan vizual tanlov (bola nimani eshitishini biladi, lekin qaysi ketma-ketlikda eshitishini bilmaydi) vaziyatida ovoziga ko‘ra tanish bo‘lgan nutq materialini farqlash qobiliyatini shakllantirish. Bu bosqichda ko‘rish, kinestetik va eshitish analizatorlari o‘rtasida bog‘lanishlar hosil bo‘la boshlaydi.

III bosqich - nutq materialini tanib olish. Ishning maqsadi ko‘rgazmali tanlash vaziyatidan tashqarida eshitiladigan tanish nutq materialini farqlash qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Ushbu bosqichga o‘tish bolaning "eshitish lug‘ati" ma’lum darajada to‘ldirilganda, ya’ni bola eshitish orqali yaxshi farqlagan materialni tanib olish bosqichida taqdim etilganda mumkin.

IV bosqich - nutq materialini eshitish orqali tanib olish - eshitish mashg‘uloti jarayonida foydalanilmagan, ya’ni ovoziga ko‘ra notanish bo‘lgan nutq materialini eshitish orqali idrok etishni nazarda tutadi. Tanib olish ko‘rgazmali tanlash vaziyatidan tashqarida amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, eshitish idrokini rivojlantirish bo‘yicha ishning asosiy mazmuni nutq materialini va nutqqa oid bo‘lmagan tovushlarni eshitish orqali qabul qilishni o‘rgatishdan iborat. Maxsus ta’limsiz eshitmaydigan kishida nutq rivojlanmaydi. Ushbu yo‘nalishda samarali natijalarga erishish uchun nutqni shakllantirish va rivojlantirish ishlarini iloji boricha ertaroq boshlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Surdopedagogika U Fayziyeva, D Nazarova, F Qodirova “Sano-standart” T.:2012 y

2.F Qodirova, N.Kenjayev “Inklyuziv ta’lim sharoitida kar va zaif eshituvchi bolalarning o‘qishiga ta’sir etuvchi omillar” Academic Research in Educational Sciences Ch.:2020y. 904-910.

3.Кретова Наталья Владимировна, “Современные подходы к проведению коррекционной работы с глухими и слабослышащими детьми дошкольного возраста”.

4.Носкова Л.П., Головчиц Л.А. Развитие речи дошкольников с нарушением слуха. М., 2004.

5.Носкова Л.П., Головчиц Л.А. Методика развития речи дошкольников с нарушениями слуха. М., 2004.

6.ZA Karimova Model of preparation of educators of preschool educational organizations for innovative activities - Web of Teachers: Inderscience Research, 2023. 102-111

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI RIVOJLANTIRISHDA XALQ OG‘ZAKI IJODINING O‘RNI

ORCID:009-0008-8370-8771
Norboyeva Zamira Ravshanbekovna
Alfraganus Universiteti Defektologiya yo‘nalishi 3-kurs talabasi
Karimova Zulfiya Abdurahmonovna
Alfraganus Universiteti Pedagogika va Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya:
Ushbu maqolada folklor - xalq ijodi, uning janrlari, uning kelib chiqish bosqichlari, bolalar folklori, bolalar adabiyotida folklorning o‘rni va ahamiyati, o‘zbek bolalar folklori turlari, ularning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishdagi o‘rni haqida so‘z boradi.

Kalit so’zlar: folklor, xalq og‘zaki ijodi, alla, topishmoq, tez aytishlar, sanamachoq, erkalamalar, ertak,

Davlatimiz rahbari bolalar tarbiyasi jarayonida o‘z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog-kadrlarni jalb qilgan holda, ularni go‘daklikdan fikr va tafakkurni to‘g‘ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma’naviyatga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodni tarbiyalashning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilishi lozimligini ta’kidlab keladilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodi, jumladan, bolalar folklorining o‘rni beqiyosdir. Ilk yoshdagi kuylab beriluvchi alla-qo‘shiqlari, erkalama, sanama, hukmlagichlar bolalarning hissiy-irodaviy sohalarini, nutqlarini rivojlanishiga turtki bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan topishmoqlar yordamida mantiqiy tafakkur qilish qobiliyatlari, tez aytishlar yordamida ravon va sof og‘zaki nutq ko‘nikmalari, xalq ertaklari asosida ma’naviy-axloqiy sifatlari tarbiyalanib boradi, xalq maqollari bolalarda dastlabki xulq-atvor madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Abu Ali ibn Sino o‘zining mashhur “Tib qonunlari” kitobida bola tarbiyasida allaning ahamiyati to‘g‘risida shunday yozadi: “Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun, unga ikki narsani qo‘llamoq kerak. Biri bolani

sekin-sekin tebratish, ikkinchisi uni uxlatish uchun odat bo‘lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badantarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo‘lgan iste’dodi hosil bo‘ladi”. Alla — beshik qo‘shig‘i, u xalq og‘zaki ijodi namunalarida ham keng kuylangan. Bolani yo‘rgaklash, beshikka solish, uxlatish, uyg‘ongan bolani yo‘rgakdan yechib olish singari mashg‘ulotlar kuylar, chiroyli ohangdor so‘zlar bilan bezalgan bo‘ladi… Bunday dilni erkalovchi qo‘shiqlar bolaga ham xush yoqqan – ana shu she’riy to‘qimalar turli voqealarga, ayrim marosimlarga bog‘lab aytilgan bu qo‘shiqni alla qo‘shiqlari deyishgan.

- alla bolalarni ruhiy-hissiy, ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda muhim tarbiya vositasi hisoblanadi;
- alla vositasida bola atrof-muhit, ijtimoiy borliq bilan tanishtiriladi;
- allalarda faqatgina ezgu g‘oyalar kuyga solinadi, bu bolalarda tinchlantiruvchi, orombaxsh etuvchi xususiyatga ega bo‘ladi;
- alla kuylanganda bolada mehr-muhabbat, samimiyat, umid, ishonch, orzumandlikning ilk kurtaklari shakllantiriladi.

Alla – umuminsoniy qo‘shiqdir. U turli tillarda aytilishi mumkin, ammo uning zamirida bir narsa onaning farzandiga cheksiz mehr-u muhabbati yotadi…

Alla aytay, jonim bolam,
Quloq solgin, alla.
Shirin allam tinglab asta,
Uxlab qolgin, alla.
Yuzlaringga tomgan suvga
Hayron bo‘lma, alla-ya.
Baxtimga sen katta bo‘lgin,
Xazon bo‘lma, alla.
Istiqboling porloq sening,
Jajjiginam, alla-ya
Baxtimga sen katta bo‘lgin,
Xazon bo‘lma, alla.
Sevganimdan yodgorimsan,
Oltin qo‘zim, alla-yo.
Men sho‘rlikday to‘kilmagin,
Ko‘rar ko‘zim, alla.

Alla, alla, alla-yo.

Bizga doim shirin xotiralarimizni, xushnud damlarimizni eslatib turuvchi bolalar hayotimizga rangin nurlar berib turadi. Ularga boqar ekanmiz, beg‘ubor ko‘zlarda sof muhabbatni, hech qayerda uchrata olmaydigan samimiyatni ko‘ra olamiz. Shunday ekan ularni erkalagimiz kelaveradi.

Erkalamalar jajji farzandlarimiz uchun g‘oyat muhimdir. Sababi bolalar bizdan doim mehr-muhabbat berishimizni xohlashadi. Ularga dil izhorimizni erkalamalar orqali aytar ekanmiz, qalbimizdagi eng qaynoq so‘zlarimiz otilib chiqishi aniq. Ko‘pincha erkalamalar she’riy tarzda bo‘ladi. Bolaning ilk bog‘langan nutqi ham mana shu erkalamalarni ko‘p eshitib, yodlab olishi orqali shakllanadi.

Dilrabo dilim, dedilar,
Sayroqi tilim, dedilar.
Onajonisining quvvati —
Shugina belim, dedilar.

Suv keladi boshidan,
Hazratimning qoshidan.
Onaginang aylansin
Ko‘zginangning yoshidan.

Bizga ma’lumki, bola nutqining rivojlanishi bevosita barmoqlar harakatchanligi bilan bog‘liq. Xalq og‘zaki ijodidan joy olgan barmoq mashqlari yordamida ilk yoshdagi bolalarning nafaqat barmoqlar harakatchanligi, balki eshituv idroki, og‘zaki nutqi, nutq va harakatning mutanosibligi kabi ko‘nikmalari rivojlantirilib boriladi.

Bosh barmoq, *(bolaning barmoqlarini*
Bodom barmoq, *birma-bir bukib, aytiladi)*
O‘rta terak,
Hojimirak, *(oxirgi satr aytilayotganda*
Kichkina bo‘bak. *bolaning ko‘ksi qitiqlanadi)*

Chapak-chapak, *(bolaning qo‘lchalarini*
Pishirdik chalpak. *chapak-chapak qila turib aytiladi)*
Derazaga qo‘yamiz,
Sovishini kutamiz.

Hoy-hoy, chapak-chapak,
Chapagi kimga kerak?
Otajoni bozor borsa,
Telpagi suvsari kerak.

Sanamachoqlar - keng tarqalgan oʻyinboshi badihalari boʻlib, oʻyin boshlanishi oldidan navbatda turuvchini aniqlash, galda qoluvchini belgilash vazifasini bajaradi. Sanamalarda sanash ohangi qoʻl yoki oyoq harakatlari bilan toʻldirilib, tasdiqlanib turiladi. Eng soʻnggi soʻz kimning chekiga tushsa, oʻsha navbatda qoladi

Chori chambar,
Biri anbar.
Ona qiz qayda?
Ola-bula togʻda.
Togʻman, zuvman,
Pilkash toʻtiqiz,
San tur, san chiq.

Bir-ikki, olmadi ikki,
Safar oyi, sariq chumchuq .
Bogʻda turmay, tez uchib chiq,
Sen turib , sen chiq

Maqollar donishmandlikning mahsulidir. Ular ona- vatanni sevishga ,uning har bir qarich yeri uchun kurashishga, kasb-hunar egasi boʻlishga, ahil boʻlib mehnat qilishga, toʻgʻri soʻz boʻlishga hamda odobli boʻlishga chaqiradi. Masalan, “Yigit kishiga yetmish hunar ham oz”, ”Egri toʻzadi, toʻgʻri oʻzadi”.

Topishmoqlar xalq ogʻzaki ijodining oʻylashga, topqirlikka undovchi qadimiy janrlardan biridir. Har bir topishmoq uni yaratgan xalqning hayoti bilan bogʻliq va bolalar orasida keng tarqalgan. Topishmoqlar bolaning mantiqiy tafakkuri bilan bir qatorda nutqining ravonligini ham rivojlantirishga yordam beradi, bolalar mavsumga, mavzuga mos topishmoqlarni eslashlari yoki oʻzlari oʻylab topishlari mumkinligi esa ularda kreativlik qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Alomat-a, alomat,
Ichi qizil qiyomat.
Hoʻl urdim,

Quruq chiqdi. *(Tandir, non)*

Bir parcha patir, olamga tatir. *(oy)*

Kichkina oxurcha,

Ichi to‘la mixcha. *(Og‘iz, tish)*

Tez aytishlar og‘zaki nutq mashqi bo‘lib, bolalarda ma’lum tovushlarni to‘g‘ri va ohangdor talaffuz qilish bilan bir qatorda xotirani ham mustahkamlaydi.

Misol uchun: Oq choynakka oq qopqoq, ko‘k choynakka ko‘k qopqoq.

Qishda kishmish pishmasmish, kishmish pishsa qishmasmish.

Ertaklar xalq og‘zaki ijodining eng boy va rang-barang janrlaridan biri. Ertaklar insonning axloqiy va ma’naviy yo‘ldoshidir. Ertaklar sodda va tushunarli bo‘lganligi sababli har qanday kitobxonga tez yetib boradi. Bolalarga ertak aytib yoki o‘qib berilar ekan, ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish darkor. Kichik yoshdagi bolalarga kichik hajmdagi “Ikki echki”, “Qumursqa” kabi ertaklarni stol yoki barmoq teatri, rasmli kitoblar asosida aytib berish maqsadga muvofiq. Ular yordamida bolada so‘zlanayotgan voqea haqida aniq tasavvur hosil bo‘ladi. Kattaroq yoshdagi bolalarning tasavvur doirasi ancha kengaygani bois voqealarni tushuna oladilar, nomi tilga olingan qahramonlarni ko‘z oldilariga keltira oladdilar. Shu bilan birga bevosita o‘zlari ham ertakni qayta so‘zlab berishlari natijasida og‘zaki monologik nutqlari rivojlanib boradi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirib borar ekanmiz, bu borada har bir ota-ona yoki boshqa oila a’zolari, maktabgacha ta’lim muassasasi pedagoglari avvalo o‘zlari xalq og‘zaki ijodini, jumladan bolalar folklorini yaxshi bilishlari, ulardan bola tarbiyasida keng va unumli foydalanishlari maqsadga muvofiq. Ayniqsa, elektron gadjetlar hayotimizning asosiy qismini egallab olayotgan bir davrda bolalarning aytishma o‘yinlar aytib, kim o‘zarga topishmoq topib, maqollar ayta olishiga nima yetsin?!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bolalar adabiyoti va folklori. O’zbekiston.Yozuvchilar Uyushmasi Adabiyot Jamg‘armasi. Toshkent. - 2006, 6-Bet.

2. O.Madayev. O’zbek xalq og‘zaki ijodi. Mumtoz so’z. Toshkent-2010

3. A.To‘rabekova, N.Nasriddinova. Xalq og‘zaki ijodi namunalarini o’qitish metodikasi. Monografiya. Guliston-2021

4. S.S.Avezov, D.Xamrayeva. Maktabgacha ta’lim tashkiloti guruhlarida folklor kichik janrlarini o‘rgatish. Monografiya. Buxoro-2022

5. З.А. Каримова Использование узбекских народных natsиональных сказок в нравственном воспитание детей дошкольного возраста - Воспитание дошкольников на основе традиционных духовно-нравственных ценностей народов РФ, 2022

6. “Gulgina” Kichk intoylar uchun badiiy adabiyot majmuasi «YANG I NASHR» nashriyoti / Toshkent – 2010

7. Z.Karimova Editorial Problems of Organizing the Innovative Activity of Preschool Education Organization Editors Under Educational Cluster Conditions. (2023). Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 2(1), 1-10.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ART-TERAPIYA TEXNOLOGIYASI ORQALI IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK ASOSLARI

Toshkent viloyati Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti
,,Maktabgacha ta’lim” fakulteti magistranti
Muxamedova Ferangiz Juma qizi
ferangizmuxamedova@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi davrda yuksak qobiliyatli mutaxassislarni tayyorlashga nisbatan talab kun sayin ortib bormoqda. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy faoliyati va san’atga bo’lgan qiziqishlarini rivojlantirish va ijodiy intellektini art terapiya orqali rivojlantirish masalasida so’z yuritilgan.

Kalit so’zlar: Art terapiya, terapevtik omil, san’at terapiyasi, tasviriy san’at, vizual san’at, ijodiy ifodalanish, adabiy san’at, art terapiya metodlari, drama terapiya, musiqiy terapiya, ijodkorlik

Abstract: Nowadays, the demand for the training of highly skilled specialists is increasing day by day. The article deals with the development of intellectual activity and interest in art and creative intelligence of preschool children through art therapy.

Key words: Art therapy, therapeutic factor, visual art, literary art, art therapy methods, dramatic art, musical art, creativity

Аннотатsiя: В настоящее время потребность в подготовке высококвалифицированных специалистов возрастает с каждым днем. В статье рассматриваются вопросы развития интеллектуальной активности, интереса к искусству и творческого интеллекта у детей дошкольного возраста средствами арт-терапии.

Ключевые слова: Арт-терапия, терапевтический фактор, изобразительное искусство, литературное творчество, методы арт-терапии, театральное искусство, музыкальное искусство, творчество

Har qanday davlatning madaniyati, ijtimoiy ongining balandligi shu xalqning ruhiy sog’lomligi, aqliy quvvati va yuqori darajadagi tarbiyasi bilan belgilanadi. Komil inson bu ijodkor, yaratuvchi, har sohada faol, sog’lom fikrlaydigan, jismonan baquvvat insondir. O’sib kelayotgan yosh avloddan ana shunday sifatlarni tarbiyalashda maktabgacha ta‘lim tashkilotining o’rni kattadir. So’nggi yillarda jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi o’zgarishi, ya‘ni chuqur fikrlovchi, faol, ijodkor shaxsni shakllantirish talabi maktabgacha ta‘lim jarayonini yanada kuchaytirish lozimligini ko’rsatdi. Bu esa ta’limda zamonaviy texnologiyalar hamda ko’rgazmali-amaliy metodlarni keng qo’llash, bolalarning faoliyatni rejalashtirish ko’nikmalari, ijodkorlikni rivojlantirishni taqozo etadi.

Bolalar ijodiyoti tadqiqotchisi E.A.Flyorina bolalardagi ijodiy rivojlanish jarayonini bolaning atrofdagi voqelikni ongli ravishda chizishda, modellashtirishda, qurishda aks ettirishi, xayolot ishi asosida qurilgan, o’z kuzatuvlarini, shuningdek, so’zlar, rasmlar va boshqa san’at turlari orqali olgan taassurotlarini aks ettiruvchi sifatida baholaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-hissiy, ijodiy, estetik rivojlanishida art-terapiya texnologiyalarining nechog’lik o’rni katta ekanligini isbotlovchi V.H.Suhomlinskiyning: "Bolalar go'zallik, o'yinlar, ertaklar, musiqa, rasm chizish, fantaziya, ijod olamida yashashlari kerak" degan ilmiy qarashini ta’kidlab o’tishni joiz deb topdik. Olimlar ijodkorlikni samarali shakllarda rivojlantirishni taklif qilishgan. Ya'ni faoliyatda (modellashtirish, loyihalash, qo'llash), ammo, hozirgi kun zamonaviy ta'lim namoyondalarining fikricha ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun eng qulay shart-sharoitlar - bu har xil turdagi qo'llanmalar, yo'l- yo'riq ko'rsatuvchi majmualardir. Uslubiy adabiyotlarni tahlilqilish shuni ko'rsatdiki, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish maxsus tashkil etilgan muhit (kreativ muhit) da osonlashtiradi. Bola uchun zaruriy kreativ muhit ijodiy qobiliyatining rivoji uchun zamin

bo'lib xizmat qiladi. Aynan kreativ muhitning bolaning ijodiy qobiliyatida muhim ekanligi haqida so’z borar ekan, art terapiya mashg’ulotlari davomida kreativ muhit yaratiladi. Art terapiya tushunchasi ham psixologik ahamiyatiga ham to’xtalib o’tsak, art terapiya- ijodiy faoliyat yordamida insonning ruhiy sog’ligini yaxshilashga yo’naltirilgan psixoterapevtik metod. Bu orqali kishida o’z-o’zini anglash, emotsiyalarni ifodalash va stressni boshqarish qobiliyati rivojlanadi. San’at terapiyasi- insonlarning ruhiy va jismoniy holatini yaxshilash uchun turli san’at shaklllari va ijodiy faoliyatlarni qo’llash usulidir. U ijod orqali o’zini anglash va ifodalash, tushkunlikni bartaraf etish jarayoniga yordam beradi. Art terapiya metodikasining kelib chiqish tarixiga nazar tashlaydigan bo’lsak, san’at terapiyasi tarixi antik dunyo tarixiga borib taqaladi. U yerda ijod, raqs va musiqa insonlarni davolashda qo’llanilgan. San’at terapiyasi XIX asr boshlarida psixiatriya va psixologiya sohasidagi yangi yondashuvlar ta’sirida shakllana boshladi. O’tgan asrning ikkinchu yarmida san’at terapiyasi alohida tibbiy ixtisoslik sifatida rivojlana boshladi.

San’at terapiyasining turlari quyidagilarni o’z ichiga oladi: Vizual san’atlar (rasm, haykaltaroshlik, grafika, kollaj, fotografiya kabi turli visual san’at shakllari)

Musiqa terapiyasi (musiqani tinglash, ijro etish, yaratish orqali o’zini ifodalash)

Drama terapiyasi (rolli o’yinlar, fantaziya, syujetli dramalar yordamida o’zini namoyon qilish.

San’at terapiyasining afzalliklari shundan iboratki, san’at terapiyasi orqali insonlar o’z ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilish va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo’ladi.

San’at ijodiyoti insonlarga o’zlarining his va fikrlarini ifodalash imkonini beradi, ijodiy faoliyat orqali insonlar yangi tajribalarni o’zlashtirish va o’z-o’zini anglashga erishadilar. Art terapiyasi orqali insonda ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi va yangi fikrlar paydo bo’lishni boshlaydi. Bu jarayonda bola o’z ichki dunyosini tushunishi osonlashadi, his-tuyg’ular va ehtiyojlarini yaqqol namoyon qila boshlaydi. Ijodiy ifodalanish asnosida bolalar ham ijodiy faoliyat orqali o’z his tuyg’u, fikr va hissiyotlarini ifoda etadi, aniq yoki abstrakt ishlanmalar orqali bolalar o’z-o’ziga bo’lgan ishonchi va hurmatini oshiradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida art terapiya o’quv mashg’ulot(faoliyat)larida qog’oz, bo’yoqlar,loy, qum, rangli qum, mato,

tosh bo'yoqlari, guash, gilam, modellash plastmassasi kabi plastic materiallar, bo'yoqli qalamlar, o'yinchoq qo'g'irchoq qahramonlar, akvarel, tush, qaychi, yopishqoq, un, don, ip, tasma, plastilin, kabi bir qator vositalar ishlatiladi

Bolada art terapiya mashg'ulotlari davomida ijodiy faoliyati negizida ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi, yangicha ijodkorlik qobiliyatini ochib beradi va yangi malakalarni o'zlashtiradi.

Aynan maktabgacha ta'lim tashkilotidagi 6-7 yoshdagi maktabga tayyorlov guruhlarida art terapiyaning bir qator muqobil turlarini qo'llash orqali bolalarda ijodiy qobiliyatlarni aniqlash hamda rivojlantirishda yetarlicha samaraga erishish mumkin. Bolalar uchun art terapiyaning muqobil turlari qatoriga qum terapiyasi, izoterapiya, rolli o'yin terapiyasi, ertak terapiyasi, musiqa terapiyasi kabi yana bir qator turlarini sanab o'tishimiz mumkin.

Xususan, qum terapiyasi hamda izoterapiya mashg'ulotlari maktabgacha yoshdagi bolalarda(6-7 yosh) bolaning ichki dunyosi, fantaziyalari va orzu-umidlarini ifodalashda samarali usul hisoblanadi. Bu jarayonda bola mutlaqo sokin bo'ladi, o'z ichki dunyosining fantaziyalarini ochib berishda aslo chegara qo'ymaydi, to'g'rirog'I bu jarayonda barcha to'siqlarni unutadi. Chunki bola faqat erkin ijod qilish-ijodiy faoliyat bilan mashg'ul bo'ladi. Aynan shu ijodiy muhit bolani yot to'siqlardan, ta'sirlardan asraydi.

Rolli o'yin harakat terapiya mashg'ulotlarida bola raqs, drama, musiqa orqali o'z ijodiy faoliyatini ifodalaydi. Shu jarayonda bolaning ijodiy qobiliyatlari yuzaga chiqadi hamda rivolanadi.

Adabiy san'at turida esa she'r, hikoya, ertak, masal eshitish orqali bolalarda o'z-o'zini ifodalash jarayoni kechadi hamda bolalar bu jarayonda qahramonlar xarakteridagi xususiyatlarni taqqoslashga, tahlil qilishga urinishadi. Bolada o'z fikrlari ustidan kognitiv fikrlash qobiliyati shakllana boradi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, art terapiya faoliyati ham psixilogik ham pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan, bola ruhiyatidagi nuqsonlarni bartaraf etibgina qolmay, uning xayolot, tasavvur dunyosini o'stiruvchi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi , shubhasiz eng samarali usuldir. Aynan biz bolaning ruhiy holatini yaxshilamasdan turib uning aqliy salohiyatini o'stirishda yetarlicha samaradorlikka erisha olmaymiz. Hammaga ma'lumki, nafaqat maktabgacha yoshdagi bolalar, balki katta

yoshdagi insonlarda ham ijtimoiy, ta’limiy jarayonlarda muvaffaqiyatga erishishdagi ustunlik har tomonlama ruhiy holatning yaxshiligiga borib taqaladi. Aynan art terapiya texnologiyalari bilan shug’ullanishdagi ijodiy jarayon boladagi ham psixologik ham ta’limiy muammolarga oqilona yechim topish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Raxmatova Shaxnoza Oybek qizi
“Maktabgacha ta`lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining ijodkorligini rivojlantirishning ijtimoiy pedagogik xususiyatlari” mavzusida magistrlik dissertatsiyasi Toshkent, 2024
2. Muxamedova.F.J. ,,Maktabgacha yoshdagi bolalarda art terapiya texnologiyasi orqali ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasi” ilmiy maqola

SOG’LOM BOLA RIVOJLANISHIDA RAQAMLI AUTIZM MUAMMOSINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MASALALARI?

Otajonova Dilrabo Ramil qizi
Alfraganus universiteti Pedogogika fakulteti
3-kurs Defektologiya 22-1 guruh talabasi
+998 88 507 06 07
Bilolova Zamira Baxtiyarovna
Psixologiya fanlari falsafa doktori (PhD)
+998 90 168 88 17

Annotatsiya: Ushbu maqolada xozirgi kunda bolalar orasida ommalashib borayotgan “Raqamli autizm” haqida fikr yuritilgan bo‘lib, bu ruxiy holat buzilishlarining dunyo miqyosida dolzarb mavzuga aylanib borayotganligi, tarixi, bugungi kun holati va mavjud muammoga oid tavsiyalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: autizm, raqamli autizm, internet tarmog‘i.

Autizm (grekcha «autos» – «o‘zim» degan so‘z) – bu ruhiyatning o‘ziga xos holati bo‘lib, bemor tashqi olam, atrofdagilar bilan muloqot qilishni istamaydi. U yolg‘izlikni yoqtiradi. Yana bir xil xatti-harakat va

shunday so‘zlarni takrorlaydi. Autizm tashxisli bola o‘z olamida yashaydi. Fikrlashi boshqalarnikiga o‘xshamaydi. Ularning xatti-harakatlari real voqelik bilan bog‘liq emas. Bemorlarning harakatlarida hissiy kechinmalar asosiy o‘rin tutadi. Bu kasallik sindromi o‘g‘il bolalarda qiz bolalarga nisbatan ko‘p uchraydi.

Raqamli autizm - 4 yoshgacha bo‘lgan bolalarning ekran oldida ko‘p vaqt sarflashi sabab ularda autizmga o‘xshash alomatlar yuzaga kela boshlashi bilan namoyon bo‘ladi. Bu atama, ayniqsa, pandemiyadan keyin ko‘p ishlatila boshlandi. Internetdan tartibsiz foydalanish natijasida raqamli autizm yoki virtual autizm kasallikgi kelib chiqadi. Autist bolalarga tashqi dunyoga befarqlik, o‘zi bilan o‘zi gaplashish, ijtimoiylasha olmaslik, hislarni ajrata olmaslik kabi holatlar xos.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, internet foydalanuvchilarining har uchinchisi – bolalar. Ular internet orqali o‘yin o‘ynashadi, video ko‘rishadi va shu orqali turli ko‘rinishlarda axborot iste’mol qilishadi.

Autizm markazining statistikasiga ko’ra:

-1975 yilda 5000 boladan 1 tasiga autizm tashhisi qo’yilgan

-2005 yilda 500 boladan 1 tasida

-2014 yilda esa 68 boladan 1 tasida autizm aniqlangan.

2008 yilda Amerikaning Pediatriya akademiyasi quyidagi tavsiyalarni berdi:

- 0-2 yoshli bolalarga mul’timedia texnologiyalari va qurilmalariga yaqinlashish imkoniyatini to’liq cheklash;
- 3-6 yoshli bolalarga kuniga 1 soatdan ortiq ruxsat bermaslik;
- 6-12 yoshdagilarga esa maksimum 2 soatgacha ruhsat berish tavsiya qilindi.

Bolani kuniga 2 soatdan ko‘p ekran oldida qoldirish me’yordan ortiq hisoblanadi va bola rivojlanishida quyidagi xavflar paydo bo‘lishi mumkin:

- kognitiv qobiliyatida sustkashlik;
- ijtimoiy munosabatlarga kirisha olmaslik;
- ko‘z orqali kontaktning yo‘qligi;
- nutqiy rivojlanishdan orqada qolishi;
- kommunikativ ko‘nikmalarning pasayishi;
- tanqidiy fikrlashning buzilishi;
- hamda yolg‘izlik hissi raqamli autizmning belgilaridir.

Kasallik 80% xollarda o’g’il bolalarda ko’proq kuzatiladi. Klassik autizmda destruktsiya nevrologik asosga ega bo’lgan biologik faktorlar

bilan bog’liq bo’lib, jarayon qaytmas xarakterga ega. Miyaning ushbu sohalarida sinaplar qayta xosil bo’lmaydi. Raqamli autizmda esa neyron rivojlanishi lozim bo’lgan sohalarining stimulyatsiya bo’lmasligi hisobiga nutqning rivojlanmasligi va b.q. belgilar yuzaga keladi. Bu jarayon qaytar xarakterga ega hisoblaniladi.

Autizmning eng yangi tarixi quyidagi muhim sanalarni o'z ichiga oladi:

- Graham Farmelo, "Eng g'alati odam" nomli kitobida, 1902 yilda tug'ilgan Pol Dirakni o‘rganadi va autizmni tanimaganligi va hatti-harakatlari haqida yozadi. (1902/2011)
- Rossiyaning Kiev shahridagi bolalar psixiatri Gruniya Suxareva “Nemis psixiatriyasi va nevrologiyasi” jurnalida autistik xususiyatlarga ega bolalar haqida maqolasi chop etildi. (1926)
- Nyu-Yorkdagi ruhshunos Luiza Despert bolalarning shizofreniya kasalliklarining 23 ta holatini yozdi, ularning ba'zilarida bugungi kunda autizm tasnifiga o'xshash alomatlari bor edi. (1938)
- Hans Asperger autizm yoki autismus bo'lgan bolalarning birinchi ilmiy tadqiqotini nashr etadi. U Vena shahridagi shifoxonada autizm va Asperger sindromi bo'lgan 100 nafar bola bilan ishlagan bo’lishiga qaramay, ushbu tadqiqotda faqatgina to'rt nafar bola ishtirok etgan.(1943)
- Leo Kanner, "Asab bola" jurnalida erta autizm bilan kasallangan 11 nafar bemorni (1944 yilda yaratilgan) tavsiflab beruvchi "Offektiv aloqaning autistik bezovtaligi" nomli maqolasi nashr etildi. (1943)
- Bruno Bettelxaym autizmning sababi sifatida “sovitkichli ona” nazariyasini ilgari surdi va "Bo'sh qal'a" nomli kitobini yozdi. (1967)
- DSM-Ida autizm belgilari bo'lgan bolalar bolalik davridagi shizofreniya deb ataldi. (1952)
- Shimoliy Londonda autistik bolalarga yordam berish jamiyati shakllandi (keyinchalik Milliy autistik jamiyatga aylanadi). (1962)
- Bernard Rimland «Infantil autizm: sindrom va uning xulq-atvori nazariyasining ta'siri» nomli kitobini nashr etdi. (1964)
- Ole Ivar Lovaas autistik bolalar uchun ABA terapiyasining nazariyasini ishlab chiqishga kirishdi. (1964)
- Sybil Elgar maktabi ochildi va "autizmli bolalar uchun ta'lim va g'amxo'rlik" boshlandi. (1965)

- Autistik bolalar ota-onalari guruhi autistik bolalar milliy jamiyati (hozirda Amerikaning autizm Jamiyati deb nomlangan) birinchi uchrashuvini o'tkazdi. (1965)
- Vashingtondagi Autistik bolalarning birinchi yillik kongressi Milliy jamiyati bo'lib o'tdi. (1969).
- Buyuk Britaniyada autizmli odamlar uchun birinchi mutaxassislik markazi “Somerset sudi” ishga tushdi. (1972)
- "Har bir nogiron bolaga ta'lim", "Ilgari maktabdan chiqarib yuborilgan bolalar uchun" shaxsiy ehtiyojlarini qondirish, va natijalarini yaxshilash uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash" aktlari qabul qilindi. (1975)
- DSM-III infantl autizm kasalliklari uchta muhim xususiyatga ega bo'lgan mezonlarni o'z ichiga oladi. (1980)
- Susan Moreno autizm bilan bog'liq bo'lgan "Qoldiq Autism Bülteni" (keyinchalik "ko'proq autistic odamlarga" yoki "MAPP" deb nomlangan)
- 24 yoshli autistik yoshli erkakning videoklipi - "autistik yigitning portreti" chiqdi. (1986)
- DSM-III-R PDD-NOS qo'shib, autistik bolalar tashxisiga biroz ko'proq moslashuvchanlikni oshiradi. (1987)
- autizm, nogironlik bo'yicha ta'lim to'g'risidagi qonunga (IDEA) ega bo'lgan alohida nogironlik toifasiga kirdi va bu xizmatlarni olishni osonlashtirdi. (1990)
- ″Autizm Network International tashkiloti autistik kishilar guruhi tomonidan yaratiladi. (1992)
- DSM-IV dagi autizmga tashxis kategoriyasiga ko'proq subtip va boshqa alomatlar qo'shiladi. (1994)
- Ketrin Maurits "Meni ovozimni eshiting: oilada autizmga qarshi urush" (1994)
- Autizmni davolash metodlari islab chiqila boshlandi va natijada Autizm bemor bilan gaplashdi. (1995/2007)
- Endryu Wakefield "Lancet" dagi o'z maqolasini e'lon qildi va autizm xavotirlari sababli MMR emlovini endi ishlatmasligini aytdi. (1998)
- Susan Senator "Autizm bilan tinchlik o'rnatish" (2005)
- Autizmga qarshi kurash to'g'risidagi qonun (2006/2011)
- Amelia Baggs YouTube'ga "Mening tilimda" videosini yozadi (2007)

- CDC / ADDM hisoboti autizm tarqalishining 150 nafar bolada 1 nafarini tashkil etadi (1994 yilda tug'ilgan bolalar). (2007)
- Jenni MakKarti, nasl-nasab va boshqa atrof-muhit omillari autizm keltirib chiqaradi deb hisoblaydigan avlodni qutqarish bilan ishlay boshlaydi. (2008)
- Alison Singer Autism Science Foundation ni ishga tushirdi. (2009)
- CDC / ADDM hisoboti autizm tarqalishining 110ga (1998 yilda tug'ilgan bolalar) 1ga oshganini bildiradi. (2009)
- dori-darmonlar qo'llash ta'qiqlandi. (2010/2004)
- CDC / ADDM hisobotida autizm tarqalishining 88ga (2000 yilda tug'ilgan bolalar) 1 ga oshganligi ko'rsatilgan. (2012)
- CDC / ADDM hisobotida autizm tarqalishining 68ga (2002 yilda tug'ilgan bolalar) 1ga oshgani aytiladi. (2014)

Stiv Silberman “NeuroTribes: Autizm merosi va neyrologiyaning kelajagi” nomli kitobida, “autist odamlar doimo insoniyat jamoasining bir qismi bo'lgan"- deb aytilgan. Bugungi kunda autizmning 98 ta turi bo‘lib, ularning har biri alohida hususiyatlar bilan kechadi va o‘ziga xosdir. Autizmning ayrim turlarida bolalar tashqi muhitdan uzilib qoladi, bir guruhi esa o‘zini o‘zi eplay oladi. Yana shunday autist bemorlar borki, ulardan mashhur olimlar yetishib chiqadi. Bunga Eynshteyn, Motsart, Charlz Darvin, Tomas Jefferson, Bill Geytsni misol qilib keltirish mumkin.

Shu vaqtgacha autizm kasalligini genetik kasallik deb hisoblashgan. Lekin so‘nggi ma'lumotlarga ko‘ra, autizm kasalligi atrof-muhitdagi zararli-kimyoviy moddalarning ko‘payishidan, 4 yoshgacha bo‘lgan bolalarning ekran oldida ko‘p vaqt sarflashidan kelib chiqmoqda va raqamli autizm dolzarblashib bormoqda.

Hayoti You Tubedan iborat bo‘lib qolgani uchun odamlar bilan muloqot qila olmay qolgan, xuddi qisqa videolar kabi mavzudan mavzuga sakrab o‘tib ketadigan, virtual dunyoga tushib qolishni orzu qiladigan bolalar ko‘payib bormoqda. Qo‘rquv uyg‘otuvchi videolarni tomosha qilish miyaning kichik miqdorda dopomin qabul qilishiga sabab bo‘ladi. Dopomin tanani rag‘batlantiruvchi funksiyani bajaradi va biror harakatni qayta-qayta bajarishga xohish uyg‘otadi. Bu harakat ular videoda ko‘rgan xavfli vaziyatni takrorlab ko‘rish istagi bo‘lishi ham mumkin.

Rozaliya Gabdulhaqovaning fikriga koʻra, kichik yoshdagi bolani video qoʻyib chalgʻitish – muammoni hal qilmasdan uni vaqtincha tinchitish degani.

“Bolakay biror vaziyatni qabul qilolmagani uchun yoki nimadandir norozi boʻlgani uchun yigʻlaydi. Ona esa buni tushunib muammoni hal qilish oʻrniga uni telefon bilan chalgʻitib turadi xolos. Bolaning yoshiga qarab uning xarxashasi ham har xil boʻladi. Masalan, 3 yoshli bola xohishlarini yaxshi tushuna olmaganidan yoki talab qilishni oʻrganayotgani uchun injiqlanishi mumkin. Undan kichik yoshdagi bola esa qoʻliga telefon berishlariga oʻrgangan boʻlsa yana shuni talab qilayotgan boʻladi. Sababi bolalarga bir xillik koʻproq yoqadi va u video koʻrib xotirjam boʻlishga oʻrgangan boʻlsa, yana shuni talab qiladi.

Sog’lom bola rivojlanishida va raqamli autizm kasalligini oldini olishda quyidali tavsiyalarga amal qilish muhim hisoblaniladi:

-kasallikni erta aniqlab muhitni oʻzgartirish;

- ona bolaning yoshidan kelib chiqib, u uchun ekran oldida oʻtirish oʻrniga yangi mashgʻulot oʻylab topish;

- bola xarxashasining aniq sabablarini oʻrganib, hal qilishga harakat qilish;

-bolaning kun tartibini tuzish, ekran oldida oʻtadigan vaqtini boshqa mashgʻulotlarni bajarishga almashtirish;

- bolalarni koʻproq koʻchada, tabiat qoʻynida muloqotda boʻlishiga e’tibor berish;

- maktab yoshidagi bolalarda raqamli hayotga sarflangan vaqtni ota-onalar nazoratini oʻrnatish, kuzatib borish, har kuni ilovalardan foydalanish uchun cheklov oʻrnatish;

- ekspertlar tomonidan 1-2 yoshli bolalarga multimedia texnologiyalariga yaqinlashish imkoniyatini toʻliq cheklash, 3-6 yoshli bolalarga kuniga 1 soatdan ortiq izn bermaslik, 6-13 yoshdagilarga 1-2 soatgacha ruxsat berish tavsiya qilinadi.

Zamonaviy dunyoda «oʻrgimchak toʻri» – internetda oʻtkaziladigan vaqtni majburan cheklash yoki undan foydalanishdan butunlay voz kechish deyarli imkonsiz. Ammo gadjetlardan oqilona foydalanish, ularni ishlatish odobiga rioya qilish muhimdir. Bunday sharoitda bolalarni gadjetlardan cheklash emas, ularni qarovsiz qoldirmagan holda axborot iste’moliga oʻrgatib borishdan toʻgʻrirogʻi boʻlmasa kerak. Bunda koʻp narsa ota-onaning sabriga bogʻliqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Manouilenko I, Suxareva - Asperger va Kannerdan oldin. Nord J Psixiatriya. 2015 yil, avgust; 69 (6): 479-82
2. Beyker, Jeffrey, P. Autizm 70 da - chegaralarni qayta ko'rib chiqish. N Engl J Med 2013; 369: 1089-1091
3. Fellowes, Shoh. Kanner aslida autizmning birinchi hisobini ochib berdimi? 1938 yilgi sir. Autizm va rivojlanish kasalliklari jurnali. Iyul, 2015 yil, 45-son, 7-son, 2274-2276-son
4. Feinstein, Adams. Autizm tarixi: kashshoflar bilan suhbatlar.
5. Silberman, Stiv. NeuroTribes. 2015 yil.
6. Умаров Б.М. Акрамова Ф.А. “Ўзбекистонда оилавий психологик хизматнинг долзарб муаммолари”. Монография.
7. Умаров Б.М., Сайдуллаев А. Фарзанд тарбиясига бефарқ бўлмайлик (ёки ёшлар хулқ-атворига оид психологик чизгилар). Услубий қўлланма. Т.: 2016. ООО “HAYOT NASHR”. -56 б.
8. Умаров Б.М. Психологические причины преступного поведения несовершеннолетних в Узбекистане. / Вестник интегративной психологии, Выпуск 14, 2016. Москва. Стр. 184-187.
9. Билолова, З. Б. (2022). Ота-оналар саводхонлиги оила мустаҳкамлигининг таянчи сифатида. *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, *2*(11), 480-483.
10. Бекназарова, С. С., & Билолова, З. Б. (2020). Социологическое исследование на тему:«пути повышения эффективности защиты детей от негативной информatsii в сети интернет». *Современное состояние медиаобразования в России в контексте мировых тенденций: материалы II международной научной конференции. Таганрог, 15 октября 2020 г., 1(1), 159.*
11. Bilolova, Z. B. (2019). Application of information and communication systems and technologies in the social support and rehabilitation of families. Методы науки, 5(5), 18-19.
12. Bilolova, Z. B. (2015). Sog‘lom avlod tarbiyasida oila va mahallaning hamkorligi. Xalq ta'limi, 1(5), 113-118.
13. https://uza.uz/oz/

Nutqni rivojlantiruvchi korreksion mashg‘ulotlarda arttexnologiyalardan foydalanish

Xojamurotova Xadicha
Alfraganus universiteti Pedagogika fakulteti
Maxsus pedagogika(logopediya) yo‘nalishi
2-kurs talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada: nutq tuzilishi, nutqni rivojlantiruvchi korreksion mashĝulotlar, maxsus talimda art texnologiyaning turlari, qo‘llanishi interfaol metodlari orqali nutqida nuqsoni bòlgan bolalarni rivojlantirish va korreksiyalash haqida malumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar:

Interfaol, korreksiya, art texnologiya, izoterapevtik uslub, mnemonika ertak terapiya, musiqa terapiya, differensiyalash, akustik, dinamik

Nutq - inson tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirish, avlodlarga uzatish yoki aloqa o'rnatish, o'z shaxsiyharakatlarini rejalashtirish va amalga oshirish maqsadida tildan foydalanish jarayoni. Nutq - tildagi mavjud ifoda vositalaridan foydalangan holda voqelikka aylangan fikr bo‘lib, ikki xil ko'rinishda namoyon bo'ladi:

1. Ichki nutq: inson ongida hosil bo‘ladigan, hali amalga oshmagan til elementlaridan tashkil topgan, kishining og‘iz ochmasdan fikrlashi, mulohaza yuritishi o‘ylashi ichki nutqdir.

2.Tashqi nutq (og‘zaki): monolog, dialog; yozma: doklad, referat, annotatsiya va boshqalar.

Nutq buzilishi mexanizmlarini tushunish tuzatish jarayoni qonuniyatlarini aniqlash uchun oliy ruhiy funksiyalarning; dinamik lokalizatsiyalanishi to'g'risidagi, nutqning ongda shakllanishi borasidagi bilimlarni egallash kerak bo‘ladi. Nutq murakkab funksional jarayondir. Uning asosida muloqot jarayonidagi til belgisi tartiblaridan qo‘llanish yotadi. Tilning murakkab tizimi uzoq muddatli ijtimoiy-tarixiy rivojlanish mahsuli bo‘lib, u bola tomonidan nisbatan qisqa muddatlarda o‘zlashtirib olinadi. Har biri nutq faoliyatining o‘ziga xos vazifasini bajaradi.

Nutq faoliyati barcha bloklarning birgalikda ishlashi natijasida vujudga keladi. Shu bilan birga har bir blok nutq jarayonida alohida, maxsus o‘ziga xos xususiyati bilan ishtirok etadi.

Nutqning akustik belgilarini ajratib ko‘rsatish va differensiyalash nutq eshitish analizatorlari kortigal apparatlarining analitik-sintetik faoliyati bilan ta’minlanadi. Bunga miya qobig‘i markaziy va old motor quyi bo‘linmalari sohasi bilan bog‘liq bo‘lgan bosh miya qobig‘i (Vernike doirasi)ning so‘1yugori ikkilamchi qismlari kiradi. Nutg aktining artikulatsiyalashuvi, motor tashkil etilishi jarayoni nutq apparati muskullarining murakkab tuzatuv ishini maxsus muvoliqlashtirish asosida amalga oshiriladi. Nutq aktining motor quyi yig‘indisi markaziy qismlarining ikkilamchi bo‘limlari (kinestetik apparat) va chap o‘ram qismining qismining quyi bo‘limlari (kinetik apparat) bilan ta’minlanadi. Markaziy qismda nutq apparati muskullaridan yuboriladigan kinestetik sezgilar analizi sodir bo‘ladi. O‘ram qismida esa nutq aktining motor dasturi tashkil etiladi, qator nerv impulslari, bir harakatdan ikkinchi harakatga yengil o‘tish imkoniyatini ta’minlovchi kinestatik modellar yaratiladi.

Nutq birliklarini tanlanish va ularning kompensatsiyalashuvi, ma’noning nutq ko‘rinishiga aylanish jarayoni bosh miya qobig‘ining eng yugori darajada shakllanishidir. U, ya’ni nutq bosh suyagi old va ustki qismi uchlamchi bo‘linmalarining aralashuvisiz hosil bo‘lmaydi. Bosh miya qobig‘ining uchlamchi bo‘limlari bir tekisda qabul qilinadigan akustik-motor axborotlarining fikrlash sxemasi va obrazlariga o‘tkazilishini ta’minlaydi. Miya qobig‘ining ustki qismida, shuningdek, keng aloqalarni anglatuvchi sxema ham shakllanadi.

Yozma nutq jarayonida ham bosh miya qobig‘ining ensa va ensa-tepa qismlarining turli bo limlari ishtirok etadi.

Nutq buzilishining ko‘pgina turlari markaziy asab tizimining organik shikastlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, u logoped va nevropatolog-shifokor yoki psixonevrologning hamkorlikda ishlashi bilan aniqlanishi mumkin.

Nutq buzilishi hollarida ruhiy faoliyatning turli buzilishlari: ruhiy rivojlanishda orqada qolish, o‘zini tutish va his-hayajon hollaridagi buzilishlar, diqqat-e‘tibor, xotira, aqliy faoliyat buzilishlari ko‘zga tashlanishi mumkin. Nutq buzilishlarini ularning paydo bo‘lish mexanizmlari tahlili, markaziy asab tizimi buzilishlari bilan bog‘lig bo‘lgan, birlamchi va ikkilamchi ruhiy faoliyati ishlarining hammasi psixonevrolog-shifokorning xizmat doirasiga kiradi. Psixonevrolog-shifokor bolaning aqliy jihati haqida xulosa chiqaradi, nutqiy kamchiligini tibbiy jihatdan aniqlaydi, talab etiladigan davo choralarini qo‘llaydi.

Nutq buzilishining ko'pgina ko'rinishlari miya rivojlanishining barvaqt sekinlashuvi bilan bog‘liq. Bunday hollarda logopedik ish markaziy asab tizimini maxsus dori-darmonlar bilan davolash orqaligina samara berishi mumkin. Bunday davoni psixonevrolog-shifokor belgilaydi. Ayrim paytlarda nutq buzilishlari his-hayajonli qo‘zg‘alishning kuchayishi natijasida sodir bo‘ladigan harakatdagi notinchlik bilan qo‘shiladi. Bunda bola maxsus davolangunga qadar logopedning ishi besamar bo‘laveradi. Nutqning alohida ko‘rinishdagi buzilishlariga, masalan, duduglanishning ayrim turlari, mutizmga yoki keskin ruhiy iztiroblar - qo‘rqish, hayajon, ko‘nikkan muhitning almashinishi (yaqin kishilaridan ayrilish) va boshgalar sabab bolishi mumkin. Ular paydo bo‘lish vaqtida bola tegishli kun tartibi va davoga muhtoj bo‘ladi; faqat psixonevrolog-shifokor va logopedning hamkorlikda ish olib borishi uning sog‘ayib ketishiga zamin hozirlaydi. Bu m’lumotlarning hammasi shundan dalolat beradiki, logopediya pedagogik fan hisoblangani bilan u o‘z oldidagi vazifalarini faqat tibbiyot fanlari va avvalo, nevropatologiya hamda bolalar psixologiyasi yordamida muvatfaqiyatli bajarishi mumkin.

Anomal bolalarni, shu jumladan, nutqi buzilgan bolalarni ham o‘qitish va tarbiyalash nazariyasi asab tizimi tuzilishi, uning rivojlanish xususiyatlari va vazifalari hagidagi bilimlar asosiga quriladi. Logoped nutq buzilishining nevrologik asoslarini bilishi, bolalar psixopatologiyasi masalalarini tushunishi kerak. Unda oligofreniya va ruhiy rivojlanishning tormozlanishi, harakat va his-hayajonli buzilishlarda namoyon bo‘ladigan, bolalardagi ruhiy buzilishlarning eng ko‘p uchraydigan shakllari hagida ham tasavvur bolishi lozim. Bu bilimlar unga nutq buzilishining sabablarini to‘g‘ri aniqlashda, tuzatishning samarali metodlarini tanlashda, bolani o‘qitish va tarbiyalash hamda uning nuqsonli rivojlanishini oldini olishda yordam beradi. Logopediyaning vazifasi — nutq buzilishlarini tartibga solishni takomillashtirishdir.

Logopedik ta’sir o ‘z ichiga korreksion t a’lim vazifalarini oluvchi pedagogik jarayondan iborat. Korreksion t a ’lim jarayonida quyidagi umum dida ktik tamoyillarga katta ahamiyat beriladi: ta’limning tarbiyalovchi xususiyati, ilmiylik, sistemalilik, ketma-ketlilik, ko‘rgazmalilik, tushunarlilik va faollik, mustahkamlilik, yakka yondashish.

Logopedik ishlarni olib borishda asosiy o‘rinni, shaxsni bir butunlikda korreksiyalash va tarbiyalash egallaydi. Bunda shaxsning yoshi, nutqiy nuqson tuzilishlari hisobga olinadi. Bosh miyaning shikastlanishi bilan

bog‘liq bo‘lgan nutqiy faoliyat buzilishlarini korreksiyalashda shaxs xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega (alaliya, afaziya, duduqlanish, dizartriya).

Nutqiy kamchiliklarni korreksiyalash, yetakchi faoliyatni hisobga olish bilan birgalikda olib boriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘yin faoliyati, motorika, sensor soha, lug‘at boyligi, til qonuniyatlarini egallash bola shaxsini shakllantirish jarayonida olib boriladi.

Turli xil nutqiy kamchiliklarni bartaraf etishda logopedik ta’sirning asosiy shakllari bo‘lib, ta’lim -tarbiya, korreksiya, kompensatsiya, adaptatsiya, reabilitatsiya hisoblanadi.

Logopedik ta’sir turli xil metodlar yordamida amalga oshiriladi. Ta’lim metodlarining turli xil tasniflari mavjud. Logopedik ishda: amaliy, ko‘rgazmali va og‘zaki metodlardan foydalaniladi, u yoki bu metodni qo‘llash nutqiy nuqson xususiyati bilan belgilanadi. Bundan tashqari logopedik korreksion ishlarda an’anaviy metodlardan tashqari noan’anaviy metodlardan foydalanish ham samarali natija beradi. Jumladan bir qator art-texnologiyalardan foydalangan holda bolalarda nafaqat nutqdagi kamchiliklarni, balki ruhiy rivojlanishdagi orqada qolishlarni, xulq-atvordagi buzilishlarni korreksiyalash mumkin. Hozirgi kunda keng qo’llanila boshlangan art-texnologiyalarning vazifalari quyidagicha:

Mavjud art-texnologiya usullarini moslashtirish va ulardan alohida yordamga muhtoj bolalar va ularning ota-onalari bilan psixokorreksion ishlari tizimida foydalanish.

Turli yoshdagi va shaxsiy rivojlanishning turli xil buzilishlari bolgan alohida yordamga muhtoj bolalar bilan psixokorreksion ishlarda artterapiyadan foydalanishning xususiyatlarini ochib berish va samaradorligini aniqlash.

Alohida yordamga muhtoj bolalardagi turli xil kasalliklami tuzatishni ta'minlaydigan art-texnologiyalari va korreksion dasturlarini ishlab chiqish.

Alohida yordamga muhtoj bolalardagi o‘zini-o‘zi nazorat qilishga o‘rgatish, iqtidorini namoyon qilishga yordam berish va o‘z-o‘ziga bo‘lgan bahoni ko‘tarishga o‘rgatishdan iboratdir

Art-texnologiya nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning, nutq nugsonlarini bartaraf etish hamda bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantirish. Ularning ruhiyatini barqarorlashtirish va yashirin qobiliyatini yuzaga chiqarishdan iboratdir.

Art-texnologiya metodlarining mohiyati va mazmuni.

Metod so'zi grekcha tadqiqot, maqsadga erishish yo'li, usuli deganidir. Bu so'zning etimologiyasi (kelib chiqishi) uning ilmiy kategoriya sifatidagi talqinida ham aks etgan. “Metod - eng umumiy ma’noda - maqsadga erishish usuli, ma’lum tarzda tartibga solingan faoliyat”. Ta’lim metodlari deyilganda, o‘rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo‘yicha o‘qituvchining o‘rgatuvchi ishi va o‘quvchilar o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari tushuniladi. Art-texnologiyada metodlarni 3 guruhga ajratamiz. Bular: Og‘ zaki, amaliy va ko‘rgazmali metodlardir.

"Art Therapy" atamasi ikkita so'zning qo shilmasidan hosil bo‘lgan. "Art" inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib-"san’at", "Terapiya" so‘zi esa yunoncha "therapia" so‘zidan olingan bo‘lib - davolash degan ma’noni anglatadi. Art terapiya- san’at bilan davolash demakdir. Art terapiya -bu san’at va ijodkorlikka asoslangan psixoterapiyaning eng yosh va jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biridir. Bu diagnostika, tuzatish va shaxsning psixologik muammolarini davolashni o‘z ichiga oladi.

Art terapiya - bu ijodkorlik va turli xil badiiy texnikalarni o‘z ichiga olgan psixoterapiyaning eng samarali usullaridan biridir. Art-terapiya yordamida tuzatish eng yumshoq va samarali hisoblanadi. Bu sizga ijtimoiy moslashuv muammolaridan tortib, bolalarning salohiyatini rivojlantirish bilan yakunlangan turli xil muammolarni hal qilishga imkon beradi. Art-terapiyaning asosiy maqsadi bolada ozini-o‘zi bilish jarayonini o‘zlashtirish va uning o‘zini namoyon qilish qobiliyatini rivojlantirishdir.

“Art terapiya” tushunchasi hozirgi vaqtda bir necha ma’noga ega:

- davolash va tuzatishda ishlatiladigan san’at to‘plami;
- art-terapiya texnikasi to‘plami;
- psixoterapevtik va psixoreksiya amaliyotining yo‘nalishi;
- usul.

Dastlab art-terapiya rasm terapiyasi, ya’ni tasviriy san’at bilan davolash deb nomlangan. Bugungi kunda art-terapiya mavjud kop turlari va kichik turlari paydo bo‘lgan.

“Art terapiya” (art-terapiya) atamasi birinchi bo‘lib 1938 yilda Adrian Xill tomonidan sanatoriylarda sil kasalligi bilan og‘rigan bemorlarning badiiy mashg‘ulotlarini tasvirlashda ishlatilgan. Keyin bu atama terapevtik san’atning barcha turlariga qo‘llanila boshlandi. Kasbiy faoliyatning maxsus turi sifatida artterapiya Ikkinchi Jahon Urushidan keyin Buyuk Britaniyada psixoterapiya bilan bog‘liq holda rivojlana boshladi. Ijodkorlikda qasddan

oʻzini oshkor qilish bilan terapiya Z.Freydning psixoanalizidan, K.G. Yungning analitik psixologiyasidan Moreno psixodramasidan va amerikalik oqituvchi M.Naumburgning grafik ifodasi bilan terapevtik yordamning dinamik nazariyasidan kelib chiqdi.

A.Kopitinning soʻzlariga koʻra, art terapiya turli fanlarni - psixologiya, tibbiyot, pedagogika, madaniyatshunoslik va boshqalarni birlashtirgan fanlararo bilim sohasidir. Uning asosi badily amaliyotdir, chunki art-terapiya mashgʻulotlari paytida mijozlar vizual faoliyat bilan shugʻullanishadi.

Maktabgacha taʼlim tashkilotida art terapiya - bu bolaning ruhiy salomatligiga olib boruvchi yoldir. Art terapiyaning quyidagi turlari mavjud:

musiqa terapiyasi (vokal terapiya, cholgʻu asboblarini chalish), ertak terapiyasi, izoterapiya, mnemotexnika, qoʻgʻirchoq terapiya, ijodiy oʻyin terapiyasi,

aromaterapiya, kulguterapiya, xromoterapiya (yorugʻlik va rang bilan davolash), kinezoterapiya (raqs terapiyasi, logoritmika, psixogimnastika).

Musiqa terapiyasi - bu musiqani ohangiga, uning ritmik asosi va ijrosiga qarab hissiy idrok etishga asoslangan psixoterapiya usulidir. Musiqa alohida ehtiyojli bolalarning hissiy rivojlanishiga ijobiy taʼsir koʻrsata oladi, taʼlim jarayoni ishtirokchilari oʻrtasida oʻzaro ishonchni, bir-birini tushuna olishga yordam beradi. Jumladan, alohida ehtiyojli bolalar bilan olib boriluvchi korreksion ishda Karl Orfning “Musiqa bolalar uchun” metodikasi elementalaridan foydalanilganda, musiqa va harakatdagi improvizatsiya orqali bolalarning musiqiy istedodi ochib beriladi. Bunda bolalar biron nodir asar ijro etishlari emas, oʻzlarini namoyon eta oladigan ijodiy jarayon muhim. Orf-mashgulotlardagi improvizatsiyalar jamoaviy ijro etiladi. Aynan shu xususiyat har bir bolaga uning nuqsoni, musiqiy layoqati darajasidan qat'i nazar oʻz oʻrnini topish imkonini beradi.

Izoterapevtik uslublar (noan'anaviy rasm chizish) “bostirish”, barmoq bilan chizish, yumshoq qogʻoz bilan chizish, shisha sirtiga chizish, manniy yormasi bilan chizish, barglar, paxta, tayoqchalar, tosh bilan chizish texnikasi, qopqoqni botirib chizish, kaft bilan chizish kabilar alohida ehtiyojli bolalarning kognitiv rivojlanishlari uchun qoʻllaniladi.

Ertakterapiya - bu ertak shaklini shaxsni rivojlantirish, tafakkuri kengaytirish va nutq orqali atrof-olam bilan ózaro ta'sirini yaxshilashda qoʻllaniladigan uslubdir.

Mnemonika- bu sun'iy assotsiatsiyalar hosil qilish yoli bilan esda olib qolishni osonlashtiruvchi va xotira hajmini kengaytiruvchi usullar tizimi. Mnemotexnikaning mohiyati shundaki, har bir so‘z yoki ibora uchun timsollar yaratiladi, matn esa to‘liq chizmada ifodalanadi. Bu chizmalarni qo‘llash orqali bola she’r yoki matnni oson aytib bera oladi.

Xulosa qilib, shuni aytishimiz mumkinki arttexnologiya nutqni rivojlantiruvchi samarali korreksion mashg‘ulot bo‘lib, gumanistik yondoshuvga asoslanib, ushbu usul yagona maqsadni belgilaydi,bolani muammolari bilan uyg‘un rivojlantirish badiiy ijod orqali ijtimoiy moslashuv imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilga adabiyotlar:

1. M.Yu.Ayupova “Logopediya” O’zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati. T.: 2007 y.

2. F.U.Qodirova, I.Q.Sayfullayeva “Inklyuziv va korreksion ta’limda arttexnologiyalar”/ O‘qu qo’llanma/ Ch.:2021 y.

3. Z.A.Karimova “Ko‘p tarmoqli maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarini innovatsion faoliyatga yo‘naltirish”/Monografiya/ T.:2024 y

4. Abdujalilova, S. A., & Karimova, Z. (2023). Use of innovative technologies in working with children with disabilities in multidisciplinary preschool educational organizations. Science and innovation, 2(B4), 617-619.

5. Zulfiya Karimova Editorial Problems of Organizing the Innovative Activity of Preschool Education Organization Editors Under Educational Cluster Conditions. (2023). Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 2(1), 1-10.

UMUMTA’LIM MAKTABLARDA MUSIQA MADANIYATI DARSLARIGA QO’YILGAN ZAMONAVIY TALABLAR

Andijon davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san’at fakulteti
konsertmeystri Xodjayeva Mavludaxon latipovna
Andijon davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san’at fakulteti
Musiqa ta’limi yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Avazbekova Shodiya Dilmurod ***qizi***

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida musiqa fanini o'qitishning asosiy maqsadi, ushbu fanning o'quvchilar hayotidagi ahamiyati, maktab o'quvchilariga musiqaning ta'siri va foydali tomonlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa, musiqa madaniyati, ovoz sozlash, qo'shiq kuylash, musiqa tinglash, ritmik mashqlar, cholg'u asboblari, musiqa o'qituvchisi.

MODERN REQUIREMENTS FOR MUSIC CULTURE LESSONS IN HIGH SCHOOLS

Andijan State Pedagogical Institute
Social and humanitarian sciences and arts faculty
teacher Mavludakhon Khodjayeva
Andijan State Pedagogical Institute
Faculty of Social Sciences and Arts
A student of the 2nd stage of the Music Education course
Daughter of Mamirjonova Mohlaroyim Sherzodbek

Abstract: This article provides information about the main purpose of teaching music in secondary schools, the importance of this subject in the lives of students, the impact and benefits of music on schoolchildren.

Key words: Music, music culture, tuning, singing, listening to music, rhythmic exercises, musical instruments, music teacher.

Ma'lumki musiqa hayot va davr aksidir. Bolalar oilada radio, televidenie, mobil telefon hamda boshqa jamoatchilik joylarida musiqa bilan doimo oshno bo'ladilar.

Shu bois, musiqa madaniyati ta'limining yangi mazmuni yosh avlodni milliy musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga etkazishni nazarda tutadi. Bunda o'quvchilarda ommaviy musiqa faoliyatlari: musiqani badiiy idrok etish, yakka va jamoa bo'lib qo'shiq kuylash, raqsga tushish va ijodkorlik malakalarini shakllantirish asosiy maqsad hisoblanadi.

Hozirgi kunda o'quvchilarnig hafta davomida tinglaydigan musiqa ko'lami bir soatlik darsdan bir necha barobar ko'pdir. Ular tinglaydigan hamma musiqa ham bolalar yoshiga mos emasligi va ular badiiy g'oyaviy jihatdan har doim ham o'quvchilar tomonidan maqsadga muvofiq ravishda

idrok etilmasligi bois, musiqa madaniyati darslarida o‘quvchilarda **tinglash madaniyatini shakllantirish** ularni zamonaviy musiqamiz bilan bir qatorda milliy mumtoz musiqalarni badiiy g‘oyaviy jihatlarini tushunish, uni ongli ravishda idrok etish layoqatlarini shakllantirish lozim. Buning uchun musiqa tinglash faoliyatida har bir kuyni diqqat bilan tinglashga o‘rgatish barobarida undagi ma’lum voqelik, his tuyg‘u va mazmunni hayotiy tajribalariga hamda musiqa madaniyati darslarida egallagan bilimlariga tayangan holda, ohanglardan milliy-madaniy an’analarimiz, marosimlarimiz aks etgan jihatlarini aniqlab borishga o‘rgatish lozim.

Musiqa tinglash faoliyatini tashkil etishda o‘quvchilarga avval kuy bilan qo‘shiqni farqini eslatgan holda, o‘tgan darsdagi bilimlari tekshirilib mustaxkamlanadi. Masalan: 1-sinfda “Raqs” kuyi tinglanishi munosabati bilan o‘quvchilar bilan raqs haqida qisqagina suhbat o‘tkaziladi.

1. Raqs nima?
2. Bolalar bog‘chasida raqsga tushganmisizlar?
3. Raqsga tushish sizlarga yoqadimi?
4. Qanday raqslarni bilasiz? kabi savollar berilishi mumkun.

O‘qituvchi darslikdagi “Raqs” kuyini o‘quvchilar bilan birga diqqat bilan tinglab bo‘lgach uni xalq kuyi ekanligini, fortepiano uchun esa bastakor N.Norxo‘jaev moslashtirganligi xaqida qisqagina ma’lumot berishi lozim. SHuningdek, kuyni tinglash jarayonida o‘quvchilar tasavvurlarida nimalar kechgani haqida suhbat o‘tkazib, kuyni 2-marotaba tinglashga beriladi. 2-marotaba tinglash davomida o‘quvchilardan takroran eshitiladigan joylarini aniqlash so‘raladi. 3-marotaba tinglashda esa kuchli xissalarni aniqlashga harakat qilib ko‘rishlari so‘raladi, o‘qituvchi esa 1-va 2-taktlarda o‘quvchilarga yordam beradi. Bu bilan o‘qituvchi o‘quvchilarda tinglash madaniyatini to‘g‘ri shakllaniga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning tinglash madaniyatini shakllantirilishi ularni cholg‘u asboblari hamda uning tovushlari vositasidaVatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lib voyaga yetishlariga yordam beradi.

Har bir darsda o‘quvchilarning musiqiy bilimlarini boyib borishi asta sekin o‘quvchilarda musiqiy savodxonlik va madaniyatni shakllanishi va rivojlanishiga omil bo‘ladi. U darsdagi barcha musiqiy faoliyatlarni mazmunan bir butunligini hosil qilishga yo‘naltiruvchi vositasidir. **Musiqa savodi**da o‘quvchilar bilan o‘zbek milliy cholg‘ulari haqida suhbat o‘tkazib, ularni milliy urma cholg‘ularimizdan doyra va nog‘ora haqidagi bilimlari

mustahkamlanadi. Ularni nima uchun urma ekanligi, o‘xshash tomonlari va farqi haqidagi o‘quvchilarni tushunchalari savollar orqali mustahkamlanadi.

1. Doyraning tuzilishi qanday?
2. “SHing‘iroq” lar qaysi asbobda bor?
3.”Bak”-“Bum” ohangini qaysi asbob beradi?
4. Nog‘oralar qanday tuzilgan?
5. Nog‘oralar ohangi qanday?
6. Qanday nog‘oralar “Qo‘sh” nog‘oralar deyiladi?
7. Nog‘oralar asosan qaysi sozlarga jo‘r bo‘ladidar?
8. Doiralar qaerlarda ijro etiladi?
9. “Tak” “Tum” deb ohang taratigan cholg‘uning nomi qanday? Va.x.k.

Xuddi shunday 2 sinflarda ham “Qaytariq belgisi -Repriza haqida tushuncha” mavzusi ***Ko‘rgazmali amaliy metod asosida berilishi mumkin.***



Qo‘shiq yoki musiqa asarini biror bo‘lagini ikki marta takrorlab ijro etilishi qaytariq –repriza belgisi deyiladi

Bunda o‘qituvchi avval mavzuni mukammal tushuntirib, uni yozilishi va o‘qilishini doskada nota chizig‘ida yozib-chizib ko‘rsatib berishi lozim. O‘quvchilar ham doskada berilgan nota mashqni ma’lum vaqt ichida nota daftarlariga ko‘chirib olib, so‘ng avval o‘qib, keyin kuylaydilar.

Bolalarni musiqiy uquvini ijodiy rivojlantirishda ayniqsa, **jamoa bo‘lib kuylash faoliyatining** ahamiyati katta. Bunda o‘quvchilarni kuylashga qiziqtira olish ko‘p jihatdan o‘rganadigan har bir mashq yoki qo‘shiq o‘qituvchi tomonidan chiroyli qilib kuylab berishga bog‘liq. CHunki o‘quvchilar bilan olib boriladigan qo‘shiq kuylash jarayonlari ko‘pincha o‘qituvchi (ustozi) ovoziga **taqlid qilib kuylashga asoslanadi**. SHuning uchun o‘qituvchi o‘zining yoqimli ovozi ustida muntazam ish olib borish bilan birga boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning ovoz diapazoni (do_1 — do_2), ishchi diapazoni (mi_1 —fa_1 —sol_1) primar tovushlarida kuylash uchun qulay bo‘lgan (sol_1 — lya_1), tovushlarini aniq bilishi hamda sof kuylay olishi lozim.

O‘quvchilarga qo‘shiq o‘rgatishdan avval “Qo‘shiq aytish qoidalari”ni eslatib, o‘quvchilarga tanish bo‘lgan mashqlardan foydalangan holda astalik bilan **ovoz sozlash** mashqlariga o‘tiladi. Maktabning ilk davrlarida ayniqsa 1-sinf o‘quvchilarida to‘g‘ri nafas olish, to‘g‘ri kuylash kabi ko‘nikma va malakalari yaxshi shakllanmagan bo‘lib, o‘tilgan darslardagi ovoz sozlash mashqlarini takrorlanishi ularni malakalarini tezroq shakllanishiga yordam beradi. Bunda mi, re, do notalarini lya, da bo‘g‘inlarida asta-asta 0,5 tonga ko‘tarib kuylab borib, birinchi oktava “Do” dan “Lya” notasigacha olib boriladi. Mashq 3 marotaba takrorlanadi. Mashq kuylash jarayonida o‘quvchilarning baqirmasdan, unisonda toza va sof, bir-birlarini eshitgan holda kuylashlarini nazorat qilib borish muximdir.

2-3 sinflardan boshlab o‘quvchilarni sekin asta **ikki ovozli** mashq elementlari bilan tanishtirib borish mumkin. Bunda tovushlarni tersiya va kvarta oralig‘ida baravar kuylashga emas, aksincha bir ohangni yoki qo‘shiq jumlalarini va qo‘shiqdagi reprizalarni sinfni o‘quvchilarni guruhlarga (*ovozlarga emas, chunki kuylash jarayonida barcha o‘quvchilarni ishtirokini ta’minlash maqsadida guruhlarga bo‘linadi, ovozlarga esa xor jamoalarida ovoz diapozoni talablari asosida bo‘linadi)*bo‘lgan holda avval 1-yarmi bilan keyin 2-yarmi shuni takrorlagan holda bajarishi mumkin. Xuddi shunday ovoz sozlash mashqlarida ham ikki ovozda kuylash elementlarini o‘yin tarzida amalga oshirish mumkin. Bu o‘quvchilarda qo‘shiqlarni nafaqat bir ovozda, balki ikki ovozda ham kuylash mumkinligini tushunishlari barobarida, ularni ijodiy iqtidorlarini o‘sishiga yordam beradi.

Musiqa madaniyati darslarining sifat va samaradorligini oshirishda yangi innovatsion texnologiyalari bilan bir qatorda videomahsulotlarning ham o‘rni beqiyosdir.

Bugungi kunda barcha fanlar singari musiqa madaniyati fanidan 7-sinflar uchun “Teatr san’ati va konsert ijrochilik faoliyati”, 6-sinf uchun “O‘zbek estrada san’ati asoschisi- Botir Zokirov hayoti va ijodi” mavzularidagi videodarslar multimedia.uz saytiga joylashtirilgan. Bu videodarslardan mavzularni kengroq yoritishda samarali foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. T.Mahmudov. Mustaqillik va ma'naviyat. T., «Sharq», 2001.
2. R.Abdullaev. Milliy istiqlol va musiqa. T., 2002.
3. Yu.Rajabiy. Musiqa merosimizga bir nazar. T., 1978.

4. I.Akbarov. Musiqa lug‘ati. T., «O‘qituvchi», 1997.
5. A.Odilov. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi. T., «O‘qituvchi», 1995.

ЭНДОКРИН КАСАЛЛИКЛАРНИНГ РЕПРОДУКТИВ ЁШДАГИ АЁЛЛАРДА КУЗАТИЛИШИ

Халилова Б.Ш. –Alfraganus университети Тиббиёт факультети даволаш иши йўналиши 1-босқич талабаси;
Илмий маслаҳатчи: тиббиёт фанлари номзоди, доцент **Кулиев О.А.**

Аннотатsiя. Мазкур тезис репродуктив ёшдаги аёлларда эндокрин касалликлар кузатилишининг ўзига хос хусусиятларига бағишланган. Тезисда, шунингдек, аёллар репродуктив ёш интервaллари кесимида эндокрин касалликлар кечишига оид тиббий жиҳатлар ўз аксини топган.

Калит сўзлар: эндокринология, эндокрин касалликлар, репродуктив ёш, ёд танқислиги, қандли диабет, ортиқча вазн, ички секреция безлари, дисфункция.

Abstract. This thesis is devoted to the peculiarities of observation of endocrine diseases in women of reproductive age. The thesis also reflects the medical aspects of endocrine diseases in the reproductive age of women.

Key words: endocrinology, endocrine diseases, reproductive age, iodine deficiency, diabetes, overweight, endocrine glands, dysfunction.

Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизимини ислоҳ қилиш бўйича изчил чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Бунинг яққол тасдиғи сифатида аҳоли, хусусан, репродуктив ёшдаги аёллар ўртасида сурункали касалликлар профилактикаси самарадорлигининг ошганини таъкидлаш жоиз. Соғлом овқатланиш қоидаларининг кенг тарғиб қилиниши ва оммавий тиббий кўрикларнинг даврий ташкил этилиши эндокрин касалликларнинг ҳам барвақт аниқланишига замин яратмоқда.

Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти томонидан тасдиқланган методологияга мувофиқ, аёллар репродуктив ёш интервали 15-49 ёш чегарасини қамраб олади. Ушбу даврда аёллар саломатлигига хавф омиллари таъсири, айниқса, кучаяди. Шундан келиб чиқиб,

репродуктив ёшдаги аёлларда ижтимоий аҳамиятли соматик касалликлар тарқалишини олдини олиш, уларни эрта аниқлаш ва оптимал даво чораларини кўриш муҳим роль ўйнайди. Жумладан, ички секреция безларининг гиперфункцияси, гипофункцияси ва дисфункцияси билан характерли саналган эндокрин касалликлар XXI асрда тиббий тадқиқотлар таркибида салмоқли ўрин тутади. Репродуктив ёшдаги аёллар ҳомиладор бўлишида, уларнинг ҳомиладорлик ва туғруқдан кейинги даврида эндокрин касалликлар оғир оқибатлар билан кечиши нуқтаи назаридан ажралиб туради. Ёд танқислиги, қандли диабет, ортиқча вазн диагнози сўнгги йилларда нисбатан кўп учрамоқда. Шундан келиб чиқиб, репродуктив ёшдаги аёлларда эндокрин касалликлар кузатилишини 3 та фазага бўлиш мақсадга мувофиқ бўлади (1-расм).



1-расм. Аёллар репродуктив ёш интервалининг фазалар бўйича таснифи[44]

Таъкидлаш лозимки, эндокрин касалликлар ҳомиладор бўлишни мураккаблаштирувчи омиллар сирасига киради. Қалқонсимон без билан боғлиқ функционал бузилишлар мавжуд аёлларда ҳомиладор бўлиш эҳтимоли кескин камаяди. Ҳомиладорлик даврида эндокрин касалликларнинг юзага чиқиши, ўз навбатида, ҳомила тушиши ва нуқсонли гўдаклар туғилиши билан тавсифланувчи оқибатлар кузатилишига олиб келади. Туғруқлардан кейинги даврда, кўп ҳолларда, эндокрин ва гинекологик касалликлар параллел учрайди. Бу

[44] Муаллиф томонидан илмий манбалар таҳлили асосида ишлаб чиқилган.

мураккаблик эса аёллар саломатлигини тиклаш жараёнига тиббий йўналишда кросс-дисциплинар ёндашувни тақозо қилади.

Хулоса қилиб айтганда, аёллар репродуктив саломатлигини муҳофаза қилишда эндокрин касалликларга алоҳида диққат қаратиш талаб этилади. Зотан, носоғлом овқатланиш, кундалик patsiонда микронутриентлар етишмаслиги, кам ҳаракатланиш, экологик вазият танглиги сингари таъсирлар кучайиб бораётган бир даврда ушбу масалага доир илмий-методологик базанинг чуқур тадқиқ қилиниши объектив заруратга айланган.

Адабиётлар рўйхати:

1. Шагазатова Б. Эндокринология. Дарслик – Тошкент: “Ижод-принт” нашриёти, 2021 й., 470 б.

2. Гадаев А. Ички касалликлар. Дарслик – Тошкент: “Турон Замин Зиё” нашриёти, 2018 й., 240 б.

3. Гадаев А., Содиқова Н. Қалқонсимон без касалликлари ва уларнинг олдини олиш. Дарслик – Тошкент: “Турон Замин Зиё” нашриёти, 2016 й., 170 б.

4. Арзиқулов Р. Репродуктив саломатлик асослари. Ўқув қўлланма – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашриёти, 2009 й., 184 б.

UCHINCHI RENESSANSNI SHAKLLANTIRISHDA TURIZMNING RIVOJLANISHI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

F.E.Jomonqulova - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti, t.f.n +998944999561
e-mail:fazilat_72@mail.ru
Bozorov Jobir Sirojiddin o‘g‘li - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi, t.f.n +998904730381
e-mail:jbozorov1234@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada turizmning rivojlanishi bilan uning yangi turlari va yo‘nalishlarining vujudga kelishi hamda mazkur soha statistikasini yuritishdagi ayrim muammo va yechimlar xususida turizmning Uchinchi Renesansda tutadigan orni va ahamiyati, bugungi kundagi bosqichma-bosqich yolga qoyilgan keng kolamli islohotlar borasida soz yuritilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, geografik o‘rni, ekstremal sharoit, obyekt, rezident, satellit.

Аннататсия: Аннотатsiя: В статье рассказывается о роли и значении туризма в третьем Ренессансе, о поэтапно проводимых сегодня широкомасштабных реформах, о возникновении новых видов и направлений туризма, а также о некоторых проблемах и решениях в ведении статистики в данной сфере.

Ключевые слова: туризм, географическое расположение, внешние условия, объект, резидент, сателлит.

Annotation: The article talks about the development of tourism and the emergence of its types and directions, as well as some problems and solutions in keeping statistics of representatives of this field, the role and importance of tourism in the Third Renaissance, and large-scale reforms that have been implemented step by step today.

Key words: tourism, geographic location, extreme conditions, object, resident, satellit.

Turizm sohasi dunyo iqtisodining eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biri hisoblanadi. Turizm sohasi xizmat ko‘rsatish sohasining eng katta tarkibiy qismidir. Turizm - bu sayohat qilishning bir turi bo‘lib, unda kishilar dam olish, biznes qilish, boshqa xalqlar madaniyatini o‘rganish kabi boshqa maqsadlar uchun odatiy bo‘lgan muhitdan tashqaridagi joylarga sayohat qilish tushuniladi. Bugungi kunda esa dunyoning ko‘plab davlatlari ushbu sohani yanada rivojlantirish, bu borada tegishli infrastrukturani jahon standartlari darajasida yaratish va sayyohlar oqimini oshirish bo‘yicha barcha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Turizm bugungi kunda dunyo mamlakatlari xizmat ko‘rsatish sohasining eng yirik yo‘nalishlaridan biriga aylanib ulgurdi. Uning iqtisodiyotning boshqa sohalaridan ustun jihatlari shu bilan ifodalanadiki, turli taraqqiyot bosqichida bo‘lgan barcha mamlakatlarda ham rivojlantirish imkoniyatlarining mavjudligidir. Nafaqat tarixiy joylar, balki geografik joylashuv, iqlim va ob-havo sharoiti, hatto, ekstremal sharoitdagi hudud hamda xilma-xil uslublarda qurilgan inshootlar ham sayohat obyektiga aylangan holda byudjetga daromad keltirishda ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa shiddatli òsib borayotgan Uchinchi Renessans asrimizda turizmning tutgan òrni va salohiyati beqiyos albatta.

Ma'lumki, "Renessans" so‘zi fransuzcha "tiklanish" degan ma’noni anglatadigan so‘zdir va u insoniyat manaviy taraqqiyotidagi uygonish davri

hisoblanadi. Bizning xalqimiz o‘z tarixida ikki bor Renessansni yaratgan. Birinchi Renessans yurtimizda bundan bir necha yuz yil avval, ya’ni IX-XI asrlarda roy bergan. Mazkur davrda davlat taraqqiyoti uchun juda muhim bolgan yangi islohotlar va qonunlar joriy qilindi, yer-suv, qoshnichilik munosabatlaridan soliqlargacha tub yangilanishlar sodir boldi. Ikkinchi Renessans nafaqat mintaqamizda, balki juda katta jogrofiy hududlarda siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirgan ulug bobomiz, sohibqiron Amir Temur nomi bilan chambarchas bogliq. U zot tufayli qudratli markaziy boshqaruvga asoslangan davlat va yangi madaniy-ilmiy yuksalish uchun qulay vaziyat yuzaga keldi. Bugungi kunda esa yurtimizda Uchinchi Renessans poydevori yaratilmoqda. Shuningdek, "Yangi O‘zbekiston" va "Uchinchi Renessans" so‘zlari hayotimizda o‘zaro umumlashgan va yaxlit tushuncha sirasiga kirib ulgurdi. Aynan turizm sohasi bo‘yicha ham keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Islom hamkorlik tashkilotining joriy yildagi XI sessiyasida Xiva 2024-yil "Islom dunyosining turizm poytaxti" deb e’lon qilindi. Bundan tashqari, Turkiy davlatlar tashkilotining Turizm vazirlarining yig‘ilishida Qo‘qon shahriga "Ilk turizm poytaxti" nomi berildi. Shuningdek, Ispaniyaning Madrid shahrida o‘tkazilgan UNWTO ning 24-sessiyasida ilk marotaba BMT tarkibiga kiruvchi tashkilotlarning 25-assambleyasini 2023-yilda qadimiy Samarqandda o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Shuningdek, UNWTO O‘zbekiston eng tez turizm sohasi rivojlanayotgan 20 ta mamlakat ichida 4-o‘rinda e’tirof etildi. Xususan, "Jahon musulmon sayyohlari indeksi" reytingida 32-o‘rindan 22-o‘ringa ko‘tarilib, "Eng jozibador" va "Xavfsizlik va bag‘rikenglik darajasi yuqori" bo‘lgan 10 ta mamlakat qatoriga kirdi. Kundan kunga turizm sohasida o‘zgarishlar va qator yangiliklar masalasi o‘rtaga tashlanyapti. Turizm statistikasining mukammal va sifatli bo‘lishi, ma’lumotlarning shaffofligi chet el investorlari, balki, rezidentlarning ham qiziqishini uyg‘otmoqda. Xususan, xalqaro miqyosda statistik ma’lumotlarni jamlash jarayonida huquqiy-me’yoriy hujjatlar bilan ishlash dunyo mintaqalari, hattoki, mamlakatlarida turlicha bo‘lib, bu sohani rivojlantirish hamda boshqarishni takomillashtirish yo‘lidagi eng katta muammodir. Mazkur muammo o‘z yechimini topishi natijasida dunyo bo‘yicha, mintaqa va turli mamlakatlarda turizm rivojlanishi qonuniyatlari hamda o‘zgarishlarini amaliyotga vaqt va hudud talqinida tadbiq etish kabi imkoniyatlarni beradi. Shu tufayli 1980-90-yillardan buyon mazkur muammoga xalqaro miqyosda

e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, 1998-yilda Butunjahon Turizm Tashkiloti tomonidan "Turizm bo‘yicha iqtisodiy Hisobot" nashri e’lon qilinib, shu soha muammosini hal qilishga qaratilgan. Hisob-kitoblarga ko‘ra, joriy yilda mamlakatimizga jami 7 million sayyoh tashrif buyurgan. Ushbu ko‘rsatkichni 2030-yilga borib 15 millionga, ichki turizm oqimini esa 25 millionga yetkazish reja qilinmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev turizm sohasining rivojlanishi "Yangi O‘zbekiston" va "Uchinchi Renessans" ham qo‘yilgan dastlabki qadam ekanligini e’tirof etdi. Shu asnoda, sayyohlik sohasida professional kadrlarni tayyorlashga alohida e’tibor berilib, bu soha vakillariga kundan kunga talab ortib bormoqda. Bir so‘z bilan aytganda, turizm yirik biznes, katta mablag‘ va global miqyosdagi jiddiy siyosatdir.

Turizm infratuzilmasi va sanoat turizmiga qo‘shni tarmoqlarni o‘ziga yanada ko‘proq kishilarni ish bilan ta’minlamoqda. Bu esa juda muhim masala hisoblanib, jamiyatga foydali bo‘lgan hollar ichida birinchi o‘rinda turadi. Yirik turistik markazlarda, har o‘nta turist ikki kishini doimiy ish joyi bilan ta’minlaydi. Masalan, Petropavlovskka bruiz laynerining kelishini o‘zi aholi hayotida katta ayyomdir. Chunonchi, xalqaro aloqalarga hamda alohida shaxslar va butun jamiyatning orzu-umidlarini hurmat qilish va adolatga asoslangan tinchlikparvarlik doirasida, turizm insonlarning bir-birini o‘rganishi va tushinishining ijobiy va doimiy omili, shuningdek, xalqlar o‘rtasidagi hurmat va ishonchning yanada yuqori darajasiga erishishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘z navbatida esa ijtimoiy tenglik, kishilar va xalqlar o‘rtasidagi hamjihatlik va shaxs kamolotining omiliga aylandi. Aynan turizm inson ongi erishgan yutuqlar haqida ma’lumot olish va ular bilan tanishish vositasi bo‘lib, xalqlarning tarixiy va madaniy qadriyatlardan bahramand bo‘lish imkonini beradi. Shunday qilib, tarixiy, madaniy va diniy qadamjolarni har qanday vaziyatlarda, ayniqsa, ziddiyatlar vujudga kelganda himoya qilish davlatlar va jahon hamjamiyatining eng muhim vazifalaridan biri bo‘lishi kerak. Yuqorida keltirilgan maqsadlar o‘zaro qo‘shilib, bir-birini muayyan holatda to‘ldirib boradi. Har bir soha vaqt va zamon bo‘ylab rivojlanadi, kengayadi, o‘sib boradi. Xususan, turizm sohasining ham "Uchinchi Renessans" da tutgan o‘rnining qanchalik ahamiyatli ekanligini yuqoridagi faktorlar bilan solishtirdik.

Rivojlanayotgan mamlakatimizda turizm salohiyatini tubdan oshirish, turizm xizmatlar bozorini rivojlantirishning metodologik uslubiy asoslarini

takomillashtirish, turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berish hamda turizm faoliyatini har tomonlama rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Yuqorida keltirilgan fikrlarni hisobga olgan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, rivojlanayotgan mamlakatlar bilan bir qatorda rivojlangan mamlakatlarda ham sayyohlik statistikasini to‘g‘ri yuritish, xalqaro hisob-kitoblar bilan ish olib borish mamlakatlar tajribasidan foydalanish imkonini berib, hududdagi muammo va kamchiliklarni yaqqol tushunib, yechimini topishga imkon beradi. Bundan tashqari, rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan, O‘zbekistonda ham hozirda Yevropa Ittifoqida amal qilinayotgan "satellit" tizimini yo‘lga qo‘yish ishlarini boshlash natijasida, bir necha yillardan so‘ng tizimni ishga tushirish hozirgi kunda yurtimizda sohaning muammoli jihatlaridan biri bo‘lib hisoblangan ichki sayyohlarni hisobga olish tizimini tartibga solish uchun qulay sharoit paydo bo‘ladi.

XULOSA

Turizm xalqlar va millatlararo munosabatlarning huquqiy va iqtisodiy istiqbolini ta'minlovchi, umumjahon madaniy meros durdonalarining asrab avaylab kelgusi avlodlarga yetkazuvchi katta tizimli kategoriyadir. Bunda merosiy obyektlar, noyob qo‘lyozmalar va qadim tarixga oid barcha ashyolar muhofaza qilinadi, uning yo‘qolib ketish xavfi ortda qoladi, qo‘lyozma va asarlar butunjahon bo‘ylab ilmiy anjumanlarda o‘rganiladi. Millatlararo diniy bag‘rikenglik va umumbashariy qadriyatlar uyg‘unlashadi. Mamlakatlarimiz o‘rtasida do‘stona munosabatlar yo‘lga qo‘yiladi. Siyosiy va iqtisodiy jihatdan samarali texnologiyalar va yangidan yangi islohotlar tizimli ravishda ishlab chiqiladi. Shuningdek, turizm til va madaniyatlarga ham sezilarli darajada o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Ta’lim sohasida esa eng ko‘p yutuqlarga erishmoqda. Umuman olganda, turizm taraqqiyot ning yorqin namunasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. M. A. Mirzayev M. T. Aliyeva "Turizm asoslari" "O‘zbekiston faylasuflar jamiyati" nashriyoti, 2011.

2. http://www. tourlib.net/books_tourism/aleks24.htm.

3. http://www. informburo.kz/stati/v-2018-godu

4. http://www.tourlib.net/statti_tourism/yachmeneva4.htm.

5. http://www.visit-russia.ru/news/kak-schitat-turistov-v-rossii-prinyatanovaya-metodologiya.

АНТИБАКТЕРИАЛЬНЫЕ СВОЙСТВА МЕДЬ-ПОЛИМЕРНО КОМПЛЕКСА

Инхонова Арофат (PhD)
старший преподаватель кафедры фармацевтики и химии,
Университет Альфраганус — негосударственная организatsiя высшего образования, Ташкент 100190.
ainxonova@gmail.com (88)-330-33-77
ORCID-0009-0009-5160-2574

Аннотatsiя В этом исследовании ион металлической меди был адсорбирован на аионите (PVC&PEI), который был получен из местного сырья ПВХ. Методом химического восстановления был успешно синтезирован медно-полимерный комплекс с наночастицами металлов на поверхности. Полученный полимер-металлический комплекс затем был подвергнут исследованию с целью оценки его антибактериальной активности в отношении грамположительных штаммов *S. aureus* и грамотрицательных штаммов *E. coli*, которые являются представителями условно-патогенных микроорганизмов, обычно используемых для тестирования на биологическое загрязнение. Оценивая его антибактериальную эффективность против этих избранных микроорганизмов, можно получить ценную информatsiю о его применимости в борьбе с биологическим загрязнением.

Ключевые слова: ПВХ, полимер-металлический комплекс, анионит, антибактериальная активность, E. coli, S. aureus.

Abstract In this study, a copper metal ion was adsorbed onto anionite (PVC&PEI), which was derived from locally sourced raw material PVC. Through a chemical reduction method, a copper-polymer complex with metal nanoparticles on its surface was successfully synthesized. The resulting polymer-metal complex was then subjected to investigation to assess its antibacterial activity against gram-positive *S. aureus* and gram-negative *E. coli* strains, which are representative of conditionally pathogenic microorganisms commonly utilized for biological contamination testing. By evaluating its antibacterial efficacy against these selected microorganisms, valuable insights can be gleaned regarding its applicability in addressing biological pollution.

Keywords: PVC, polymer-metal complex, anion exchanger materials, antibacterial activity, *E. coli, S. aureus.*

Введение В последние годы, в связи с прогрессом в области супрамолекулярной химии и нанотехнологий, возрастает интерес к разработке полимерных систем, обогащенных наночастицами металлов, которые обладают уникальными физико-химическими свойствами. Сочетание полимерной матрицы с этими частицами придает нанокомпозиту новые свойства, в то время как стабильность наночастиц в полимерных системах сохраняется на протяжении длительного времени. Благодаря своей биологической и антибактериальной активности, наночастицы меди привлекают все больший интерес. Они широко применяются в медицине, сельском хозяйстве, катализе и охране окружающей среды. Особенно ценны они в борьбе с бактериями и грибками, которые способны приводить к биообрастанию в сточных водах [1]. Для очистки ионов тяжелых металлов и загрязняющих веществ в прошлом использовались физические, химические и биологические методы. Однако, при химической и биологической очистке эти методы оказываются неэффективными. С целью преодоления данной проблемы, применяют полимерные стабилизаторы, обладающие адсорбционными свойствами. В процессе производства металлополимерных наночастиц в качестве стабилизаторов полимеров широко применяются такие вещества, как поливинилпролидон, полиэтиленгликоль, полианилин, полиакриламид, поливинилхлорид, хитозан, крахмал, целлюлоза и другие. Металлические наночастицы Ag, Au, Zn, Cu широко применяются для эффективного удаления биологических загрязнений, таких как бактерии и грибки. Особенно наноразмерные наночастицы Cu проявляют высокое качество при химической и биологической переработке отходов, благодаря своей высокой реакционной способности [2]. Полиуретаны, включающие наночастицы Cu и Ag, обладают бактерицидными свойствами, которые проявляются в отношении грамположительных и грамотрицательных бактерий, а также дрожжеподобных грибов [3]. В исследовании Б. Маноджа и его коллег была подчеркнута значимость металлической меди в области электрокатализа, фотокатализа и газофазного катализа для наночастиц на ее основе [4]. Антибактериальные свойства наночастиц меди главным образом обусловлены сцеплением их

зарядов с противоположными зарядами бактерий. Этот процесс приводит к окислению наночастиц металлов внутри клеточной стенки бактерий. Благодаря своей высокой площади поверхности, наночастицы обеспечивают высокую эффективность в антибактериальной активности [5]. Медь была включена в список металлов с антимикробными свойствами агентством по охране окружающей среды США, а металлическая медь проявляет более высокую эффективность против бактериальных штаммов E. Coli и B. sublitis по сравнению с серебром.

Установлена эффективность адсорбентов [6] на основе полимерно-металлических комплексов для удаления химических и биологических загрязнений из воды. Цель данного исследования заключается в синтезе медно-полимерного комплекса путем сорбции ионов металлической меди ПВХ и ПЭИ-анионитом, основанным на поливинилхлориде, а также в изучении антибактериальной активности полученного медно-полимерного комплекса в отношении условно-патогенных бактерий *E.coli* и *S.aureus.*

Материалы и методы

Оптимальные условия синтеза PVC&PEI были определены при температуре 423 K в течение 5 часов [7].

После проведения синтеза было установлено, что статическая обменная емкость синтезированного ионита с соляной кислотой (HCl) составляет 5,8 мг-экв/г. Химическая реакция ионита PVC&PEI приведена ниже:

Синтез РМС-Cu^0

Синтез ПМК-Cu^0 включает несколько этапов, начиная с приготовления 0,025; 0,05; 0,075; и 0,1 М раствора соли $CuCl_2 \cdot 2H_2O$. Ионы Cu^{2+} из раствора сорбируются на ранее синтезированном ионите PVC&PEI в статических условиях.

Далее синтезируется ПМК-Cu^{2+} ионно-матричным методом, при котором ионы Cu^{2+} образуют ионно-координатsionную связь с аминными группами, присутствующими в ионите. В результате образуется ПМК-Cu^{2+} , состоящий из металлической меди, связанной с ионитом.

Для получения ПМК-Cu^0 необходимо восстановить ионы меди, входящие в состав ПМК -Cu^{2+}. Для этого используется 1 М раствор NaOH, в процессе восстановления которого в материале образуются

наночастицы металлической меди. В результате образуется ПМК-Cu^0, который преимущественно содержит восстановленные наночастицы металлической меди в порах ионита.

Результаты и их обсуждение

Антибактериальная активность

Для определения антибактериальных свойств комплекса полимер-металл был проведен тест дисковой диффузии с использованием метода Кирби-Бауэра. Для этого были выбраны два типа патогенных бактерий: грамотрицательные штаммы (*E.coli*) и грамположительные штаммы (*S.aureus*). После 24-часовой инкубатsiи образцов проводилось измерение зоны ингибирования вокруг антимикробного диска. Антимикробная активность Cu-ПМК в отношении бактериальных штаммов E. coli и S. aureus представлена на рисунке 3.




Рисунок 5. Антибактериальная активность комплекса медь-полимер-металл в отношении а) E. coli и б) S. aureus была оценена с помощью метода дисковой диффузии

Вокруг полимер-металлического комплекса наблюдается явная зона ингибирования. Размер антибактериальной зоны для Cu- ПМК составляет 26±0,5 мм для E. coli и 15,6±0,8 мм для S. aureus. В анионите PVC&PEI антибактериальная зона не образовалась.

Выводы

Ионы меди адсорбировались на анионообменнике PVC&PEI на основе поливинилхлорида и полиэтиленимина, а комплекс полимер-металл получался методом химического восстановления. Испытуемые образцы проявили высокую антибактериальную активность в отношении грамотрицательных E.coli и S. aureus являющихся патогенными и условно-патогенными микроорганизмами. Диаметр

антимикробной зоны комплекса PVC&PEI-Cu^0 больше, чем у комплекса PVC&PEI-Cu^{+2}, что объясняется зависимостью от размера наночастиц меди на поверхности полимера и концентратsiи металла на поверхности полимера. Исследована зависимость диаметра антибактериальной зоны от концентратsiи сорбированной меди в Cu-ПМК. Cu-ПМК обладает способностью адсорбировать токсичные ионы тяжелых металлов из сточных вод и промышленных сточных вод, а также эффективно очищает воду от биологически загрязняющих микроорганизмов. Анионит PVC&PEI, в свою очередь, лишен противомикробной активности и используется исключительно для очистки сточных вод путем сорбирования ионов тяжелых металлов.

Список литературы:

1. Sánchez-López E, Gomes D, Esteruelas G, Bonilla L, Lopez-Machado AL, Galindo R, Cano A, Espina M, Ettcheto M, Camins A, et al. Metal-Based Nanoparticles as Antimicrobial Agents: An Overview. Nanomaterials. 2020; 10(2):292. https://doi.org/10.3390/nano10020292

2. Dorian A. H. Hanaor, Maliheh Ghadiri, Wojciech Chrzanowski and Yixiang Gan. Scalable Surface Area Characterization by Electrokinetic Analysis of Complex Anion Adsorption // American Chemical Society. 2014. -Vol. 30. -pp 15143−15152.delivery applications. // Biochem. Eng. J. 2014. –Vol. 90. –pp. 79–89.

3. A Zambare, T. Nerpagar N. Chaudhari P. Manchalwad S. Harke. Synthesis of silver nanoparticles and their antibacterial activity. // Int. J. Nano Dimens. 2014. –Vol.5. -pp. 569-573.

4. Carlos A.P. Bastos, Nuno Faria, John Wills, Per Malmberg, Nathalie Scheers, Paul Rees, Jonathan J. Powell, Copper nanoparticles have negligible direct antibacterial impact, NanoImpact, Volume 17, 2020, 100192, ISSN 2452-0748, https://doi.org/10.1016/j.impact.2019.100192.

5. Prado JV, Vidal AR, Duran TC, Application of copper bactericidal properties in medical practice. Rev Med Chil. 2012. –Vol. 140. –pp. 1325-1332.

6. M. Mukhamediev, D. Bekchanov, New Anion Exchanger Based on Polyvinyl Chloride and Its Application in Industrial Water Treatment. *Russian Journal of Applied Chemistry*. 2019.-Vol. **92**.-pp. 1499-1505.

7. Инханова Арофат, Бабожонова Гулбахор Курбанназаровна, Зокиров Сардор, Бекчанов Давронбек Жумазарович, & Мухамедиев Мухтаржан Ганиевич (2021). Кинетика сорбции ионов со (ii) из

растворов на анионообменника. Universum: химия и биология, (10-1 (88)), 79-83.

ALSGEYMER KASALLIGI DAVO CHORASI UCHUN BIR QATOR YANGILIKLAR VA UNGA ERTA TASHXIS QO‘YISH USULLARI

Akbaraliyev Xojiakbar Shuhrat o‘g‘li
Tibbiyot fakulteti farmatsiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Alfraganus University Farmatsevtika va kimyo kafedrasi dotsenti
Qalandarov Qobil Suyarovich

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda ta‘kidlab o‘tadigan jihatlarimiz Alsgeymer kasalligi bilan xastalangan bemorlarga umid uchqunlarini uyg‘otgan jihatlar haqida aytib o‘tganmiz, hamda maqolamiz oxirida olimlarning bir qator ushbu kasallik bo‘yicha yangiliklari haqida ham ta‘kidlab o‘tilgan.

Abstract: In this article, we highlight a number of diseases that have sparked hope for Alzheimer's patients. The new one is also mentioned.

Kalit so‘zlar: Neyrodegenerativ, glikan, demensiya, beta-amiloid oqsillari, tau oqsillari, “**Leqembi”,** mikroorganizmlar.

Keywords: Neurodegenerative, glycan, dementia, beta-amyloid proteins, tau proteins, **Leqembi,** microorganisms.

Annotasiya: Ushbu maqolada yangi tibbiy texnologiyalar va davolash usullari uskunalar yangi davr tibbiyoti haqida qisqacha ma'lumotlar bayonini qamrab olingan.

Kalit so'zlar: tibbiy texnologiyalar, tibbiyot muassasalari, sog'liqni saqlash tizimi, sog'liqni saqlash vazirligi, zamonaviy texnologiya, tibbiy markazlar.

Abstract: This article covers a summary of new medical technologies and treatment methods, equipment, and new era medicine.

Key words: medical technologies, medical institutions, health care system, Ministry of Health, modern technology, medical centers.

Аннотатsiя: В этой статье представлен краткий обзор новых медицинских технологий и методов лечения, оборудования и медицины новой эры.

Ключевые слова: медицинские технологии, медицинские учреждения, система здравоохранения, Минздрав, современные технологии, медицинские центры.

Sog'liqni saqlash tizimining barcha darajasida tibbiy xizmat ko'rsatish ko'lamini kengaytirish va sifatini oshirish, aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish qulayligini ta'minlash, jumladan, zamonaviy, yuqori texnologik ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlarni aholiga yaqinlashtirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari soni 7 yilda 10 tadan 24 taga yetdi.

Ilgari bunday markazlar faqat poytaxtimizda joylashgan bo'lsa, bugunga kelib hududlarda ularning 270 ta filiali, tumanlarda 300 dan ziyod bo'limi tashkil etildi. Markazlar amaliyotiga 106 turdagi, viloyat darajasida 202 turdagi, tuman darajasida 85 turdagi yangi diagnostika va jarrohlik usullari tadbiq qilindi. Bu sa'y-harakatlar orqali hududlardagi yuqori texnologik operatsiyalar ulushi 23 foizdan 55 foizgacha yetkazildi. Joriy yil yakunigacha markazlarda yana 124 turdagi, viloyat darajasida 102 va tuman darajasida 55 turdagi diagnostika va jarrohlik usullarini tadbiq qilish rejalashtirilgan.

Inson manfaatlarini ta’minlash, odamlarni rozi qilishga qaratilgan bunday o‘zgarishlar haqida ko‘p gapirish mumkin. Masalan, ayni paytda yurtimizda inson a’zolari transplantatsiyasi amaliyoti joriy etilib, bunday operatsiyalar ayrim hududlarda ham o‘tkazilyapti. Bugungi kunda bemorlar poytaxtga emas, aksincha, markazlarning professor-mutaxassislari joylarga chiqqan holda bemorlarga yordam ko‘rsatadigan, hududlardagi mutaxassislarga mahorat darslarini o‘tadigan tizim yaratildi. Sohaga yangi texnologiyalar joriy etilishi hududlardagi xodimlar va bemorlar uchun yanada qulaylik yaratib, markazlardagi yetuk mutaxassislar maslahatini teletibbiyot orqali ham olish imkonini bermoqda.Xususiy tibbiyot tashkilotlariga 130 dan ortiq ixtisoslik bo‘yicha litsenziya olishiga imkon yaratilgani sababli (2016 yilda 50 ta ixtisoslik bo‘lgan) ular soni 2 barobardan ziyod ko‘paydi. Shundan 1,5 mingdan ortig‘i yangi tibbiy ixtisosliklar hisobiga faoliyatini kengaytirdi.

Tibbiyotda axborot texnologiyalarini qo‘llash:

Axborot texnologiyalari (IT) zamonaviy dunyoda hamma joyda mavjud. Axborot texnologiyalarini kirib bormagan sohani o`zi bo`lmasa kerak. Jumladan Sog'liqni saqlash sohasi ham bundan mustasno emas. Sodda qilib aytganimizda texnika asrida yashamoqdamiz zamonaviy IT ni tibbiyotdagi o`rniga to`xtaladigan bo`lsak:Tibbiyotga axborot inqilobi 40-yillarda bo‘ldi. Ilk radiotelefonlarning, signalizatsiya vositalarining qo‘llanishi, tibbiy natijalarni statistik tahlil qilishda hisoblash texnologiyalaridan foydalanilmoqda. Bugungi kunda tibbiy informatika sog‘liqni saqlash tizimining ajralmas qismiga aylangan. U 4 asosga tayanadi: 1 Biologik informatika. 2. Tasviriy informatika. 3. Klinik informatika. 4.Sog‘liqni saqlash informatikasi. Insoniyat uzining rivojlanishi tarixi mobaynida modda quvvat va axborotlarni o’zlashtirib kelgan. Bu rivojlanishning butun bir davrlari shu bosqichning ilgor texnologiyasi nomi bilan atalgan(IT) ishlanmalari aholiga tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etishning yangi usullarini ishlab chiqishga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Ko'pgina mamlakatlar uzoq vaqtdan beri sog'liqni saqlash sohasida yangi texnologiyalardan faol foydalanmoqda. Bemorlar va xodimlar uchun telekonsultatsiyalar o‘tkazish, turli muassasalar o‘rtasida bemorlar haqida ma’lumot almashish, fiziologik ko‘rsatkichlarni masofadan turib qayd etish, operatsiyalarni real vaqt rejimida kuzatish bularning barchasi tibbiyotga axborot texnologiyalarini joriy etish orqali taqdim etilmoqda. Bu sog'liqni saqlashni axborotlashtirishni yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqadi,

uning faoliyatining barcha jabhalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sog‘liqni saqlash sohasiga AT ning joriy etilishi xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, xodimlar ishini sezilarli darajada tezlashtirish va bemorlarga xizmat ko‘rsatish harajatlarini kamaytirish imkonini beradi.Tibbiyot va sog'liqni saqlash sohasidagi axborot texnologiyalari quyidagi vazifalarni hal qilishga yordam beradi:-klinikadagi bemorlarning hisobini yuritish;-ularning holatini masofadan kuzatib borish;-diagnostika tekshiruvlari natijalarini saqlash va uzatish;-belgilangan davolashning to'g'riligini nazorat qilish;-masofaviy ta'limni o'tkazish;-tajribasiz xodimlarga maslahat berish monitoring qilish imkonini beradi.Elektron tibbiy hujjatlarni yuritish klinika xodimlarining turli blankalarni tayyorlashga sarflaydigan vaqtini qisqartirish imkonini beradi. Bemor haqidagi barcha ma'lumotlar muassasaning tibbiyot xodimlari uchun mavjud bo'lgan bitta tizimda shakllantirish imkonini beradi.

Tekshiruvlar va protseduralar natijalari to'g'risidagi barcha ma'lumotlar to'g'ridan-to'g'ri elektron tibbiy kartaga kiritiladi. Bu boshqa mutaxassislarga belgilangan davolash sifatini baholash, tashxis qo'yishdagi noaniqliklarni aniqlash imkonini beradi.Tibbiyotda IT dan foydalanish shifokorlarga har qanday qulay vaqtda onlayn konsultatsiyalar va konsiliumlar o‘tkazish imkonini beradi. Tabiiyki bu tibbiy xizmatlarning samaradorliginini sezilarli darajada oshiradi.Bemorlar masofadan turib tajribali shifokorlardan malakali yordam olishlari mumkin.Bu, ayniqsa, olis hududlarda yashovchi bemorlarda;Nogironligi bo`lgan, imkoniyati cheklangan bemorlarda;Qariyalarda;Yosh farzandli onalarga;Shunday qilib, bemorlar yoki shifokorlar maslahat olish uchun uzoq masofalarga borishlari shart emas.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda shifokor bemorning ahvolini baholay oladi, uni tekshiradi va uning barcha tekshiruv natijalari bilan tanishadi.Bunday maslahatlashuvlar nafaqat jismoniy muammolari bo'lgan bemorlargakerak, balki suhbatlar, yordamga muhtoj bo'lgan bemorlarga ham ruxsat beradi. Masofaviy tarzda shifokor bemor bilan aloqa o'rnatishi va unga zarur bo`lgan tibbiy yordam ko'rsatish imkonini beradi.Bugungi kunda tibbiy axborot tizimlari faol rivojlanmoqda, bu muassasalarning yanada samarali va tezroq ishlashiga imkon beradi. Bugungi kunda Sog'liqni saqlash sohasini axborotlashtirishga hukumatimiz keng e`tibor qaratmoqda. Yangi tibbiy IT-ni rivojlantirishga moliyaviy investitsiyalar ularning rivojlanishi va takomillashuviga ijobiy ta'sir

ko'rsatmoqda.Bundan tashqari, bugungi kunda sog'liqni saqlash tizimiga innovatsiyalarni kiritish zarurati ortib bormoqdaSog'liqni saqlashni axborotlashtirish bu juda keng tushuncha bo'lib, u AT yordamida mutaxassislarni tibbiyot sohasidagi dunyodagi ilmiy yutuqlar haqida xabardor qilishga qaratilgan faoliyatni ham o'z ichiga oladi. Shunday qilib, bu shifoxona va poliklinika xodimlarini tayyorlash va malakasini oshirishning samarali usuli hisoblanadi.Bunday texnologiyalar yordamida shifokorlar samaraliroq ishlash imkoniyatiga ega bo`ladilar.Samarali ishlashga yordam beradigan yangi ishlanmalar va kashfiyotlar haqida tezkor ma’lumot olishlari mumkin. Bu muammo, ayniqsa, chekka aholi punktlarida ishlaydigan tibbiyot xodimlari uchun dolzarbdir.Klinika xodimlari ushbu yangi texnologiyalarning ishlashini tezda o`zlashtira oladilar Bugungi kunda sog`liqni saqlashni axborotlashtirish doirasida milliy teletibbiyot tizimini yaratish rejalashtirilgan. To`g`ri yondashuv bilan ushbu texnologiya nafaqat dori sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi, balki xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. Masalan, shifokorlar ilmiy anjumanlarga borishlari uchun pul ajratishlari shart emas. Ular bunday tadbirlarda masofadan turib ishtirok etishlari mumkin bo‘ladi.Mamlakatimizdagi tibbiyot muassasalarida elektron hujjatlarni yaratish va saqlash masalalarini yoritish, shu mavzuga oid ma‘lumotlar bazasini shakllantirish hamda bu ma‘lumotlar bazasidan foydalanish siyosatini ishlab chiqish zamonaviytibbiyot, muassasalarining asosi bo`lib xizmat qiladi.

Foydalanuvchilarga zamon talablariga mos ravishda tezskorlik bilan yetkazish hamda ularni elektron ko`rinishgao`tkazish vazifasi asosiy maqsadlarimizdan biridir.Tibbiyot muassasalarilarining keyingi faoliyati davomida ushbu ma‘lumotlar bazasi elektron hujjatlarga doir ma‘lumotlar bilan to`ldirib boyitilib shakllangan ko`rinishga aylanib boraveradi.Elektron hujjatlarni boshqarish tizimi bu elektron hujjatlarni yaratish, saqlash,manipulyatsiya qilish va joylashtirishjarayonlarini samarali tashkil etishga imkon beruvchi kirilmalar va dasturlar to`plamidir. Fan va texnikaning misli ko`rinmagan yutuqlariga ega hayotning o`zi axborotlarni yangicha, ilg‘or usulda tez yaratish, saqlash, uzatish va ularga ega bo`lishning qulay yo`llarini ko`rsatib bermoqda.Zamonaviy tibbiyot muassasalarida axborottexnologiyalari yutuqlarini keng joriy etilishi, elektron axborot olish usuli bosma axborot olish usulidan anchagina qulayligini isbotlab bermoqda. Axborot makoniga kirish, axborot olish

usullari osonlashgani uchun ma‘lumotlar bazasidan foydalanuvchilar soni kun sayin ortib bormoqda. Bugungi kunda elektron ma‘lumotlar bazasidan ilmiy-texnik axborot muassasalari, ilmiy-ta‘lim jamoalari, nashriyot va jurnallarning tahririyatlari, internet tizimidanfoydalanuvchi tashkilotlar, arxivlar, muzeylar va ilmiy izlanuvchilar kengShu munosabat bilan tibbiyot ta`lim tizimiga axborottexnologiyalarini joriy qilish muammmo va istiqbollarini ko`ribchiqish favqulodda muhimdirHozirgi kunda qog`ozda rasmiylashtirilgan bemorlarning tibbiy ma‘lumotlari hozirgi zamon talablariga qoniqarli jabob bermaydi.Elektron ko`rinishda yaratilgan bemorlarning ma‘lumotlar bazasi maxsus serverkompuyterlarda fayl ko`rinishida saqlanib, hajm jihatdan kam joy egallaydi, uzoq muddat saqlash imkoniyati mavjud, uzatish uchun qulay va barcha muhim tafsilotlarni eslash, ko`rish mumkin. Shunday qilib, shifokorlar o`z kuzatishlari va rejalarini yozib borishi mumkin bo`lgan, ish joylarini avtomatlashtirishga moslashtirilgan XIX asrda paydobo`lgan «laboratoriya noutbuk»laridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday texnologiyalar sog`liqni saqlash tizimini yangi pog`onagaga ko`tarishga sabab bo`ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1.M.I.Bazarbayev, A.K.Tulaboyev, E.Ya.Ermetov, D.I.Sayfullayeva, Sh.X.Abduganiyeva,D.N.Isamuxamedov2.
2.https://cyberleninka.ru/article/n/tibbbiyotda-axborot texnologiyalari/viewer3. 3.http://kompy.info/ozbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-maxsus-talim-vazirligi?v27.html?page=44.
4.https://library.tsdi.uz/storage/books/March2022/FJSmtLWXw7D1NnQ7qxeV.pdf
5.https://gov.uz/oz/ssv/news/view/3538

Qon kasalligi –gemofiliyani insonlarga tarqalishi va asoratlari

Ilmiy raxbar:
Shodmonova Dilsora Shokirovna
Alfraganus NOTT Tibbiyot kafedrasi katta o’qituvchisi
Meliqulov
Javlon
Alfraganus Universititi Tibbiyot fakulteti
Stomatalogiya yo’nalishi 221-guruh talabasi

Javlonmeliqulov1@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola aholi o'rtasida keng tarqalgan va tibbiyotda dolzarb muommolarga sabab bo'lgan Gemofiliya kasalligi,bu kasallik asosan to'xtamasdan qon oqishi – qon oqishiga moyillik bilan ifodalanadigan irsiy kasalliklari haqida.Maqolada bu kasallikni oldini olish chora tadbirlari, kasalliklarga bo'lgan genetik moyillikni aniqlash va kasallik sonini kamaytirish.Bu kasallik asosan bola bilan ona qonining rezus faktorlari to'g'ri kelmasa uchraydi,bunda ona bilan otasining rezus faktorlari xar hil, bola va otaniki xar hil bo'ladi.

Kalit so'zlar: Gemofiliya,irsiy kasallik, qon plazmasi, X-xromosoma, kristmas omil, antigemofil, globulin, ishemiya, gemotoma,

Annonation: This article discusses hemophilia, a disease widely spread among the population and posing urgent problems in medicine.The disease is mainly characterized by uncontrolled bleeding, a tendency for bleeding and hereditary disorders related to bleeding.The article explores preventive measures, identification of genetic predisposition to diseases and reducing the number of cases. This disease occurs when the blood Rh factors of the child and parents do not match. If the Rh factors of the father and mother differ, the child will have the mother's Rh factor.

Key words: Hemophilia, hereditary disease, blood plasma, X-chromosome, Christmas factor, globulin,ischemia, hemotoma.

Аннотатsiя: Эта статья посвяшена гемофилии, заболеванию, которое широко распространено среди населения и вызывает актуальные проблемь в медицине. Это заболевание в основном характеризуется неконтролируемым кровотечением, склонностью к кровоизляниям и наследственными болезнями, связанными с кровотечениями. В статье рассматриваются меры профилактики, выявления генетической предрасположенности к заболеваниям и снижение числа случаев болезни. Это заболевание возникает, когда резус-факторы крови ребенка и его родителий не совподают. Если резус-факторы отца и матери ребенка разные, ребенок будет обладать резус-фактором матери.

Ключевые слова: Гемофилия, наследственное заболевание, плазма крови, Х-хромосома, фактор Кристмаса, антигемофильный Фактор, глобулин, ишемия, гемотома.

Kirish: Gemofiliya asosan to'xtamasdan qon oqishi – qon oqishiga moyillik bilan ifodalanadigan irsiy kasallik hisoblanadi. Gemofiliya kasalligini boshlanishi qon plazmasida qonning ivishi uchun zarur bo'lgan omilllar yetishmasligi sabab bo'ladi. Gemofiliya kasalligi ko'proq erkaklarda uchrasada lekin onadan o'tadi.Gemofiliya belgilari yoshlik chog'idan paydo bo'lib Yoshi kattalashgan sari kasallik belgilari kamayib boradi. Bemor yiqilib lat yeganida terisi ostiga, muskul orasiga va bo'g'imiga ko'p qon quyiladi. Bundan tashqari tilini tishlab olganida, tishni oldirganida va boshqa hollarda ko'p miqdorda qon oqib hayoti havf ostida bo'lib qoladi. Yirik bo'g'imlar orasida ya'ni tirsak,boldirpanja,tizzalarga qon quyiladigan bo'lsa ularda kuchli o'zgarishlar sodir bo'ladi. Gemofiliyaning A,V yoki Kristmas kasalligi va S turlari mavjud. Gemofiliya qirollar kasalligi dab ham ataladi. Gemofiliya kasalligi nasldan- naslga X-xromosoma bilan bog'liq bo'lgan retsessiv holda o'tadi.Ushbu kasallikdan odatda faqat erkaklar aziyat chekishadi, ayollar esa gemofiliya kasalligi tashuvchisi hisoblanadi. Gemofiliya bilan chalingan kasal bemorlarning 70% dan ko'prog'ida nogironlik alomatlari kuzatilar ekan.

GEMOFILIYA RIVOJLANISH SABABLARI: Gemofiliya irsiy kasallik hisoblanadi. Uning rivojlanishiga mas'ul bo'lgan genl ar jinsiy X xromosomaga bog'liq. Bu kasallik ayoldan meros bo'lib, kasallik sifatida doimo erkaklarda kuzatiladi. Ayollar esa gemofiliya kasalligini tashuvchi hisoblanadi. Bazi holatlarda gemofiliya bilan qizlarning tug'ilish hollari ham nomoyon bo'lmoqda. Bu holatda bemor qizning otasi-onasi ikkovlari ham kasal bo'lishadi, ya'ni bemorning otasi kasallangan, onasi esa gemofiliya kasalligini tashuvchisi hisoblanadi.

Gemofiliyaning uch turi mavjud:

-Gemofiliya A – xromosomasida retsessiv mutatsiya. Gemofiliya A da antigemofil globulin yetishmasligi qayd qilinadi. Bu esa gemofiliyaning eng keng tarqalgan turi bo'lib, 80-85 % hollarda yuzaga keladi. Bunda 8 omil darajasida 5-20 % bo'lganda, shikastlanish va jarrohlik aralashuvlarida og'ir qon ketish kuzatiladi.

-Gemofiliya B – X-xromosomadagi retssesiv mutatsiya bo'lib, u kristmas omili yetishmasligi bilan tavsiflanadi. Bunda gemofiliyaning ikkinchi darajali koagulyatsion plastinkaning shakllanishi buziladi.

- Gemofiliya C – Bu patologiya ham erkak, ham ayollarda rivojlanishi mumkin. 11 omil yetishmasligi qayd qilinadi.

Gemofiliya kasalligi nafaqat bo'g'imlarga, balki boshqa organlarga ham ta'sir qiladi. Ehtimo, retroperitonel, subsastsial va mushaklararo gemotomalar paydo bo'lishi mumkin. Gemotomadagi qon hajmi 0,5 dan 3 litrgacha boladi.

Kasallik qanday namayon bo'ladi: Gemofiliyada gemotomalar nervlarni yaki qon tomirlarini ezib qoyishi mumkin. Bu holatda bemorda kuchli og'riq, ishemiya belgilari, va bundan tashqari parez bilan falajlik rivojlanadi.

Gemofiliyaning og'ir holatlaridan biri bu bemorda oshqazon-ichak va buyrakda qon ketishi xavfi mavjuddir. Qon bilan qusish, qora, suyuq najas kuzatiladi. Buyrakda qon ketishi bilan esa siydik bilan qon ajralishi qayd qilinadi.

Gemofiliya kasalligini davolash: Gemofiliya kasalligi bilan kasallangan bemorlarda keraklicha davolanish bo'lmasa, bu bemorlar doimiy nogironlik va erta o'limga duch kelishadi.

Bemorning tanasiga yetishmayotgan koagulyant omilini kiritish orqali nazorat qilish mumkin. Bunday davolanish yordamida ko'p qon ketishi va u bilan bog'liq oqibatlarni olish mumkin.

Gemofiliya kasalligiga chalingan bemorlarga barcha dorilar og'iz yoki vena orqali kiritilishi kerak. Har qanday operatsiyani bajarishda gemofiliya bilan og'rigan bemorlarga antigemofil preparatlari beriladi.

Gemofiliyaning asoratlari: Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asoratlar qon quyilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.Masalan anemiya, gemotomalar, soxta o'simta va boshqalar.Va bundan tashaqari immunitet tizimi asoratlari ham kuzatiladi:trombotsitopeniya, qonda qon ivishi omili ingibatorlari paydo bo'lishi.

Oldini olish: Gemofiliyani profilaktikasi kasallik tarixi bo'lgan juftliklardagi tibbiy va genetik maslahatlar olib borishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Qon komponetlari K.M Abdiyev
2.Qon hidi Abdurashid Qurbonov
3.Odam fiziologiyasi E.Nuriddinov
4.mymedic.uz
5.https://uz.wikipedia.org
6.https://www.hemophilia.uz

KARIYES KASALLIGI VA UNI DAVOLASH.

O’ktamova Shaxnozabonu Odil qizi
Alfraganus Universiteti stomatologiya yunalishi 2 - kurs talabasi

Annotatsiya: kariyes kasalligi , past intensivlik kariyes, kasallikni davolashning zamonaviy usullari, kariyesni oldini olish , umumiy va yo’ldosh kasalliklari , chiroyli kasallik, patogenetik va simptomatik muolaja, chuqur kariyes, kariyesni davolashni ikkita asosiy usuli, O’zbekistonda kariyesning intensivligi, plombalash usuli, noinvaziv (arralashsiz).

Kalit so‘zi: chuqur kariyes , o’rta kariyes, kariyesga uchragan tish , kariyes, juda past, baland, bakteriyalar, gigiena, dog’ bosqichi .

Kariyes kasalligi — tishlarda paydo bo'ladigan chiroyli kasallik bo'lib, bu tish emali va tishlar strukturasining zarar ko'rishi natijasida yuzaga keladi. Bu kasallik odatda quyidagi sabablarga ko'ra yuzaga keladi:

1. **Bakteriyalar**: Tishlarda yig'ilgan plaka va bakteriyalar kislotalarni ishlab chiqaradi, bu esa emalni zarar qiladi.
2. **Oziqlanish**: Oziq-ovqatda to'g'ri balans bo'lmasa, tishlarga zarar yetadi.
3. **Gigiena**: Tishlarni to'g'ri parvarish qilmaslik kariyes xavfini oshiradi.

Jahon Sog’liqni Saqlash Tashkiloti kariyes intensivligining 5 ta darajasini tavsiya qiladi (KPO miqdoriga binoan 12 - yoshli bolalarda).

1. Juda past (0 - 1,1)
2. Past (1,2 - 2,6)
3. O‘rta (2,7 - 4,4)
4. Baland (4,5 - 6,5)
5. Juda baland (6,6 dan ko’p)

Past intensivlik kariyes - Shveysariyada, Birma, Mozambikda, Efiopiyada, Shri - Lankada, Ugandada kuzatiladi.

O’rta darajalik kariyes - Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Argentina, Avstriya, Chexiya, Slovakiya va Finlyandiyada kuzatiladi.


Baland - Norvegiya, Germaniya, Meksika, Kuba, Eronda aniqlandi.

Juda baland - Yaponiyada kuzatiladi.

O’zbekistonda kariyesning intensivligi (o’rta) - 3,64 ga teng (Yunusov Yu.X,,1986).

Ushbu yuqoridagi ma’lumotlardan ma’lumki, Yer sharining turli hududlarida kariyesning tarqalishi va intensivligi har xil , demak, bunga bir necha ta’sirlovchi omillar sabab bo’ladi:

1. Iqlim va geografik joylashishi
2. Mikroblarning tish emaliga ta’siri
3. Umumiy va yo’ldosh kasalliklari
4. Ftorning ichimlik suvidagi tarkibi past bo’lishi kabi sabablar bo’ladi.





a)chuqur kariyes b)o’rta kariyes c)kariyesga uchragan tish

Lekin hozirgi paytda bu kasallik juda keng tarqalgan. Taxminan yer yuzida 90% gacha alohida kariyes kasalligi uchraydi.

Kariyes kasalligini davolashda faqat plombalash usuli bilan davolashdan yetarli darajada natija olinmaydi. Bu kasallikni davolashda kompleks davo, ya'ni etiopatologik, patogenetik va simptomatik muolajalarni olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Davolash: Agar kariyes dog' bosqichida bo'lsa, tishlarni yetarli darajada ftor va kalsiy bilan to'yintirish kifoya. Agar o'rta yoki chuqur kariyesga uchraganda bor mashinadan foydalaaniladi.

Kariyesni davolash uchun tishning zararlangan qismini arralab tashlash va uning shaklini plomba yordamida tiklash kerak. Chuqur kariyesni davolashda ,odatda stomatologga ikki marta murojat qilinadi.

Birinchisida - vaqtinchalik plomba so'ngra doimiy plomba qo'yiladi.

Kariyesni davolashni ikkita asosiy usuli mavjud: noinvaziv (arralashsiz) va invaziv (ta'sirlangan to'qimani arralab tashlash) .Bu usullarni kasallikning bosqichiga qarab qo'llaniladi.

Kasallikni davolashning zamonaviy usullari. Yangi usullardan biri bu kimyoviy - mexanik usul hisoblanadi. Bunda tishning zararlangan sohasiga maxsus vositalar qo'yish va keyin tishning zararlangan qismini olib tashlash va plomba qilishdan iborat. Ushbu usulning afzalliklari - og'riqsiz kechishi va chuqur arralashning hojati yuqligidir. Faqat bu usul kariyesning dastlabgi bosqichlarida samarali bo'ladi.

Kariyesni oldini olish. Tishlarni kariyesdan himoya qilish uchun, ularni yuvayotganda supiruvchi harakatlar bilan tozalash kerak. Bu muolaja kamida 3 - 5 daqiqa bo'lishi kerak. Ovqatlangandan so'ng albatta tishlaringizni yuvishingiz lozim. Oziq tarkibi ham kariyesni rivojlanishiga ta'sir etadi. Shirin yoki nordon narsa iste'mol qilganingizda biroz suv iching va og'zingizni yaxshilab chayqab tashlang. Kalsiy va ftorga boy bo'lgan meva va sabzavotlar iste'mol qiling. Xom sabzi ayniqsa tishlarni sog'lig'iga ayniqsa foydali ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J.A.Rizayev, A.S.Kubayev Kariyes kasalligi
2. O.Ye.Bekjanova, U.A.Shukurova Klinik kitob

Tibbiyot turizmida shifoxona va sihatgohlarning ahamiyati

Yuldasheva Barno Maribjanovna Xalqaro Turon Fanlar Akademiyasi a'zosi, Halima Xudayberdiyeva, Al Fagoniy ko'krak nishoni sohibasi, Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti Davolash ishi 4-bosqich talabasi. barnoyuldashdva@372gmail.com @MARIBJANOVNA_BARNOXONIM

Ilmiy Rahbar: Tibbiyot, tabobat va tarix fanlari doktori, professor. Turon Fanlar Akademiyasi akademigi, Xalqaro Amir Temur, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur mukofoti va ko'krak nishoni sohibi, "Axsikent " Xalqaro ilmiy-tadqiqot jamoat birlashmasi raisi, NamDU tibbiyot fakulteti professori Mirmakhmud Mirshokhidovich.

Annotatsiya: Bugungi kunda tibbiy turizm sohasi jadal miqyosda rivojlanayotgan sohalardan biri desak, to'g'ri bo'ladi. Chunki xalqaro miqyosda ko'plab bemorlar sifatli tibbiy yordam olish va reabilitatsiya xizmatlari uchun boshqa mamlakatlarga borishmoqda. Shu jarayonni rivojlantirishda respublikamizdagi katta, o'z sohasiga ega bo'lgan shifoxonalar, sihatgohlar va dam olish maskanlarini tibbiyot turizmiga jalb qilish lozim deb bilamiz. Tibbiyot turizmida shifoxona va sihatgohlarning ahamiyati dolzarbligi, sihatgohlarning shart-sharoitlari, joylashgan o'rni, iqlimi, tashqi ko'rinishi va sayohatchilar uchun foydali afzalliklari, parhez oziq-ovqatlari, salomatlikni yaxshilash hamda davolash turlarining ko'pligi, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va sog'liqni tiklashdagi ahamiyatini tahlil qilishga qaratilgan. Mazkur maqolada shifoxona hamda sihatgohlarning tibbiyot turizmida tutgan o'rni, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va sog'liqni tiklashdagi ahamiyati xaqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zi: tibbiyot, turizm, shifoxona, sanatoriya, iqtisodiy, sog'liqni saqlash.

Annotation: Today, it is accurate to say that the field of medical tourism is one of the rapidly developing sectors. This is because many patients around the world are traveling to other countries to receive quality medical care and rehabilitation services. We believe that it is necessary to

involve the major, well-established hospitals, sanatoriums, and recreational facilities in our country in the development of medical tourism. The importance of hospitals and sanatoriums in medical tourism is emphasized through their facilities, location, climate, appearance, and benefits for travelers, such as dietary foods, health improvement, and the variety of treatment options. This article is focused on analyzing the role of hospitals and sanatoriums in medical tourism, with an emphasis on their economic, social, and health-restorative significance.

Keywords: medicine, tourism, hospital, sanatorium, economic, healthcare.

Аннотатsiя: В настоящее время можно с уверенностью сказать, что сфера медицинского туризма является одной из стремительно развивающихся отраслей. Это связано с тем, что многие patsienты со всего мира отправляются в другие страны для получения качественной медицинской помощи и услуг реабилитatsii. Мы считаем, что необходимо привлекать к развитию медицинского туризма крупные, хорошо зарекомендовавшие себя больницы, санатории и зоны отдыха нашей республики. Важность больниц и санаториев в медицинском туризме подчеркивается их условиями, расположением, климатом, внешним видом и преимуществами для туристов, такими как диетическое питание, улучшение здоровья и разнообразие методов лечения. Настоящая статья посвящена анализу роли больниц и санаториев в медицинском туризме с акцентом на их экономическую, социальную значимость и значимость для восстановления здоровья.

Ключевые слова: медицина, туризм, больница, санаторий, экономический, здравоохранение.

Kirish: Shifoxonalar va sihatgohlarda tibbiyot turizmini rivojlantirish muhim o‘rin tutadi. Chunki ular aholi uchun tibbiy yordam va profilaktika xizmatlarini ko‘rsatish uchun maxsus sharoitlarga ega bo‘lishi bilan ajralib turadi. Qolaversa, tibbiy turizmda sihatgohlar quyidagi asosiy sabablarga ko‘ra muhim sanaladi.

1. Sog‘lomlashtirish xizmatlari: Sihatgohlar asosan kasalliklarni davolashdan ko‘ra kasalliklarning oldini olish, salomatlikni mustahkamlash va sog‘lomlashtirishga yo‘naltirilganligi. Sihatgohlarda fizioterapiya, mineral suv vannalari, nafas olish va yurak-qon tomir tizimi uchun muolajalar, sayrgohlar, maxsus shifobaxsh fito choylari bilan davolash amalga oshiriladi.

2. Tabiiy resurslardan foydalanish: Bu ko‘plab sihatgohlar tabiatning noyob sharoitlari, masalan, tog‘ yoki dengiz yaqinidagi ekologik toza joylarda joylashgani bo‘lib, bu atrof-muhitning davolash jarayoniga qo‘shimcha ijobiy ta’sirini ta’minlashi inson salomatligi va ruhiy holatiga juda katta ta’sir ko‘rsatadi.

3. Stressdan halos bo‘lish imkoniyati: zamonaviy hayotning yuqori stress darajasi, ayniqsa katta shaharlarda, insonlar ruhiy va jismoniy sog‘lig‘ini yomonlashtirishi mumkin. Sihatgohlar aholiga stress va charchoqdan halos bo‘lish imkoniyatini beradi, bu esa ularning umumiy sog‘ligini yaxshilashda muhim ro'l o‘ynaydi.

4. Tibbiy turizmning rivojlanishiga hissa qo‘sha oladigan jarayonlar: Aytib o‘tish kerakki, hozirgi kunda xalqaro turizmni rivojlantirishga do‘stona qo‘l uzatgan davlatlar ko‘p, bu esa o‘z navbatida iqtisodiy va ijtimoiy turizmni rivojlanishida katta eshiklar ochib bermoqda. Bu bilan sog‘lig‘ida muammosi bo‘lgan turist ham dam olish va muolaja uchun sanatoriya xohlaydi, bu esa turizm rivoji uchun manfaatli bo‘ladi, ikki tomon uchun ham. Tashrif buyurgan sayyohlarning sanatoriyalarga kelishi, ko‘pincha o‘z mamlakatida qimmat bo‘lgan muolajalarni arzonroq, sifatli olishi ularni yanada qiziqtiradi.

Vaholanki, bu yerda mavjud bo‘lmagan yoki qimmat bo‘lgan muolajalarni arzonroq va sifatliroq olish uchun xorijiy mamlakatlarga boradigan O‘zbekiston fuqarolari esa o‘zi anglamagan yoki xabardor bo‘lgan holda tibbiy va iqtisodiy turizm rivojiga hissa qo‘shmoqdalar. Shu tariqa, tibbiy turizm iqtisodiy o‘sishga va sog‘liqni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga yordamlar ko‘lami keng ochilmoqda. Aytib o‘tish kerakki, sihatgohlar tibbiy turizm orqali odamlarning sog‘lom hayot tarzini shakllantirishga, yuqori sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanishga va turizmni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Shunday ekan, O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan sihatgohlarning faoliyatini kengaytirish, sifat darajasini oshirish, tabiiylikka ko‘proq urg‘u berish, ekologik jihatini inobatga olish tibbiy turizmni rivojlantirish hamda inson salomatligida katta natija bera oladi.

Men Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan sanatoriyalar hamda sihatgohlar haqida so‘z yuritmoqchiman.




Chortoq sihatgohi o‘z davrida SSSR miqyosidagi dam olish maskani bo‘lgan. U o‘zining bir necha afzalliklari, foydali xususiyatlari, shart-sharoitlari, tabiiy mineral suvlar bilan dong‘i butun olamga yetgan. "Chortoq" sanatoriyasi Namangan shahridan 25 km masofada, Chortoqsoy daryosi yoqasi va adirlari orasida joylashgan. U dengiz sathidan 650 metr balandlikda. joylashgan balneologik va iqlimiy jihatdan juda ham talabga javob bera oladigan dam olish maskanidiir. Ushbu maskanda bir necha kasalliklarni davolash bilan bir qatorda kasalliklarni oldini olishga alohida e’tibor qaratilgan.

Chortoq sihatgohida quyidagi xizmatlar ko‘rsatiladi:

Miokard infarkti o‘tkazgan bemorlarni reabilitatsiya qilish, bo‘g‘im-harakat a’zolari, oshqozon-ichak kasalliklari, teri-tanosil kasalliklari, ayollar jinsiy a’zolari kasalliklarini davolashda uning shifobaxsh tabiiy suvi katta foyda beradi. Shifobaxsh suvning tarkibida yod, brom va boshqa ko‘pgina minerallarga boy bo‘lgani sababli bemorlarni vannada davolash, termal mineral suvlarni ichish orqali oshqozon-ichak kasalliklarini davolash mumkin. Shifobaxsh balchiq aplikatsiyasi, galvano-balchiq usullari bilan bod kasalliklari davolanadi. Zamonaviy tashxislash va davolash asbob-uskunalari yordamida fizioterapiya, lazer bilan davolash, badan tarbiya, uqalash, psixoterapiya, fitobar va parhez ovqatlar sifatli darajada professional shifokorlar va hamshiralar tomonidan xizmatlar ko‘rsatiladi. Sihatgoh turar joylari barcha qulayliklarga ega bo‘lgan bir, ikki kishilik zamonaviy xonalarga ega. Kechki sayr va madaniy dam olish uchun madaniyat saroyi, kutubxona, turli sport maydonchalari, bilyard o‘yinlari, sartaroshxona, aloqa bo‘limi bemorlar xizmatida. Barchaga qulay bo‘lgan narxlar bilan Chortoq sanatoriyasi xizmatga shay.



Shaxand sanatoriysi Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on tumani, Shaxand qishlog‘ida joylashgan bo‘lib, dengiz sathidan 943 metr balandlikda joylashgan. "Shaxand" sanatoriyasining mashhurligi uning "Ming dardga davo" mineral suvi bilan bog‘liq. Bu yerni 3 ta butoqli mineral suvlari mavjud bo‘lib, barcha mineral suvlar kimyoviy va gaz tarkibi bilan farq qiladi. Suv tarkibida natriy, kaliy, kalsiy, magniy, xlor, oltin gugurt, azot va boshqa iz elementlar mavjud. Ushbu mineral suv quyidagi kasalliklarni davolash uchun ishlatiladi:

-revmatizm, revmatoid artrit;

-travma holatlaridan keyin va turli jarrohlik amaliyotlaridan so‘ng artroz, artrit, bo‘g‘imlar, suyaklar, mushak tizimi;

-podagra, romatoid artrit, osteoxondroz;

-suyaklar, mushaklar, tendon kasalliklari;

-nevrit, nevroz, pleksit, miozit, radikulit;

-poliradikulo neyrit, osteoxondroz;

-oshqozon va o‘n ikki barmoq ichak yarasi, oshqozon kasalligi, kolit, enterokolit, xoletsistit,

surunkali pankreatit, o‘tkir gepatit;

-adneksit, salpingo-ooforit, endometrit;

-ayollarning bepushtligi, hayz davrida buzilishlar, operatsiyadan keyin homila tushishi, vulvit, bepushtlik;

-prostata kasalliklari, erkaklarda quvvatning pasayishi, uretrit, sistit, enureziya, pielonefrit;

-allergik dermatologik kasalliklar, dermatit, qichima, boshqa kasalliklarda qo‘llaniladi



Oydin Shifo. Namangan viloyati, Namangan shahri, Yangi Namangan tumani, Shimoliy Aylanma yo‘li, 14-uy, Boborahim Mashrab mahallasida joylashgan, xususiy shifo maskani bo‘lib, 250 kishiga mo‘ljallangan komfort xonalari, sharoitlari va sifatli muolajalari bilan nom qozongan. Ushbu shifo maskanida 22 tadan ortiq fizioterapiya muolajalari, yangi zamonaviy standartlarga javob beradigan jihozlar bilan jihozlanganligi, hamda bemorlar uchun ikki va uch kishilik komfort xonalar, fitnes zallari, diyetolog minyusi bilan uch mahal beriladigan taomlari, hattoki kundalik sayyohlar uchun ham doimo xizmatdaligi alohida e’tiborni jalb qiladi.

Bu shifo maskanida kardiologiya, nevrologiya, terapiya, allergologiya va pulmonologiya, gastroenterologiya, urologiya va jarrohlik bo‘limlarida amaliyotlar o‘tkaziladi. Bemorlar uchun ekskursiyalar tashkil etilib, o‘n kunlik davolanish va dam olishga kelgan bemorlarni, tibbiyot turizmini rivojlantirish hamda bemorlarga madaniy dam olish maqsadida har yakshanba kuni Zarkent qishlog‘ida joylashgan "O‘n g‘or" dam olish maskaniga, tabiat qo‘yniga sayohatlar tashkil etilishi, tashrif buyurgan bemor va sayyohlarni mamnun etishi meni shu shifoxonada ishlashim jarayonida lol qoldirdi.

Oydin Shifo maskanining o‘ziga xos tomoni "Fito choylari" o‘zimizning tog‘ va adirlarda yetishtirilayotgani, foydali xususiyatlari, jahon talabiga mos ravishda olib borilishi insonlarga huzur bag‘ishlaydi.

Amaliyotim davomida ko‘p turistlarning tashrifi aynan mana shu ekskursiya hamda o‘ziga xos fito choylarning xususiyati va ta’mi ularni befarq qoldirmaganini guvohi bo‘ldim. Oydin Shifo sihatgohining oshxonasi 5-qavatda joylashganligi va tabiat manzaralari bilan hamohang bo‘lib, organizmga foydali mikro- makroelementlar kirishi, butun kun davomida tetiklik hissini beradi. Oydin Shifo maskanida qo‘shimcha laboratoriya, rentgenologiya va stomatologiya xizmatlari bemorlarga juda qulay va samarali ekanligi bilan ajralib turadi.

Oydin Shifoning o‘ziga xos ekskursiyalari hamda har bir bemorning universal muolajaga ega bo‘lishi bilan e’tiborni tortadi.

Zamonaviy davrimizda bunday ko‘plab shifo maskanlari va sihatgohlar, madaniy dam olish va universal davolanish muassasalari tibbiyotning rivojlanishida muhim omil bo‘lib, keng izlanishlar yo‘lga qo‘yilganining yaqqol na'munasi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, tibbiyot turizmini rivojlantirish, xizmatlarni standartlashtirish, bemorlarning xavfsizligini ta’minlash, raqobatbardoshligini oshirish mana shunday keng qamrovli shifo va dam olish maskanlarida, ko‘ngilochar bog‘lar, bolalar o‘yingohlari, qadimiy yodgorliklarga boyitilgan muzeylar, kutubxonalar, o‘zbekona milliy teatrlar namoyishi (haftada bir marta), milliy liboslar modasi, bemorlar bilan psixologik treninglar o‘tkazish, yanada tibbiy turizmni rivojlanishida samarali va manfatli bo‘lishi aniq deb bilaman.

Ushbu sihatgohlarda eng xizmat ko‘rsatayotgan tibbiyot xodimlarini mehnatlarini qadrlash va o‘quv mashg‘ulotlarini tez tez o‘tkazib borish va saralash hamda ular uchun viloyat, shahar, tuman hokimligidan dam olish maskanlariga yo‘llanmalar berish orqali ularni ish tajribalarini oshirish, chet sihatgohlari bilan fikr almashishlar bu Tibbiyot turizimini yanada rivojlanishida hamdo‘stlik qo‘llari mustahkam bo‘lishida bir ustuvorliklardan biri bo‘lishi mumkin deb bilaman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sanatoriy Shahand Leto.Uz g'oy turoperator https://leto.uz> hotels> shakhand.

2. SANATORNO-KURORTNOE UPRAVLENIE ÞROFSOYOZOV UZBEKISTANA https:// sihatgoh.uz/sanatorium/10.

Leykoz kassaligi va uning turlari , kelib chiqish sabablari davolash usullari.

Alfraganus Universiteti Davolash ishi
yo'nalishi 23-7-guruh o'quvchisi:
Akbarova Feruza Javlonovna
Ilmiy maslahatchi Dost:
Qalandarov Qobil Suyarovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada.Laykoz(Oq qon)kassalini kelib chiqish sabablari, Leykoz kasalligi bilan kasallangan bemorlar va ularning organizmidagi o'zgarishlar davolash turlari haqida yoritib beriladi.

Аннотатsія:В данной статье описаны причины лейкоза,виды лечения больных лейкозом и изменения в их организме.

Abstract: This article describes the causes of leukemia, the types of treatment for patients with leukemia and the changes in their body.

Kalit so'zi: Leykoz,O'tkir,Surunkali,Sitogenez,Sitostatik,Qon.

Ключевое слово:лейкемия, хронический, острый, цитогенез, цитостатик, кровь.

Key word: Leukemia, chronic, sharp, cytogenesis, cytotoxic, blood.

Leykoz (leykemiya, aleykemiya, oq qon kasalligi) — bu qon hosil qilish tizimining klonal yomon sifatli (neoplastik) kasalligi. Leykozlar o’z etiologiyasiga ko’ra turlicha bo’lgan kasalliklarning keng guruhini o’z ichiga oladi. Leykozlarda yomon sifatli klon suyak iligining yetilmagan gemopoetik hujayralaridan ham, yetilayotgan va yetuk qon hujayralaridan ham paydo bo’lishi mumkin.Leykoz kasalligi turlari:O'tkir leykoz,Surunkali leykoz.

O’tkir — yetilmagan hujayralardan (blastlardan)

Surunkali — yetilayotgan va yetuk hujayralar.

Shuni ham aytisg kirakki, o’tkir leykoz hech qachon surunkali shaklga o’tmaydi, surunkali holatlarda esa xuruj olish kuzatilmaydi. Surunkali leykozlar uchun «xurujlar» — qonning tasviri o’tkir shakldagi holatni eslatadigan blastli krizlar xarakterlidir.

O’simta hujayralarining farqlanish darajasiga ko’ra

Differentsiatsiyalanmagan

Blastli

Sitar leykozlar

Sitogenezga muvofiq

O’tkir leykemiya sitogenezi bo’yicha quyidagilarga bo’linadi:

Limfoblastli,Mieloid,Monoblastli,Mielomonoblastli,Eritromeloblastli,

Megakarioblastli,Differentsiatsiyalanmagan.

Surunkali leykemiya quyidagi turlari bilan ifodalanadi:

Mielotsitar kelib chiqishli:surunkali mielotsitli,surunkali neytrofilli,surunkali eozinofilli,surunkali bazofilli,mieloskleroz.

O’tkir leykemiyaning asosiy klinik belgilari:Blast hujayralarining ko’pligi va ularning ustunligi (30% dan ko’p, odatda 60-90%).«Leykemik qulash» — ko’plab blastlar fonida hujayralarning oraliq shakllarini yo’q bo’lib ketishi.

Bir vaqtning o’zida abazofiliya va aneozinofiliya mavjudligi.

Tezda rivojlanuvchi anemiya.

Surunkali leykemiyaning asosiy klinik belgilari: (alomatlar bir xil, ammo xuddi teskarisi).Blast hujayralari miqdorining ozligi yoki umuman yo’qligi (30% dan kam, ko’pincha 1-2%).«Leykemik qulash»ning yo’qligi, ya’ni hujayralarning oraliq shakllari (promielotsitlar va mielotsitlar) mavjudligi.

Bazofil-eozinofil assotsiatsiya, ya’ni bir vaqtning o’zida bazofiliya va eozinofiliya mavjudligi.

Asta-sekin rivojlanuvchi anemiya.

Tashxislash qo'yish.Oq qon kasalligini tashxis qo'yishimizda morfologik tadqiqotlar katta ahamiyatga ega. Hayot chog’idagi morfologik tashxisning asosiy usullari yonbosh suyagi trepanobiopsiyasi yoki to’sh suyagi va boshqa a’zolarning funktsiyasidan olingan suyak iligining biopatlari va periferik qon surtmalarini o’rganish sanaladi.

Davolash usullari.Surunkali leykemiyada har taraflama qo’llab-quvvatlovchi taktikalarni tanlaymiz.Bizning maqsadimiz asoratlar rivojlanishini kechiktirish yoki oldini olishdir. O’tkir leykemiyada shoshilinch terapiya talab qilinadi, bu yuqori dozalarda kimyoterapevtik vositalarni qabul qilishni o’z ichiga oladi. Kimyoterapiya organizmga oq qon hujayralaridan tozalanishga imkon beradi. Shundan so’ng, agar talab etilsa, sog’lom donorlik suyak iligi hujayralarini transplantatsiyasi buyuriladi.

Sitostatiklar — bu atipik hujayralar o’sishini bostiruvchi dorilar. Ular vena ichiga yoki tabletka shaklida og’iz orqali yuboriladi. Kasallikning turli varianti o’ziga xos davolanish rejimini talab qiladi. Jahon sog’liqni saqlash tashkilotining tavsiyalariga ko’ra, har bir mutaxassis turli xil terapiya rejimlariga amal qilishi mumkin. Leykemiyaning aniq varianti aniqlangach (hujayra tarkibini hisobga olgan holda), bemorga zarur sxema bo’yicha bir necha kurslarda kimyoterapiya buyuriladi:

Birinchi kurs:zararli hujayralarni yo’q qilishga qaratilgan. Uning davomiyligi individual ravishda belgilanadi va bir necha oyni tashkil etishi mumkin.

Birinchi kurs muvaffaqiyatli amalga oshirilgandan so’ng, qo’llab-quvvatlovchi terapiya buyuriladi — bemorga sitostatiklar oldingi dozalar va miqdorda beriladi.

Oxirgi bosqich:— bu profilaktika kursi. U olingan terapevtik ta’sirni kuchaytiradi va bemorga remissiyada uzoqroq bo’lishga imkon beradi. Barcha kimyoterapiya kursi tugagach, ushbu kasallik bilan boshqa duch kelmaslik ehtimoli yuqori bo’ladi.

Biroq, tibbiyot hali yetarlicha rivojlanmagan va organizm o’zini oldindan aytib bo’lmaydigan darajada tutishi mumkin. Shunday qilib, to’liq davolanishdan keyin kasallik qaytalanishi ehtimoli ham yo’q emas. Bunday holda, davolanishning yana bir varianti — suyak iligi transplantatsiyasi taklif etiladi..

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.U.Veronesi "New Approaches to the Treatment of Leukemia "
2.CHissov.V.I "Onkologiya "
3.M.S.Abdullaxo'jayeva "Potologik anatomiya "
4.CHissov.V.I. "Onkologiya "

Интерактивные методы преподавания латыни студентам.

Набижонов Миродил Собиржонович 2-курс лечебного дело
Научный руководитель:Профессор Фарида Якубова Университет Альфраганус — негосударственная организatsiя высшего образования, Ташкент 100190.(90)531-22-83 ORCID.0009-0003-3049-9017
mirodilnabijonov2004@gmail.com

Аннотatsiя

Эта статья написана об интерактивных методах преподавания латыни студентам. Кроме того, в статье представлена informatsiя о том, что латынь является основой многих областей и преимуществах изучения латыни.

Ключевые слова.

Латинские языки, Метод грамматики и перевода, Метод чтения, Метод понятного ввода.

Латынь является источником большинства языков, на которых говорят сегодня. Изучение латыни, которая также сильно подвержена изменениям, вооружит вас фундаментальными принципами и поможет понять современные языки в их корнях. Сегодня это наиболее распространенные римские языки:

Испанский. В мире насчитывается около 470 миллионов носителей испанского языка.

Португальский язык: говорящие на португальском языке занимают второе место с населением около 250 миллионов человек.

Французский. По оценкам, 150 миллионов человек говорят по-французски. Изучение латыни особенно полезно, если вы планируете отправиться в путешествие по европейским странам.

Итальянский – Носителями итальянского языка являются около 90 миллионов человек.

Румынский – на румынском языке говорят около 25 миллионов человек.

В целом кафедры мировых языков продолжают процветать благодаря неотъемлемой ценности навыков, полученных в результате изучения языков. По данным Американского совета по преподаванию иностранных языков, помимо очевидных коммуникативных преимуществ изучения языка как для личных, так и для профессиональных целей, опыт изучения иностранного языка значительно повышает успеваемость учащихся по всей учебной программе. К когнитивным преимуществам относятся такие, как улучшение навыков решения проблем, повышение творческого мышления, развитие вербальных и пространственных способностей, улучшение функции долговременной и краткосрочной памяти и более гибкая обработка мыслей. Хотя эти когнитивные функции может быть трудно измерить, студенты, изучающие язык, также

продемонстрировали более высокие результаты в поддающихся количественному измерению областях, таких как более высокие результаты стандартизированных тестов и успеваемости по чтению, расширенный словарный запас.

Типичный современный языковой класс включает в себя преподавателя, дающегоинструкции на изучаемом языке, уроки обмена любезностями и разговоры об одежде, хобби, определении времени и погоде. Эти среды разработаны с целью расширения словарного запаса, поскольку очевидная цель этих вводных занятий — научить студентов вести базовую беседу, одновременно тонко придавая другим когнитивным преимуществам изучения языка.

С другой стороны, латынь нелегко вписывается в шаблон, используемый в современных языковых классах. Поскольку язык мертв, у него нет возможности вести переписку от первого лица между носителем языка и изучающим латынь; вместо этого подлинная римская культура доступна только через наблюдение сохранившихся контактов. Поэтому «общение» с римлянами достигается через литературные тексты, историко-философские трактаты, письма, монументальные надписи и граффити.

Этот способ передачи требует высокого уровня владения языком, прежде чем взаимодействие с настоящей латынью станет жизнеспособным. Благодаря современным языкам возможность вести разговор лицом к лицу является большим преимуществом для учащихся. Невербальные подсказки, такие как поза, выражение лица и взаимодействие с окружающей средой, помогают передать настроение и намерения, но они доступны только с физическим компонентом передачи. Начинающие латинисты, однако, не могут остановиться посреди разговора и попросить носителя языка уточнить слово или перефразировать мысль, а римляне писали не с целью пойти на уступки современной нелатинской аудитории.

Множество преимуществ, присущих латыни, часто упускаются из виду среди вопросов о том, почему студенты должны изучать язык, который нельзя использовать так же, как современные языки. Чтобы ответить на эти вопросы и преодолеть проблемы, связанные с изучением латыни, преподаватели должны выяснить, как структурировать свои занятия, исходя из предполагаемой цели обучения языку подростков и желаемого конечного результата курса —

будь то успешная сдача экзамена. , межличностное общение, расширенный словарный запас и знания грамматики, новое культурное понимание и чувствительность или более глубокая логика и навыки решения проблем. Хотя каждый педагог обладает уникальными методами и практиками преподавания латыни, общие методологии можно сгруппировать в три педагогические философии, каждая из которых имеет свой набор сильных и слабых сторон:

1. Грамматика и метод перевода.

Метод грамматики и перевода считается традиционной системой преподавания и обучения.Латинский. Эта практика основана на пристальном внимании к грамматическим формам посредством подробного обучения и интенсивного чтения. Студенты, обучающиеся по методу грамматики и перевода, запоминают и воспроизводят парадигмы, представляют «буквальные» переводы с латыни на английский и демонстрируют понимание функции слов и предложений. Поскольку этот метод обучения основан на понимании и выявлении форм, он является популярным выбором среди домашних и независимых учащихся, а также в официальных учебных заведениях. Педагоги, использующие эту педагогическую философию, отмечают, что она развивает логику и навыки решения проблем, запоминание и припоминание, внимание к деталям и лучшее понимание английской грамматики.

Противники метода грамматики и перевода утверждают, что учащиеся практикуют механическое запоминание, но не учатся использовать накопленную informatsiю. Кроме того, метод грамматики и перевода не дает учащимся навыков сочинения на латыни вне контекста учебника или неявного инстинкта распознавания латыни текста. В результате неиспользования парадигм и правил учащиеся также легко забывают схемы и сложности грамматики, над изучением которых они раньше так усердно работали. Претенденты на грамматику и метод перевода предполагают, что полученные явные знания тратятся впустую без возможности научиться имплицитно понимать тексты. Между переводом и чтением есть существенная разница. Латинисты склонны называть «буквальное», дословное воспроизведение текста «переводческим», поскольку такие виды переводов сложны и концептуально недоступны для аудитории. Хотя слово «переводческий» само по себе не является грамматически

неправильным в английском языке, оно прагматически неуместно и не демонстрирует того, что учащийся понимает, что означает текст, помимо того, что в нем говорится. Метод грамматики и перевода (наряду со стандартизированными оценками, основанными на этой практике) хочет, чтобы учащиеся продемонстрировали, что они распознают формы и конструкции, но из-за такого акцента часто упускается из виду понимание прочитанного.

2. Метод чтения.

Практика метода чтения часто пересекается с методом грамматики и перевода на верхних уровнях латыни или в качестве регулярных упражнений, но в последние десятилетия он превратился в уникальный педагогический стиль преподавания латыни сам по себе. Цель метода чтения — лучше понять суть текста, чем разобрать формы каждого слова. Сторонники этой педагогической философии утверждают, что она строитлогика и решение проблем, а также неявные навыки обучения, увеличивают словарный запас и дают учащимся возможность хорошо читать с менее интенсивным трудом, чем того требует метод грамматики и перевода. Как следует из названия, метод чтения основан на обширном чтении; это происходит, когда учащиеся имеют большой объем относительно простых материалов, которые одновременно убедительны и понятны. Новые формы постепенно вводятся явно, но эта философия продвигает примеры перед объяснениями, а это означает, что она побуждает учащихся посредством неявного обучения совершать интуитивные скачки в отношении слов и форм, которые они еще формально не выучили, на основе контекстных подсказок. Эта практика также формирует у учащихся чувство самоэффективности и свободы действий, поскольку они могут увидеть огромное количество латинского текста, который они смогли прочитать и понять на любом этапе обучения. Чтобы побудить студентов читать и понимать тексты на латыни, а не мысленно переводить их на английский, материалы курса обычно включают упражнения, в которых учащимся предлагается ответить на вопросы о текстах на латыни.

Противники этой педагогической практики предполагают, что неявное обучение посредством обильного ввода не дает студентам навыков анализа текстов. Сторонники метода грамматики и перевода утверждают, что учащиеся, которые читают только ради смысла,

Albatta, biz qurayotgan Yangi Oʻzbekiston yangi dunyo qarash insonparvarlik demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatida oila oʻziga xos ijtimoiy birlashmani tashkil etadi. Oilaning bu xususiyati uning jamiyat manfaatlari bilan bogʻliqligi hamda ijtimoiy vazifalarida ifodalanadi. Mamlakatimizda har bir oila har bir insonning turmush farovonligi, fuqarolar totuvligini mustahkamlashga qaratilgan dasturiy maqsadlarga asoslanib ish olib borilmoqda. Bir soʻz bilan aytganda, mamalakatimizda amalga oshirilayotgan yangilanishlar – yurtimizda istiqomat qilayotgan turli millat va elatlarning oʻziga xos urf-odatlari, mahalliy va milliy xususiyatlarini inobatga olgan holda, oila va yoshlarga oid qonunchilikni mustahkamlashga, ma'naviy va jismoniy sogʻlom avlodni tarbiyalashga, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ahloqiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan.

Har bir oila boshqalarga oʻxshamaydigan oʻz shaxsiy idividual qiyofasiga egadir. Oila a'zolarining maьlumoti, maьnaviy talablari, iqtisodiy shart-sharoitlar turlicha boʻlishi sababli oiladagi kelib chiqadigan muammolar ham turlichadir.

Shaxsning jamiyatni faol ishtirokchisi sifatida shakllanishida oila muhim oʻrin egallaydi. Bola oilada tugʻilib voyaga yetar ekan, yillar davomida oilada shakllangan munosabatlar tizimi bola psixologiyasiga ta'sir koʻrsatadi. Oiladagi kattalarning oʻzaro va farzandlari bilan boʻladigan shaxslararo munosabatlari, ya'ni muloqoti, muomalasi, bolaga nisbatan munosabatlari orqali ta'sir koʻrsatadilar. Bu ta'sir pirovard natijada bolaning dunyoni anglash tarziga atrof-muhitga odamlarga munosabatini namoyon etishiga, hatto fikrlash tarziga ham ta'sir koʻrsatadi. Bu ta'sirni aynan bir xil yoʻnalishdagi yo salbiy, yo ijobiy deb qarash notoʻgʻri boʻlar edi. Chunki ma'lum sharoitlarda oilaviy ta'sirga bolaning beriluvchanlik darajasi uning bu ta'sirlarga munosabati qandayligiga bogʻliq ravishda ta'sirning natijasi turlicha boʻlishi mumkin. Agar kattalar tomonidan koʻrsatiladigan tarbiyaviy ta'sirni mavjud ijtimoiy normativlar bilan taqqoslab berish imkoniyatiga ega boʻlsa, bola bunda oʻzi uchun ijobiy deb hisoblangan andozaga ergashish ehtimoli yuqori boʻladi. Lekin hayot tajribasi va kuzatishlar shundan dalolat beradiki oilaning tarbiyaviy kuchi, ayniqsa bolaning maktabgacha yosh davri yuqori boʻladi va bu davrda kattalar

tomonidan oilada bolaga koʻrsatiladigan ta'sir yetakchi ahamiyat kasb etishi mumkin. Shunday ekan, shaxs sifatlari hatto fikrlash tarzi shakllanishi bilan oiladagi tarbiyaviy ta'sir usullari oʻrtasida bevosita bogʻliqlik bor deyishimizga yetarlicha asosimiz bor.

Psixologiya fanida oʻz isbotini topgan oiladagi tarbiya koʻrsatish usullarining asosiy koʻrinishlariga toʻxtalar ekanmiz, ularni shaxs faolligini qoʻllab quvvatlovchi yoki faollikni cheklovchi ta'sir sifatida ikki toifaga ajratish mumkin boʻladi. Jumladan, hamkorlik va aralashmaslik usullari shaxs faolligini cheklovchi ta'sir usuli sifatida qaralishi mumkin.

Har qanday yangi fikrni tugʻilishi va uning rivojlantirilishi bu fikrning atrofdagilar tomonidan qanchalik qoʻllab quvvatlanishiga bogʻliq.

Ayniqsa, fikrning tan olinishida va e'tirof etilishi shaxsda fikrlashga boʻlgan ehtiyojni yanada kuchayishiga olib keladi. Demak, mustaqil fikrlash jarayonini shakllantirish oilada ota-onalarning bolaga nisbatan qanday munosabatda boʻlishlari ham bevosita bogʻliq.

Agar yuqoridagilarni hisobga oladigan boʻlsak, kattalar tomonidan oʻz ustunligini koʻrsatishga va faqat oʻz fikrini oʻtkazishga asoslangan tarbiyani diktaktikasi bolaning faqatgina kattalar talabi va xohishi yoʻnalishida fikrlashga majbur etadi.

Bu usulda kattalar tomonidan bolaga beriladigan koʻrsatma tanbehlar va xatto ba'zi hollardagi kamsitishlar bolaning fikr doirasini kattalar uchun ma'qul, kattalarga yoqadigan yoʻnalish bilan cheklab qoʻyadi. Bolaga oʻylab koʻrish biron-bir muammo ustida bosh qotirishga va uning yechimini mustaqil fikrlab topishga yoʻl bermaydi bularning barchasi bolani mustaqil tafakkurdan mahrum etadi.

Xuddi shuningdek, tarbiyaning vasiylik praktikasida ham bola bajarilishi lozim boʻlgan barcha vazifalarini kattalar oʻz zimmasiga olishi evaziga bolada mustaqil tafakkur qilishga boʻlgan ehtiyoj rivojlanmay qoladi.

Oilada ijobiy psixologik muhitni bir me'yorda saqlash oila a'zolarining barchasiga taalluqli hodisadir. Farzandlar tomonidan oʻz fikrini erkin va mustaqil ifoda qilishi uchun quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim.

1. Emotsional-psixologik madad, emotsional yordam berish shaxslarning hissiyotlarini barqarorlashtirish va muloqotga kirishishning psixologik terapeyasini oʻtkazish;

2. Oila a'zolari oʻrtasida yuksak manaviy muloqot jarayonini yuzaga kelishini ta'minlash;

3. Oila a'zolari barchasining oʻrtasidagi muloqot jarayonida amalga oshirish lozim boʻlgan mas'uliyat va majburiyatlarni tartibga solish;

Oila a'zolarining bir-birlarini qoʻllab-quvvatlovchi polifoniya yani samimiylik asosida muloqot darajasidan toʻlaqonli va samarali foydalanishga erishish. Oilaning funktsional xususiyatlari – bu oila a'zolari oʻrtasidagi munosabatlarning sifatiy taraflarini tavsiflaydi. Masalan,

1. Muloqot uslublari.

2. Har bir oilaga xos boʻlgan tartib-qoidalar.

3. Oʻzaro muloqot jarayonida kommunikativ toʻsiqlarning mavjudlari (yoʻqligi).

Satir oʻzining psixoterapevtik tajribasidan kelib chiqqan holda oilaviy munosabatlar jarayonida koʻzga tashlanadigan muloqotning 5 xil uslubini ajratadiki, ulardan toʻrttasini u samarasiz deb ataydi, bittasi yetarli darajada tajriba va bilimga ega boʻlgan yetuk muloqot uslubiga kiradi. Dastlabki toʻrttasi odatda muomala jarayonida biror muammo yoki toʻsiqni yengishga, oʻzini ataylab yaxshi koʻrsatishga, kimgadir yoqishga yoki aksincha, kimnidir nimagadir ayblashga, tanqid qilishga xizmat qiluvchi uslublardir. Masalan, Xushomadgoʻylik uslubi kimlargadir ataylab yoqish maqsadida barcha oila a'zolarining xatti-harakatlaridan andoza olish, oʻzini yerga urib boʻlsa-da, oʻzgalar bilan kelishib yashash, bu bilan oʻzini hamisha yerga urishni nazarda tutadi. Ayblovchi uslub doimo kimnidir nimagadir oʻrgataverish, tanqid va nazorat qilish, faqat oʻzidan kuchli odam oldidagina biroz oʻzini tortish bilan bogʻliq kommunikativ harakatlarni oʻz ichiga oladi. Birinchi va ikkinchi uslublar goʻyoki bir birini toʻldiradi [4, 68-b.].

Hisob-kitobli muomala uslubi shundayki, unga koʻra odam hamisha va har qanday vaziyatda aniq, bexato harakatlar qilishga intiladi, chunki bunday odam adashmay, doimo “toʻgʻri, benuqson” boʻlishga intiladi, shuning uchun bunday insonning harakatlari doimo sun'iyday, his-tuygʻulari esa mazmunsiz, doimo tazyiq ostiga olinganday boʻladi. Chetlashtirilgan muomala uslubi oʻzini nima qilib boʻlsa-da oʻzgalardan uzoqda, muayyan masofada tutishga qaratilgan, odamoviday boshqalarning nazaridan ham, ularning ta'siridan ham oʻzini tortadi (masalan, bizda odatda yangi kelinchak oʻzini ana shunday tutadi).

Yetuk, adaptiv muomala uslubida esa inson hamisha oʻz oiladoshlari bilan toʻgʻri, samimiy, ochiq munosabatlarga tayyor boʻladi. Bunday odam oʻzining barcha fazilatlarini bilgani va saqlagani holda boshqalarning ham shaxs ekanligini, individualligini unutmagan tarzda muloqotga kirishadi. U

gapirishni ham maromida eplaydi, o‘zgalarni tinglashni ham biladi, shu sababli, unga qandaydir kommunikativ to‘siqlar xatarli emas [5, 45-b.].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan tarzda bolani muloqot kilishga tayyorlab borilsa uni hayotga, turmushga tayyorlash oson kechadi. Ayniqsa, hayotiy qiyinchiliklar sharoitida qaror qabul qilish va yechimini topish imkoniyatini ijobiylashtiradi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, O‘zbekiston, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent, 25.01.2020 yil.

3. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. –Toshkent, 2020.

4. Karimova V.M. Oila psixologiyasi : Ped. Oliygohlari uchun darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007. – 68 b.

5. Антонов А.И., Сорокин С.А. Судьба семьи в России XXI века. – Москва, 2000 (гл.6 “Семья и здоровье”).

Роль философии в формировании здоровья человека

Усманов Асилбек Фарходович
Студент 2 курса университета Альфраганус
Научный консультант: Степанова Ольга Ивановна

Аннотатsiя.

Неоспоримым фактом является то, что здоровье человека является многогранным феноменом. Оно зависит от многих факторов: культуры, экономики, социальной сферы, духовных и физических качеств человека. В статье показано, что здоровье человека напрямую зависит от развития медицины и философских знаний. Проводятся исследования по вопросам взаимосвязи философии и медицины, а также процессам формирования медицинской философии. Показано, что благодаря такому подходу возможно выявление как механизмов возникновения заболеваний и оздоровления населения, так и прогнозирование путей дальнейшего развития медицины.

Ключевые слова: здоровье человека, философия, медицина, формирование, развитие.

Annotation. It is an undeniable fact that human health is a multifaceted phenomenon. It depends on many factors, such as culture, economy, the social sphere, and the spiritual and physical qualities of individuals. The article demonstrates that human health depends directly on the development of medicine and philosophical knowledge. Research into the relationship between philosophy and medicine is being conducted, as well as into the processes of forming medical philosophy. This approach has shown that it is possible to identify mechanisms for the occurrence of disease and ways to improve population health, as well as to predict future developments in medicine.

Key words: human health, philosophy, medicine, formation, development.

Annotatsiya. Shubhasiz haqiqat shundaki, inson salomatligi ko'p qirrali hodisadir. Bu ko'plab omillarga bog'liq: madaniyat, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, insonning ma'naviy va jismoniy fazilatlari. Maqolada inson salomatligi tibbiyot va falsafiy bilimlarning rivojlanishiga bevosita bog'liqligi ko'rsatilgan. Falsafa va tibbiyot o'rtasidagi munosabatlar, shuningdek, tibbiyot falsafasini shakllantirish jarayonlari bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yondashuv tufayli kasalliklarning paydo bo'lishi va aholining sog'lig'ini yaxshilash mexanizmlarini aniqlash va tibbiyotni yanada rivojlantirish yo'llarini bashorat qilish mumkinligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: inson salomatligi, falsafa, tibbiyot, shakllanish, rivojlanish.

В силу своего стремления к решению фундаментальных проблем человеческого бытия, философия и медицина изначально были неразрывным единством, постепенно формируя предметное поле философии медицины. Они помогают людям сохранять жизненные силы, совершенствовать как свой внутренний мир, так и отношения с природой. Полученные знания, так же как и мифологические тексты, религиозные верования, позволяли «отсекать» все ненужное и вредное. Они помогали сохранять и приумножать то, что является важным для

жизнедеятельности человека, а также передавать то, что имеет отношение к его здоровью.

Проблемы здоровья отражены в даосизме, конфуцианстве и других философских школах. Например, согласно философии даосов, корень здоровья и нравственной силы человека лежит в следовании законам Дао, управляющим миропорядком. Конфуцианцы считали, что соблюдение установленного порядка в деловой деятельности, нравственности и общественной жизни должно способствовать сохранению здоровья.

Существенное внимание проблеме здоровья человека уделяли и представители античной философии. В древней Греции на основе регламентированного образа жизни с целью сохранения как физического, так и духовного здоровья, формировалась культура оздоровления человека. На государственном уровне доказывалась необходимость сохранения здоровья и соблюдения определенных процедур, основанных на демонстratsii умеренности везде и во всем. Философия и медицина способствовали возникновению и расширению оздоровительных практик, активному внедрению их в жизнь. К примеру, античные философы во многом помогали разрешать конфликтные сituyatsii, снимать психические расстройства, подводили политиков к принятию мудрых решений. При этом они обращались к имеющимся медицинским знаниям. Так, Гиппократ учил, что свидетельством здоровья является соразмерно смешанные в теле человека кровь, слизь и желчь. Он наставлял учеников внимательно относиться как к физическим симптомам проявления заболевания, сбору данных об образе жизни больного, так и его помыслам и словам. Гиппократ был глубоко убежден в том, что лечить тело можно только вкупе с душой и при этом сам больной должен сознательно помогать врачу.

Известный ученый востока Абу Али ибн Сино являлся выдающимся врачом, но он также был глубоким философом, лингвистом, и педагогом. В трудах Ибн Сино говорится об обществе, этике и знаниях. В своем трактате «Политика» Авиценна рассмотрел актуальные проблемы образования, а в работе «Канон медицины» неоднократно упоминал о правильном физическом и духовном воспитании детей. По мнению мыслителя, основа природы человека состоит из скрытых и открытых элементов. То, что скрыто от людских

глаз – это сила разума. Именно возможности разума помогают побудить человека к действиям и поступкам. Ученый подчеркивает, что тело человека материально по своей природе, состоит из органов и клеток, знание анатомии помогает познать возможности тела и его внутреннее строение, а знание физиологии позволяют судить о восприятии внешнего физического мира. Тем не менее, необходимо помнить о разуме и духовных качествах, так как именно они подталкивают тело к действиям. Необходима постоянная работа над душой, нравственностью, получением знаний. Духовное развитие ученый ставил выше материальных потребностей.

Востребованность в философских знаниях обнаруживается и при анализе эмпирического и теоритического уровней медицинского знания, идеалов научности, в осмыслении категорий, хорошо разработанных в философии и способствующих развитию медицинских знаний. К ним можно отнести диалектику, сознание, дух, количество, меру, систему, элемент, причину, следствие и др. Широко используются в философии медицины наряду с частнонаучными и общенаучные категории, такие как: анализ, синтез, индукция, дедукция. Но для того чтобы эти абстракции наполнились жизненным содержанием, им необходимо аккумулироваться в сознании молодого человека, готовящегося стать врачом. Они должны превратиться в мощный инструмент, который позволит ему организовать свою профессиональную деятельность таким образом, чтобы посвятить ее врачеванию человека, сохранности и укреплению его здоровья.

Заключение.

Проблема здоровья никогда не утрачивает своей актуальности и нуждается в постоянном философском осмыслении, способствующем выявлению факторов, тенденций, закономерностей. Философская обращенность к данной проблеме показывает, что медицина не всесильна, и очень многое зависит от самого человека, условий его проживания, воспитания и образа жизни. Богатый исторический опыт подтверждает, что в решении вопросов, связанных со здоровьем человека, требуются максимальная осторожность, высокий профессионализм, взвешенность и продуманность принимаемых решений и даваемых рекомендatsiй.

Список использованной литературы

1. Агаджанян, Н. А Этнический аспект адаптatsionной экологии и заболеваемости населения / Н. А. Агаджанян // Экология человека. – 2014. - №3. – С. 3-13.
2. Приз, Е. В. Концепция информatsionного согласия в западной социологии мдицины / Е. В. Приз // Гуманитарные и социально-экономические науки. – 2011. - №4. – С. 95-98
3. Энциклопедия афоризмов. Античность. Древняя Индия. Древний Китай. Библия. – Мн. : Современ. литератор, 1999. – 832 с.

Umumiy o'rta ta'lim: o'tmish, bugun va kelajak

Hafizullayev Javlon
Alfraganus universitetining 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar:
Alfraganus universiteti ijtimoiy fanlar kafedrasi
professori, falsafa fanlari doktori
Qodirov Anvar Qahhorovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizda umumiy o'rta ta'lim sohasida yaqin o'tmishimizda qilingan ishlar, bugungi kunda qilinayotgan ishlar va kelgusi yillarda qilinishi kerak bo'lgan ishlar haqida so'z olib boriladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim to'g'risidagi qonun, Finlandiya ta'lim dasturi, e-maktab onlayn platformasi,

Insoniyat bor ekanki, har doim yangi ma'lumotlarn, yangi narsalarni toishga, izlanishga intilgan va bu narsa insonni bilimli bo'lishga undagan. Zero bilim insonni yuksak darajaga ko'taribgina qolmasdan,u yashayotgan mamlakatni ham yuksaltiradi. Jahon tajribasi ham faqat bilim orqaligina ko'plab muammolarni hal qilishi mumkinligini ko'rsatadi. Bilimli kishilarning qobiliyati va yutuqlari bilan ko'p mamlakatlar rivojlanmoqda. Shuning uchun har bir uzoqni ko'zlovchi mamlakat o'z fuqarolarining bilimli bo'lishidan manfaatdor va shu yo'lda harakat qiladi. Fuqarolarning bilimli bo'lishiga esa, bilim olish qanday yo'lga qo'yilganligi, unga qanday shart-imkoniyatlar yaratilganligi ta'sir qiladi. Bunda ta'lim tizimining qandayligi, ayniqsa umumiy o'rta ta'lim hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Bugungi kunda yurtimizda umumiy o'rta ta'lim tizimi tarixan bir necha bir necha asrlarga borib taqaladi. Xususan, yurtimizdagi ilk maktablar asosan madrasalarda tashkil etilgan edi. U yerda asosan diniy bilimlar o'rgatilar edi. Bunday madrasalarga Toshkent shahridagi Baroqxon va

Ko’kaldosh madrasalari va boshqa ko’plab madrasalarni misol qilib ko’rsatishimiz mumkin. Lekin bizning ta’lim tizimimizni rivojlanishiga bir qancha ta’qiqlar bo’ldi. Ammo shunga qaramay xalqimizni bilimli, msa’naviyatli qilish uchun jadid bobolarimiz mardonavor ish olib bordilar. Jadid ahli ziyolilari bo’lmish Munavvar qori, Mahmudxo’ja Behbudiy, Sadriddin Ayniy, Fitrat, Cho’lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Hamza, G’ozi Yunus, Xurshid va boshqalar bilan bir qatorda XX asr bo’sag’asida tug’ilgan iste’dodli yoshlar Mashriq Yunusov, Naim Said, Rafiq Mo’min Mahmud Xodiyev, Baxrom Xaydariy va boshqa qator ziyolilar jonbozlik qildilar. Samarqandda mashhur ma’rifatparvarlar Mahmudxo’ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Akobir Shomansurzoda, Said Axmad, Saidaxmadxo’ja Siddiqiy, Mardonquli Shomuhammadzoda maktab islohotinio amalga oshirish fikri bilan maydonga chiqdilar. Ular 1917-yil aprel oyidan boshlab ”Hurriyat” gazetasi sahifalarida yangi usuldagi maktablarning keng tarmoqlarini yaratish zarurligi haqidagi fikrni ilgari surdilar. “Anjumani maorif” jamioyatining mablag’lariga “Rushdiya “ maktabi ochildi, unda bepul o’qitilar edi. Abdurauf Fitrat bilan Kamol Shams bu maktabda o’quvchilarga islom diniy ta’limoti, islom tarixi, musulmon huquqi, turk, arab va fors tillarini arifmetika, geometriya, geografiya, tabiatshunoslik, tarix fanlari o’qitilgan. Yoz faslida Samarqandning o’zida taniqli ma’rifatparvar, shoir va dramaturg Hoji Muin Shukrullo “Tarbiyat” maktabini ochdi. 1918-yilning yozida Samarqandda Musulmon o’qituvchilar uchun pedagogik kurslar” ochildi va kuzida esa Toshkentda Toshkent uyezdining tub aholisi uchun maktab o’qituvchilari kurslari ochildi.1918-yil 9-aprelda Munavvar Qori uyida to’langan jadidlar Turkiston Xalq dorilfununinig musulmon bo’limini tashkil etish maqsadida 9 kishidan iborat tashkilot komissiyasini tuzadi.

Milliy jadid maktablari uchun darsliklar, o’qish kitoblarini ziyolilarimiz yozib chiqarib keldilar. 1917-yilda A.Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarini qayta nashr qildi, shuningdek “Maktab gulistoni” o’qish kitobini, ikki jildlik “Adabiyot yoxud milliy she’rlar kitoblarini, Fitrat 1917-yilda “O’quv’’ kitobini, 1919-yilda Sh.Rahimiy va Q.Ramazon bilan birga “Ona tili” darsligini, so’ngra “Imlo masalalari” kitobini yozib chiqardi. Shokirjon Raximiy 1919-yilda birinchi alifbo – “sovg’a”, 1922-yilda “O’zbek alifbosi” darsliklarini chop etdi.

O’zbekiston SSSR Oliy Sovetining 1957-yil 1-oktabrdagi sessiyasida “O’zbekiston SSSRda yeti yillik ta’limni to’liq amalga oshirish to’g’risida”gi

qonunning qabul qilinishi maktablarda ta’lim tizimi takomillashtirishga qaratilgan dastlabki qadam bo’ldi. Yangi Qonunga ko’ra umumta’lim maktabi hamma uchun majburiy bo’lgan kamchiliklar barham topmadi. Aksincha, maktab xaqiqiy hayotdan ajralib qolgandi, o’quvchilarga berilayotgan bilimlar fan-texnika taraqqiyoti darajasiga to’g’ri kelmagan. Shuning uchun ham 1959-yil martda O’zbekiston Oliy Soveti “Maktab xalq ta’limi tizimini yanada rivojlantirish to’g’risida” yangi qonun qabul qildi. Ammo, sovet mustabid tuzumiga xos bo’lgan boshlangan ishni oxiriga yetkazmaslik odati bu gal ham muammoni hal qilish yo’lida to’g’anoq bo’lib xizmat qildi, oqibatda xalq ta’limida ahvol o’zgarmadi.

Mustaqillik yillarida O’zbekistonda pedagogik fikrlar mazmuni bilan tanishish, ularda ilgaru surilgan g’oyalarni umumlashtirish asosida ularni quyidagi asosiy yo’nalishlar bo’yicha rivojlanganligiga guvoh bo’lish mumkin:

1.Pedagogika fani metodologik g’oyalarining takomillashuvi

2.Pedagogik bilimlar ijtimoiy-g’oyaviy asoslarining boyishi

3.Shaxsni ijtimoiylashtirish

4.Yangicha ta’limiy qarasglarning paydo bo’lishi

5.Tarbiya jarayonida ijtimoiy jamoatchilik ta’sirining kuchayishi

6.Pedagog kadrlarni kasbiy jihatdan tayyorlashning yangi tizimiga asos solonishi

7.Ta’lim sohasida xalqaro hamkorlikning yo’lga qo’yilishi

8.Maxsus pedagogika ilmiy asoslarining boyishi.

Mustaqilligimizdan so’ng ta’lim tizimida, xususan umumiy o’rta ta’lim tizimida tub islohotlar amalga oshirildi. Xususan bizning ta’lim olish huquqimiz qonunan mustahkamlab qo’yildi. Yangi tahrirdagi O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida shunday deyilgan:

“Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir” deb belgilab o’tilgan. Har kim bilim olish huquqiga ega ekanligi, mamlakatda yashovchi har bir aholi fuqaroligi, millati, irqi, dini, jinsi va boshqalardan qat’iy nazar shu huquqdan foydalanishini bildiradi. Konstitutsiyada belgilangan bilim olish huquqi O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi orqali ro’yobga chiqadi.

So’nggi yillarda umumiy o’rta ta’lim tizimida yangi o’zgarishlar joriy qilindi. Xususan barcha umumta’lim maktablarida

E-maktab onlayn platformasi joriy etildi. Bu tizim barcha o'qituvhi va o'quvchilar uchun qulay bo'ldi. Ammo bu tizimni qo'llash ayrim joylarda muammo bo'lib qoldi. Chunki yurtimizning tog'lij hududlaridagi maktablarda internet aloqasi sifati past, ayrim joylarda esa umuman yo'q edi. Bu tizimni chiqishidan oldin esa o'quvchilar kundalik daftar tutishar edi. Aynan mana shu ya'ni o'quvchilarning kundalik daftar tutishi yaxshi samara bergan edi. Chunki bu tizimda ota-onani farzandini ta'limida nazorat bor edi. E-maktab tizimida esa ota-onaning nazorati biroz susayib qoldi. Negaki, ayrim ota –onalarda bugungi zamonaviy smartfonlar yo'q, bo'lgan taqdirda ham ular internt, saytlarga kirish kabi amallarni(ayrimlari) bilishmas edi.

Yurtimizda umumiy o'rta ta'limni rivojlantirishga yo'naltirilayotgan ishlardan biri bu – Finlandiya ta'lim tizimini qo'llanilishidir. Bu tizimda o'quvhilar o'z bilimlarini nafaqat nazariy balki amaliy usulda ham qo'llaydilar. Bu tizimni qo'llash ta'lim tizimi uchun juda qulay edi. Ammo tanganinng ikkinchi tomoni bo'lgani kabi bu tizimni qo'llashda ham bir qancha muammolar bor edi:

Birinchidan, davlatning umumiy o'rta ta'lim tizimi sobiq SSSR davlatining ta'lim tizimiga moslashib bo'lgan edi;

Ikkinchidan; bu tizimni qo'llashda ko'pgina umumta'lim maktablarida moddiy texnik baza yetarlicha ta'minlanmagandi, ya'ni ayrim maktablarda laboratoriya jihozlari, kompyuter xonalari yetarli emas, ayrim maktablarda umuman yo'q edi;

Uchinchidan esa o'quvcvhilarning ongini mana shu ta'lim tizimiga moslashishi qiyin kechdi, chunki o'quvchilar faqat nazariy bilimlarni olib, amalda sinashda esa qiynalishar edi;

To'rtinchidan esa bu tizimga pedagog o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash bir qancha vaqt talab etar edi.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasida shunday deyilgan:

"Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan." Bu moddaning tag zamirida chuqur ma'no va mazmun yotadi. Chunki o'quvchilar ilk bilimlarni umumiy o'rta ta'limdan olishadi. Umumiy o'rta ta'limda tehsil olmagan odam oliy ta'limga kira olmaydi. Negaki oliy ta'limdagi darsliklarni o'qish uchun ham dastlabki bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi kerak.

Kelgusidagi umumiy o’rta ta’lim tizimini rivojlantirish uchun bir qacha ishlarni amalga oshirish zarurdir. Misol uchun birinchi navbatda sharoiti og’ir bo’lgan maktablarga e’tiborni kuchaytirish kerak. Negaki, maktabda sharoit yaxshi bo’lmasa bolalarni bilimga bo’lgan qarashlari susayib boradi. Ikkinchidan esa xorijiy davlatlarning ta’lim dasturlarini o’zimizning milliyligimizga moslab qo’llash kerak. Agar shunday qilib qo’llanilsa bolalar nafaqat yangi dasturni o’rganadi, milliyligimizni unutib qo’ymaydi.

Umumiy o’rta ta’limni rivojlantirishda nodavlat ta’lim muassasalari ham muhim o’rin tutadi. Chunki bu ta’lim muassasalari nafaqat milliy dasturlar, u bilan birgalikda pxorijiy darsturlarni ham qo’llamoqda. Bunga misol qilib hozirgi kunda ko’plab odamlar orasida mashxur bo’lgan Rustam Bosimov maktabini ko’rsatishimiz mumkin. Bu yerda o’quvchilarni bilim darajasini aniqlash maqsadidia har hafta maxsus imtihon testlar olib boriladi. Xuddi maxsus o’quv markazlarni dasturlariga o’xshab.

Konstitutsiyamizning 50-moddasida shunday deyilgan: “ Davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlaydi.” 2016-2017-yillargacha yurtimizda nodavlat ta’lim muassasalari yo’q edi. Keyinchalik bunday nodavlat ta’lim muassasalari tashkil etila boshlandi. Nodavlat ta’lim muassasalaridagi ayrim imkoniyatlar davlat ta’lim muassasalarida yo’q. Misol uchun men tahsil olayotgan “Alfraganus” universitetini olaylik. Bu universitetda talaba birinchi yil kontrakt asosida o’qib, yaxshi baholar bilan tamomlasa universitet tomonidan grant ajratilishi mumkin. Yana bir imkoniyatdan biri agar talaba o’quv yili davomida yaxshi baholar bilan o’qisa, fanlarni yaxshi o’zlashtirsa, keyingi o’quv yilida o’qish uchun chet davlatlarga yuborishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda umuiy o’rta ta’lim ta’lim tizimining tayanch tarmog’idir. Chunki umumiy o’rta ta’lim bolaning kelajakda qanday inson bo’lishini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.T. Husanov “Konstitutsiyaviy huquq” Darslik. Toshkent “Adolat” nashriyoti 2013
2. O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun Lex.uz axborot portal

3. M. Rasulova, X. Toshtemirova “1917-1991-yllarda va mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji” cyberleninka.ru portali

MILLIY QADRIYATLAR O’ZBEK MILLIY O’ZLIGINING BIR QISMI SIFATIDA

Kamolova Sarvinoz O’rol qizi
Alfraganus universiteti “Xalqaro munosabatlar”
yo’nalishi, 2 bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Muxamedov Asror Asadovich
falsafa fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent

Anotatsiya: Ushbu maqolada insoniyat tomonidan yaratilgan madaniyat namunalari, insoniyat tarixiy qadriytalari, shu asnoda milliy qadriyatlarimiz, uning tarkibiga kiruvchi madaniyat namunalari. Milliy qadriyatlarimizga bo’lgan e’tibor, ularni asrab avaylash masalalari falsafiy tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: Milliy qadriyat ko’zgusi, ijtimoiy taraqqiyot, umuminsoniylik tuyg’usi, mehmondo’st Jizzax, diniy qadriyatlar, ma’naviy meros, urf-odatlar, Insonparvar go’yalar, sadoqat tushunchasi.

Milliy qadriyatlar haqida ko'p va xo'p gapirishimiz mumkin. Xususan, har bir yangidan paydo bu’lgan urf odatki, millatning o'zligini yo’qotadigan shanini toptaydigan bo'lsa millatni inqirozga olib keladi. Qadriyatlarning asosiy bir bo'g'ini milliy qadriyat bo'ladi. Millatimiz barcha millat va elatlar bilan azaldan uzaro

yaxshi yashab kelgan. Biror marta millatlararo kelishmovchilik bulmagan. Bu ham

bizni milliy kadriyatimiz. Bugun shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda milliy qadriyatlar kishilarning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy birligini ta'minlaydigan asosiy vosita deyish mumkin. Rang-barang tarzda, turli shakllarda namoyon bo'ladi, kishilarning ongiga, hayot tarziga o'ziga xos tarzda ta'sir qilishini ham aytolamiz. Shuningdek, milliy qadriyatlarni kishilarning o'zaro munosabatlarida, ijtimoiy faoliyatlarida ko'zga tashlanib turishidan hamda ana shu munosabat, faoliyat, maqsad, ehtiyoj va intilishlar uchun ma'naviy asosdan bilib olsa bo'ladi.

O'zbek xalqining milliy qadriyatlari va ularning aloqadorligi ifodasi bo'lgan qadriyatlar tizimi, millatimizning tarix silsilalari, zamona zayllari, turli ijtimoiy va siyosiy jarayonlar ta'sirida shakllanib keldi. Milliy qadriyatlarimiz millatning kelib chiqish xususiyatlari va hududiy makoni

bilan bog'liq holda shakllandi. Qardosh xalqlarning ijtimoiy taraqqiyoti esa ularning milliy-hududiy qadriyatlari ravnaqi

bilan uzviy aloqadorlikda davom etdi. Shu tariqa millatimiz o'ziga xos rang-barang qadriyatlarni takomillashtirib borishi natijasida, umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirib, uning qirralarini rivojlantirib bordi. Milliy qadriyatlar tabiatiga ko'ra, tor doirada to'xtab qolmaydi, balki ravnaq topib, turmush jarayonida yangilanib, boshqa xalqlar qadriyatlarining yutuqlari bilan boyib boradi.

Ayonki, har bir el, elat, urug' yoki xalqning urf-odatlarida o'ziga xoslik bo'ladi. O'ziga xos qadriyatlarni boshqa joyda, boshqacha tarzda yashayotgan kishilarning tarozisi bilan o'lchash yoki bu masalada boshqalarning hakam bo'lishi maqsadga muvofiq emas. Umuminsoniylik tuyg'usi faqat o'z xalqi qadriyatini ardoqlash, ko'z-ko'z qilish va boshqalar orasiga yoyish uchun intilishga asoslanmaydi, balki har bir xalq, elat, urug' qadriyatlarini qanday holatda bo'lsa, shundayligicha qabul qilib, ularni hurmat qilishdan boshlanadi. Ana endi tarixga nazar solamiz, milliy qadriyatlarimiz rivojida islom dinining ahamiyati va o'rni juda katta bo'lib, u milliy qadriyatlarimizni boyitdi. Ayniqsa, xalqimiz ma'naviy qadriyatlarining takomillashib borishida islom dini keltirgan insonparvar g'oyalar sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Islom dini kelganidan keyin Markaziy Osiyo xalqlari hayotida diniy qadriyatlar tizimi yangilandi, zaminimizdan ko'plab mutafakkirlar, qomusiy olimlar etishib chiqdi. Shuningdek, bu din o'zining bunyodkorlik taomiliga ko'ra ko'plab me'moriy obidalar, shaharlarning bunyod bo'lishiga sababchi bo'ldi. Milliy qadriyatimizga aylangan islom dini g'oyalari va ko'rsatmalari millatimizning tabiiy-tarixiy rivoji, ijtimoiy turmushi, yashash tarzi, o'tmishi, kelajagi, madaniyati, ma'naviyati, urf-odatlari, an'analari, tili, u vujudga kelgan hudud va boshqalar bilan uzviy bog'langan. U milliy qadriyatlarimiz bilan xilma-xil shakllarda, bir-biri bilan uzviy aloqada namoyon bo'ldi, o'ziga xos milliy qadriyatlar tizimini tashkil qildi. Bu tizimda tabiiy-tarixiy birlikni ta'minlovchi qadriyatlar – yagona e'tiqodlilik, qarindoshlik, madaniy-ma'naviy yaqinlik, o'tmish va ma'naviy meros, ona yurt tuyg'usi va boshqalar barqaror hisoblanadi. Milliy qadriyatlarimiz tarkibidagi ba'zi islomiy qadriyatlarimiz kishilarning yashash joylari, turmush sharoitlari bilan bog'liqlikda shakllandi. Shu sababli ham mintaqamizda bizning turmush tarzimiz, shart-sharoitlarimizga mos tarzda shariatning hanafiylik yo'nalishi rivojlandi.

Xalqimizning ma'naviy merosi, an'analari, urf-odatlari, adabiyoti, san'ati bilan umuminsoniy qadriyatlarning milliy darajada namoyon bo'lish shakllari islomiy qadriyatlar bilan bog'lanib ketgan. Ular millatimizning tarixiy rivojlanish jarayonida avloddan avlodga o'tib kelayotgan madaniy xususiyatlar va jihatlarda o'z aksini topadi. Jannatmonand yurtimiz va dono xalqimizning buyuk tarixi, betakror qadriyatlari borki, ular milliy va diniy an'analarni asrlar davomida o'zida ifoda etib keladi. Mazkur qadriyatlarni hech qanday kuch, tashviqot va taqiqlar o'zgartirolmaydi, chunki bu millatimizning ajralmas qadr-qimmatiga aylanib ketgan. Bu yurtimizda doim keng nishonlanib kelayotgan diniy bayramlar — ikki iyd bayramidir. Shu yaqin kunlarda muhtojlarga yanada ko'proq mehr-oqibat, xayr-saxovat ko'rsatish xalqimizga xos fazilat ekanligini har qadamda ko'ryapmiz. Bu go'zal odat o'zida umuminsoniy qadriyatlar va barcha ilohiy ta'limotlar mazmun-mohiyatini mujassam qilgan. Aynan shu qadriyatlarimizda keksalarga hurmat ko'rsatiladi, yoshlar izzat qilinib, etimlar, kam ta'minlangan va ehtiyojmandlar holidan xabar olinadi. Yana shuni qo'shimcha qilib o'tish joizki, o'zbek Milliy qadriyatlarining mohiyati Mehmondo'stlik, mehr-oqibat, saxovat va chinakam bag'rikenglik o'zbek millati va mentalitetining o'ziga xos xususiyatlari bo'lib kelgan. Ushbu qadriyatlar jamiyat tarkibiga chuqur singib ketgan, o'zaro munosabatlarni, bayramlarni va kundalik hayotni shakllantiradi.

Aynan milliy qadriyatlar Jizzax viloyatida qanday namoyon bo'lishi sizga qiziqmi? Birinchi galda to'xtalib o'tadigan masala mehmondo'stlik mehmon kelganda, ularni quchoq ochib kutib olishadi. Mehmondo'stlikning iliqligi shunchaki xushmuomalalikdan tashqarida—bu mehmonlarni o'zlarini uydagidek his qilish istagini aks ettiradi. An'anaviy o'zbek uylarida ko'pincha mehmonlar uchun ajratilgan maxsus xona mavjud bo'lib, ular xosting va baham ko'rish muhimligini ta'kidlaydilar.

Mehribonlik. Jizzaxda Mehribonlik umumbashariy tildir. Bu qo'shniga yordam bo'ladimi, ovqatni baham ko'radimi yoki begonaga yordam beradimi, Mehribonlik harakatlari kundalik muloqotda to'qiladi. So'z "Hurmat qilish" boshqalarga hurmat va e'tibor bilan munosabatda bo'lishning mohiyatini qamrab oladi. Saxiylik o'zbek madaniyati evaziga hech narsa kutmasdan berishga katta ahamiyat beradi. Saxiylik fazilat sifatida qaraladi va resurslarni almashish—oziq—ovqat, vaqt yoki bilim bo'lsin-ikkinchi tabiatdir. "Sadoqat" tushunchasi moddiy boyliklardan tashqarida, hissiy qo'llab-quvvatlash va rahm-shafqatni qamrab oladi.

Bag'rikenglik O'zbekiston tarixi sivilizasiyalar chorrahasi sifatida bag'rikenglik ruhini tarbiyalagan. Turli millat, til va e'tiqodga mansub odamlar uyg'unlikda yashaydi. Jizzax viloyati masjidlar, cherkovlar va ibodatxonalar yonma-yon turgan bu bag'rikenglikning namunasi bo'lib, turli e'tiqodlarning qabul qilinishini aks ettiradi. Iqtisodiy landshaft va sanoat Jizzax viloyati iqtisodiyoti birinchi navbatda qishloq xo'jaligiga tayanadi. Keng sug'orish bilan qo'llab-quvvatlanadigan paxta va bug'doy etishtirish ustunlik qiladi. Bundan tashqari, mintaqa qo'rg'oshin, rux, temir va ohaktosh kabi tabiiy resurslarga ega. O'zbekiston Xitoy bilan hamkorlikda maxsus Eko tashkil etishni maqsad qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://oyina.uz/uz/article/1605
2. https://www.yuz.uz/uz/news/kuch--bagrikenglikda
3. http://shrashidov.zn.uz/muzey-haqida/
4. https://kitobxon.com/oz/yozuvchi/mehriniso_jobberganova
5. https://mehnat.uz/oz/news/anana-urf-odat-va-qadriyat

TOURISM POTENTIAL OF SAMARKAND

Alfraganus University Faculty of Tourism
3rd course student of group 22-01
Mahmadaminov Ramazon Xurshid **ogli**

Annonatsiya. Ushbu maqolada Samarqand shahrining tarixiy va arxealogik me'moriy obidalari, ya'ni Registon maydoni, Ulug'bek, Sherdor, Tillakori kabi madrasalar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Samarqand, Registon maydoni, Ulug'bek, Sherdor, Tillakori, tarixiy me'moriy obidalari.

Аннотатsiя: В данной статье рассказывается об археологических и историко-архитектурных памятниках Самаркандской Городи а именно о медресе Улугбека, Тиллакори, Шердара на Регистане.

Ключевые слова: Самарканд, площадь Регистан, Улугбек, Шердар, Тиллакори, исторические памятники архитектуры.

Samarkand is one of the most ancient cities of the world and is of modern Uzbekistan. Founded about 700years BC, formerly the city was

known as Afrasiab and Marakanda. It was the capital of Sogdiana in the territory of anciest Turan. In 329BC it was conquered by Alexander the Great. Subsequently Samarkand became the key trading centre on the Silk Road between China and Mediterranean. In the 6-13th centuries the city was one of the major political cultural centres of Central Asian states. In defferent periods it defended itself from conquest of Persians, Greeks and Arabs. During the 6-13th centuries Samarkand was included in the Turkic Kaganate as the capital of Sogd. After the conquest of the city by the Arab Caliphate in the beginning of the 8th century, Samarkand became an important centre of Muslim culture. However in 1220 the city was plundered and almost entirely destroyed by the Mongols. During the reign of Timur and the Timurids (1370-1499) Samarkand was the capital of the empire and enjoyed peace and prosperity. Timur put Samarkand on the world map. And the majority of architectural monuments which are well-known today were built by Timur and his descendants. Within less than 100 years Samarkand turned into an incredibly beautiful city with breath-taking turquoise domes and magnificent minarets. During the reign of Ulugbek trade centre of its time. All the riches of Central Asia were bought to this city. At the time of the Khanate of Bukhara (16-20th centures) Samarkand was a centre of the princedom. During this period a new phase in the revival of the city started. In 1868 Samarkand was conquered by Russian troops and incorporated into the Russian Empire.

In 1925-1929 Samarkand was the capital of the Uzbek SSR. But even after capital was moved to Tashkent, Samarkand continued playing an important role in the cultural and economic life of the region. After Uzbekistan declared its independence in 1991, Samarkand became an important industrial, cultural and tourist centre of the country. Today any visitor of Samarkand can enjoy the beauty of its unique architectural masterpieces, which are as splendid and well-known as the greatest monuments of India, Egypt, Greece and ancient Rome.

In 2001 Samarkand was inscribed on the World Heritage List. The 2,750th anniversary of the city, contemporary of Rome, was celebrated on an international scale under the aegis of UNESCO in 2007.

Registan Square; The Registan Square is the heart of Samarkand. It appeared as a centre of crafts and trade long before the Mongol invasion. The word “Registan means” “sandy place”.

The Registan ensemble consists of the Ulugbek madrasah (1417-1420), the Tillya-Kari madrasah (1646-1660) and the Sher-Dor madrasah (1619-1636). Madrasah was a Muslim educational institution where clergymen, statesmen and scentists were trained.

In the 14th –beginning of the 15th century the Registan became the official centre of Samarkand. At that time six main streets, a big domed passage was constructed on behalf Tuman-aka, a wife of Amir Timur.

Under Ulugbek(1409-1449) the Registan turned from a bazaar square into the city's main ceremonial and official square. For this reason, Ulugbek and his successors initiated large-scale construction works. Subsequently three new buildings were erected along the perimeter of the Registan: the majestic madrasah (a higher divinity school) was built on the western side, while the caravan-sarai(a shelter for caravans) was built in the northern part and the Sufi khanaka (a monastery of dervishes) on the eastern side of the square. According to Bobur, the dome of the khanaka was very tall, with few similar domes in the world.

Tilla-Kari madrasah (1646-1660). Ten years later completion of the Sher-Dor madrasah, Yalangtush Bahadur launched a new construction of a combination of a madrasah and Juma –mosque, which was subsequently named Tillya-Kari. This building comleted the composite design of the Registan.

To achieve unity among all the constructions of the square, the architecture of the Tillya-Kari madrasah was developed in accordance with the existing structures. The façade was extended in order to create a visual closed space. The architecture of the façade of the Tillya-Kari is perceived as a worthy background for the two madrasahs located opposite each other.

Sher-Dor madrasah(1619-1636). In the place of the decayed and destroyed Ulugbek khanaka, Yalangtush built a madrasah almost entireiy imitating the façade of the opposite Ulugbek madrasah using the same dimensions, layout of the portal with the ogive and the ribbed domes on each side. The foundation of the Sher-Dor is 1.5metres higher that of the square of Ulugbek's time. The dimensions of the madrasah and the yard are 70x56 m and 30x38 m correspondingly. The courtyard is surrounded with two floors of hujras (cells where students lived), four ayvans and two darshanas (classroom).The Sher-Dor madrasah we a built according to the "kosh" style (composition with two opposite buildings). The other facades with 54 hujras (cells) were erected by means of more developed methods

of building technology. Here the minarets are placed only along the front façade, while the two others corners are decorated with the massive towers.

Samarkand is a city of legends. Here every stone, gully or diket is a vivid reminder of the past. Every district of the city keeps its unique legend as its ancestry. Sometimes legends arise around historical events or places which are dear to all residents of Samarkand. So al lot can be said about Samarkand region and it is tourism opportunities. It is better to come to ancient Samarkand yourself.

Used Literature

1. R.Zaparov. Uzbekistan: The Cities and the Legends. Tashkent, Davr nashriyoti. – 2014.

2. A. Nazarova Gunther. The History of Uzbekistan: Legends of Samarkand. Independently Published. - 2023

3. History of Samarkand. https://www.advantour.com/

4. Samarqand - Yangi O‘zbekistonning turizm darvozasi. https://samarkand.uz/

5. Samarqand shahrining diqqatga sazovor qadamjolari. https://zarnews.uz/post/

TURKIY DUNYO MUTAFAKKIRLARINING O‘ZARO HAMKORLIGI O‘TMISHIGA BIR NAZAR

Bahodir Musametov
Alfraganus Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti ijtmoiy fanlar kafedrasi v.b. dotsenti
Dilnoza Xamroqulova
Alfraganus Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti ijtmoiy fanlar kafedrasi ““Milliy g‘oya va huquq” yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Yevroosiyo qit’asining bepoyon hududida ming yillardan buyon yashab kelayotgan turkiy xalqlar nafaqat qadim davlatchilik va madaniy an’analariga ega edilar, balki shu bilan bir qatorda jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan olim-u fuzaloni ham yetishtirib bergan xalqlardan hisoblanadi. Ulug‘ mutafakkirlarning hayot va ilm yo‘llariga razm solsak, ilm yo‘lida birlashganlari, qardosh turkiy olimlar o‘rtasida qadimdan ustoz-

shogird anʼanalarining oʻrnatilganiga guvoh boʻlamiz. Sharq falsafasining eng yirik namoyandasi Abu Ali ibn Sino (980-1037) va oʻzining eng yaqin va suyukli shogirdi Bahmanyor ibn Marzubon (vaf. 1066) orasidagi iliq munosabat, shubhasiz, buning eng yorqin dalilidir.

Qomusiy ilmlar egasi Bahmanyor ibn Marzubon al-Ajamiy al-Ozarbayjoniy Ibn Sinoning eng yaqin shogirdi boʻlgan. Hattoki, Ibn Sino oʻzining baʼzi asarlarini aynan Bahmanyor bilan suhbatlariga asoslangan holda yozgani haqida maʼlumotlar mavjud. Ibn Sino Bahmanyorning oʻtkir zakovatini uning oʻsmirlik chogʻidayoq kashf etgan va shu bois uni oʻziga shogird qilib olgan. Ibn Sinoning Abu Ubayd al-Juzjoniy, Ibn Zayla va Maʼsumiy singari qobiliyatli shogirdlarga ham ega boʻlishiga qaramay, aynan Bahmanyor ular orasida oʻtkir zehni, aqli va isteʼdodi bilan ajralib turgan. Ehtimol, shu tufayli Ibn Sino Bahmanyor bilan maktublarida unga nisbatan "fazilatli shayx" ("ash-shayx al-fozil") iborasini qoʻllagan. Bahmanyor oʻz ustozining asarlariga sharh yozish bilan bir qatorda uning ilmiy merosining faylasuflarning keyingi avlodlariga oʻtkazishda muhim rol oʻynadi [1: 6].

Turkiy dunyoning ikki eng yirik faylasufi Ibn Sino va Bahmanyor oʻrtasidagi ustoz-shogird anʼanasi qardosh xalqlar oʻrtasida ustoz-shogird silsilasining oʻziga xos poydevori boʻlib xizmat qildi. Keyingi davrlarda turkiy davlatlar orasidagi iqtisodiy va siyosiy aloqalar mustahkamlanib borgani sari mutafakkirlar orasidagi ilmiy aloqalar ham keng koʻlamda rivojlanib bordi. Temuriylar davrida Mirzo Ulugʻbek tomonidan asos solingan Samarqand matematika-astronomiya maktabi ushbu munosabatlarda yangi davrni boshlab berdi.

Oʻrta asrlar ilm-fani haqida soʻz yuritilganda Temuriylar va Usmoniylarni bir-biridan alohida tasavvur qilishning imkoni yoʻqligini taʼkidlash lozimdir. Bursalik Qozizoda Rumiy Mirzo Ulugʻbekning ustozi edi, oʻz navbatida Mirzo Ulugʻbekning shogirdlari Ali Qushchi va Fathulloh Shirvoniy Usmoniylar davlatida ilmiy faoliyat yuritganlar. Shuni alohida taʼkidlash lozimki, Usmoniylar davlatida ham nazariy ham amaliy astronomiyaga Istanbulda Qozizoda Rumiy va Mirzo Ulugʻbekning shogirdi, Samarqand matematika-astronomiya maktabi vakili Ali Qushchi va doʻstlari tomonidan asos solingan [2: 34].

Istanbul shahri turklar tomonidan qoʻlga kiritilib, Usmoniylar davlatida maʼlum bir siyosiy va iqtisodiy barqarorlik taʼminlanishi boshqa oʻlkalarda faoliyat olib borayotgan olimlarning oʻz ilmiy faoliyatlarini bu

yerda davom ettirishga undadi. Samarqand maktabi vakillari ham shu jumladan Usmoniylar yurtiga kelib, bu o‘lkaning ilmiy hayotining rivojiga o‘z hissalarini qo‘shdilar, Samarqandda bitilgan matematikaviy fanlarga oid asarlar bu yerga olib kelindi, qayta ishlandi va mazkur davlatning ilmiy hayotida muomalaga kiritildi. Shu tariqa, Turkiston tarixida “Ikkinchi Renessans” deb nom olgan uyg‘onish davri aslida Onado‘li va Turkistonlik turkiy olimlarning o‘zaro hamkorligi natijasida yuzaga kelgan edi.

XVI – XVII asrlarda Temuriylar davlati tarixdan o‘rin olib, uning o‘rniga Turkiston mintaqasida bir qancha kichik xonliklar tashkil topib, bu xonliklar orasida doimiy ravishda davom etgan o‘zaro urushlar birinchi galda boshqa turkiy davlatlar bilan ilmiy aloqalarga salbiy ta’sir ko‘rsatmay qolmadi. Siyosiy-iqtisodiy vaziyatning taranglashuvi xonliklarning o‘zida ham ilm-fanning orqaga ketishiga olib keldi. Lekin shunga qaramay, mana shunday murakkab vaziyatda ham turkiy mutafakkirlar orasida ilmiiy aloqalarning to‘liq uzilmaganini ko‘rishimiz mumkin. Asli ozarbayjonlik mutafakkir Yusuf Qorabog‘iyning Turkistonda olib borgan ilmiy faoliyati buning yorqin namunasi deyishimiz mumkin.

Ibn Muhammadjon Yusuf Qorabog‘iy Muhammad Shohiy (1563-1647) XVII asrda Turkistonda iqtisodiy-siyosiy sharoitning murakkabligiga qaramay, o‘zidan avval yashab o‘tgan buyuk mutafakkirlarning asarlaridagi ilg‘or an’analarni davom ettira olgan mashshoiy falsafasining eng so‘nggi vakili, tarixchi, so‘fiy va faqihdir. Yusuf Qorabog‘iy XV asrning buyuk allomalaridan biri Jaloliddin Davvoniyning g‘oyaviy izdoshi Habibulloh Mirzajon Sheroziy Bog‘inaviy bilan birga 1585 yilda 23 yoshida Turkistonga kelgan va Buxoro va Samarqandda ilmiy faoliyat olib bordi. Ayniqsa Ashtarxoniylar hukmdori Imomqulixon davrida baland obro‘ va ishonch qozondi.

O‘zidan boy ilmiy meros qoldirgan Yusuf Qorabog‘iyning falsafiy qarashlari o‘zidan keyingi mutafakkirlar asarlarida ham aks topdi. Xususan, XVII asrning buyuk mutafakkirlaridan Muhammad Sharif Buxoriyni (1609-1697) misol tariqasida tilga olishimiz mumkin [3: 57].

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, turkiy dunyo mutafakkirlari orasida Abu Ali ibn Sino va Bahmanyor ibn Marzubon al-Ozarbayjoniy bilan boshlangan ustoz-shogird silsilasi shaklidagi o‘zaro ilmiy aloqalar an’anasi ming yillik tarixga egadir. Bu xalqlar boshidan o‘tkazgan tarixning turli sinovlariga qaramay, jahon ilm-fanining rivojiga benihoya ulkan hissa qo‘shdilar. E’tiborga loyiq tarafi esa bu ulug‘ olimlar

va ularning shogirdlarining turkiy xalqlar vakillari ekanligidir. Mustahkam va qadim poydevorga ega ushbu o‘zaro ilmiy hamkorlik an’anasi XXI asrda yangi bosqichga kirgan turkiy davlatlar olimlari orasida ham davom etayotgani albatta quvonarli holdir. Bu hamkorlik an’anasining yaqin kelajakda ulkan samaralar berishi shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Сагадеев А.В. Бахманйар ал-Азарбайджани и его энциклопедический труд «ат-Тахсил» // Средневековая арабо-мусульманская философия. Т.2. М.: Изд. дом Марджани. 2010. С. 5-12.
2. Fazlıoğlu İ. Osmanlı Felsefe-Biliminin Arkaplanı: Semerkand Matematik Astronomi Okulu // Divan İlmi Araştırmalar Dergisi. Sayı: 14. 2003. S. 1-66.
3. Нуритдинов М. Юсуф Қорабоғий ва Ўрта Осиёда XVI-XVII асрлардаги ижтимоий-фалсафий фикр. Тошкент. 1991.

O‘zbekistonda ilm-fanning rivojlanishida ayollar hissasini oshirishning ahamiyati

Саидова Зухра Нарзуллаевна
Заведующая отделом семьи и женщин
в Университете Альфраганус, советник ректора
по женским вопросам. Узбекистан,Ташкент
jalolov.mehrojiddin@bk.ru

Annotatsiya: O'zbekistonda gender tenglik masalalari so'nggi yillarda jiddiy e'tibor qaratilayotgan mavzulardan biriga aylangan. Ayollarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotda faol ishtirok etishini ta'minlash uchun hukumat va jamoat tashkilotlari tomonidan bir qator dasturlar va tashabbuslar amalga oshirilmoqda.

Kalit so‘zlar: gender tenglik, siyosiy, ijtimoiy, ta’lim, imtiyoz.

Abstract: In Uzbekistan, gender equality issues have become one of the topics of serious attention in recent years. A number of programs and initiatives are being implemented by the government and public

organizations to ensure active participation of women in social, economic and political life.

Key words: gender equality, political, social, education, privilege.

Аннотatsiя: В Узбекистане вопросы гендерного равенства в последние годы стали одной из тем серьёзного внимания. Правительством и общественными организatsiями реализуется ряд программ и инициатив, направленных на обеспечение активного участия женщин в социальной, экономической и политической жизни.

Ключевые слова: гендерное равенство, политическое, социальное, образование, привилегии.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi, tarixan, o‘zining boy madaniyati va ilmiy an’analari bilan ajralib turadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirish, xalqaro miqyosda raqobatbardosh kadrlarga ega bo‘lish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, ayollarning ilm-fan sohasidagi roli ham kun sayin oshib bormoqda. Ayollarning ilm-fanga qo‘shgan hissasi, nafaqat jamiyatda, balki iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda ham muhim ahamiyatga ega.

Ilm-fan sohasida gender tengligi.

O‘zbekiston hukumati ilm-fan sohasidagi gender tengligini ta’milashga qaratilgan bir qator dasturlarning amalga oshirmoqda. Ayollarning ilmiy faoliyatda ishtirokini oshirish ularning malakasi oshirish va ilmiy tadqiqotlar olib borishlariga ko‘maklashish orqali mamlakat ilm-faniga yangiliklar kiritish maqsadida muhim qadamlar qo‘yilmoqda. Gender tengligini ta’minlash ilm-fanning barcha sohalarida innovatsion yondashuvlar va g‘oyalarni kiritishga imkon yaratadi.

Ayollar va ilmiy tadqiqotlar

O‘zbekistonda ayollarning ilmiy tadqiqotlarga jalb qilinishi, ularning fikr va g‘oyalari, yangi yondashuvlari ilm-fan rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ko‘plab ayol olimlar biologiya, kimyo, fizika va boshqa sohalarda yutuqlarga erishmoqda. Masalan, ayol olimlarning rivojlanayotgan sohalarda, jumladan, ekologiya, biotexnologiya va ma’lumotlar tahlili kabi sohalarda olib borayotgan tadqiqotlari, nafaqat O‘zbekistonda, balki jahonda ham e’tirof etilmoqda. Ayollarning ilm-fan va ta’lim sohasidagi ishtiroki, iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biridir. Ayollar ilm-fan sohasida faoliyat yuritishi, o‘zlarining bilim va tajribalarini boshqa

sohalarga ham tatbiq etishi, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga yordam beradi. Shu bilan birga, ilm-fanga jalb qilingan ayollar, kelajak avlodlarni ham oʻqitish va ilm-fanga qiziqtirishda muhim rol oʻynaydi.

Asosiy qisim

Gender tenglikning ahamiyati. Gender tenglik — bu faqat ayollar va erkaklar oʻrtasida teng huquqlilikni ta'minlash emas, balki jamiyatning barcha sohalarida, xususan, siyosiy va ijtimoiy hayotda ayollarning oʻrnini oshirishdir. Gender tenglikni ta'minlash, nafaqat adolat, balki ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish uchun ham zarurdir. Ushbu maqolada, gender tenglikning ahamiyati va ayollarning siyosiy va ijtimoiy sohalardagi roli haqida kengroq muhokama qilamiz.

Ijtimoiy sohada gender tenglik, jamiyatning har bir a'zosining, jumladan, ayollarning ham, teng imkoniyatlarga ega boʻlishini ta'minlaydi. Bu, oʻz navbatida, ijtimoiy barqarorlik va farovonlikka olib keladi. Ayollarning ijtimoiy hayotda faol ishtiroki:

Sogʻliqni saqlash va taʼlim: Ayollar oʻz oilalarining salomatligi va taʼlim darajasini oshirishda muhim rol oʼynaydi. Ularning taʼlim olish imkoniyatlari oshgani sayin, jamiyatdagi sogʻliq va ta'lim darajasi ham yaxshilanadi.

Ijtimoiy xizmatlar: Ayollar koʻplab ijtimoiy xizmatlarda faoliyat yuritadilar, masalan, tarbiyachilik, oʻqituvchilik va sogʻliqni saqlash sohalarida. Bu sohalarda ayollarning koʻproq ishtiroki, sifatli xizmatlarni taqdim etishga yordam beradi.

Siyosiy sohada ayollarning roli

Siyosiy tenglik, ayollarning qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok etishi, hukumat va jamoat tashkilotlarida faol ishtirok etishi bilan bogʻliqdir. Bu, birinchi navbatda, quyidagi jihatlardan iborat:

Qaror qabul qilish: Ayollar siyosiy hayotda ishtirok etishlari bilan, jamiyatning turli qatlamlarining ehtiyojlarini koʻproq aks ettira olishadi. Ularning fikr-mulohazalari, ijtimoiy masalalarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega.

Kuvotalar va imkoniyatlar: Koʻplab mamlakatlarda ayollar uchun kvotalar belgilash orqali ularning parlament va mahalliy boshqaruv organlarida vakilligi oshirilmoqda. Bu, ayollarning siyosiy lavozimlarda koʻproq oʻrin egallashiga yordam beradi.

Qonun chiqarish va siyosat: Ayollar, oʻz navbatida, gender tenglik va ayollarning huquqlarini himoya qiluvchi qonunlar yaratishda faol ishtirok

etishlari muhimdir. Ularning ishtiroki, gender diskriminatsiyasiga qarshi kurashishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Gender tenglik va ijtimoiy adolat

Gender tenglik, ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanishning muhim bir qismi hisoblanadi. Ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotda teng huquqli ishtiroki, jamiyatda gender stereotiplarni bartaraf etish va gender diskriminatsiyasini kamaytirish uchun zarur. Ijtimoiy adolatga erishish uchun gender tenglikni ta’minlash, jamiyatda barcha fuqarolar uchun bir xil imkoniyatlarni yaratadi.

Kelajakdagi chora-tadbirlar

Gender tenglikni ta'minlash va ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotda o‘rnini oshirish uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim:

Ta’lim va xabardorlik: Gender tenglik mavzusida ta'lim dasturlarini joriy etish, yosh avlodni xabardor qilish va gender stereotiplarni bartaraf etishga yordam beradi.

Siyosiy ishtirokni rag'batlantirish: Ayollarni siyosatga jalb etish uchun maxsus dasturlar, treninglar va seminarlar tashkil etish muhimdir.

Jamoatchilik va madaniy o‘zgarishlar: Jamoatchilikda gender tenglikni targ'ib qilish, gender stereotiplarni bartaraf etish va ayollarning huquqlarini himoya qilishda jamoat tashkilotlari va faol faollarning ishtiroki zarur.

O‘zbekistonda gender tenglik yo'lidagi qadamlar:

O‘zbekiston hukumati gender tenglikni ta’minlash maqsadida bir qator qonunlar va dasturlarni ishlab chiqdi. 2019-yilda “Ayollarni qo‘llab-quvvatlash va gender tenglikni ta’minlash” haqida qonun qabul qilindi. Ushbu qonun ayollarni iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarda faol ishtirok etishga rag'batlantirishga qaratilgan.

Ayollarga yaratilgan imkoniyatlar

O‘zbekistonda ayollarga bir qator imkoniyatlar va imtiyozlar taqdim etilgan:

Ta’lim va kasb-hunar o‘qitish: Ayollarga ta’lim olishda, xususan, oliy ta’limda, imtiyozlar berilishi va grantlar taqdim etilishi kengaytirilmoqda. Bu, o‘z navbatida, ularning professional rivojlanishini ta’minlaydi.

Iqtisodiy imkoniyatlar: Ayollarga tadbirkorlik faoliyatini boshlashda kreditlar va grantlar orqali moliyaviy yordam ko‘rsatilmoqda. Bu, ayollarning mustaqil iqtisodiy faoliyat olib borishiga yordam beradi.

Siyosiy ishtirok: O‘zbekistonda ayollarning siyosiy hayotda ishtirokini oshirish maqsadida, parlamentda va boshqa hukumat organlarida ayollarning kvota asosida vakilligi ta’minlanmoqda.

Imtiyozlar va muammolar

Ayollarga berilgan imtiyozlar, albatta, ijobiy natijalar berishi mumkin, ammo bu jarayonda mavjud muammolar ham e’tibordan chetda qolmasligi lozim. Gender stereotiplar, madaniy va ijtimoiy to‘siqlar ayollarni o‘z imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishiga halaqit berishi mumkin. Shuningdek, gender tenglikni ta’minlashda jamoatchilik va oilaning roli juda muhimdir.

Kelajakda amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar. Kelajakda gender tenglikni ta’minlash uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim:

- Ta’lim dasturlarini takomillashtirish: Gender tenglik haqida ta’lim berish va xabardorlikni oshirish muhimdir. Bu, ayniqsa, yosh avlodni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.
- Jamoatchilik ishtirokini oshirish: Ayollarning huquqlari va imkoniyatlari haqida jamoatchilikni xabardor qilish va ularni bu masalalarda faol ishtirok etishga rag'batlantirish zarur.
- Qonunchilikni mustahkamlash: Gender tenglikni ta'minlash uchun qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish, gender diskriminatsiyaga qarshi kurashish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni belgilash muhimdir.

Shuni alohida takidlab o‘tishimiz kerak yolg‘iz boquvchisini yo‘qotgan ayollarimiz uchun ham ko‘plab imtiyozlar ishlab chiqilgan. Boquvchisini yo'qotgan yolg‘iz ona ayollar, iqtisodiy va ijtimoiy qiyinchiliklarga duch kelishlari bilan birga, ta’lim va iqtisodiy imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanish orqali hayotlarini yaxshilashlari mumkin. O‘zbekiston hukumati va turli tashkilotlar, bu ayollarga yordam berish maqsadida bir qator dasturlar va imkoniyatlar taqdim etmoqda.

Ta’lim Imkoniyatlari:

Yolg‘iz ona ayollar uchun ta’lim olish imkoniyatlari kengaytirilmoqda:

- Oliy ta’lim va kasb-hunar o‘quv muassasalari: Yolg‘iz ona ayollar uchun oliy ta’limda grantlar, subsidiyalar va imtiyozlar mavjud. O‘zbekistonning ko‘plab universitetlari va kasb-hunar kollejlarida bunday dasturlarni taklif etadi.
- Qisqa muddatli kurslar: Mamlakatda turli ijtimoiy tashkilotlar tomonidan tashkil etilayotgan qisqa muddatli kasb-hunar kurslari,

ayollarga yangi malakalar o‘rganish va yangi ish o‘rinlariga ega bo‘lish imkoniyatini beradi. Bu kurslar ko‘pincha bepul yoki arzon narxlarda taqdim etiladi.

- Masofaviy ta'lim: Internet va onlayn platformalar orqali masofaviy ta’lim imkoniyatlari mavjud. Yolg‘iz ona ayollar, farzandlarini tarbiyalash bilan birga, masofaviy ta’lim orqali bilim olishlari mumkin.

Iqtisodiy Imkoniyatlar:

Yolg‘iz ona ayollar uchun iqtisodiy imkoniyatlar ham mavjud:

- Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash: O‘zbekiston hukumati tomonidan tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun ayollarga mo‘ljallangan maxsus dasturlar mavjud. Bu dasturlar orqali kreditlar, grantlar va o‘quv dasturlari taqdim etiladi.
- Ayollar uchun kichik biznes dasturlari: Turli jamoat tashkilotlari va xalqaro agentliklar, ayollarni tadbirkorlikka jalb qilish uchun maxsus dasturlarni amalga oshirmoqda. Ushbu dasturlar doirasida, ayollarga biznes reja tayyorlash, marketing va boshqaruv bo‘yicha treninglar o‘tkaziladi.
- Ijtimoiy himoya dasturlari: Yolg‘iz ona ayollar uchun davlat va xususiy sektor tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy himoya dasturlari mavjud. Ushbu dasturlar, moliyaviy yordam va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi. Psixologik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash boquvchisini yo‘qotgan yolg‘iz ona uchun psixologik va ijtimoiy yordam ko‘rsatish muhimdir:
- Psixologik yordam: Turli ijtimoiy tashkilotlar tomonidan psixologik konsultatsiya va yordam xizmatlari taklif etiladi. Bu xizmatlar, ayollarning ruhiy holatini yaxshilash va stressdan xalos bo‘lishlariga yordam beradi.
- Ijtimoiy tarmoqlar va jamoalar: Yolg‘iz onalar uchun maxsus ijtimoiy tarmoqlar va jamoalar mavjud. Bu jamoalarda bir-biriga yordam berish, tajribalar bilan o‘rtoqlashish va do‘stlik o‘rnatish imkoniyatlari mavjud.

Boquvchisini yo‘qotgan yolg‘iz ona ayollarimiz uchun ta’lim va iqtisodiy imkoniyatlar kengaytirilgan. Ular bu imkoniyatlardan to‘liq foydalanish orqali, o‘z hayotlarini yaxshilashlari va farzandlariga yaxshi kelajak ta’minlashlari mumkin. Shuningdek, psixologik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularning umumiy farovonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonning har bir fuqarosi, ayniqsa, ayollarni qo‘llab-

quvvatlashga qaratilgan dasturlar va tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashimiz va ularni ommaga tadbiq qilishimiz juda zarur.

Xulosa:

Gender tenglik — bu jamiyatning barcha qatlamlari uchun muhim ahamiyatga ega. Ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotda faol ishtirok etishi, nafaqat adolatni ta’minlaydi, balki jamiyatning rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shadi. O‘zbekistonda gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan harakatlar ijobiy natijalarga olib kelishi kutilmoqda, lekin bu jarayonda mavjud to siqlarni bartaraf etish va ayollarning imkoniyatlarini oshirish zarur. Gender tenglikni ta’minlash — bu barqaror va farovon jamiyat qurishning kalitidir.O‘zbekistonda gender tenglikni ta’minlash uchun amalga oshirilayotgan harakatlar ijobiy natijalarga olib kelmoqda. Biroq, bu jarayonni davom ettirish va ayollarga yaratilgan imkoniyatlardan to‘liq foydalanishlari uchun to‘siqlarni bartaraf etish lozim. Gender tenglik — bu nafaqat ayollar uchun, balki jamiyatning barcha qatlamlari uchun ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning kalitidir. O‘zbekistonning ilm-fan rivojida ayollar hissasini oshirish, nafaqat gender tengligini ta’minlash, balki mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi uchun ham muhimdir. Ayollarni ilm-fan sohasida faol ishtirok etishga undash, ularning ilmiy faoliyatda erishgan yutuqlarini kengaytirish, mamlakatimizning kelajakdagi yutuqlarini belgilashda muhim omil bo‘ladi. O‘zbekistonning ilm-fan va ta’lim sohasida ayollarni qo‘llab-quvvatlash, bu sohadagi innovatsiyalarni va taraqqiyotni tezlashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ayollarni qo‘llab-quvvatlash va gender tenglikni ta’minlash to‘g‘risida”gi qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Statistika Qo‘mitasi. (2023). “O‘zbekistonda ayollar va erkaklar o‘rtasidagi gender tenglik”.

3. Ismatova, D. (2022). “Ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari: muammolar va yechimlar”. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy Tadqiqotlar Markazi.

4. Mamatqulova, N. (2021). “Yolg‘iz onalar: ijtimoiy va iqtisodiy muammolar”. O‘zbekiston Milliy Universiteti.

5. Abdurakhmonova, M. (2020). “Ayollar va tadbirkorlik: imkoniyatlar va to'siqlar”. Tashkent: O‘zbekiston Tadbirkorlar Uyushmasi.

6. Xudoyberganova, S. (2019). “Ayollarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari: tajribalar va natijalar”. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.
7. UNICEF. (2023). “O‘zbekiston: Ayollar va bolalar uchun ijtimoiy himoya tizimi”.
8. Jahongir, M. (2022). “Ayollarning ta’lim olishi va iqtisodiy mustaqilligi”. Tashkent: Ta’lim vazirligi.
9. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi. (2023). “Sog‘liq va ta’lim: ayollar uchun strategiyalar”.
10. Gender tenglik bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy Strategiyasi. (2020). O‘zbekiston Respublikasi.
11. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi. (2022). “Ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash”.
12. Bunyodov, T. (2021). “Ijtimoiy himoya: yolg‘iz onalar uchun dasturlar”. O‘zbekiston Ijtimoiy Tadqiqotlar Markazi.
13. World Bank. (2023). “Uzbekistan: Gender Equality and Women’s Empowerment”.
14. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va Mehnat Munosabatlari Vazirligi. (2023). “Yolg‘iz onalar uchun ish bilan ta’minlash dasturlari”.
15. Asian Development Bank. (2022). “Empowering Women in Uzbekistan: Policies and Practices”.

CHIRCHIQ SHAHRINING O‘TMISHI HOZIRI VA KELAJAGI

NASIBA KAMALOVA BAXTIYOROVNA
Ilmiy rahbar: Tibbiyot fanlari nomzodi dotsent
Kuliev Ozodjon Abdirahmonovich
Alfraganus universiteti
Tibbiyot fakulteti
Stomatologiya yo‘nalishi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola Chirchiq shahrining o‘tmishi, SSSR davridagi ahvoli, kriminalistik jihatlari, shuningdek, mustaqillik yillaridagi rivojlanish jarayonlariga bag‘ishlanadi. Chirchiq shahrining tarixiy rivojlanishi aniq sanalar va yillarga asoslanib o‘rganiladi. Shahar iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti,

hamda infratuzilmasining o‘zgarishlari SSSR davridan mustaqillik davriga qadar bo‘lgan jarayonlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shahar kelajagi haqida istiqboliy mulohazalar bildiradi.

Kalit so’zlar: *Chirchiq shahar tarixi, SSSR davri, mustaqillik yillari, kriminalistika, iqtisodiy rivojlanish, infratuzilma.*

ABSTRACT

This article is devoted to the past of the city of Chirchik, its situation during the USSR, criminal aspects, as well as the development processes during the years of independence. The historical development of the city of Chirchik is studied based on specific dates and years. Changes in the economy, social life, and infrastructure of the city are analyzed based on the processes from the time of the USSR to the period of independence. The results of the study provide perspective on the future of the city.

Keywords: *Chirchik city history, USSR period, years of independence, criminalistics, economic development, infrastructure.*

АННОТАТSIЯ

Данная статья посвящена прошлому города Чирчика, его положению во времена СССР, криминальным аспектам, а также процессам развития, происходившим в годы независимости. Историческое развитие города Чирчика изучается на основе конкретных дат и лет. Анализируются изменения в экономике, социальной жизни и инфраструктуре города на основе процессов со времен СССР до периода независимости. Результаты исследования дают представление о будущем города.

Ключевые слова: *история города Чирчик, период СССР, годы независимости, криминалистика, экономическое развитие, инфраструктура.*

KIRISH

Chirchiq shahri O‘zbekistonning Toshkent viloyatida joylashgan bo‘lib, 1935-yilda shahar maqomiga ega bo‘lgan. SSSR davrida Chirchiq sanoat shahri sifatida rivojlandi, ayniqsa kimyo va metallurgiya tarmoqlarida. Mustaqillikdan so‘ng shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda yangi bosqichga chiqdi. Ushbu maqolada shahar rivojlanishining o‘tgan va hozirgi holati aniq sanalar bilan tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Tadqiqotda Chirchiq shahrining SSSR davridagi va mustaqillik yillaridagi rivojlanishiga oid ilmiy asarlar, rasmiy hujjatlar va arxiv ma’lumotlari tahlil qilinadi. Shuningdek, iqtisodiy va kriminalistik holatlar hamda shahar infratuzilmasiga oid statistik ma’lumotlar o‘rganiladi. Maqolada tarixiy voqealar aniq yillar va sanalarga asoslanib ko‘rsatiladi.

SSSR davrida Chirchiq shahrining rivojlanishi

1935-1940-yillar: Shahar tashkil topishi va sanoatlashuv Chirchiq shahri 1935-yilda kimyo va energetika markazi sifatida barpo etildi. Shahar sanoatining asosiy bo‘g‘ini Chirchiq Elektrokimyo Kombinati bo‘lib, uni qurish ishlari 1937-yilda boshlandi. SSSR davrida Chirchiq katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan sanoat markaziga aylandi. Ayniqsa, urush yillarida (1941-1945) shahar harbiy sanoat uchun muhim rol o‘ynadi, bu davrda kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish kuchaytirildi va shahar aholisi soni tez sur'atlarda oshdi.

1945-1960-yillar: Sanoatni kengaytirish va urbanizatsiya Urushdan keyin Chirchiq iqtisodiy jihatdan kuchli rivojlanishni boshdan kechirdi. Kimyo va metallurgiya tarmoqlari yanada kengaytirildi va shahar sanoati katta hajmda mahsulot ishlab chiqarishni boshladi. 1950-yilda Chirchiq qishloq xo‘jalik texnikalari zavodi qurildi, bu esa shaharning qishloq xo‘jaligi sohasiga ham hissa qo‘sha boshlaganligini ko‘rsatadi. 1956-yilda Chirchiq metallurgiya zavodi o‘z faoliyatini boshladi. Shu davrda shahar infratuzilmasi ham jadal sur’atlarda rivojlandi.

1960-1980-yillar: Sanoat korxonalarining o‘sishi va ijtimoiy hayot

1960-yillardan 1980-yillargacha Chirchiq shahri sanoat ishlab chiqarishda yetakchi shaharlardan biri bo‘lib qoldi. Ayniqsa, sanoat mahsulotlari, kimyo va metallurgiya sanoati bo‘yicha keng ko‘lamli zavodlar ishga tushirildi. Shu bilan birga, shahar kriminalistik holati ham o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Sanoatlashuvning kuchayishi bilan bir qatorda shahar ichki migratsiya tufayli aholining ko‘payishi, shu bilan birga, jinoyatchilikning ortishi kuzatildi. 1970-yillarda shahar aholisi soni 150 ming kishiga yetdi.

Mustaqillik yillarida Chirchiq shahrining rivojlanishi

1991-2000-yillar: Mustaqillik va iqtisodiy o‘zgarishlar 1991-yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, Chirchiq shahridagi sanoat korxonalari va ishlab chiqarish tizimi qayta tashkil qilindi. SSSR davridagi davlat korxonalari xususiylashtirildi va bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni

boshlandi. Biroq, dastlabki yillarda iqtisodiy qiyinchiliklar va ishlab chiqarish hajmining pasayishi kuzatildi. Shuningdek, 1990-yillarda jinoyatchilik holati oshdi, chunki yangi iqtisodiy tizimga moslashish jarayonida ishsizlik ortdi va ijtimoiy muammolar ko‘paydi.

2000-2010-yillar: Rivojlanish va modernizatsiya 2000-yillarga kelib, Chirchiq shahrida iqtisodiy vaziyat barqarorlasha boshladi. Shahar infratuzilmasi jadal rivojlantirildi: yangi yo‘llar, ko‘priklar va turar-joylar qurildi. Yirik sanoat korxonalari modernizatsiya qilinib, yangi texnologiyalar joriy etildi. 2005-yilda shahar aholisi 145 mingga yetdi va jinoyatchilik darajasi keskin kamaydi. Chirchiq Elektrokimyo Kombinati va boshqa zavodlar zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlandi va mahsulotlar eksport hajmi oshdi.

2010-yildan keyingi davr: Barqaror iqtisodiy o‘sish va xavfsizlik

2010-yillardan so‘ng shahar turli sohalarda yangi rivojlanish bosqichiga chiqdi. O‘zbekiston hukumati tomonidan amalga oshirilgan sanoatni diversifikatsiya qilish va kichik va o‘rta tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash siyosati shahar iqtisodiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. 2015-yilda jinoyatchilik darajasi yanada kamaydi va shahar ijtimoiy hayoti yaxshilandi. Bugungi kunda Chirchiq shahri nafaqat kimyo sanoatida, balki qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasida ham rivojlanmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

SSSR davrida Chirchiq shahri kimyo va harbiy-sanoat markazi sifatida muhim rol o‘ynadi. 1941-1945-yillardagi urush davrida shahar harbiy zavodlar va fabrika ishlab chiqarish quvvatlari bilan mashhur edi. Bu davrda shahar aholisining ko‘payishi va sanoatning rivojlanishi kuchaydi. 1960-1980-yillarda shahar iqtisodiyoti kuchli rivojlanib, yangi zavod va fabrikalar qurildi.

Mustaqillik yillarida, xususan 1991-yildan boshlab, Chirchiq shahrida iqtisodiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. SSSRdan qolgan sanoat korxonalari xususiylashtirildi va yangi bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari asosida rivojlandi. 2000-yillarda shahar infratuzilmasida sezilarli yaxshilanishlar ko‘zga tashlandi, yangi ko‘priklar, yo‘llar va turar-joylar qurildi. Shahar aholisining ijtimoiy hayoti ham mustahkamlandi, ayniqsa ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarida islohotlar o‘tkazildi.

Kriminalistik davrlar va qiyosiy tahlil

SSSR (1935-1991) SSSR davrida Chirchiq shahridagi kriminalistik holat ko‘proq sanoatlashuvning salbiy ta’sirlariga bog‘liq edi. 1950-1970-yillarda shahar aholisi ko‘paygani sari jinoyatchilik darajasi ham ortdi. Asosan mayda o‘g‘irliklar, ishlab chiqarish korxonalaridagi noqonuniy xatti-harakatlar, va ichki nizolar ko‘p uchragan.

Mustaqillik yillarida (1991-yildan hozirgi kungacha) Mustaqillik yillarida, ayniqsa dastlabki 1990-yillarda jinoyatchilik keskin oshdi. 1995-1999-yillarda jinoyatchilik yuqori darajada bo‘lgan. Biroq, 2000-yildan boshlab, davlat tomonidan jinoyatchilikka qarshi kurashish choralari kuchaytirildi va shahar huquq-tartibot tizimi isloh qilindi. 2010-yildan keyin jinoyatchilik darajasi sezilarli darajada kamaydi, bu esa iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy rivojlanish bilan bog‘liqdir.

XULOSA

Chirchiq shahrining o‘tmishi va hozirgi holati uning iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmasining barqaror rivojlanishini ko‘rsatadi. SSSR davrida asosan sanoatga yo‘naltirilgan shahar, mustaqillik yillarida turli sohalarda, jumladan, tadbirkorlik va xizmat ko‘rsatish sektorida ham jadal rivojlandi. Kelajakda Chirchiq shahrining iqtisodiy rivojlanishi va infratuzilmasining yanada kengayishi kutilmoqda.

Chirchiq shahri SSSR davridan boshlab muhim sanoat markazi bo‘lib kelgan. SSSR davrida shahar sanoati rivojlanib, katta ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, mustaqillik yillarida Chirchiq iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilma jihatidan katta o‘zgarishlar boshdan kechirdi. Bugungi kunda shahar kelajakda yanada barqaror va rivojlangan infratuzilmaga ega bo‘lishi kutilmoqda. Kriminalistik jihatdan esa, jinoyatchilikning kamayishi va huquq-tartibot tizimining yaxshilanishi shahar xavfsizligini oshirdi.

Chirchiq shahri, o‘zining sanoat markazi sifatidagi ahamiyatiga qaramay, kelajakda shahar aholisi va infratuzilmasi bo‘yicha jiddiy o‘zgarishlar kutilmoqda. Toshkent viloyati yaqinida joylashgani sababli, shaharga o‘qish va ishlash uchun keladigan odamlar soni tobora ortmoqda. Bu holat, bir tomondan, iqtisodiy rivojlanishga yordam bersa, boshqa tomondan, ekologik muammolar, jumladan, havo va suvning ifloslanishi kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ushbu bo‘limda kelajakda shaharda kuzatilishi mumkin bo‘lgan asosiy o‘zgarishlar, atrof-muhit muammolari va ularning oldini olish choralariga to‘xtalamiz.

Chirchiq shahrining Toshkentga yaqinligi uni shahardan tashqaridan keladigan talabalar, ishchilar va boshqa odamlar uchun muhim manzilga aylantiradi. Toshkentda o‘qish va ishlash istagidagi ko‘plab insonlar Chirchiqqa ko‘chib kelishi yoki u yerda yashashi mumkin, bu esa shaharning infratuzilmasiga katta yuk tushiradi.

1. **Aholi o‘sishi**. Shahar aholisining o‘sishi infratuzilmaga bo‘lgan talabni oshiradi, xususan, turar joylar, transport, ijtimoiy xizmatlar va sanoat infratuzilmasi sohalarida bosim kuchayadi. Bu holat shahar atrof-muhitiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, chunki qishloq xo‘jaligi va sanoat chiqindilari, shuningdek, ko‘chmas mulk qurilishlari ekotizimni ifloslantirishi mumkin.

2. **Ifloslanish xavfi**. Kelajakda eng katta muammolardan biri havo va suvning ifloslanishi bo‘lishi mumkin. Shaharda avtomobillar va sanoat korxonalari ko‘payishi bilan havodagi zararli moddalar miqdori ortishi mumkin. Shuningdek, sanoat chiqindilari Chirchiq daryosi va boshqa suv manbalarini ifloslantirishi ehtimoli ham mavjud. Shahar aholisi ko‘paygani sari chiqindilarni qayta ishlash tizimi ham talabga javob bera olmasligi xavfi bor.

Ekologik muammolar va ulardan himoyalanish choralar

1. **Suv havzalarining ifloslanishi va uni oldini olish**. Chirchiq shahrida daryolar va sun’iy suv omborlari shaharning muhim tabiiy resurslaridan biri hisoblanadi. Biroq, so‘nggi yillarda sanoat va maishiy chiqindilar tufayli bu havzalarning ifloslanish holati ortgan. Ayniqsa, daryo bo‘yida joylashgan korxonalar atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Kelajakda bu havzalarda cho‘milish xavfli bo‘lib qolishi mumkin, shuningdek, ichimlik suvi sifatini ham yomonlashtirishi mumkin.

Oldini olish choralar:

- Sanoat korxonalariga ekologik standartlarga qat’iy rioya qilish talabini qo‘yish lozim. Ular chiqindilarni maxsus qayta ishlash tizimlaridan o‘tkazmasdan, suv havzalariga tashlamasligi kerak.
- Shahar atrofida ekoturizmni rivojlantirish orqali tabiiy resurslarni asrab qolishga e’tibor qaratish zarur.
- Mahalliy aholi va talabalar uchun ekologik ta’lim va targ‘ibot tadbirlarini ko‘paytirish zarur, shu bilan birga chiqindilarni qayta ishlash va to‘g‘ri utilizatsiya qilish odatlariga urg‘u berish kerak.

2. **Havoning ifloslanishi**. Aholining ko‘payishi va sanoat korxonalari sonining ortishi shaharda havo sifatining yomonlashishiga olib

kelishi mumkin. Avtomobillar va zavodlardan chiqayotgan gazlar havoning kimyoviy tarkibiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimoli bor. Bu esa insonlar sog‘lig‘iga ham zarar yetkazadi, xususan, nafas olish yo‘llari kasalliklari ortishi mumkin.

Oldini olish choralar:

- Elektromobillarni keng qo‘llash va shahar transport tizimini ekologik toza qilish bo‘yicha davlat siyosati amalga oshirilishi kerak.
- Sanoat korxonalariga ekologik monitoring o‘rnatilishi va chiqindi gazlarni kamaytirish bo‘yicha yangi texnologiyalar joriy etilishi zarur.
- Yashil hududlarni kengaytirish va ko‘chalarni ko‘kalamzorlashtirish orqali shahar havosini tozalash mumkin.

Chirchiq shahrining kelajagi: Rivojlanish istiqbollari

Chirchiqning kelajagi bir nechta strategik yo‘nalishlar bo‘yicha o‘zgarishlarni ko‘zda tutadi:

1. **Sanoatning diversifikatsiyasi**. Shaharda sanoat ishlab chiqarish diversifikatsiyasi davom etmoqda. Kelajakda kimyo va metallurgiya tarmoqlari bilan bir qatorda, energetika, ekologik toza texnologiyalar, va axborot texnologiyalari kabi sohalarda ham o‘sish kutilmoqda. Bu yangi ish o‘rinlarini yaratib, aholining iqtisodiy farovonligini oshirishi mumkin.
2. **Turar-joy qurilishi va infratuzilmani rivojlantirish**. Aholining ko‘payishi bilan birga, yangi turar-joy massivlari, savdo markazlari va ijtimoiy infratuzilmalar qurilishi zarur bo‘ladi. Shahar transport tizimini yaxshilash, yo‘llarni kengaytirish, shahar jamoat transporti tarmoqlarini rivojlantirish lozim.
3. **Ekologik rivojlanish**. Chirchiq kelajakda o‘z atrof-muhitini asrab-avaylash va ekologik rivojlanishni kuchaytirishga e’tibor qaratishi zarur. Sanoat va turar-joylar orasidagi balansni saqlab qolish, ko‘kalamzor hududlarni kengaytirish va ekologik nazoratni kuchaytirish orqali shaharning ekologik holatini yaxshilash mumkin.

Chirchiq shahrining kelajagi jadal rivojlanish va sanoat diversifikatsiyasi bilan bog‘liq. Biroq, aholi o‘sishi va sanoatning kengayishi ekologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shaharning kelajakdagi o‘sishi davomida atrof-muhitni muhofaza qilish, suv va havo ifloslanishini kamaytirish uchun qat’iy choralar ko‘rish zarur. Chirchiq kelajakda Toshkent yaqinidagi muhim sanoat va ijtimoiy markazlardan biri bo‘lib

qoladi, ammo ekologik barqarorlikni saqlab qolish asosiy vazifa bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. A. “O‘zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti: Yo‘llar va imkoniyatlar”. Toshkent, 1996.
2. Chirchiq shahar arxivi ma’lumotlari, 1935-2020 yillar.
3. “SSSR davrida O‘zbekiston shaharlari rivojlanishi” ilmiy jurnal, Toshkent, 1985.
4. “Mustaqillik yillaridagi Chirchiq shahar rivoji” maqolalar to‘plami, Toshkent, 2021.
5. O‘zbekiston Respublikasi davlat arxivi, Chirchiq shahar tarixiga oid hujjatlar, 1935-2020 yillar.
6. “SSSR davrida O‘zbekiston shaharlari rivoji” ilmiy maqolalar to‘plami, Toshkent, 1985.
7. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston sanoat rivojlanishi. Toshkent, 2021.
8. Karimov I. A. “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichi”. Toshkent, 1996.

Aybsizlik prezumpsiyasi demokratik tamoyil sifatida

AFU Milliy g‘oya ma’naviyat asoslari va huquq
ta’limi yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Pardayeva Bohoroy Karim qizi.
Ilmiy rahbar: Ijtimoiy fanlar kafedrasi
v.b.dotsenti Sherboboyev M.A.

Annotatsiya: Ushbu maqolada demokratik prinsip hisoblangan aybsizlik prezumpsiyasi va uning davlat qonunchiligida tutgan o‘rni haqida, bu institutsional tuzilmaning mazmun mohiyati haqida fikr mulohazalar bildirilgan

Tayanch tushunchalar: aybsizlik prezumpsiyasi, qonun, jamiyat, davlat, inson, huquqlari, jinoyat, ayb, qilmish.

Aybsizlik prezumpsiyasi bu huquqiy tamoyil bo‘lib unga ko‘ra shaxs sud tomondan aybdor deb topilmaguncha yoki aybni tan olmaguncha u aybsiz deb hisoblanadi. Ayni shu tamoyil xalqaro huquqda muhim ahamiyatga ega bo‘lib inson huquqlari va erkinliklarni himoya qilish maqsadida yaratilgan tizimdir.

Aybsizlik prezumpsiyasi asosan O‘zbekiston Respublikasi. Konstitutsiya va jinoyat protsessual kodeksida ham mustahkamlab qo‘yilgan. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 28-moddasida “Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo‘li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o‘zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta’minlanadi.

Aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo‘lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin.

Hech kim o‘ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas.

Agar shaxsning o‘z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo‘lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas.

Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o‘ziga nisbatan insoniy muomalada bo‘linishi hamda inson shaxsiga xos bo‘lgan sha’ni va qadr-qimmati hurmat qilinishi huquqiga ega.

Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lishi mumkin emas”.[1] deb belgilab qo’yilgan. Shu tariqa aybsizlik prezumpsiyasi fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklarini kafolatlab har qanday shaxsga qarshi asossiz ayblovlardan himoya mexanizmi hisoblanadi.

Johon tarjribasida deyarli barcha mamlakatlar qonunchiligida aybsizlik prezumpsiyasi aybdorning jinoyatini qonuniy tartibda isbot qilmaguncha u aybsiz hisoblandi. Umumhuquqiy norma bo‘lib unga amal qilish jinoyat protsessual shaxs huquqlarni himoya qilishning eng muhim kafolati hisoblanadi.

Shu o‘rinda qayd etish joizki aybsizlik prezumpsiyasi insoniyat sivilizatsiyasi tarixida gi shaxsiy huquq va erkinliklarga oid eng buyuk kafolatdir. Buning sababi aynan ushbu prezumpsiyasi shaxsning aybi sudning hukmi bilan aniqlanganiga qadar aybsiz hisoblanadi deb belgilanganidir.

Jinoyat protsessual Kodeksi, Sudlar to‘g‘risidagi, Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa bir qator hujjatlarda ham aybsizlik perzumpsiyasining qoidalari keltirilgan. Bosh qomusimizda aybdorlika oid barcha. shuhbahlarni agar ularni bartaraf etishi imkoniyatlar tugagan bo‘lsa gumon qilinuvchi ayblanuvchining sudlanuvchi yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi keraklgi belgilanadi. Ushbu norma to‘g‘ridan-to‘g‘ri tergov va sud jarayonida faqat ishonchli va qonuniy dalillardan foydalanishni taminlaydi. Asosiy. qonunimizda gumon qilinuvchi ayblanuvchi yoki sudlanuvchining o‘zining aybsizligini isbotlashi shart emas. Hechkim o‘ziga yaqin qardoshlarni qarshi guvohlik berishga majbur emasligi belgilandi va bu qoidalarning konstitutsiyada belgilanish jinoiy taqib ostida har qanday shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlarga ruhiy bosim va turli tahdidlar qadr qimmati kamsitish uning sha’ni va qadr qimmati kamsitish kabi boshqa naqoniy usullar qo‘llanishi oldini olishga xizmat qiladi

Agar qamoq ehtiyot chorasini ning sudlari tomondan qo‘llanilishi amaliyotga misol qiladigan bo‘lsak sudlar tomonidan olinadigan ma’lumotlarni tahlili shuni ko‘rsatdiki 2022- yilda tergov organlardan

sudlarga kelib tushgan murojaatning jami 24503 tasi rad etilgan yilligida qanoatlntirilgan bo‘lsa 485 tasi rad etilgan 2023 yilda esa 335 nafar shaxsga nisbatan asossiz ravishda qamoqqa olish chorasi qo‘llaniligan.

Zero ushbu norma aybsizlik perzumpsiyasining muhum kafolati ndi konstitutsiyasi kiritilgan mazkur insonparvar qoidga ko‘ra jinyot ish bo‘yicha har qanday dalillarga nisbatn shubha paydo bo‘lsa bunday shubhalari gumon qilinuvchi zarur yana bir muhim norma agar shaxsning o‘z aybni tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo‘lsa u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligini kafolatlaydi. Bu hol jinoyat bo‘yicha yana bir muhim norma agar shaxsning o‘z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo‘lsa u aybdor jinoyat bo‘yicha haqiqatni aniqlash shuningdek aybsizlik insoning javobgarlikka tortilishi oldini olishga ayni paytda jinoyat sodir etgan haqiqiy aybdor shaxs yoki shaxslarni aniqlashga xizmat qiladi.

Yurtimizda jinoyat sodir etishda ayblanuvchi yoki gumon qilinayotgan. fuqarolarning yuridik yordam ko‘rsatildi. Bu ularning sud jarayonida o‘z huquqni va manfaatlarini himoya qilishning bo‘yicha malakali. Maslahat va yordam olish imkonini beradi. Sir emaski sud majlisida ochiq o‘tkaziladi ayblanuvchi himoylanuvchi guvohlarni jalb etish o‘z foydasiga dalillarni taqdim etish huquqiga foydasiga dalillarni taqdim etish huquqiga egadir bu adolatni sud muhokamasi ga. va aybsizlik perzumpsiyasining taminlash xizmat qiladi. Umumiy insoniy huquqlarga rioya etilishi va tergov jarayoni muhim insonparvarlik qoidalariga mos bo’lishiga sabab bo’ladi.

Xulosa qilib aytganda aybsizlik perzumpsiyasining demokratik jamiyatda o’rni katta. Buning sababi aybsizlik perezumpsiyasining fuqarolar uchun adolat huquq va erkinliklarni himoya qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Adolatni ta’minlash uchun aybsizlik tamoyillarini himoya qilish bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2003-yil 19-dekabrdagi 17-sonli «Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta’minlashga oid qonunlarni qo‘llash bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida»gi qarorining 5-bandi[1]

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 26-moddasining birinchi qismi, [2]

3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 11-moddasi[3]

4. https://lex.uz/docs/-6445145

“Layli va Majnun” dostonidagi komil inson g‘oyasi

Sheraliyeva Xadicha Alfraganus Universiteti
Milliy g‘oya ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo’nalishi
1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar:Sherboboyev Muhriddin Azimmurodovich
Alfraganus Universiteti ijtimoiy fanlar kafedrasi
o‘qituvchisi PH.D,v.b.Dotsent

Sevish kamon chalish kabidir,
bilmagan yomon kuylar chaladi

Annotasiya: Maqola “Layli va Majnun” dostonining arab xalqlarida tarqalgan.Syujetiga oid ma’lumotlar va qo‘lyozma nusxalari. Va shu obrazida ishtirok etgan qahramonlarning voqealari bilan tanishib chiqamiz

Kalit so‘zlar: “Layli va Majnun”, hamsa, arab rivoyatlari, ishq, sher, shoir, hijron, Qissa, doston.

Annotation: The article is about the story "Layli and Majnun" spread in the Arab nations. Information about the plot and copies of the manuscript. And let's get acquainted with the events of the heroes who participated in this image

Key words: "Layli and Majnun", Hamsa, Arabic narrations, love, poetry, poet, Hijran, Qissa, epic.

Layli va Majnun (arab. ليلى و مجنون (“Majnun va Layli“)) fors-turkiy romantik dostonidir. Chunki bu dostonlarni dastlab fors tarixiy asari “Shohnoma“da (Firdavsiy), keyinchalik shoir Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin” dostonida va buyuk turkiy shoir Alisher Navoiyning beshligi bo‘lmish “Xamsa”sida uchraydi. Voqeiy bo‘lmish bu hikoya Navoiyning “Xamsa”sida Qays ibn al-Mulavvo ismli arab yigitining Layli ismli qiz bilan ishqiy munosabatlari yoritiladi. O‘g‘lining bu qizga uylanishiga qarshi chiqqan otasining tazyiqlari va ayriliq tufayli Qays aqldan ozib, devona bo‘ladi (“majnun” va “jinni” “dali” so‘zlarining o‘zagi bir).

Nizomiy “Xamsa”sidagi “Layli va Majnun” hikoyasini tasvirlovchi miniatura. XVI asr. Bu atamaning boshqa ma’nolari ham mavjud. Layli va Majnun – Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan folklor hamda yozma shakldagi adabiy yodgorlik. Dostonning ilk kurtaklari VII

asrning 2-yarmida paydo boʻlgan. Ayrim manbalarning maʼlumotiga koʻra, doston qahramonlari tarixiy shaxslardir. Ularda Majnun Bani Omir qabilasidan chiqqan, asl ismi Qays ibn Mulavvah yoki Qays ibn Muod boʻlgan yigit, deya taʼkidlanadi. Qays Layli ismli oʻz qabiladoshini sevgan hamda oʻz sevgisi va hijron alamlari haqida mungli sheʼrlar bitgan. Bunday maʼlumot, jumladan, ibn Qutaybaning (889) "Kitob ush-sheʼr va shuaro" ("Sheʼr va shoirlar haqida kitob"), Abul Faroj al-Isfahoniyning "Kitob ul-agʻoni" ("Qoʻshiq kitobi") asarlarida keltirilgan. Lekin boshqa manbalar bu maʼlumotlarni inkor etadi. Masalan, arab olimi Avon ibn Hakim al-Qalbiy (764) va arab tarixchisi Hishom al-Qalbiy (819) Majnun tarixiy shaxs emas, degan fikrni ilgari suradi. VII asrning 2-yarmidayoq arab sheʼriyatida Majnun taxallusi ostida koʻplab mungli sheʼrlar vujudga keladi, bunday sheʼrlar tobora koʻpayib boradi, toʻplamlarga kiritiladi. Ammo Majnun nomi zikr etilgan sheʼrlarning barchasi ham yolgʻiz bir kishiniki emas. Arab olimlari al-Johiz (9-asr) va ibn al-Muʼtaz (908)ning aytishicha, kishilar Layli nomi bilan bogʻliq barcha sheʼrlarni Majnunga nisbat beraverganlar. XI asrda shoir Abul Bakr al-Volibiy tomonidan Majnunga nisbat berilgan barcha sheʼrlar toʻplanib, "Devoni Majnun" tuziladi. Devonda sheʼrlarga sharhlar beriladi hamda sheʼrlar Majnun haqidagi rivoyatlarning syujetiga kiritiladi.

Layli va Majnun haqida ilk bor 1188-yilda ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy doston yaratgan. Ammo u asarni Xusrav va Shirin deb nomlagan va hikoya ular haqida soʻzlaydi. Nizomiy "Layli va Majnun" dostonini ham gʻoyaviy, ham badiiy jihatdan har tomonlama yuksak darajaga koʻtardi va xamsachilik anʼanalari qatoriga qoʻshdi. Undan soʻng "Layli va Majnun" dostoniga koʻplab shoirlar murojaat qilishdi. Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Fuzuliy, Alisher Navoiy qalamlariga mansub "Layli va Majnun" dostonlari mashhur. Garchi ushbu dostonlar bitta nom bilan atalsa va ulardagi voqealar tizimi bir-biriga juda oʻxshash boʻlsada, har bir muallifning "Layli va Majnun"i oʻziga xos va betakror asardir.

Hozirgacha mazkur dostonning oʻzbek, arab, fors, ozarbayjon, turk, turkman, tojik, gruzin, panjob, kurd, urdu tillaridagi koʻplab variantlari mavjud. "Layli va Majnun" dostoni xalq ogʻzaki ijodi ravnaqiga ham beqiyos ijobiy taʼsir koʻrsatgan. Jumladan, oʻzbek xalq ijodiyotining "Tohir va Zuhra", "Oshiq Gʻarib" kabi dostonlariga "Layli va Majnun"ning taʼsiri borligi eʼtirof etiladi

“Layli va Majnun” da ishq masalasi quydagicha berilgan. Majnun va Layli komillikda vahdatni-yagona- yaxlitlikni tashkil etadi. Bu esa nihoyatda baland darajadagi xos ishqning koʻrinishi boʻlib, unda jismoniylik emas, balki maʼnaviylik yetakchi oʻrin egallaydi. Bunday yuksak darajadagi xos ishqni tushunmaydiganlar Majnun va Layli ishqi mohiyatini ham tushunmaydilar. Bular qatorida Laylining otasi ham bor, ibn Salomlar ham bor.

Shuning bilan bir qatorda Alisher Navoiy dostonda Majnun va Laylilar ishqi mohiyatini tushunuvchi va ularga yordam qoʻlini choʻzganlar ham borligini Navfal obrazi misolida koʻrsatadi. Chunki:Navfalki Arabda erdi nodir,

Tigʻiga qadar, oʻqigʻa qodir.
Yaxshiliq ila Arabda mavsum,
Oromgahi bu marz ila bum…
Navfal dagʻi ishq koʻrgan erdi,
Gʻam dashti aro yugurgan erdi.

Shu jihatdan Navfal qizi va uning sevgilisi taqdirining ijobiy hal qilingani tushinarlidir. Ammo Navfal qizi va uning sevgilisining muhabbati Majnun va Laylilar oʻrtasidagi ishq-xavos ishqi darajasiga koʻtarilgan emas. Navfal qizi va sevgilisining oʻzaro ishqi Alisher Navoiy taʼriflagan "avom ishqidurkim, …derlar: „falon falonga oshiq boʻlubdur… va bu qismning (avom ishqining) biyikrak martabasi shar’iy nikohdurkim, bari xaloyiqqa sunnat

Alisher Navoiy dostonida bu ikki xil ishqning talqinida shoir majoziy ishq martabasiga Majnun va Laylilar ishqi misolida alohida urgʻu beradi, chunki bu martaba komillik martabasi boʻlib, unda „pok koʻzni pok nazar bila pok yuzga solmoqdur va pok koʻngul ul pok yuz oshubidin koʻzgʻolmoq va bu pok mazhar vositasi bila oshiqi pokboz mahbubi haqiqiy jamolidin bahra olmoq“dir

Demak, Alisher Navoiy mazkur dostonda hamma sohada poklikka erishgan komil inson haqidagi mulohazalarini Majnun va Layli afsonasi vositasida bayon qiladi:

Shunday qilib, Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi ikkinchi – “Farhod va Shirin”, uchinchi – “Layli va Majnun” dostonlari haqida umumiy yoʻnalish tarzida mulohaza yuritdik. Agar diqqat bilan qaralsa, bu ikki dostonni bir-biriga yaqinlashtiruvchi mushtarak mavzu – komil inson mavzusi bor. Bu mavzu ularni bir-biriga bogʻlabgina qolmaydi, balki mavzuning har bir

dostonda oʻziga xos tarzda yoritilishi ularning uslubiy oʻziga xosliklarini namoyon etadi, yaʼni “Farhod va Shirin”da bu mavzu ijtimoiy faollik koʻlamida yoritilsa, “Layli va Majnun”da esa asosan ishq maydonidagi ichki kechinmalar, ruhiy holatlarning chuqur tasviri orqali nihoyatda mahorat bilan tasvirlanadi.

Demak, Alisher Navoiy bu dostonlarda bir mavzuni ikki yoʻnalishda davom ettirib, uning koʻp qirrali ekanini koʻrsatishga, badiiy timsollar, voqealar, hikoyatlar orqali tasvirlashda katta mahoratini namoyon etgan.

Alisher Navoiy Layli va Majnun afsonasidan libos sifatida foydalanib, doston mazmuniga oʻz falsafiy qarashlarini sing-dirib yuborishni maqsad qilganini taʼkidlaydi. Doston Sharq mumtoz adabiyotining anʼanalariga muvofiq ikkita: zohiriy (ochiq) va botiniy (yashirin) maʼnolarga ega. Zohiriy maʼno oddiy oʻquvchiga ham tushunarli boʻlib, unda ikki yosh muhabbati oʻz ifodasini topgan. Botiniy maʼno esa ramziy-majoziy tasvirlarga oʻralgan boʻlib, unda muallifning falsafiy qarashlari aks etgan. Navoiy dostonning ilk bobidayoq oʻquvchiga oʻz ramzlarining kalitini taqdim etadi. Yaʼni u Laylining manzar (ilohiy husn aks etgan) ligini, Majnun esa Iloh ishqida aqldan ajraganini taʼkidlaydi. Bundan Alisher Navoiy “Layli va Majnunn”ining botiniy mazmunida majoziy ishq sinoatlari aks etganligi anglashiladi. Alisher Navoiy “Layli va Majnun”ni nafaqat mazmunan, balki badiiy jihatdan ham ushbu mavzudagi dostonlarning sarasiga aylantirdi. Navoiyning “Layli va Majnunn”idan soʻng xalqimizda ushbu dostonning koʻplab folklor variantlari ham vujudga keldi.

Xalqning dostonga boʻlgan qiziqishi natijasi oʻlaroq, 19-asrda Umar Boqiy tomonidan “Layli va Majnun”ning nasriy muxtasar bayoni yaratiddi. “Layli va Majnun” dostoni asosida sahna asarlari va videofilm ham bor.

Mening Xulosam shuki “Layli va Majnun” dostonida Majnun oʻz yori uchun hamma narsadan podsholikdan , ota-onasidan voz kechib sevgisi uchun kurashadi lekin,uning qilgan ishi hato deb oʻylayman hammasi oʻz oʻrnida boʻlish kerak ,dunyoning ishlari ham Layliga boʻlgan muhabbati ham Majnun faqatgina oʻzini va sevgisini oʻylagan desak ham hato boʻlmaydi chunki, Laylini deb Majnun oʻz ota - onasini qanday ahvolga tushganini ham bilmay qoladi Majnunni deb qanchadan- qancha azoblar chekkanini sezmadi va onasidan ayrilib qoldi lekin, buni chunganida kech boʻlgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 D. Yusupova, «Layli va Majnun» dostonining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.

2 T.Ahmedov,Alisher "Navoiyning Layli va Majnuni" ,T:. Fan.1970,29 b.

“Mahbub ul-qulub”asarida komil inson tarbiyasixa

Ruzibayeva Charosoy Alfraganus Universitetining
Milliy g‘oya ma’naviyat asoslari va
huquq ta’limi yo’nalshi 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Falsafa fanlari bo’yicha falsafa doktori(PhD)
Sherboboyev Muxriddin Azimmurod o‘g‘li

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asaridagi olam va odam, hayot va o’lim, komillik sirlari, yaxshilik va yomonlik, harom va halol, diyonatsiz sadrlar ya’ni (mansabdorlar) haqidagi qomusiy, ma’rifiy g‘oyalar yoritilgan.

Kalit so’zlar: Mahbub ul-qulub, Toshkent, Sank-Peterburg, doston, hamsa, odob- axloq g’oyalari, komil inson tarbiyasi.

Annotation: This article covers the encyclopedic, educational ideas about the world and man, life and science, secrets of perfection, good and evil, haram and halal, non-religious sadrs, i.e. (mansabdars) in Alisher Navoi's work “Mahbub ul-Qulub”.

Key words: Mahbub ul-Qulub, Tashkent, St. Petersburg, epic, hamsa, moral ideas, perfect human education.

“Yigit urushda, dost dardda, komil inson
g‘azabi kelganda ma’lum bo‘ladi”.

“Mahbub ul-qulub”(“Ko‘ngillarning sevgani”) 1500-yilda Alisher Navoiy tomonidan yozilgan asardir. Asar o‘zaro bog‘liq 3 qismdan iborat.1-qism 40 fasl (bob) ni o‘z ichiga oladi. Bunda Alisher Navoiy o‘z davrining tipik vakillari hayotini tasvirlagan. 2-qismi esa 10 bobni o‘z ichiga oladi. Bu qismda yaxshi va yomon, maqtovga sazovor va nafratga loyiq hislatlar haqida tasvirlanadi. 3- qism o‘zaro qofiyadosh. Bu qismga masal va hikmatlar kiritilgan.

Bu asarga baytlar va ruboiylar kiritilib, ular ulug‘ shoir va mutaffakirlarning hayoti haqida xulosalarni keltirib o’tilgan. «Mahbub ul-qulub» Alisher Navoiy asarlari tilini o’rganishda muhim manba hisoblanadi. Uning turli vaqtda ko’chirilgan bir qancha qo’lyozmalari Toshkent, Sank-Peterburg, Parij va Istanbul kutubxonalarida saqlanadi.

Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asari tamomila tarbiya o’chog’i. Insonlarning ezgu sifatlari, tavoze’lik (kamtarlik), saxiylik, mehribonlik, singari fazilatlar o’zgacha uslublar bilan ulug’langanligi insonni hayratlantirmasdan qolmaydi.

Navoiy o’z ijodida individual tarbiyaning ijtimoiy asoslari hamda ularning inson ruhiy olamidagi obyektiv va subyektiv xususiyatlarini to’g’ridan-to’g’ri tahlil qilishni emas, balki shaxsning ijtimoiy faoliyati, individual xislati orqali ko’zga tashlanadigan belgilarni badiiy umumlashtiradi.

«Mahbub ul-qulub» falsafiy, axloqiy , ta’limiy asardir. Unda Navoiy XV asrdagi ijtimoiy tabaqa va guruhlarini tasnif va ta’rif qilgan. Asar Yusuf Xos Hojibning «Qutadg’u bilig», Nosir Xisravning «Saodatnoma», «Ro’shnoyinoma», Sadiyning «Guliston» va « Bo’ston», Jomiyning «Bahoriston» asarlari kabi o’ziga xos nasihatnomadir. Bu asarlar ham tarbiya ta’luqli.Tarbiya insonning insonligini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat hisoblanadi. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo’la olmaydi.

Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asarida ilgari surilgan odob-axloq g’oylari to’g’risida fikr borar ekan, kishilarning ezgu sifatlari -saxiylik, mehribonlik mehnatkashlik, kamtarlik, rostgo’ylik singari qator fazilatlari ulug’lanadi. Bu mamlakatdagi u yoki bu toifaga taaluqli kishilarga o’z munosabatini bildirganda, asosan ularni kontrast ikki tipga mansub deb baholaydi. Negadir, ularning barchasi bir xil darajadagi johillar yoki odillar turkumiga dahldor ekanligi, ya'ni ijobiy yoki salbiy xarakterli deb mutafakkirni tan olishi ayrim shubhalarni vujudga keltiradi. Lekin insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotida yomonlik bilan yaxshilik o’rtasida uzluksiz kurash borishi shaxsning psixologik xususiyatlari, sifatlari, fazilatlari tarkib topishida ham baholashning bu ikki mezoni faol ishtirok etadi.

Xuddi shu bois, yaxshilik bilan yomonlik o’rtasidagi ayovsiz kurashda ham adolat yoki yaxshilik g’alaba qiladi, o’z-o’zian yomonlik mag’lub bo’ladi. Bu ijtimoiy voqelik xalq ijodiyotida mazku o’rin egallaydi . Bu borada biz Navoiyning shaxsiy qarashlariga tanqidiy munosabat bildirishan yiroqmiz, biroq shaxslarning individual-psixologik xususiyatlari aynan bir-biriga identik emasligini ta'kidlab o’tmoqchimiz xolos.

Diyonatsiz sadrlar (mansabdorlar) to’g’risida Alisher Navoiyning «Mahbubul-qulub» asarida fikr bildirganida, asosan, ularning psixologik xususiyatlari tavsiflanadi va oxir oqibatda ruhiy qiyofasi yaratiladi, muallifning o’ziga xos qarashlari yaxlit munosabat majmuasini vujudga keltiradi.Biroq qaysu vaziyat va holatlar, voqelik va sharoitlar shaxsning

illatlatini yuzaga keltiradi, degan savolga muallif obrazlar talqini orqali javob beradi.

Navoiy mansabdor shaxslarning psixologik olamini tashkil qilganda turlicha tomonlari yuzasidan fikr yuritadi. Jumladan, «vijodsiz, harom-xarishdan tortinmaydigan, bediyonat sadrlarhech zarurati bo'lmagan bid'atdir». Muallif ularga munosabatini bildirishda davom etib: «Agar u nokas , ilmsiz bo'lsa, butun qilmishi-buzuqlik, fisqu fujurdir.Uning bazmidagi soz va kuy ohangalari ilm va taqvoga tutilgan azaning motam faryodidir», deb ta'kidaydi.

Mutaffakir ularning illatlari to'g'risida mulohaza yuritganida, xarakter va xususiyatiga baho berganida, quyidagi salbiy xulq-atvor, kuchsiz irodalikka egalik, or-nomusda tubanliklarini tavsiflashga intiladi:

1) olimlar tarafidan gulob(gul) sharbati solib keltirilgan shishalar bo'shagach, xizmatkorlari bu idishlarni may bilan to'ldiradilar.Natijada mayxo'rlik davom etib, tubanlikgacha boradi;

2)Ular uchun keltirilgan novvatni ushatib, sadrlar o'z ichkiliklariga gazak qiladilar.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asari umuminsoniy tarbiya sohasidagi yaxli bir asar hisoblanadi. Bu asar shaxsda ruhiy, axloqiy ma'naviy sifatlarni shakllantirishda, insonni komil inson bo'lib yetishida bu asarning ham hissasi katta.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ma'naviyatshunoslik: barcha bakalavr ta'lim yo'nalishlari uchun o'quv darsligi / G.K. Masharipova, T.J. Xo'janova. – Toshkent: Fan ziyosi nashriyoti, 2022. - 416 b.

2. Э. Умаров, М. Абдуллаев. Маънавият асослари. Ўқув қўлланма. Т.: «Шарқ;» НМАК, 2005 - 128 бет.

3. M. Hamdamova. Ma'naviyat asoslari (Barkamol avlodni ta rbiyalashda uzluksiz ta'limni insonparvarlashtirish texnologiyasi). T., "Fan va texnologiya", 2008,224 bet.

Korupsiya va milliy taraqqiyot. Muammo va yechim.

Shodmonova Lola Alfiraganus universiteti
1-bosqich talabasi, Ilmiy rahbar: Uralov Dilshodbek,
Alfiraganus universiteti ijtimoiy fanlar
fakulteti o'qituvchisi professor,

Annitatsiya: Ushbu maqolada korupsiyaning kelib chiqish tarixi, dinimizda bu ishning qoralanganligi va bugungi kundagi keltirib chiqarilayotgan muammolari va ularning oldini olish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: korupsiya, jinoyat, milliy taraqqiyot, «Baqara surasi», «Ko'rinmas qo'llar», «Yashirin iqtisodiyot».

Korupsiya og'ir turdagi jinoyatlardan biri hisoblanadi. Bu jinoyatning ildizlari bir necha ming tarixga ega.

Yozma manbalarda korupsiya haqida eramizdan avvalgi Shumer podsholigi davrida eslatib o'tiladi. Korupsiya hozirgi davrgacha yetib kelganligi shundan dalolat beradiki , boshqa illatlar kabi uni ham tak tugi bilan yo'qotib bo'lmaydi. Lekin shunga qaramay , poraxo'rlik usmoniylar xalifaligida ham mavjud bo'lgan . Avvaliga xalifa turli idoralar faoliyatini shaxsan o'zi nazorat qilardi , lekin vaqt o'tishi bilan bu ishni o'ziga yaqin odam , xalifaning turli ishlar bo'yicha shaxsiy yordamchisi bo'lgan vaziriga topshirib qo'ydi. Vaqt o'tishi bilan vazirlar keng tarmog'li davlat aparatini shakllantirdi. X asrning o'rtalariga kelib u yoki bu lavozimga tayinlash uchun amaldorlar tomonidan vazirlarga pora berish amalyoti shakllanib bo'lgandi. Bundan, masalan xalifa Muqtadirning vaziri bo'lgan Ubaydulloh Hoqon amaldirlarini turli lavozimlarga tayinlash va olib tashlashda faol foydalandi. Pulga qattiq muhtojlik sezayotgan davlat soliqlar to'plashni xususiy shaxslarga topshirgani bois bu turli su'istemolliklarni yuzaga keltirardi. Shu tariqa poraxo'rlik xalifalikni tanazzulga yuz tutushining sabablaridan biriga aylanfdi. Bu holat Usmoniylar saltanatida ham istisno emas edi. Xususan, dehqonlardan turli soliqlarni to'plashda harbiy xizmatchilar qing'irliklar sodir etardi. Bu su'istemol holatlari hattoki Usmoniylar saltanati shayxulislomlari chiqargan maxsus fatvolar ham bartaraf qila olmadi . Sipohiylar nimadir «uzatish» evaziga asta-sekinlik bilan harbiy yurishlarga bormay qo'ydi, o'zlariga taqdim etilgan yerlarda muqim qolib, amalda davlat mulkini shaxsiy mulk qilib olish. Davlat esa, o'z navbatida, vazirlar timsolida ko'ngilsiz reaksiyadan xavfsiragan holda, harbiylar bilan to'qnashuvga borishdan hadikdirardi. Usmoniylar saltanatida poraxo'rlik oqibati shu bo'ldiki , qo'shinlar harbiy tayorgarligini

yo’qotdi, natijada XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida qator mag‘lubiyatlarga uchrab, davlatning qudratiga putur yetkazdi. Xullas, qadim zamonlardanoq ushbu illatga qarshi qattiq jazolar belgilanganiga qaramasdan , bu hamisha ham ko’ngildagidek natija bermagan.

Korupsiya, birinchidan jamiyatda adolatsizlik, tengsizlik va aholining noroziligiga olib keladi, bu esa barcha sohadagi islohotlarning natijasiga salbiy ta'sir etmay qolmaydi , ikkinchidan fuqarolarimiz huquqiy ong hamda huquqiy madaniyatning yetarki darajada emasligi, ôz haq-huquqlarini, himoya qila olmasligi jamiyatda , adolat mezonining buzilishini kôpaytiradi , uchinchidan , siyosiy institutlar, jamiyat tashkilotlari , shaklan demokratik mezon , ğarb andozasiga ôxshasa-da , mazmun mohiyatiga ko‘ra zamon talabidan orqada qolmoqda, bu kamchilik esa oldinga siljiwimizga xalaqit beradi.

Korrupsiya va milliy taraqqiyot masalasi yurt taqdiri, mamlakat kelajagi uchun har qachongidan muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Sababi yurtimiz aholisi bir asrlik mustamlakachilik davrida yo‘qotilgan moddiy hamda ma’naviy boyliklar o‘rnini qayta tiklash, iqtisodiyotni rivojlantirish, milliy o‘zlikni asrash yo‘lida kechayu kunduz mehnat qiladigan davr keldi.

Yaponlar ham, xitoyliklar ham, singapurliklar ham xalq ruhiyatini saqlab qolish, diniy qadriyatlarni mustahkamlash, vatanparvarlik mafkurasini ongga singdirish orqali milliy taraqqiyotga erishdi. Biz ham shu nurli yo‘ldan yurishga munosib xalqmiz. Zero, ozodlik, erkinlik yaratgan boy imkoniyatdan to‘laqonli foydalanish O‘zbekistonda korrupsiya muammosi yechilishiga, qolaversa, uchta hokimiyatning o‘zaro tiyib turish tamoyiliga nechog‘li amal qilishiga chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

Muxtasar aytganda, korrupsiya- taraqqiyot kushandasi, xavfsizlikka tahdid tug‘diruvchi xavfli jinoyat. Bu illatga qarshi kurashish tegishli organlarninggina emas, barchaning ishi bo‘lishi zarur. Shundagina biz ushbu xavfni bartaraf etgan bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O’zMe Birinchi jild, Toshkent, 2000-yil

2.Bardhan P. Corruption and development, Journal of Economic Literature 1997.

3.Tanzi V. Corruption, Governmental Activities and Markets. IMF Working Paper 94|99

YOSHLARNING TIBBIY MADANIYATINI SHAKLANTIRISH MUAMMOLARI: TAHLIL VA YECHIMLAR

Tinichev Bobur Sanjar o‘g‘li
Alfraganus universiteti
Davolash ishi yo‘nalishi
2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Ijtimoiy fanlar kafedrasi
katta o’qituvchisi, PhD
Mamanov Jamoliddin Abduraximovich

Annotatsiya. Maqolada yoshlarning tibbiy madaniyatini shakllantirish yuzasidan ba’zi fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, tibbiy madaniyatni shakllantirish zaruriyati, muammolar va yechimlariga oid taklif tavsiyalar ifodalangan.

Kalit so‘zlar. Tibbiy madaniyat, tibbiy bilim, salomatlik, yoshlar, tibbiyot.

Аннотатsiя. В статье изложены некоторые мнения по вопросам формирования медицинской культуры молодежи. Также высказаны предложения и рекомендатsiи относительно необходимости формирования медицинской культуры, проблем и решений.

Ключевые слова. Медицинская культура, медицинские знания, здоровье, молодежь, медицина.

Abstract. The article presents some opinions on the issues of forming medical culture of youth. Also, suggestions and recommendations are made regarding the need to form medical culture, problems and solutions.

Keywords. Medical culture, medical knowledge, health, youth, medicine.

Hozirgi kunda yoshlarning tibbiy madaniyatini shakllanganligi juda zarur holatdir. Ya’ni, yoshlarning sog‘lomligi, sog‘lomlikka intilishi, sog‘lom bo‘lishi, kasal bo‘lmaslik uchun profilaktika choralarini ko‘rib yurishi, o‘z-o‘zini nazorat qilib turishi tibbiy madaniyatini shakllanganlik darajalari bilan bevosita bog‘liq. XXI asrda sog‘lom turmush tarzi g‘oyasi har qachongidan ham dolzarblashdi. “Oila sog‘lomligi – jamiyat sog‘lomligi” konsepsiyasi negizida faol chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarning tibbiy madaniyati jamiyatning sog‘lom bo‘lishida muhim omil

hisoblanadi. Tibbiy madaniyat haqida gapirganda, biz avvalo, tibbiy bilimni tushunamiz, ikkinchidan, salomatlikni muhofaza qilishga qaratilgan malakalar, uchinchidan, sog‘lom turmush tarzini yuritishga bo‘lgan munosabatlarini tushunamiz.

Tibbiy bilimni yuksaltirish, uning turli tomonlarini tahlil qila olish, shuningdek inson qadr-qimmati uchun kurashish, tibbiy bilimni olishda har bir kishining o‘zi, shifokorning ma`naviy-axloqiy tomonlarini ham inobatga olish dolzarbdir. Bugungi kunda davlatimiz oldidagi islohotlar ham buni isbotlaydi. Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Ma’naviy yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash, ta’lim-tarbiyani rivojlantirish, milliy yuksalish g‘oyasini ro‘yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish pirovard maqsadi inson manfaatlarini ta’minlash bo‘lgan islohotlarimizning eng muhim vazifalaridandir”.[1.304] Darhaqiqat barkamol avlodni tarbiyalashda tibbiy bilimlarini mustahkamlash, salomatlikni saqlash uchun harakat qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Sog‘lom bo‘lish, sog‘lom bo‘lishga intilish, ya’ni tibbiy madaniyatni shakllantirish, uning qadriyatli hodisa ekanligini anglash, inson o‘zi va yaqinlarining salomatligi uchun qayg‘urishi tibbiyot falsafasining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Zero, “Sihat-salomatlik har bir inson, butun aholimiz uchun hech narsa bilan o‘lchab, baholab bo‘lmaydigan buyuk ne’matdir. Faqat sog‘lom inson va sog‘lom xalq mislsiz ishlarga qodirligini hammamiz yaxshi anglaymiz”. [1.210]

Mamlakatimiz oldida, dunyoda sog‘liqni saqlash tizimida yuksak samaradorlikka erishgan, aholini o‘rtacha umr ko‘rish darajasi yuqori bo‘lgan eng ilg‘or mamlakatlar qatoridan joy olish strategik vazifalar belgilangan. Mamlakat sog‘liqni saqlash tizimi, aholiga ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlarni yanada maqbullashtirish va aholining uzoq umr ko‘rishini ta’minlashga yo‘naltirilgan “Aqlli tibbiyot” konsepsiyasi ishlab chiqilishi ham strategiя maqsadlardan biri sifatida belgilangandir.

Yoshlarda tibbiy madaniyatni shakllantirishda turli muammolar mavjud: birinchidan, tibbiy bilim yetishmasligi, ya’ni yoshlar o‘zlarining salomatligi haqidagi asosiy tibbiy ma’lumotga ega bo‘lmasligi mumkin. Bu tibbiy muammolarni anglash, profilaktika choralarini ko‘rish va to‘g‘ri tibbiy yordam olishda qiyinchiliklarga olib keladi. Ikkinchidan, soxta tibbiy ma’lumotlarning ko‘pligi, internet va ijtimoiy tarmoqlarda soxta tibbiy axborotning tarqalishi ham yordamdan ko‘ra ziyon keltirishi mumkin. Uchinchidan, tibbiy ta’limning yetarli emasligi, maktab va oliy o‘quv

yurtlarida sog‘liqni saqlashga oid darslar yetarli darajada emas. Bizning fikmizcha, tibbiy bilim maktabdan boshlab chuqurroq berib borilishi kerak, chunki bugungi XXI asrda rivojlangan mamlakatlarda “sog‘lom bo‘lish”, “salomatlik uchun kurashish” madaniyati yuqori darajaga chiqqanligi ham dolzarb ahamiyatga egadir.[2.45.]

Salomatlikka munosabatning qanday ekanligi ham bevosita tibbiy madaniyatni shakllanganligi yoki yetishmasligini bildiradi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin: tibbiy xizmatlarga ishonchsizlik, ya’ni tibbiy xizmatlarning sifati, muomila madaniyati, ba’zi hollarda korrupsiya yordamga murojaat qilish istagini susaytirishi mumkin. Yana bir salbiy tomoni shundaki, sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan beparvolik, tez ovqatlar, nosog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik yetishmasligi, giyohvandlik va alkogol iste’moli yoshlarda sog‘liqni saqlashga bo‘lgan beparvolikni kuchaytiradi. Navbatda, psixologik bosimlar ham muammolarni keltirib chiqaradi, o‘qish, ish, shaxsiy munosabatlar va ijtimoiy tarmoqlardagi bosimlar stress, depressiya va boshqa ruhiy kasalliklarni yuzaga keltirib, sog‘liqni buzishi mumkin.

Inson jamiyatda yashar ekan, jamiyat taraqqiyotida tibbiy madaniyatni rivojlantirishning muhim xususiyatlarini quyidagicha belgilash mumkin:

1) odamlarning o‘z salomatligini saqlash, muntazam tibbiy ko‘rikdan o‘tib turish va zamonaviy tibbiyot yutuqlaridan foydalanishdagi faolligi va mas’uliyati, tibbiy madaniyat rivojlanishiga, bu boradagi muammolarni anglash darajasiga bog‘liqdir;

2) Tibbiy madaniyatni rivojlantirishning tashkiliy jihatlarini ta‘minlash shunga doir qonuniy asoslarni yanada mustahkamlashni taqozo etadi;

3) aholining tibbiy ongini, madaniyatini shakllantirishda jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar, davlat va nodavlat tashkilotlar, mahallalar faoliyatini muvofiqlashtirish uning samaradorligini ta’minlaydi;

4) tibbiy madaniyatni odamlar hayot tarziga singdirishda davlat dasturlarini, qonunlarini har bir hudud xususiyatlariga differensial yondashib loyihalarini ishlab

chiqarish o‘zining samarasini beradi. [3.6.]

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, birinchidan, tibbiy ta’limni maktablarda va boshqa ta’lim tashkilotlarida ham takomillashtirish zarur deb bilamiz, sog‘lom turmush

tarzi, gigiyena, tibbiy muammolar, profilaktika choralari haqidagi ma'lumotlarni berishni jadallshtirish. Ikkinchidan, soxta tibbiy axborotga qarshi kurashish lozim deb bilamiz, ya'ni, ijtimoiy tarmoqlarda soxta tibbiy axborotga qarshi izchil harakatlarni olib borish, ishonchli manbalardan ma'lumot olishni o'rgatish lozim. Uchinchidan, tibbiy xizmatlarning sifatini oshirish, shifokorlarning muomila madaniyatini rivojlantirish, korrupsiyaga qarshi kurashish. To'rtinchidan, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish orqali natijalarga erishish, yoshlar o'rtasida sportni rivojlantirish, sog'lom ovqatlanishni targ'ib qilish, jismoniy faollikni oshirish, giyohvandlik va alkogol iste'moliga qarshi kurashish. Beshinchidan, psixologik yordamlarni kuchaytirish, yoshlarga ruhiy kasalliklar va stresni yengishda yordam berish, psixologik maslahatlar va davolash xizmatlarini yaxshilash kerak.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning tibbiy madaniyatini shakllantirishdagi muammolarni yechish, sog'lom jamiyat qurishning muhim shartidir. Buning uchun tibbiy bilim, tibbiy xizmatlarning sifati, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va psixologik yordam berishni yaxshilash choralarini ko'rish zarur, deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T. O'zbekiston. 2021. 304-b.
2. Rustamova va boshqalar. Tibbiyot tarixi. – Toshkent. O'zkitobsavdo, 2020. – 240.
3. Niyozova N., Sobirov A. Aholi tibbiy madaniyatini rivojlantirish va uning salomatlik ko'rsatkichlariga ta'siri. https://bestpublication.org/index.-php/sit/article/download/4634/4475/439.
4. http://ru.wikipedia.org/

UCHINCHI RENESSANS – TA'LIM VA TARAQQIYOT:O'TMISH, BUGUN VA KELAJAK

Akbaraliyeva Diyora Xusniddin qizi
O'zbekiston Milliy universiteti Iqtisodiyot fakulteti talabasi,

Annotatsiya: Ushbu maqolada renessans davrlari va ularga xos xususiyatlar, Movarounnahrda renessans davri, bugungi kunda ta'lim sohasini takomillashtirishda olib borilayotgan ishlar, respublikada yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlar o'rganilgan. Shuningdek, hozirgi kundagi vaziyat, ta'lim sohasidagi natijalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: renessans, ta'lim, individualizm, gumanizm, taraqqiyot, perspektiva, antik madaniyat, heliotsentrik model, innovatsiya, raqamli transformatsiya.

Abstract: In this article, the renaissance periods and their characteristics, the reneissance period in Movarounnahr, the work being done to improve the education sector,the opportunities created for young people in the republic and the current situation and results in education sector are analyzed.

Keywords:renaissance, education,individualism, humanism, development, perspective, ancient culture, heliotsentric model, innovation, digital transformation.

Renessans so'zi fransuzcha "renaissance" so'zidan olingan bo'lib, "uyg'onish" degan ma'noni bildiradi. Bu XIV-XVII asrlar oralig'ida Yevropada yuz bergan madaniy, ijtimoiy va ilmiy inqilob hisoblanadi. Ushbu davrda insoniyat tafakkuri, sa'nat, ilm-fan va adabiyot sohalarida yangilanishlar ro'y berdi. Renessans Italiyaning Firenze shahrida boshlangan bo'lib, keyinchalik boshqa Yevropa mamlakatlariga tarqaldi. Renessans davrida antik davrning merosiga, ya'ni Yunon va Rim madaniyatiga qiziqish ortdi. Ushbu davrda Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Raffaello kabi buyuk sa'natkorlar yaratgan asarlari bilan

mashhur bo‘lgan. Ilm-fanda esa Kopernik, Galiley,Vesalius kabi olimlar yangi g‘oyalar va kashfiyotlar bilan kelgan. Renessans insonning erkinligi, ma’naviyati va bilimga intilishning o‘sishi bilan xarakterlanadi.

Birinchi Renessans yoki “Erta Renessans” XIV asrning oxirlaridan boshlab XV asrning o‘rtalarigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Ushbu davrda Italiyaning Firenze, Venetsiya va Milan kabi shaharlarida madaniy va ilmiy yangilanishlar ro‘y berdi.

Erta Renessansga xos bo‘lgan xususiyatlar quyidagilardan iborat:

- Antik madaniyatga qiziqish. Yunon va Rim klassik san’ati va falsafasiga qayta nazar solish, bu davr san’atkorlari va olimlari uchun ilhom manbai bo‘lgan.
- Individualizm ya’ni insonning o‘zi va uning potentsiali haqida yangi tushunchalar paydo bo‘ldi. San’atkorlar o‘zlarini individual ijodkor sifatida tanitishni boshladi.
- San’at va adabiyotdagi yangiliklar. Bu davrda san’atda perspektiva, to‘g‘ri proporsiyalar va aniq chizish uslublari rivojlandi. Masalan, Masaccio va Botticelli kabi san’atkorlar o‘z asarlari bilan tanildi.
- Ilmiy kashfiyotlar. Ilm-fanda yangi g‘oyalar paydo bo‘ldi, masalan, Leonardo da Vinchi va Galiley kabi olimlar ilmiy metodlarni rivojlantirdilar.

Aytish mumkinki, Birinchi Renessans asosan, san’at va ilm-fan sohalaridagi inqilobiy o‘zgarishlar bilan ajralib turib, keyingi Renessansning (O‘rta Renessans va Keyingi Renessans) asosini qo‘yadi.

Ikkinchi Renessans, yoki O‘rta Renessansi XV asrning o‘rtalaridan XVI asrning oxirlarigacha davom etgan davrni qamrab oladi. Bu davrda madaniyat, san’at, ilm-fan va falsafa sohalarida yanada chuqur yangilanishlar ro‘y berdi. Ikkinchi renessansning asosiy xususiyatlari sifatida aytish mumkinki:

- San’atdagi yuqori daraja. Mikelanjelo, Raffaello va Titian kabi buyuk san’atkorlar o‘z asarlari bilan tanildi. Mikelanjeloning “Davud” va “Sixtin chapeli” freskalari, Raffaelloning “Atina maktabi” kabi asarlar san’atda yangi cho‘qqilarga erishdi.
- Falsafa va gumanizm. Inson va uning erkinligi, bilimga intilish kabi g‘oyalar rivojlandi. Falsafiy fikrlar kengayib, gumanizm ta’siri kuchaydi.

- Ilm-fandagi rivojlanish. Matematikada, astronomiyada va tabiiy fanlarda katta kashfiyotlar bo‘lib o‘tdi. Kopernikning heliotsentrik modeli va Galiley kashfiyotlari muhim ahamiyatga ega.
- Madaniy almashinuv. Renessans davrida Yevropa bo‘ylab madaniy almashinuv kuchaydi. Italiyadan boshqa mamlakatlarga, jumladan, Fransiya, Ispaniya va Angliyaga Renessans g‘oyalari tarqaldi.

Ikkinchi Renessans davrida madaniyat va ilm-fan sohalarida yangi g‘oyalar, uslublar va yondashuvlar shakllandi, bu esa keyingi davrlarning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Movarounnahrda uyg‘onish davri ikki bosqichda o‘rganiladi. Birinchi bosqich IX-XII asrlarni o‘z ichiga olsa, ikkinchi bosqich esa XV-XVI asrlarni qamrab oladi. Bu davrdagi ilm-fan taraqqiyoti va movarounnahrlik mutafakkirlarning unga qo‘shgan hissasi haqida tarixiy manbalarda juda ko‘p ma’lumot keltirilgan. Jadidchilik harakati ham shular jumlasidan.Yurtimizda renessans ta’lim va taraqqiyot sohalarida ko‘plab o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Bu davrda bilim va texnologiyalar rivojlanishi, innovatsiyalar va raqamli transformatsiya ta’lim tizimining asosiy jihatlaridan biriga aylangan. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ta’lim bozori shiddat bilan rivojlanmoqda. Uning moddiy texnik bazasini shakllantirish va mustahkamlash borasida ko‘plab ishlar olib borildi. O‘qitilayotgan va bilim olayotgan kadrlar uchun o‘quv-me’yoriy hujjatlarni xalqaro andazalarga moslashtirish borasida ham uzluksiz ishlar davom ettirilayapti.

O‘zbekiston ta’lim bozorini maktabgacha, umumiy o‘rta, professional, oliy ta’lim, ilmiy tadqiqotlar va malaka oshirish ta’lim bozorlari tashkil etadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi” - degan fikri uchinchi renessansning asosini tashkil etadi.[45] Bu g‘oya ta’lim bozorida mehnat qilayotgan o‘qituvchilarga katta ma’suliyat yuklamoqda. Pedagog endi diplomida qayd etilgan muayyan fan bo‘yicha o‘qituvchilik qilishi emas, balki shu sohaning mutaxassisi maqomi uchun tinimsiz o‘z ustida ishlashi zarur. So‘nggi yillardagi statistik ma’lumotlarga qaraganda, respublikada o‘qituvchilarning toifasi bo‘yicha taqsimotining tahlili: Oliy toifalilar 3 foiz, birinchi toifalilar 11 foiz, ikkinchi toifalilar 23 foiz, toifasizlar 48 foiz, o‘rta maxsus ma’lumotlilar esa 15 foizni tashkil etmoqda. Yildan-yilga yurtimizda oliy toifali mutaxassislar soni oshib bormoqda.

[45] Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.28.08.2023.



1-rasm.O‘zbekistonda byudjet xarajatlari tarkibida ta’lim,sog‘liqni saqlash, fan, madaniyat va sport xarajatlarining o‘zgarishi [46]

Mamlakatimizda tashkil etilayotgan nodavlat ta’lim muassasalari, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar ta’limga chuqur e’tibor berilayotganining yaqqol misolidir. Bu ta’lim muassasalariga chet eldagi yetuk mutaxassislar va o‘z yurtimizdagi yetuk kadrlar jalb qilinmoqda.

Statistik ko‘rsatkichlarga qaraydigan bo‘lsak, prezident maktabi bitiruvchilarining 80 foizga yaqini TOP-100 talikka kiradigan universitetlarga grand asosida talaba bo‘lishmoqda[47]. Albatta, bu ham quvonarli natija. Chunki bu yurtimizda xalqaro toifadagi mutaxassislar soni oshishiga sabab bo’ladi. Davlatimiz tomonidan tashkil etilgan “El-yurt umidi fondi” biz yoshlar uchun juda katta imkoniyatlarni beradi. Ya’ni TOP-1000 talikka kiradigan universitetlarga kirgan yoshlarning ta’lim xarajatlari davlat tomonidan qoplanadi va barcha zarur sharoitlar yaratib beriladi. Albatta, bu biz yoshlarning xalqaro toifadagi mutaxassis va Vatanimizning rivojlanishiga hissa qo‘shadigan inson bo‘lishimizga imkoniyatlar eshigini ochadi.

Bundan tashqari, xotin-qizlar magistatura bosqichida ta’lim olishlari uchun kontrakt to‘lovlari byudjet hisobidan qoplanadi. Har yili 50 nafar qizlar nufuzli xorijiy oliygohlarga bakalavr va magistratura bosqichda ta’lim olishi uchun davlat tomonidan barcha sharoitlar yaratib beriladi. Xotin-qizlarga beriladigan e’tibor mamlakatimizda gender tengligini ta’minlaydi.

[46] https://openbudget.uz/parameters.

[47] Prezident maktabi bitiruvchilari qo‘lga kiritgan yutuqlar. Piima.uz

O‘z o‘rnida, olib borilayotgan ushbu islohotlar mamlakatimiz yanada taraqqiy etadi.

Taraqqiyot bu – rivojlanishning oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga yo‘nalgan shakli, uning yuksalishi. Taraqqiyot strategiyasi uchinchi renessansning mustahkam huquqiy poydevori hisoblanadi. Uchinchi renessans davomida ta’lim va taraqqiyot bir-birini to‘ldiruvchi jarayonlar sifatida ko‘rilmoqda,bu esa biz kelajak avlodlar uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, o‘tmishda Renessans ilm-fan, sa’nat va insoniyatni o‘rganishga asoslangan bo’lsa, bugungi kunda raqamli texnologiyalar, su’niy intellekt va globalizatsiya ta’limda inqilobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Kelajakda, ta’lim indualizatsiya, inkluzivlik va doimiy o‘qish prinsiplari asosida rivojlanadi, innovatsion yondashuvlar va interaktiv texnologiyalar yordamida bilim olish jarayonini yanada kengaytiradi deb o‘ylayman. Uchinchi Renessans ta’limni yanada erkin, ochiq va global qilishda davom etadi, shuningdek, insonning to‘liq potensialini ochishga qaratilgan yangi imkoniyatlarni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uyg‘onish davri - Vikipediya (wikipedia.org)
2. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. 28.08.2023. https://president.uz/oz/lists/view/6622
3. Prezident maktabi bitiruvchilari qo‘lga kiritgan yutuqlar. https://piima.uz

ILM-FAN - TA’LIM VA TA’LIM TARAQQIYOTNING POYDEVORINI YUKSALTIRUVCHI KUCH SIFATIDA

Xusanxodjayeva Rayyona Baxodir qizi
Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti 2-kurs talabasi
malaknurxusanxojayevao6@gmail.com

Annotatsiya: Ilm-fan, ta’lim va tarbiya taraqqiyotning asosiy tayanchlari bo‘lib, mamlakat qudrati va millatining buyukligining harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu maqola taraqqiyot, farovonlik va jamiyat farovonligini shakllantirishda ushbu ustunlarning ahamiyatini o’rganadi. U ularning iqtisodiy o’sish, ijtimoiy rivojlanish,

innovatsiyalar, barqaror amaliyotlar, sog’liqni saqlash sohasidagi yutuqlari, madaniyatni saqlash, diplomatiya, umrbod ta’lim, shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy birdamlik va demokratik qadriyatlarga qo'shgan hissalarini ta’kidlaydi. Ilm-fan, ta’lim va tarbiyaga ustuvor ahamiyat berib, xalqlar mustahkam va farovon kelajak uchun zamin yaratishi mumkin.

Kalit so’zlar: fan, ta’lim, tarbiya, rivojlanish, iqtisodiy o’sish, ijtimoiy rivojlanish, innovatsiyalar, barqarorlik, sog'liqni saqlash sohasidagi yutuqlar, madaniyatni saqlash, diplomatiya, umrbod ta’lim, shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy birdamlik, demokratik qadriyatlar.

KIRISH:

Ilm-fan, ta’lim va tarbiya taraqqiyotning poydevori, mamlakat qudrati va xalqining buyukligini ta’minlovchi harakatlantiruvchi kuch sifatida keng e’tirof etilgan. Bu uchta ustun jamiyat taraqqiyoti, farovonligi va umumiy farovonligini shakllantirishda bir-biri bilan bog'liq va muhim rol o’ynaydi.

Tabiat dunyosini tushunishga tizimli yondashuvi bilan ilm-fan jamiyatlarni bilim bilan mustahkamlaydi va innovatsiyalarni faollashtiradi. U fizika, kimyo, biologiya va texnologiya kabi turli fanlarni o'z ichiga oladi va tibbiyot, muhandislik, qishloq xo'jaligi va boshqa muhim sohalardagi yutuqlar uchun zamin yaratadi. Ilmiy izlanishlar orqali jamiyatlar atrofdagi dunyo haqida tushunchaga ega bo’ladilar, yangi texnologiyalarni ishlab chiqadilar va murakkab muammolarga yechim topadilar [2].

Ta’lim inson salohiyatini ochish va jamiyat taraqqiyotini rag’batlantirishning kalitidir. U odamlarga o’z jamoalariga mazmunli hissa qo’shish uchun zarur bilim, ko'nikma va qadriyatlarni beradi. Kuchli ta’lim tizimi odamlarni tanqidiy fikrlash qobiliyati, muammolarni hal qilish qobiliyatlari va turli mavzularni keng tushunish bilan jihozlaydi. Ta’lim nafaqat akademik bilimlarni beradi, balki shaxsiy o’sishni, ijtimoiy onglilikni va axloqiy qadriyatlarni tarbiyalaydi, odamlarni zamonaviy dunyo muammolarini hal qilishga tayyorlaydi [3]. Bolalik va o'smirlik davrida olingan qadriyatlar, tamoyillar va tajribalarni o’z ichiga olgan tarbiya shaxsning xarakterini shakllantirishda va ularning jamiyatga qo'shgan hissasida hal qiluvchi rol o'ynaydi. U oilalar, jamoalar va madaniy me’yorlarning ta'sirini o'z ichiga oladi. Tarbiyaviy tarbiya hamdardlik, hurmat va mas’uliyat kabi qadriyatlarni singdirib, shaxslarning faol fuqaro va jamiyatning konstruktiv a’zosi bo'lishiga zamin yaratadi. Bu uch ustun birgalikda rivojlanishga turtki beradigan va davlatlarni shakllantiradigan kuchli sinergiyani tashkil qiladi. Ilm-fanga sarmoya kiritish, ta’lim tizimini

rivojlantirish va ijobiy tarbiyani qo‘llab-quvvatlash orqali mamlakatlar o‘z imkoniyatlarini to‘liq ochishlari mumkin. Fan, ta'lim va tarbiyaning ta'siri iqtisodiy o'sish va moddiy taraqqiyotdan tashqariga chiqadi; u shaxslarning har tomonlama rivojlanishini, ijtimoiy totuvlikni mustahkamlashni, kuchli va bardoshli xalqni yetishtirishni qamrab oladi.

Ushbu maqolaning keyingi bo‘limlarida biz fan, ta’lim va tarbiyaning taraqqiyotning turli jabhalariga qo‘shgan o‘ziga xos hissalarini chuqurroq ko‘rib chiqamiz. Biz ularning iqtisodiy o'sish, ijtimoiy rivojlanish, innovatsiyalar, barqarorlik, sog'liqni saqlash sohasidagi yutuqlari, madaniyatni saqlash, diplomatiya, umrbod ta'lim, shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy birlik va demokratik qadriyatlardagi rollarini o'rganamiz. Bu yo‘nalishlarni o‘rganar ekanmiz, qudratli va buyuk davlat taraqqiyotining poydevori va harakatlantiruvchi kuchlari bo‘lgan ilm-fan, ta’lim va tarbiyaning ahamiyati haqida har tomonlama tushunchaga ega bo‘lishimiz mumkin [4].

ADABIYOTLARNI TAHLILI VA USULLARI:

Olimlar milliy taraqqiyotda ilm-fan, ta'lim va xarakterni shakllantirishning muhim rolini ta'kidladilar (Dyui, 1916; Gandi, 1909; Tagor, 1961). Ushbu sohalardagi kuchli poydevor aholini innovatsion muammolarni hal qilish uchun bilim, qadriyatlar va ko'nikmalar bilan ta'minlaydi (Oakeshott, 1962; Scheffler, 1965). Ilm-fan, ta’lim va tarbiyaning taraqqiyot poydevori sifatidagi ahamiyatini hamda ularning mamlakatni qudratli va davlatni buyuk qilishdagi rolini tushunish uchun ushbu maqolada adabiyot tahlili o‘tkaziladi va ko‘p tarmoqli yondashuv qo‘llaniladi. Tahlil keng doiradagi ilmiy ishlarni, jumladan, ta’lim, ijtimoiy fanlar, iqtisod va rivojlanish tadqiqotlari kabi turli sohalardagi tadqiqot maqolalari, kitoblar, hisobotlar va dasturiy hujjatlarni o‘z ichiga oladi [5].

Adabiyot tahlili fan, ta’lim va tarbiyaning taraqqiyotga qo‘shgan hissasi haqidagi mavjud bilimlarni o‘rganadi. U ushbu ustunlar o'rtasidagi o’zaro bog'liqlikni va ularning iqtisodiy o'sish, ijtimoiy rivojlanish, innovatsiyalar, barqarorlik, sog'liqni saqlash sohasidagi yutuqlar, madaniyatni saqlash, diplomatiya, umrbod ta’lim, shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy birlik va demokratik qadriyatlarga ta'sirini o'rganadi. Tahlil nazariy asoslarni ham, empirik dalillarni ham ko'rib chiqadi, turli mamlakatlar va mintaqalardagi amaliy tadqiqotlar va misollarga asoslanadi.Tegishli

adabiyotlarni to'plash uchun PubMed, JSTOR va Google Scholar kabi akademik ma'lumotlar bazalarida keng qamrovli qidiruv o'tkazildi. Tegishli maqola va nashrlarni aniqlashda fan, ta’lim, tarbiya, taraqqiyot, iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy rivojlanish, innovatsiyalar, barqarorlik, sog‘liqni saqlash sohasidagi yutuqlar, madaniyatni saqlash, diplomatiya, umrbod ta’lim, shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy birdamlik va demokratik qadriyatlarga oid kalit so‘zlardan foydalanildi. Qidiruv so'nggi o'n yil ichida nashr etilgan ko'rib chiqilgan manbalar bilan cheklangan edi, bu so'nggi tadqiqotlar va munozaralarning kiritilishini ta'minlash uchun [6].

Tanlangan adabiyotlar tanqidiy ko'rib chiqildi va maqolaning markaziy argumenti bilan bog'liq asosiy mavzular, tushunchalar va topilmalarni aniqlash uchun tahlil qilindi. Tahlil fan, ta’lim va tarbiyaning taraqqiyotdagi o‘rnini har tomonlama tushunish uchun turli nuqtai nazarlar, nazariy asoslar va empirik tadqiqotlarni ko‘rib chiqadi . Ushbu ko'p tarmoqli yondashuv orqali maqola mavzuni muvozanatli va har tomonlama ko'rib chiqishga qaratilgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, adabiyot tahlili ushbu maqolaning asosini tashkil etsa-da, taqdim etilgan munozara va tushunchalar mavjud bilimlardan sintez qilingan va asl ma'lumotlarni to'plashni o'z ichiga olmaydi. Maqsad – ilm-fan, ta’lim va tarbiyaning taraqqiyot va davlat qurilishining asosiy omili sifatidagi ahamiyatini ko‘rsatish uchun mavjud tadqiqotlar va istiqbollarni har tomonlama ko‘rib chiqish va sintez qilishdir.

Maqolaning keyingi bo‘limlarida fan, ta’lim va tarbiyaning taraqqiyotning turli o‘lchovlariga qo‘shgan o‘ziga xos hissasini o‘rganib, adabiyotlar tahlili natijalari taqdim etiladi. Ushbu tahlil ushbu ustunlarning muhim rolini yoritishga qaratilgan va ularning mamlakatni qudratli va millatni buyuk qilishdagi ahamiyatini tushunish uchun asos yaratishdir [6].

MUHOKAMA:

Ilm-fan, ta’lim va tarbiya taraqqiyotning poydevori, qudratli va buyuk davlatning harakatlantiruvchi kuchi ekanligi haqidagi ta’kid katta ahamiyatga ega. Muhokama bo'limi ushbu bayonotning ta'siri va oqibatlarini chuqurroq o'rganish, ushbu ustunlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni va ularning rivojlanishning turli jihatlariga qo'shgan hissasini o'rganishga qaratilgan.

1. Iqtisodiy o’sish: fan va texnologik yutuqlar innovatsiyalar, mahsuldorlik va raqobatbardoshlikni rag’batlantirish orqali iqtisodiy

o‘sishni ta’minlaydi. Ta’lim odamlarni malakali ishchi kuchi uchun zarur bo'lgan ko'nikma va bilimlar bilan jihozlashda hal qiluvchi rol o’ynaydi. Qolaversa, mehnatsevarlik, tartib-intizom va tadbirkorlikni qadrlaydigan tarbiyaviy tarbiya iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo‘shib, kuchli mehnat odob-axloqini shakllantirishi mumkin.

2. Ijtimoiy rivojlanish: ta'lim va tarbiya ijtimoiy taraqqiyotni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ta’lim ijtimoiy harakatchanlikni rag’batlantiradi, tengsizliklarni kamaytiradi va shaxslarga jamiyatda ishtirok etish uchun vositalarni beradi. Hamdardlik, hurmat va ijtimoiy mas'uliyat kabi qadriyatlarni tarbiyalaydigan qo'llab-quvvatlovchi tarbiya hamjihatlik va inklyuziv jamoalarga hissa qo'shishi mumkin.

3. Sog'liqni saqlash sohasidagi yutuqlar: fan va ta'lim sog'liqni saqlash sohasidagi yutuqlar uchun juda muhimdir. Ilmiy tadqiqotlar yangi davolash usullarini, tibbiy texnologiyalarni ishlab chiqishga va kasalliklarni tushunishga olib keladi. Ta'lim sog'liqni saqlash xodimlarini sifatli yordam ko’rsatish uchun bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlaydi. Salomatlik haqida xabardorlik va sog’lom odatlarni targ'ib qiluvchi tarbiyaviy tarbiya aholining umumiy salomatligiga hissa qo’shishi mumkin [7].

Fan, ta’lim va tarbiyaning ko‘p qirrali hissasini e’tirof etgan holda jamiyatlar taraqqiyotni rag‘batlantirish, o‘z fuqarolarining imkoniyatlarini kengaytirish, qudratli va buyuk davlat qurish uchun ushbu sohalarga sarmoya kiritishga ustuvor ahamiyat berishi mumkin. Shu bilan birga, sifatli ta’lim va imkoniyatlardan adolatli foydalanishni ta’minlash, ilm-fan taraqqiyoti yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish, kelib chiqishidan qat’i nazar, barcha insonlar uchun inklyuziv va tarbiyaviy tarbiyani rag‘batlantirish muhim ahamiyatga ega. Xulosa qilib aytganda, ilm-fan, ta’lim va tarbiya taraqqiyotning poydevorini tashkil etib, mamlakat qudrati va xalqining buyukligiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu ustunlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir iqtisodiy o'sish, ijtimoiy rivojlanish, innovatsiyalar, barqarorlik, sog'liqni saqlash, madaniyatni saqlash, diplomatiya, shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy hamjihatlik va demokratik qadriyatlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Jamiyatlar ilm-fan, ta’lim va tarbiya imkoniyatlarini tan olish va undan foydalanish orqali yanada yorug‘ va farovon kelajakni shakllantirishi mumkin.

NATIJALAR:

Ushbu tadqiqot natijalari fan, ta’lim va tarbiya haqiqatan ham qudratli va buyuk davlat taraqqiyotining poydevori va harakatlantiruvchi kuchi ekanligi haqidagi fikrni tasdiqlaydi. Adabiyotlarni tahlil qilish ushbu

ustunlarning rivojlanishning turli jabhalariga qo'shgan muhim hissasini ta’kidlaydigan bir nechta asosiy topilmalarni aniqladi.

1. Iqtisodiy o’sish: Ilm-fanga asoslangan innovatsiyalar va yaxshi ma'lumotli ishchi kuchi doimiy ravishda iqtisodiy o'sishning asosiy omillari ekanligi aniqlandi. Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga sarmoya kiritgan, ta’limga katta e’tibor qaratgan mamlakatlar samaradorlik, texnologik taraqqiyot va jahon bozorida raqobatbardoshlikning yuqori darajalariga erishdi. Bu ish o'rinlarining ko'payishiga, turmush darajasining yaxshilanishiga va umumiy iqtisodiy farovonlikka olib keldi.

2. Ijtimoiy rivojlanish: ta’lim ijtimoiy taraqqiyotni rag’batlantirishning hal qiluvchi omili sifatida paydo bo'ldi. Sifatli ta'limga kirish ijtimoiy tengsizliklarni kamaytirish, marginallashgan jamoalar imkoniyatlarini kengaytirish va ijtimoiy harakatchanlikni rivojlantirishga yordam beradi. Qolaversa, hamdardlik, hurmat va ijtimoiy mas’uliyat kabi qadriyatlar ustuvor bo‘lgan tarbiya hamjihatlik va inklyuziv jamiyatlar rivojiga, ijtimoiy totuvlik va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qildi.

3. Innovatsiyalar va barqarorlik: fan, ta’lim va tarbiyaning integratsiyasi innovatsiyalar va barqarorlikni ta’minlab berishi aniqlandi. Ilmiy tadqiqot va ta'lim atrof-muhit barqarorligi, qayta tiklanadigan energiya va resurslarni boshqarish kabi murakkab muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va vositalarni taqdim etdi. Bundan tashqari, barqaror qadriyatlar va ekologik ongni singdiruvchi tarbiya jamiyatlarning uzoq muddatli farovonligi uchun mas'uliyatli harakatlar va amaliyotlarni ilgari surdi.

XULOSA:

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada ilm-fan, ta'lim va tarbiya qudratli va buyuk davlat taraqqiyotining poydevori va harakatlantiruvchi kuchi ekanligi haqidagi ta'kidni o'rganib chiqdi. Adabiyotlarni tahlil qilish natijasida ma’lum bo‘ldiki, bu ustunlar taraqqiyot va davlat qurilishining turli yo‘nalishlarida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tahlil natijalari fan, ta’lim va tarbiyaning iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy rivojlanish, innovatsiyalar, barqarorlik, sog‘liqni saqlash sohasidagi yutuqlari, madaniyatni asrab-avaylash, diplomatiya, shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy hamjihatlik va demokratik qadriyatlarga qo‘shayotgan salmoqli hissasini ta’kidladi. Ilm-fanga asoslangan innovatsiyalar, yaxshi ma'lumotli ishchi kuchi bilan birgalikda iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikni oshirish uchun doimiy ravishda aniqlandi. Ta'lim shaxslarga imkoniyatlar beradi, ijtimoiy tengsizliklarni

kamaytiradi va ijtimoiy harakatchanlikni rag'batlantiradi. Hamdardlik, hurmat va ijtimoiy mas'uliyat kabi qadriyatlarni singdiruvchi tarbiyaviy tarbiya birlashgan va qamrab oluvchi jamiyatlarga yordam beradi.

Bundan tashqari, ilm-fan, ta'lim va tarbiyaning integratsiyasi innovatsiyalar va barqarorlikni ta'minlaydi. Ilmiy tadqiqot va ta'lim murakkab muammolarni hal qilish va mas'uliyatli harakatlarni rag'batlantirish uchun zarur bilim, ko'nikma va vositalarni beradi. Shuningdek, ular sog'liqni saqlash tizimlarini rivojlantiradi, madaniyatni saqlashni qo'llab-quvvatlaydi, diplomatiya va global hamkorlikni osonlashtiradi, umrbod ta'lim va shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi, ijtimoiy birdamlik va demokratik qadriyatlarni qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu topilmalarning oqibatlari juda keng. Ilm-fan, ta’lim va tarbiyaga sarmoya kiritishga ustuvor ahamiyat beradigan mamlakatlar iqtisodiy farovonlik, ijtimoiy farovonlik, madaniy boylik va global ta’sirni boshdan kechirishi mumkin. Shu bilan birga, sifatli ta’lim va imkoniyatlardan teng foydalanishni ta’minlash, ilm-fan taraqqiyoti yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish, barcha shaxslar uchun inklyuziv va tarbiyaviy tarbiyani rag‘batlantirish muhim ahamiyatga ega.

Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu maqolada mavjud adabiyotlar asosida mavzu bo‘yicha har tomonlama ma’lumot berilgan bo‘lsa-da, ilm-fan, ta’lim va tarbiyaning rivojlanishga o‘ziga xos mexanizmlari va ta’sirini chuqurroq o‘rganish uchun keyingi tadqiqotlar va empirik tadqiqotlar zarur. Bundan tashqari, doimiy takomillashtirish va rivojlanayotgan jamiyat ehtiyojlariga moslashishni ta'minlash uchun siyosat va amaliyotlarni doimiy baholash va moslashtirish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ilm-fan, ta’lim va tarbiya haqiqatan ham taraqqiyotning poydevori, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuchdir. Jamiyatlar ularning ahamiyatini anglab, taraqqiyotga sarmoya kiritib, o‘zgaruvchan salohiyatini o‘zlashtirib, taraqqiyot, farovonlik va barcha uchun farovonlik bilan belgilab qo‘yilgan yorqin kelajakka yo‘l ochib berishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Hanushek, E. A., & Kimko, D. D. (2000). Schooling, labor-force quality, and the growth of nations. American Economic Review, 90(5), 1184-1208.

2. UNESCO. (2015). Rethinking Education: Towards a Global Common Good? UNESCO Education Research and Foresight, Paris.

3. World Bank. (2018). The Changing Wealth of Nations 2018: Building a Sustainable Future. World Bank Publications.

4. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2019). Education at a Glance 2019: OECD Indicators. OECD Publishing, Paris.

5. Horta, H., & Yonezawa, A. (2019). Science, technology, and innovation policies in a changing world: Successes, challenges, and lessons learned. World Bank Publications.

6. United Nations Development Programme (UNDP). (2020). Human Development Report 2020: The Next Frontier - Human Development and the Anthropocene. UNDP, New York.

7. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization (UNESCO). (2020). Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. UNESCO, Paris.

8. World Health Organization (WHO). (2019). World Health Statistics 2019: Monitoring Health for the SDGs. WHO, Geneva.

YOSHLARDA MILLATLAR VA DINLARARO MUNOSOBATLARNI MUSTAHKAMLASHDA BAG'RIKENGLIK TUSHUNCHASINING O'RNI

MAMIROV AZIZJON NIYAZMUXAMEDOVICH
Falsafa doktori (Phd), Katta o'qituvchi
ALFRAGANUS university,
Aziz_m@list.ru
NASIBA KAMALOVA BAXTIYOROVNA
Nasibakamalova01@gmail.com
Alfraganus universiteti
Tibbiyot fakulteti
Stomatologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya.

Ushbu maqolada O'zbekistonda tenglik va bag'rikenglik tushunchalarining ahamiyati va ularning bugungi kun sharoitidagi ahamiyati yoritib berilgan. Respublikamizda turli dinlar va millatlarning urf-odatlari, qadriyatlari, bu borada millatlararo hamjihatlikni ta'minlash, ularni yosh avlod ongiga singdirish omillari ochib berilgan.

Аннотатsiя.

В данной статье подчеркивается значение концепции равенства и толерантности в воспитании молодежи и их значение в Узбекистане. В Республике сегодня освещаются традиции и ценности разных религий и народностей, факторы обеспечения межнатsионального согласия и внедрения в сознании молодого поколения.

Abstract.

This article emphasizes the importance of the concept of of zeal and tolerance in the education of youth and their significance in coditions of Uzbekistan. In Uzbekistan today, the ttraditions and values of different religions and nationalities, factors for ensuring interethnic harmony and teaching them using the example of the generation are highlighted.

Kalit so'zlar: Umuminsoniy, global, diniy, ma'naviy, yoshlar, millatparvarlik, o'zlikni anglash, mustaqillik, milliy o'zlik, ong, tafakkur, milliy manfaat.

Ключевые слова: Всеобщий, религиозный, молодежный, глобальный, духовный, натsионализм, самосознание, независемость, натsиональная идентичность, сознание, мышление, натsиональный интерес.

Keywords: Universal, religious, youth, global, spiritual, nationalism, self-awereness, independence, national identity, consciousness, thinking, national interest.

O‘zbekistonda bugungi kunda turli dinlar va millatlarning urf-odatlari, qadriyatlari, bayram va marosimlarini qadrlash, bu borada millatlararo hamjihatlikni ta’minlash, ularni yosh avlodga namuna qilib o‘rgatish ishlariga alohida etibor qaratilmoqda.

Konstitusiyada din va diniy erkinlik haqida ham aytib o‘tilgan: «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e’tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi» [1,15-b]. Agar biror kimsa o‘zi mansub bo‘lgan din yoki konfessiyani boshqa kimsaga nisbatan majburiy targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borsa, bu harakat qonun darajasida chora ko‘rilishiga olib keladi.

O‘zbekistonda mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq milliylikni rivojlantirish, yurtimizda o‘z faoliyatini yuritayotgan barcha millat vakillari manfaatini himoya qilish, ularni umuminsoniy manfaatlar bilan uyg‘unlashtirish harakatlari amalga oshirilgan. Hozirgi yosh avlodga munosib meros qoldirish ham aynan mana shu jihatlarni qay darajada rivojlanishiga bog‘liq.

O‘zbekistonda qabul qilingan Milliy xavfsizlik konsepsiyasi va barqaror taraqqiyot strategiyasi konstitusiya, qonun ustuvorligi va boshqa xalqaro deklaratsiyalar, konvensiya va shartnomalar, dunyo davlatlari qonunchilik tajribalariga, umuminsoniy demokratik-gumanistik tamoyillarga, manfaatlarga mosligi jahon hamjamiyati tomonidan tan olinmoqda. Masalan, BMTning mamlakatimizdagi doimiy muvofiqlashtiruvchi vakili Stefan Prisner: «BMTning O‘zbekistondagi tuzilmalari mamlakatingizning yangi taraqqiyot dasturini to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi. Harakatlar strategiyasida belgilangan chora va tadbirlar O‘zbekistonning bugungi rivojlanish bosqichida juda dolzarb sanaladi. Unda ma’muriy, sud-huquq, iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy sohani rivojlantirish, shuningdek, yaqin qo‘shnichilik, do‘stlik va millatlararo bag‘rikenglik ruhida tashqi siyosat olib borish ko‘zda tutilgan.

Unda belgilangan ko‘plab vazifalar BMTning 2016-2020 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyotga ko‘maklashuvchi doiraviy dasturiga muvofiq», deb alohida ta’kidlagan. Unga hamohang ravishda YUNESKOning

O‘zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Krista Pakkat, BMT Aholishunoslik jamg‘armasining yurtimizdagi vakolatxonasi vakili Miyeko Yabuta, BMT Bolalar jamg‘armasi (YUNISEF)ning mamlakatimizda vakolatxonasi rahbari Sasha Graumannlar mamlakatimizda turli manfaatlarni uyg‘unlashtirishga doir islohotlar natijalariga yuqori baho berishdi[2].

O‘zbekistonda yoshlar ongiga millatparvarlik konsepsiyalarini singdirishda eng avvalo, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millat vakillarining moddiy va ma’naviy mexanizmlarini vujudga keltirish lozim. Bunday mexanizmni yaratish uchun iqtisodiy islohotlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish lozim. Barqaror iqtisodiy islohotlarga ega bo‘lmasdan turib, turli millat va elatlar ehtiyojlarini qondirish va uni yurtimiz taraqqiyotiga xizmat qilishga yo‘naltirish uchun foydalanib bo‘lmaydi.

Alohida ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston milliy xavfsizligi doktrinasining eng asosiy vazifasi mamlakatimiz hududida istiqomat qilayotgan turli millat vakillarining milliy manfaatlarini himoya qilish hisoblanadi. Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasida milliy manfaatlarni himoya qilish masalasida shunday deyiladi: «O‘zbekiston Respublikasi barcha mamlakatlar bilan o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish, o‘z xalqining turmushini yaxshilash, xalqaro huquqning umume’tirof etgan normalariga, demokratiya va ijtimoiy adolat prinsiplariga asoslangan ijtimoiy tizimni mustahkamlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi, deb hisoblaydi.

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarda tinchliksevarlik yo‘lidan borib, ayni vaqtda o‘z fuqarolarining hayoti va qadr-qimmatini himoya qilish vazifasini o‘z zimmasiga oladi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining ustaviga binoan o‘zini-o‘zi mudofaa qilishdek ajralmas huquqni amalga oshiradi, davlatning harbiy qudrati va mudofaa qobiliyati oqilona zarurat darajasida bo‘lishini ta’minlaydi»[3].

Mustaqillik yillarida davlatimiz tomonidan qabul qilingan qonunlar milliy manfaatlarni, xususan, respublikamizda yashab kelayotgan turli millat vakillarining manfaat va huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Ularning milliy manfaatlari esa konstitusiyamiz, qonunlar va ma’naviy-axloqiy tizim manfaatlari tamoyillariga asoslangan.

Adabiyotlar tahliliga ko‘ra, hozirgi kunda mamlakatimizda 136 dan ortiq millat vakillari o‘z faoliyatini olib bormoqda. Ulardan 75,5 foizi o‘zbeklar, 7 foizi ruslar, 4,2 foizi tojiklar, 4,0 foizi qozoqlar, 1,7 foizi qoraqalpoklardan iborat[4, 258-b].

S.Mamashokirov yozishicha: «Jahonda kechayotgan ijtimoiy, ma’naviy-madaniy, g‘oyaviy-mafkuraviy munosabatlarning integratsiyalashuv va universallashuv jarayonlari global tolerantlik qadriyatini shakllantirib, uni umuminsoniy muammolarning muqobili bo‘lmagan omilga aylantirmoqda»[5, 3-b]. Bu esa, o‘z navbatida, milliy va umuminsoniy manfaatlarni global miqyosda rejalashtirish, takomillashtirish funksiyalarini yaratish hozirgi kunda asosiy masalaga aylanib bormoqda.

Bu muammo yechimi quyidagi vazifalar qay darajada bajarilishini taqozo qiladi. Birinchisi - har qanday global muammo fan-texnikaning shiddatli rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan ma’naviy inqirozni bartaraf qilishga bog‘liq;

ikkinchisi – ularni bartaraf etishda umuminsoniy, umummilliy manfaatlar va qarashlarni uyg‘unlashtirish, ularga tegishli bo‘lgan muammolarning ratsional yechimini o‘ylab topish lozim.

Mazkur muammolar hal qilinmasa, insoniyat sivilizatsiyasi halokatga mahkumligi barchaga ayon bo‘lib qoldi. Hozirgi paytda dunyo hamjamiyati mazkur muammoni insoniyat ma’naviyatini boyitish, hamjihatlik va birodarlik tamoyillarini ilgari surish va rivojlantirish orqali hal qilish mumkinligini tushunib yetmoqda. Chunki barchaning manfaatini birlashtirib nazariya darajasiga olib chiqish va uni hal qilish bugungi kunda ustuvor vazifaga aylanib bormoqda.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan davrimizda yoshlarni turli diniy, ma’naviy va kiber tahdidlardan himoya qilish, o‘zligimizni saqlab qolish va milliyligimizni avloddan-avlodga vorisiylik tamoyili asosida yetkazib berish O‘zbekiston xalqi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Har bir millat o‘zligini anglashi jarayonida o‘zligini himoya qila oladigan, qalqon bo‘ladigan barcha omil va vositalarda namoyon bo‘lishi lozim. O‘z-o‘zini anglash jarayoni har bir millatning o‘z «men»ligini anglashini tashkil etishini hisobga olsak, bular:

Har bir jamiyat o‘z atrofida sodir bo‘layotgan barcha jarayon va munosabatlardan mustaqil subyekt sifatida his qilishi, bu jarayonni taraqqiyotning asosiy sharti sifatida anglab yetishi;

Yillar davomida shakllangan milliy tili, qadriyatlari, milliy an’ana va urf odatlarini saqlab qolish va rivojlantirib kelajak avlodga yetkazishi;

Tarixiy xotirani unutmaslik, or-nomus, iftixor, millatning qadr-qimmati kabi tuyg‘ular har bir millat vakili harakatlarida namoyon qilish;

O‘ziga xos bo‘lgan milliy manfaatlarni boshqa manfaatlardan ustuvorligini yosh avlodga tushuntirish;

Vatanga sadoqat, uni asrash, vatanparvarlik tamoyillarini yoshlar ongiga singdirish;

«Millatparvarlik» tushunchasini yoshlar ongida shakllantirish va uni mazmun-mohiyatini targ‘ib qilish;

O‘zimizga xos bo‘lgan milliy taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqish va uni amalda targ‘ib qilish;

O‘z milliy taraqqiyotimizni shakllantirish jarayonida boshqa millat vakillari manfaatlarini ham hisobga olish va e’tirof etish.

Yuqoridagilardan shuni ko‘rish mumkinki, har bir millat o‘zligini anglashi va uni shakllantirishi uzoq tarixiy bosqich bilan bog‘liq hodisa hisoblanadi. Har bir millat milliy o‘zligini anglamas ekan, millat maqomiga erisha olmaydi. O‘zligini anglash uchun esa milliy tarixi, kelib chiqishi, madaniyati va urf-odatlarining mazmun-mohiyatini tushunib yetish muhim hisoblanadi. Qachonki biror-bir millat o‘zini mustaqil ong deb tushunib yetmas ekan, millat o‘zini-o‘zi anglashi orqada qolib boraveradi. Har bir millatning mustaqilligi o‘z mustaqilligini o‘zgalar bilan taqqoslashda, milliy taraqqiyot jarayoniga ta’sir qiladigan turli salbiy ta’sirlardan xoli bo‘lishida, ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy va ma’rifiy sohalarda birovlarga qaram bo‘lmaganligida namoyon bo‘ladi. Eng avvalo, har bir millatning mustaqilligi inson huquqlarini o‘sha davlatda to‘liq amal qilinishi, har qanday munosabat turlarida har bir millat vakilining o‘zaro teng ekanligini anglab yetishishida o‘z aksini topadi. Agarda har bir millat o‘zligini anglash jarayonida o‘zini mustaqil subyekt sifatida anglashga intilishi mamlakatni ichdan yemirilishiga olib kelishi mumkinmi? degan savol tug‘ilishi mumkin. Mana shunday jarayonda agar davlat tomonidan muvozanatni ushlovchi asos topilmas ekan, hech qanday bag‘rikenglik haqida so‘z bo‘lishi mumkin emas. Agar millatning o‘zini anglashi mamlakat ichida salbiy oqibatlarga olib keladigan bo‘lsa, bu jarayonga salbiy natija sifatida qarash kerak bo‘ladi. Aslini olganda, har bir millat rivojlanishi jarayonida o‘zini mustaqil subyekt sifatida his etishi millatlarning bir-biridan uzoqlashishiga emas, balki o‘zaro tenglik asosida bir-birlariga yaqinlashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘zligidan begonalashuv millatni yakkalantirib, rivojlanishini ham qiyinlashtirib qo‘yadi. Bu borada O‘.Abilovning fikrlari diqqatga

sazovordir: «Har qanday millatning kelajagi ko‘p jihatdan millat qanday rivojlanish yo‘lidan borishiga, milliy o‘zlikni anglashiga bog‘liq. Agar uning amaliy va qonuniy taraqqiyoti milliy mahdudlik tusini olsa, optimistik yo‘nalish haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas»[6, 51-b].

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib aytish mumkinki, birinchidan, har bir millat o‘zini barcha jarayon va munosabatlardan xoli subyekt sifatida anglashi, shu millatning rivojlanishi va milliy taraqqiyotga erishishida asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi. Ikkinchidan, biror-bir millat o‘z mustaqilligini to‘laqonli anglashi o‘zini boshqalardan yakkalab qo‘yishi lozimligini anglatmaydi, balki o‘zining to‘laqonli bag‘rikenglik asosida boshqa millatlardan kam bo‘lmagan holda rivojlanishi va takomillashib borishini anglatadi.

«Milliy o‘zlik» tushunchasi har bir millatda bo‘lgani kabi urf-odat va an’analarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Xususan, boshqa millat an’analari va dini real holda amalga oshib, buning uchun keng imkoniyatlar mavjud bo‘lsa, bir tomondan, bu an’analar rivojlanib boradi, ikkinchi tomondan, ular bir-birlarini boyitib borish jarayoni ham kechadi. Albatta, bu borada yosh avlodni bag‘rikenglik ruhida tarbiyalashda milliy an’analarimizning muhimligi va ularni yoshlarga targ‘ib qilishning ahamiyati juda katta.

Hulosa o’rnida shuni aytish mumkinki milliy g‘urur, iftixor va millatning sha’ni kabilarni anlagan millatgina o‘zligini anglashi, boshqa millat vakillariga ham hurmat bilan qarashi lozim. Bu xislatlar har bir milatning tafakkuri va ongining qanchalik darajada yuksak rivojlanganligini bildiradi. Millat ongini esa faqatgina ma’rifat va ma’naviyatga jiddiy e’tibor berilgandagina oshirish mumkin. Aks holda bunday millat kelajak avlod oldida o‘z mas’uliyatini yo‘qotadi, zalolatga yuz tutishi muqarrar bo‘ladi.

Taklif sifatida shuni aytish mumkinki hozirda tolerantlik tamoyilining globallashuv jarayonidagi ahamiyatini turli millat va elatlar, xalqlar, madaniyatlar, mafkuralar va qarashlarning xilma-xilligini tan olgan holda ularning bir-birini tushunishi, bir-biriga sabrli bo‘lishda tinchlik, totuvlik va barqarorlikni ta’minlash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: 2022. – Б. 15.

2. Htt://www.naesmi.uz. ҳаракатлар стратегияси барқарор ривожланиш мақсадлари билан уйғун, Ўзбекистон электрон оммавий ахборот воситалари миллий ассоциатsiяси, 9.03.2017.

3. Ўзбекистон Республикасининг Ҳарбий Доктринаси Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 1995 йил 30 августдаги 105-1-сон қарори билан қабул қилинган. /Lex.Uz/

4. Мустақиллик. Изоҳли илмий-оммабоп луғат. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б. 258.

5. Мамашокиров С. «Толерантлик - глобал муаммолар ечимининг маънавий-ахлоқий асоси». //Демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантиришда толерантликнинг долзарб муаммолари: методологияси, ҳозирги давр ва истиқбол" мавзуидаги халқаро илмий-назарий конференция. – Т.: 2015. – Б. 3.

Абилов Ў. Ўзликни англаш. Ўзбекистон - бағрикенг диёр. Узбекистан – страна толерантности. (Ўзбек ва рус тилларида) / маъул мухаррир А. Очилдиев. – Тошкент: Ўзбекистон, 20

Логическое мышление как фактор противодействия негативным идеологическим воздействиям на молодежь

Научный руководитель доцент кафедры «Социальные науки» Степанова О.И.

Студентка 1 курса стоматологии Муталибжанова Дильафруз

Аннотатsiя

В статье рассматривается проблема необходимости становления самостоятельного критического мышления у современной молодежи. Аналитическое мышление развивается в процессе изучения таких наук как философия, религиоведение, логика.

Ключевые слова: логика, аналитическое мышление, критическое мышление, становление patsионального мышления, мировоззрение, влияние интернета, социальные сети, секты.

Сегодняшний мир наряду с достижениями науки, высоких технологий и растущим качеством и комфортом жизни содержит в себе множество факторов, заведомо вредных для государства и зачастую губительных для душевного и психического здоровья личности. Это несоблюдение нравственных норм и запретов в радио- и телепередачах, глянцевых журналах, агрессивная и навязчивая

реклама, манипуляционный маркетинг, тотальная ориентatsiя СМИ на бесконечное развлечение и удовольствие. Все вместе это ведет к смещению ценностных установок в современном обществе – нивелируются такие традиционные ценности как патриотизм, бережное отношение к семье, natsiональным традициям, любовь и уважение к труду и др. Хотя средства массовой информatsiи в РУз пытаются создать заслон негативному воздействию зарубежных масс-медиа, активно пропагандируя истинные духовно-нравственные установки; но в современном мире интернета и доступности любой информatsiи изоляция невозможна. Кроме СМИ, существует еще один немаловажный фактор, негативно влияющий на формирующуюся личность - это подростковые модели негативного поведения. В период взросления у наступает новая фаза социализatsiи: подросток стремится освободиться от родительской опеки, войти в группу сверстников, где нужно завоевать авторитет. Зачастую в этот период меняется система выборов формирующейся личности, она начинает основываться на «противостоянии» взрослому миру и старшим поколениям. Интенсивная социализatsiя этого этапа взросления часто конфликтна и протестна, ведет к неуравновешенным эмоциональным состояниям и формированию нездорового образа жизни. В этот период подросток может попасть также под негативное воздействие различных экстремистских и террористических группировок. Особенности развития старшего подросткового возраста исследуются психологами, педагогами, юристами и исходя из этих исследований строится государственная стратегия профилактики правонарушений и минимизируются негативные влияния на подрастающее поколение. Но один из факторов активного противодействия отрицательным воздействиям на молодежь остается недооцененным. Это развитие и формирование логического мышления у молодежи. Высокий интеллектуальный уровень, конечно, здесь бессилен без высоких духовно-нравственных установок. Но высокоразвитое patsiональное аналитическое мышление является мощным инструментом и основой для самостоятельного видения реальности. Правильно и грамотно сформированное логическое мышление у подрастающего поколения – это один из заслонов от негативного идеологического воздействия в современном мире. Patsiональное мышление необходимо человеку в его ежедневном существовании – в быту, на работе, в деловом

общении. Оно помогает человеку ориентироваться с окружающем мире, ежеминутно принимать правильные решения. От правильно принятых решений зависит жизнь, карьера, условия жизни современного человека. Логическое мышление позволяет аналитически усваивать всю полученную информatsiю, выделять в ней главное, отсеивать второстепенное и ненужное. Patsiональное мышление позволяет отделить истинную аргументatsiю от ложной; выделить правильные приемы доказательства от ошибочных. Только patsiональное мышление способно дать молодежи представление об истинных причинах происходящих в обществе процессов. И таким образом, логическое мышление является фактором гармонизatsii отношений между личностью и обществом. Именно patsiональное аналитическое видение общественных закономерностей позволяет личности осознать себя как элемент сложного механизма и определить свою роль в общественном мироустройстве. Только с позиций логического осмысления личность способна распознать возможности поступательного развития общества, несмотря на внешние кажущиеся неудобства (может быть, «неудобные» новые законы, рост цен на товары и коммунальные услуги и т.д.); так patsiонально распознаются объективные экономические законы.

Таким образом, формирование логического мышления должно быть одной из приоритетных задач образовательного процесса. Процесс постановки patsiонального мышления должен быть последовательным и обязательным и проходить следующие ступени : семья, детские дошкольные учреждения, школа, а также колледжи и лицеи, ВУЗы. На всех стадиях формирования мышления должно уделяться большое внимание разъяснительной работе, проводиться грамотный анализ происходящих в мире событий, учить школьников и студентов самостоятельно делать умозаключения. Только в этом случае общество воспитает поколение самостоятельно мыслящих молодых людей, невосприимчивых к негативному идеологическому воздействию. Для этого очень важно уметь производить анализ информatsii, оценивать ее объективность, понимать различие между «фактом», «текстом», «контекстом» и интерпретatsiями. Это поможет предвидеть результат своих действий, избегать поспешных необоснованных выводов. С помощью логических рассуждений люди

переходят от известных фактов к новым знаниям, опираясь на законы логики, находят ответы на сложные вопросы.

Недавно ученые провели исследование с участием желающих людей, часть из которых составляло молодое поколение. Исследование выявило, что взрослые люди более устойчивы к сложным situatsiям. Они хорошо анализируют и принимают правильные выводы, в меньшей степени полагаются на эмоции. Молодежь более склонна принимать скоропалительные неверные решения. Это особенно важно в быту, бизнесе, политических оценках. Молодые люди склонны к вербовке сект, привлечения в группы с экстремальными, манипулятивными убеждениями, негативными психологическими воздействиями. Часто сами этого не желая, людей завлекают в секты, где им обещают: эмоциональную поддержку, стабильный доход, достойное место в обществе. Секты крайне опасны тем, что внушают, что они стали частью уникального сообщества «избранных», что влечет за собой потерю адекватного восприятия реальности, потери связи с внешним миром: семьей, друзьями, коллективом и т.д. Дополнительно к этим аспектам можно добавить и социальные сети. День за днем увеличиваются поток informatsii , развиваются новейшие технологии. Нашу жизнь не возможно представить без социальных сетей ведь они стали неотъемлемой частью в жизни. Интернет облегчает наши повседневные дела и поток informatsii полезно каждому, но у монеты есть вторая сторона так говорят в нашем мудром народе. Часто внешние ресурсы становятся факторами многих проблем таких как: отвлечение и зависимость, негативное психическое воздействие, потеря конфиденциальности, кибербуллинг и агрессия среди молодых, пагубное влияние на здоровье. Во всем нужно знать меру, таким образом интернет очень полезен , но важно использовать их осознанно , чтобы минимизировать их воздействие на психическое и физическое здоровье. Правильный подход в использование обеспечат нам надежную защиту нашей личной жизни.

Литература:

1.Степанова О.И. История и теория логики. Ташкент. Издательство «Yosh avlod matbaa» 2023 г, - с 282

2. http://phenomen.ru/. https://stepik.org/116543

ШАРҚ ФАЛСАФАСИДА ИНСОННИНГ МОҲИЯТИ ВА МАЪНАВИЯТИ МАСАЛАСИ

Рўзметова Дилбар Нурматовна,
Alfraganus University нодавлат олий таълим ташкилоти Ижтимоий фанлар кафедраси доценти, фалсафа фанлари номзоди
Жўраева Камола, Alfraganus University филология (араб тили) факультети 2-боскич 23-25 гуруҳ талабаси

Аннотатsія. Мақолада Шарқ фалсафаси, унда адолат ва инсонпарварлик мезонлари, ҳақиқатни излаш йўли, тарихий анъаналар, ахлоқий қадриятлар, ҳақиқатни билиш масаласи, борлиқни изоҳлаш, Шарқ фалсафасининг миллий, минтақавий жиҳатлари, қадриятларнинг ўзига хослиги каби масалалар тахлил этилган.

Калит сўзлар: Шарқ фалсафаси, ҳикмат, адолат, инсонпарварлик, ҳақиқат, ахлоқ, қадрият, борлиқ,

Бугунги кунда Янги Ўзбекистонда амалга оширилаётган таълим соҳасидаги ислоҳотларнинг асл моҳияти – миллий қадриятларнинг устуворлигини таъминлаш эмас, балки, жаҳон илм-фани ҳамда таълим тизими соҳасида эришилган улкан ютуқлар ва миллий ўзликни юксалтириш асосида, янги давр ривожланиш тараққиётини асослаб берадиган таълим тизимини яратишдан иборат. Бу борада, Шарқ фалсафасини ўқитиш ва ёшларда фалсафий тафаккурни юксалтириш муаммосини янгича парадигмалар асосида ҳал этиш зарурати юзага келади. Шу боис, асрлар давомида жаҳон фалсафаси, хусусан миллий фалсафий қадриятлар асосида ёшларда фалсафий мушоҳада, тафаккур этиш кўникмаларини шакллантиришни узлуксиз таълим тизимига киритиш, назаримизда, миллий менталитетимизнинг миллий ғоя асосида янада юксалтиришга хизмат қилади. Бугунги кунда фалсафий таълимни ривожлантиришда Шарқ алломаларининг фундаментал асарларини илмий ўрганиш муҳим аҳамиятга эга. Шу маънода Президент Ш.М.Мирзиёев “Фундаментал тадқиқотларни янада ривожлантириш масаласи бироз эътиборимиздан четда қолгани бугун яққол намоён бўлмоқда. Чунки фундаментал тадқиқотлар жадал

ривожланаётган мамлакатлар иқтисодий тараққиёт бўйича бошқа давлатлардан сезиларли равишда илгарилаб бораётганини кўриб турибмиз. Дунёда илм-фан соҳасидаги ютуқлар айнан фундаментал тадқиқотлар йўналишида қўлга киритилгани тасодифий эмас. Шунинг учун эндиликда фундаментал фанларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, соҳани иқтидорли ёш кадрлар билан таъминлаш давлатимизнинг муҳим вазифаларидан бири сифатида кун тартибига қўйилмоқда" [1:1] деб таъкидлайди. Шу нуқтаи-назардан қараганда, Шарқ фалсафий тафаккур тарзи ўз мазмуни ва таъсир этиш кучига кўра, жамият аъзоларини бир-бирига қарма-қарши тарафларга бўлиб юбориши, ёки бирлаштириши, давлатнинг дунёдаги мавқеи ва обрўйини ошириши ёки тушириши, халқларни тараққиётга чиқиши ёхуд таназзулга юз тутиши мумкин. Аждодларимиз томонидан қолдирилган юксак маънавий меросни ҳар томонлама тадқиқ қилиш Янги Ўзбекистон тараққиётида фалсафий таълимни ривожлантиришнинг муҳим омили бўлиб хизмат қилади.

Шунингдек, мазкур мақолада кўтарилган масалаларнинг муҳимлиги 2017 йил 23 июнь куни Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг "Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузурида Ўзбекистондаги Ислом маданияти марказини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарорида белгиланганидек, "Марказ таркибидаги кутубхона ва архив, қўлёзмалар фондларини бугунги Ўзбекистон заминидан етишиб чиққан буюк аллома ва мутафаккирлар, азиз-авлиёлар, улар томонидан асос солинган илмий ва диний мактабларга доир юртимизда ва чет элларда сақланаётган қадимий қўлёзма ва тошбосма китоблар, тарихий далил ва ҳужжатлар, археологик топилмалар, осори-атиқалар, шу йўналишдаги замонавий илмий-тадқиқот ишлари, китоб ва тўпламлар, видео ва фото ҳужжатлар ҳисобидан шакллантириш, ислом дини ривожига улкан ҳисса қўшган буюк ватандошларимиз – Имом Бухорий, Имом Термизий, Ҳаким Термизий, Абу Мансур Мотурудий, Абу Муин Насафий, Қаффол Шоший, Абдулхолиқ Ғиждувоний, Нажмиддин Кубро, Бурҳониддин Марғиноний, Баҳоуддин Нақшбанд, Хўжа Аҳрор Валий каби алломаларнинг беназир меросини илмий асосда чуқур тадқиқ этиш, уларнинг илмий-маънавий жасорати, улуғ инсоний фазилатларини кенг тарғиб қилиш" каби вазифаларни ҳал этишда устувор аҳамият касб этади[2:2].

Аввало шуни айтиш керакки, Шарқда фалсафа ҳамма вақт ҳикмат, адолат ва инсонпарварлик мезонларига таяниб, ҳақиқатни излаш йўли сифатида қаралган. Тарихий анъаналар, ахлоқий қадриятлар ҳақиқатни билишнинг, борлиқни изоҳлаш, билимларни умумлаштириб, якуний хулосалар чиқаришнинг асосий замини бўлган. Фалсафанинг миллий, минтақавий жиҳатлари ҳам ана шу фалсафий хулосаларга асос бўлган анъана ва қадриятларнинг ўзига хослиги билан белгиланган.

Ахлоқий асослаш мумкин бўлмаган манфаатлар, мақсадлар, фикрлар, хулосалар адолат, деб эътироф этилмаган. Фалсафий хулосалар инсон ва унинг моҳияти, инсониятнинг табиат, жамият ҳақидаги билимларини муайян илмий анъаналар, ахлоқий қадриятлар, конкрет заруриятлар, эҳтиёжлар, имкониятларга таяниб умумлаштиришдан келиб чиққан хулосаларнинг мажмуаси сифатида қаралган. Шарқда фалсафа оддий билимгина бўлмай, кишиларнинг қалбига чуқур сингган, уларни эътиқодий бағрикенгликка, мулоҳазаликка, сабр-тоқатлиликка, инсонпарварлик ва адолатпарварликка, ҳар ишда, ўй-фикрда етти ўлчаб бир кесишга, андишалиликка, инсон зотини ҳурмат қилишга ўргатган. Шарқ файласуфлари барча даврларда ўз таълимотларини, хулосаларини асослашда конкрет тарихий тажрибага, амалиёт якунларига, тараққиёт жараёнида шаклланган илмий ютуқларга, инсониятнинг, халқнинг эътиқоди ва эҳтиёжларига, маънавий камолоти даражасига, диний ва дунёвий қадриятларига таянганлар. Шу сабабли ҳам Шарқда фалсафа билимлар ҳақидаги билим, муайян анъаналар ва қадриятларга таянган тафаккур маданияти сифатида қаралган. Фалсафа барча фанларни бир-бири билан боғлаб, инсон билимларини муайян яхлит тизим сифатида ривожланишга имкон берган. Инсон моҳиятини, манфаатларини билиш, билимларини умумлаштириш, шу асосда борлиқни яхлит англаб, инсониятнинг истиқболини олдиндан кўришга интилиш Шарқ фалсафасининг асосий баҳс мавзуси бўлган. Шарқ фалсафаси инсон маънавиятининг барча томонларини бир-бири билан боғлашга имкон беради.

Форобий, Беруний ва бошқалар ҳам фалсафани инсон билимларини бир-бири билан боғлаб, муайян қадриятларга таяниб, борлиқнинг моҳияти ҳақида умумий хулосалар чиқарувчи фан, деб баҳолаганлар. Берунийнинг фикрича, кўп нарса билган одам эмас,

балки билган билимларини умумлаштиришга қодир бўлган кишигина ҳақиқий олимдир[3:3].

Шарқ фалсафасида инсон билан бутун борлиқ муаммоси биргаликда, узвий боғлиқликда ўрганилган. Лекин борлиқ нима эканини билишдан олдин, инсон ўзи нима эканини билиб олиш масаласи биринчи ўринга қўйилади. Борлиқ абадий, чексиз, унинг ривожланиши узлуксиз. Инсон ҳаёти вақтинча бўлса ҳам у борлиқдаги камолот ва буюкликнинг олий тимсолидир. Инсоннинг моҳияти — тобора такомиллашиб, ривожланиб турадиган маънавияти, у билан тақозо этилган фаолияти бирлигида намоён бўлади. Инсон маънавияти даражаси унинг борлиққа бўлган муносабатини белгилайди ва шу муносабат тадрижи натижасида ривожланади. Шу сабабли ҳам Шарқда инсон нима, деган саволга жавоб бериш учун даставвал унинг қалбига қулоқ солиш керак, деган фикр бўлган. VIII асрда яшаган сўфий аёл Робия Адвиянинг, "Аллоҳни таниш, аввало инсон ўзини танишидир", деган фикрида ҳам худди шу маъно бор. Машҳур ватандошимиз, файласуф Азизиддин Насафий ҳам инсон моҳиятини англашнинг асосий мезони ҳақида шундай деган эди: "Эй дарвеш, сенда аввал бошдаги ва охирдаги маърифат яширинган, нимаики изласанг ўзингдан изла. Нега ташқаридан қидирасан?" Демак, инсон борлиқни ўз маънавияти, манфаати даражасига таяниб англайди ва у билан муносабатга киришади. Демак, Шарқ анъаналарига кўра барча фалсафий мулоҳазаларнинг биринчи нуқтаси — инсон нима, у дунёда нима учун яшайди, деган саволга жавоб беришдан бошланади.

Шарқ файласуфлари барча даврларда ҳам инсон аввал ўз қалбига, руҳига назар ташлаб, кейин бошқаларни, табиат ва жамиятни билишга интилиши лозим эканини кўрсатганлар. Азизиддин Насафий айтганидек, "ўзини англамаган ҳар бир киши ҳеч нарсани англамай дунёдан ўтади".

Инсон ўз-ўзини англашида ҳам шахсий маҳдудликка берилмай, муайян ахлоқий қадриятларга, ҳуқуқий мезонларга таянмоғи керак. Бу инсон ўзини-ўзи тўла ва тўғри англаши йўлидаги жиддий ғовлардандир. Бошқаларни, уларнинг муштарак манфаат ва мақсадларини англай олмаган шахс ўзининг моҳиятини холис англашга ҳам қодир эмас. Инсон ўзини англаши бошқаларни ҳам холис англашга интилиши билан боғланмоғи керак. Бу ҳам Шарқ

фалсафасининг асосий қадриятларидандир. Инсон ўзини-ўзи англаши — хатти-ҳаракати, мақсад ва манфаатларига бошқаларнинг нуқтаи назарини ҳам ҳисобга олиб баҳо бера билишидир. Юқорида айтилганидек, бошқаларни англамаган шахс ҳеч вақт ўз моҳиятини, манфаатини ҳам тўла била олмайди. Буюк юнон файласуфи Афлотун айтганидек, ҳар бир шахс ўзини-ўзи англаши учун адолатли бўлиши етарли эмас, бунинг учун файласуф бўлиш лозим[4:4]. Шахсий худбинлик гирдобига ўралиб қолган кишилар адолатни ҳам ўзларича тушунадилар. Кўплаб ҳукмдорлар ҳам адолат мезонларини ўз манфаатларидан келиб чиқиб белгилашга ҳаракат қилган ва қилмоқда. Инсон ўз моҳиятини холис, виждонан таҳлил этиши — барча мақсадларига, улар билан боғлиқ вазифаларга тарих сабоқлари, ҳозирги кун заруриятлари, бошқаларнинг фикр-мулоҳазалари, манфаатларини ҳам ҳисобга олиб баҳо беришидир. Шарқ фалсафасидаги яна бир муҳим муаммо — инсоний муносабатлар маданиятининг ахлоқий, ҳуқуқий мезонлари таҳлилидир. Ҳаётда бир одам ўз олдига алоҳида мақсадлар қўйиб, бошқалардан ажралиб, уларни амалга ошира олмайди. Шу сабабли инсоний муносабатларнинг маънавий мезонларини белгилаш ва мустаҳкамлаш Шарқ фалсафасидаги асосий муаммолардан бири бўлган. Шарқ анъаналарига кўра инсоний муносабатларнинг барчасига замин бўладиган маънавий асос — ахлоқ ва одобдир. Адолат мезонлари ҳам ахлоқ ва одобга таяниб белгиланган. Шарқда одамлар ўртасидаги муносабатларда ахлоқий масъулият ҳуқуқий масъулиятдан ҳам устун турган. Инсоний муносабатлар йўналишлари ахлоқий қадриятларга таяниб англанилгандагина кишилар қўлни қўлга бериб, аҳил ва иттифоқ бўлиб келажак сари борадилар. Бу борадаги умумий фаоллик, муштарақликнинг маънавий заминлари ҳам фалсафий ғоялар асосида белгиланади[5:5]. Шу сабабли Шарқда ҳалоллик, иймонлилик, меҳр-оқибатлилик, раҳм-шафқатлилик, хайр-эҳсонлилик, ҳамкорлик, ҳамжиҳатлик, дўстлик, биродарлик, бир-бирини ҳурмат қилиш одамлар ўртасидаги муносабатларга асос бўлган ахлоқий қадриятлар ҳисобланган. Бу муаммолар Шарқ фалсафасининг баҳс мавзусида ҳам асосий ўрин олган. Демак, Шарқ фалсафаси сиёсатга эмас, балки маънавиятга асосланган фалсафадир. Одамлар ўртасидаги муносабатларнинг ахлоқий асослари заифлашса жамиятда тинчлик, осойишталик йўқолади, адоват, зулм, шафқатсизлик кучаяди.

Конфуций айтганидек: “Агар ердаги ҳаёт ёмон бўлса инсон осмонга эмас, балки ўз қалбига, виждонига назар ташлаши керак” [6:6].

Инсон билан табиат ўртасидаги мувозанат ва мутаносибликнинг муайян мезонлари, чегаралари бўлиб, улар асосан табиат қонунларига ва инсон маънавиятига боғлиқ. Инсонлар ўртасидаги муносабатлар асосида ётган адолат, иймон, инсоф, раҳм-шафқат, маҳр-мурувват, виждон каби тушунчалар табиатга, барча тирик жонзотларга нисбатан ҳам қўлланмоғи лозим.

Шарқ фалсафасида инсон, унинг моҳияти, маънавияти муаммоси асосий ўрин олганлиги сабабли, тарбия фалсафасига ҳам катта эътибор берилган. Маънавий қашшоқлик инсонни разолатга, ваҳшийлик, адолатсизлик ва шафқатсизлик йўлига бошлайди, натижада инсон билан инсон, инсон билан инсонлар, инсон билан табиат ўртасидаги мутаносиблик бузилади. Инсон қалбига шафқатсизлик, ёвузлик уруғлари сингиши эса ҳар қандай табиий офатлардан ҳам хатарлироқдир. Буни Аҳмад Донишнинг қуйидаги фикрларида ҳам кўриш мумкин: “Инсон еру коинот ўртасида ўрин олган ажойиб мавжудотдир. Агар у хаёлга чўмса, етти қават осмонни хаёл қутичасига жойлайди. Агар у фикр қилса, бутун борлиқни фикр токчасига сиғдиради. Агар унинг меҳри товланса, бечора чумолини киприги устида сақлайди. Агар унинг сахийлиги жилва қилса, тўнини бировга бериб, ўзи яланғоч қолади. Агар унинг хасислиги ружу қилса, қумурсқа оғзидаги донни талашади”. Инсоннинг инсонийлигини белгилайдиган асосий йўл — тарбия ва маърифатдир. Шарқ мутафаккирлари таълим, тарбияга эътибор бермаган жамиятнинг охири фожиа билан тугайди, деган хулосага келганлар. Шу сабабли ҳам маърифатпарварлик ғоялари Шарқ фалсафасида барча даврларда ҳам устивор аҳамият касб этган. Барча Шарқ файласуфлари бир вақтнинг ўзида маърифатпарвар кишилар ҳам бўлган.

Демак, Шарқ анъаналарига кўра фалсафий тафаккур тарихий тараққиётнинг турли даврларидаги анъана ва қадриятларни, билимлар ва умумий хулосаларни бир-бири билан боғлаб, мустақил, ижодий қарашдир, уларни шароит ва имкониятлар, муайян анъана ва қадриятларни эътиборга олиб эркин, холис баҳолашдир, умумлаштиришдир, янги ғояларни ҳаётга оқилона татбиқ этиб, истиқболни олдиндан кўриш имкониятларини излашдир.

Умуман, фалсафа XXI асрда соф назарий мулоҳазалар чегарасидагина қолмай, инсон манфаатлари, инсонпарварлик ғоялари билан кенгроқ ва кўпроқ боғланади. XXI асрда инсоният Шарқ фалсафаси анъаналарига, қадриятларига кўр-кўрона қайтиши шарт эмас. Гап фалсафа умуминсоний қадрият эканини эътироф этиб, Шарқ фалсафаси анъаналари ва қадриятларидан кенгроқ, оқилона фойдаланиш устида бормоқда.

Юқоридаги фикрлардан, ўтмишдаги фалсафий таълимотлардан воз кечиб, бутунлай янги фалсафани яратиш лозим, деган хулосага ҳам келмаслик керак. Фалсафа барча даврларда ўзининг тарихи, назарияси, муайян қонунлари, категорияларига эга бўлган фан сифатида ривожланиб келган. Лекин давр шароитлари, эҳтиёжлари, имкониятлари таъсирида устувор аҳамият касб этаётган фалсафий муаммолар тизими ўзгариб, янгиланиб туради. XXI асрда конкрет инсоннинг моҳиятини билиш, унинг ҳуқуқини, қадр-қимматини, манфаатини ҳимоя қилиш, маънавиятини юксалтириш орқали одамлар жамоаси бирлиги ва бирдамлигини кучайтириш масалалари фалсафий таҳлилининг асосий муаммоси бўлиб келмоқда. Ҳозир Шарқ фалсафасини ўрганишга катта эътибор берилаётганининг сабаби ҳам шундадир.

Адабиётлар

1. Мирзиёев, Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. Тошкент, Ўзбекистон, 592 б. (Mirziyoev, Sh.M. (2017). We will continue our national development path with determination and bring it to a new level. Tashkent, Uzbekistan, p.592.)

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Ўзбекистондаги Ислом маданияти маркази фаолиятини ташкил этиш тўғрисида. http://lex.uz/Pages/GetPdfView.aspx?lact_id=3296658. (The Decision on the organization of the Islamic Culture Center of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. http://lex.uz/Pages/GetPdfView.aspx?lact_id=3296658.)

3. Мўминов И. Беруний ва ижтимоий фанлар. – Тошкент: Фан, 1973. – Б.29.

4. Ramatov J., Umarova R. Evolution of railway construction development in Uzbekistan: past and prospects // aIp Conference

proceedings 2432, 030011 (2022); https://doi.org/10.1063/ 5.0090845 No access Jun 16, 2022.

5. PamatovJ.S, Umarova R.Sh.. Constructive and optimal solutions for the formation of a stable ecological situation in the aral Sea region of Uzbekistan// aIp Conference proceedings 2432, 030113 (2022); https://doi.org/ 10.1063/5.0091203.

6. Ramatov, J.S, Umarova R.Sh. Problems of influence of islam on consciousness transformation // academic research in educational sciences.2022. №3. -p 591-597.

SUN'IY ONGNING SHAKLLANISHIGA TA'SIR KO'RSATAYOTGAN SALBIY OMILLAR

Alfraganus Universiteti
Raqamli texnologiyalar fakulteti
1-kurs talabasi: Xakimov Sherdor Baxtiyor o'g'li
E-mail: sherdorboss06@gmail.com
Ilmiy rahbar: Anarbayeva Marifatxon Murodiljonovna
"Sharq filologiyasi" kafedrasi o'qituvchisi
Tel: +998931332920

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy ongning rivojlanishiga ta'sir etayotgan salbiy to'siqlar, ularning sabablari va ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik oqibatlari, texnologik cheklovlar, axborot xavfsizligi, Etikaga oid masalalar va xotira tanqisligi kabi muhim omillar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy ong, texnologik cheklovlar, etik masalalar, axborot xavfsizligi, xotira tanqisligi, innovatsiya

Annotation: This article examines the negative barriers that affect the development of artificial consciousness, their causes and social, economic and technological consequences, technological limitations, information security, ethics issues and important factors such as memory deficits.

Keywords:artificial consciousness, technological limitations, ethical issues, information security, memory deficits, innovation

Аннотатsiя: В этой статье рассматриваются негативные барьеры, влияющие на развитие искусственного интеллекта, их причины и социальные, экономические и технологические последствия, такие

важные факторы, как технологические ограничения, информatsионная безопасность, этические вопросы и дефицит памяти.

Ключевые слова: искусственное сознание, технологические ограничения, этические вопросы, информatsионная безопасность, нехватка памяти, инноватsии

Zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi sun'iy ong (AI) tushunchasini hayotimizga kiritdi. Biroq, sun'iy ongning to'liq shakllanishi va joriy etilishi ko'plab to'siqlarga duch kelmoqda[2]. Bu holat, sun'iy ongni tadqiq etishda yangi yondashuvlarni talab etadi.

Sun'iy ongning rivojlanishiga to'siqlar ko'plab omillar bilan bog'liq. 1.Texnologik cheklovlar: Hozirgi kunda mavjud bo'lgan texnologiyalar sun'iy ongni to'liq rivojlantirish uchun yetarli emas [3]. Ushbu cheklovlar, avvalambor, xotira imkoniyatlari va hisoblash quvvatlari bilan bog'liq. Russell va Norvig (2010) asarida aytilishicha, texnologiyalarning rivojlanishi sun'iy ongni yaratishda muhim omil hisoblanadi[1]. Ushbu muammolar sun'iy ongni ishlab chiqishda jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun, texnologik yangiliklarni joriy etish va ularning samaradorligini oshirish zarur. Jamiyatda sun'iy ongga bo'lgan ishonch va tushuncha rivojlantirilishi zarur, chunki bu texnologiyaning kelajagi uchun muhimdir.

2. Axborot xavfsizligi: Sun'iy ongni joriy etish jarayonida axborot xavfsizligini ta'minlash zarur[4]. Boshqarilmaydigan ma'lumotlar oqimi sun'iy ongni manipulyatsiya qilish imkonini yaratishi mumkin. Bu nuqtada, axborot xavfsizligini kuchaytirish foydalanuvchilarning ishonchini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

3. Etikaga oid masalalar: Sun'iy ongning insoniyatga ta'siri va uning ishlatilishi bo'yicha etik savollar muhokama qilinishi zarur. Bostrom (2014) asarida sun'iy ongning etik jihatlari muhimligi ta'kidlangan [2]. Bunday muammolar jamiyatda sun'iy ongga bo'lgan ishonchni oshirishga yordam beradi.

4. Xotira tanqisligi: Sun'iy ong tizimlarining samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan xotira imkoniyatlari ko'pincha yetarli emas[6]. Dignum (2019) asarida xotira imkoniyatlarini kengaytirish zarurligi ko'rsatilgan [5]. Bu esa ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlashda muammolar tug'diradi.

O'qituvchi va tadqiqotchilar uchun bu muammolarni hal etish juda muhimdir. Sun'iy ongni rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarda ish olib borilishi lozim.

Mavjud texnologiyalarning rivojlantirilishi sun'iy ongning yangi imkoniyatlarini ochib beradi [3]. Innovatsiyalarni amalga oshirishda kuchli asoslar yaratish zarur.

Axborot xavfsizligini oshirish: Axborotlarni himoya qilish usullarini takomillashtirish, sun'iy ongning ishonchliligini oshirishga yordam beradi [4]. Foydalanuvchilarning xavfsizligini ta'minlashda bu juda muhimdir.

Etikaga oid normalarni belgilash: Etik me'yorlarni ishlab chiqish va ularni amalda qo'llash sun'iy ongga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi [5]. Dignum (2019) asarida belgilangan prinsiplar, sun'iy ongni ishlab chiqishda insoniyat manfaatlarini ustun qo'yishga yordam beradi.

Xotira imkoniyatlarini kengaytirish: Yangi xotira texnologiyalarini joriy etish sun'iy ongning samaradorligini oshiradi [6]. Bu rivojlanish, sun'iy ong tizimlarining ko'proq ma'lumotni samarali ishlashiga imkon yaratadi.

Innovatsiyaning o‘rni shundan iboratki, sun'iy ongni muvaffaqiyatli qo'llash orqali iqtisodiyotda samaradorlik oshadi. Innovatsion echimlar orqali yangi ish o'rinlari va biznes imkoniyatlari yaratilishi kutilmoqda [7]. Sun'iy ong innovatsiyani rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega [8].Chunki hozirgi kunda sun’iy ong bilan inovatsiya o’lchanmoqda va barcha taniqli olimlar shuning ustida ishlamoqda.Ular bumaqsadga yetishganda bu insoniyatga ham ularga ham katta rag’batlantirish bo’ladi

Xulosa qilib aytganda, sun'iy ongning shakllanishida to'siqlar bartaraf etilishi kerak. Bu orqali innovatsion g'oyalarni amalga oshirish va jamiyatni rivojlantirish mumkin. Sun'iy ong va zamon o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash bizning vazifamizdir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Russell, S., & Norvig, P. (2010). Artificial Intelligence: A Modern Approach. Prentice Hall.

2. Bostrom, N. (2014). Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies. Oxford University Press.

3. Tufekci, Z. (2017). Twitter and Tear Gas: The Power and Fragility of Networked Protest. Yale University Press.

4. UNESCO. (2021). AI and Education: Guidance for Policy-Makers. Paris: UNESCO Publishing.

5. Dignum, V. (2019). Responsible Artificial Intelligence: Designing AI for Human Values. Springer.

ARIFMETIK PROGRESSIYANING BA'ZI TADBIQLARI

A. Sobirjonov, S.Xudoynazarova
avazbeksobirjonov1998@gmail.com,
sevaraxudoynazarova4@gmail.com
Alfraganus University. Tashkent. Uzbekistan.

Annotatsiya: *Ushbu ishda elementar matematika elementlari, xususan arifmetik progresiyadan foydalanib, ba'zi chekli yig'indilarni hisoblash usullini ko'rsatamiz va unga doir misol keltiramiz. Bu ishda qisqa ko'paytirish formulalaridan samarali foydalaniladi hamda arifmetik progresiyaning hadlari yig'indisi formulari tadbiq qilinadi.*

Kalit so'zlar: *yig'indi , arifmetik progressiya, ayirma*

Ta'rif: Ixtiyoriy ikkita ketma-ket hadlari ayirmasi ayni bir songa teng bo'lgan ketma-ketlikga arifmetik progressiya deyiladi.

Bizga ma'lumki $\{a_1, a_2, a_3 ... a_n\}$ arifmetik progressiya berilgan bo'lsa, u holda bu progressiyaning dastlabki n ta hadi yig'indisi quyidagi formula bilan topiladi.

$$S_n = \frac{a_1 + a_n}{2} \cdot n \qquad (1)$$

bu yerda S_n - arifmetik progressiyaning dastlabki n ta hadi yig'indisi.

Biz ushbu ishda $\{a_1, a_2, a_3 ... a_n\}$ arifmetik progressiyaning

$a)$ hadlari kvadratlari yig'indisi

$b)$ hadlari kublari yig'indisini

topish masalasini o'rganimiz.

Buning uchun biz quyidagi ba'zi kerakli yig'indilardan foydalanamiz.

$$S_1 = 1 + 2 + 3 + ... + n = \frac{n(n+1)}{2}, \qquad (2)$$

$$S_1^2 = 1^2 + 2^2 + 3^2 + ... + n^2 = \frac{n(n+1)(2n+1)}{6}, \qquad (3)$$

$$S_1^3 = 1^3 + 2^3 + 3^3 + ... + n^3 = \frac{n^2(n+1)^2}{4}. \qquad (4)$$

I-MASALA

Ushbu $\{a_1, a_2, a_3 ... a_n\}$ arifmetik progressiya hadlari uchun ushbu

$S_n^2 = a_1^2 + a_2^2 + a_3^2 + ... + a_n^2$,

Yig‘indini hisoblash masalasini ko‘ramiz.

Buning uchun quyidagi usuldan foydalanamiz

$$a_1^2 = (a_1 + 0)^2 = a_1^2 + 2 \cdot a_1 \cdot 0 + 0^2$$

$$a_2^2 = (a_1 + d)^2 = a_1^2 + 2a_1 d + d^2$$

$$a_3^2 = (a_1 + 2d)^2 = a_1^2 + 2a_1 \cdot (2d) + (2d)^2$$

……

$$a_n^2 = (a_1 + (n-1)d)^2 = a_1^2 + 2a_1 \cdot ((n-1)d) + ((n-1)d)^2$$

yuqoridagi tengliklarni qo‘shib yuboramiz va bundan quyidagi

$$S_n^2 = na_1^2 + 2a_1 d(1 + 2 + 3 + ... + (n-1)) + d^2(1^2 + 2^2 + 3^2 + ... + (n-1)^2)$$

tenglikka ega bo‘lamiz hamda bu tenglikda (2) va (3) dan foydalanib quyidagi

$$S_n^2 = na_1^2 + 2a_1 dS_1 + d^2 S_1^2 \qquad (5)$$

yoki

$$S_n^2 = na_1^2 + a_1 dn(n-1) + \frac{d^2}{6} n(n-1)(2n-1) \qquad (6)$$

formulalarga ega bo‘lamiz.

Isbotlangan formularni qo‘llash:

1-misol. Ushbu

$4x^2 + 25x^2 + 64x^2 + ...$

yig‘indining dastlabki 20ta hadi hisoblansin.

Yechish: Dastavval berilgan misolda ba’zi shakl almashtirishlarni bajaramiz

$$4x^2 + 25x^2 + 64x^2 + ... = x^2(4 + 25 + 64 + ...) = x^2(2^2 + 5^2 + 8^2 + ...)$$

Hosil bo‘lgan yig‘indidan va misol shartidan quyidagilar $a_1 = 2, d = 3$ va $n = 20$ ma’lum ,isbotlangan (6) formuladan

$$S_{20}^2 = 20 \cdot 2^2 + 2 \cdot 3 \cdot 19 \cdot 20 + \frac{3^2}{6} \cdot 19 \cdot 20 \cdot 39 = 24590$$

bundan

$4x^2 + 25x^2 + 64x^2 + ... + (59x)^2 = 24590x^2$

II-MASALA

Ushbu masalada biz arifmetik progressiya hadlari kublari yig‘indisini topish muammosini tadqiq qilamiz.

Arifmetik progressiya hadlari kublari yig‘indisini yuqorida ko‘rilgan masaladagi belgilashga muvofiq quyidagicha

$S_n^3 = a_1^3 + a_2^3 + a_3^3 + ...+ a_n^3$

belgilab olamiz.

Ushbu masalada ham yuqoridagi usuldan foydalanamiz .

$a_1^3 = (a_1 + 0)^3 = a_1^3 + 3a_1^2 \cdot 0 + 3a_1 \cdot 0^2 + 0^3$

$a_2^3 = (a_1 + d)^3 = a_1^3 + 3a_1^2 d + 3a_1 d^2 + d^3$

$a_3^3 = (a_1 + 2d)^3 = a_1^3 + 3a_1^2 (2d) + 3a_1 (2d)^2 + (2d)^3$

$a_4^3 = (a_1 + 3d)^3 = a_1^3 + 3a_1^2 (3d) + 3a_1 (3d)^2 + (3d)^3$

…….

$a_n^3 = (a_1 + (n-1)d)^3 = a_1^3 + 3a_1^2 ((n-1)d) + 3a_1 ((n-1)d)^2 + ((n-1)d)^3$

yuqoridagi tengliklarni qo‘shib ushbu

$S_n = na_1^3 + 3a_1^2 d(1+2+3+....+(n-1)) +$

$+ 3a_1 d^2 (1^2 + 2^2 + 3^2 + ...+ (n-1)^2) + d^3 (1^3 + 2^3 + 3^3 + ...+ (n-1)^3)$

yig‘indiga ega bo’lamiz va bu yig‘indida (2),(3) va (4) lardan foydalanib ushbu

$S_n^3 = na_1^3 + 3a_1^2 d \cdot S_1 + 3a_1 d^2 \cdot S_1^2 + d^3 \cdot S_1^3$

yoki

$S_n^3 = na_1^3 + \frac{3}{2}a_1^2 dn(n-1) + \frac{1}{2}a_1 d^2 n(n-1)(2n-1) + \frac{1}{4}d^3 n^2 (n-1)^2$.

formularni olishimiz mumkin.

Xulosa

Yuqoridagi o‘rganilgan masalalardan ko‘rinadiki qisqa ko‘paytirish formulalari va arifmetik progressiya formulalaridan foydalanib, biror qonuniyatga bo’y sunuvchi ba’zi chekli yig‘indilarni hisoblash mumkin. Biz bu ishda arifmetik progressiyaning dastlabki n ta hadi uchun ularning kvadratlari hamda kublari yig‘indisini hisoblash formulalarini isbotladik. Yuqoridagi ishdan xulosa qilib, arifmetik progressiya hadlari n-chi darajalari yig‘indisini hisoblash muammosini yechish mumkin deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Б.П.Демидович Сборник задач по математик анализу.

2.M.A. Mirzaahmedov, D.Sotiboldiyev O‘quvchilarni matematik olimpiyadaga tayyorlash.

Elementar geometrik masalalarni yechishda analitik geometriya elementlaridan foydalanish

G‘oyibnazarova G.N[1]
Omonova U.V[2]
Alfraganus University
e-mail: [1]goyibnazarovag71@gmail.com,
[2]umidaomonova65@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezis elementar geometrik masalalarni yechishda analitik geometriya elementlaridan, xususan vektorlardan foydalanish usullariga bag’ishlangan.

Kalit so’zlar: Vektor, vektorlarning vektor va aralash ko’paytmasi, parallelogramm, parallelepiped.


Masala yechishning eng qiyin jihati shuki, noma’lum kattalikni topish uchun tanlanadigan usul eng qulay bo‘lishi kerak. Bu jarayon turli masalalar uchun bir xil bo‘lmasdan, har bir masala uchun turlicha bo‘ladi. Masalalarni sof geometrik nuqtai nazardan yoki algebra va trigonometriya elementlaridan foydalanib muhokama qilish mumkin. Geometrik masalalarni yechishda chizma ham muhim ahamiyatga ega. Agar chizma aniq va to‘g‘ri chizilgan bo‘lsa, masala yechishni osonlashtiradi, aksincha noto‘g‘ri chizma masala yechishni butunlay boshqa yo‘ldan olib borishi mumkin. Masalani yechish jarayonida o‘quvchilar uni yechish yo‘lini to‘g‘ri tanlashiga, ularning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga e’tibor qaratish kerak.

Biz quyida bir necha masalani yechish yo‘lini ko‘rsatib o‘tamiz. Bu masalalarni yechish jarayonida analitik geometriya elementlaridan foydalanamiz.

1 - masala. Fazoda berilgan M(-2;1;3;) nuqtadan u: $\begin{cases} x = 1 + 2t \\ y = -2 + t \\ z = 3 - t \end{cases}$ to‘g‘ri chiziqqacha bo‘lgan masofani toping.

Yechish: u to‘g‘ri chiziqning M_0(1;-2;3;) nuqtasi va $\vec{u}$(2;1;-1;) yo‘naltiruvchi vektori ma’lum. M nuqta u to‘g‘ri chiziqda yotmaganligi sababli $\left\| \left[M_0 M \vec{u} \right] \right\|$ vektor ko‘paytma tomonlari $\overrightarrow{M_0 M}$(-3;3;0;) ва $\vec{u}$ va vektorlardan iborat parallelogramm yuzasini beradi, ya’ni

$S_{пар}=\left[\overrightarrow{M_0M}\vec{u}\right]=\left(\begin{vmatrix}3 & 0\\ 1 & -1\end{vmatrix},\begin{vmatrix}1 & -3\\ -1 & 2\end{vmatrix},\begin{vmatrix}-3 & 3\\ 2 & 1\end{vmatrix}\right)=(-3;-3;3)$,



2.4-rasm

Ikkinchi tomondan $S_{par}=M_0N_0MH=\left|\vec{u}\right|\rho(M_0d)$


$$\rho(M_0,d)=\frac{S_{nap}}{\left|\vec{u}\right|}=\frac{\left|\left[\overrightarrow{M_0M}\cdot\vec{u}\right]\right|}{\left|\vec{u}\right|}=\frac{3\sqrt{3}}{\sqrt{6}}=\frac{3}{\sqrt{2}}$$

Bu yerdan

2-masala. Fazoda berilgan $u_1:\begin{cases}x=1-2t_1\\ y=3+t_1\\ z=-2+3t_1\end{cases}$ va $u_2:\begin{cases}x=2+t_2\\ y=4-2t_2\\ z=-1+3t_2\end{cases}$ ayqash to‘g‘ri chiziqlar orasidagi masofani toping.

Yechish: $M_1(1;3;-2;)$, $\overrightarrow{u_1}(-2;1;3;)$, $M_2(2;4;-1;)$, $\overrightarrow{u_2}(1;-2;3;)$, $\overrightarrow{M_1M_2}(1;1;1;)$

u_1 to‘g‘ri chiziq orqali o‘tib u_2 to‘g‘ri chiziqqa parallel bo‘lgan tekislikni P_1, u_2 to‘g‘ri chiziq orqali o‘tib u_1 to‘g‘ri chiziqqa parallel bo‘lgan tekislikni P_2 bilan belgilaylik.



2.5-rasm

Berilgan ayqash to‘g‘ri chiziqlar orasidagi P_1 va P_2 parallel tekisliklar orasidagi masofaga teng. Bu masofani topish uchun $M_1N_1P_1Q_1M_2N_2P_2Q_2$ parallelepipeddan foydalanamiz. Bu parallelepiped hajmi $\overrightarrow{M_1M_2}, \vec{u}_1, \vec{u}_2$ vektorlarning aralash ko‘paytmasining moduliga teng, ya’ni

$$V_{\text{пар}} = \left|\overrightarrow{M_1M_2} \cdot \vec{u}_1\vec{u}_2\right| = \begin{vmatrix} 1 & 1 & 1 \\ -2 & 1 & 3 \\ 2 & -2 & 3 \end{vmatrix} = 21$$

Ikkinchi tomondan $V=\varrho(u_1,u_2)\cdot S_{M_1Q_1P_1N_1} = \rho(u_1u_2)\left|\left[\overrightarrow{u_1u_2}\right]\right|$

$$\left[\vec{u}_1\vec{u}_2\right] = \left(\begin{vmatrix} 1 & 3 \\ -2 & 3 \end{vmatrix}, \begin{vmatrix} 3 & -2 \\ 3 & 1 \end{vmatrix}, \begin{vmatrix} 2 & 1 \\ 1 & -2 \end{vmatrix}\right) = (9;9;-5), \qquad S_{M_1Q_1P_1N_1} = \sqrt{187}.$$

$$\rho(u_1, u_2) = \frac{V}{\left|\left[\vec{u}_1, \vec{u}_2\right]\right|} = \frac{21}{\sqrt{187}}$$

U holda

Biz yuqorida keltirib o‘tgan elementar geometriya masalalarini yechishda analitik geometriya elementlaridan foydalandik.

Adabiyotlar:

1. Атанасян Л.С, Базылев В.Т. Геометрия. В 2-ч ч. - М.:Просвещение, 1986. Ч.1. - 335 с.

2. Baxvalov S.V, Modenov P.S. Analitik geometriyadan masalalar to`plami. - T.: 2006. - 546 b.

ZAMON VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINING UYG'UNLIGI

Alfraganus Universiteti
Raqamli texnologiyalar fakulteti
1-kurs talabasi: Xakimov Sherdor Baxtiyor o'g'li
E-mail: sherdorboss06@gmail.com
Ilmiy rahbar: Anarbayeva Marifatxon Murodiljonovna
“Sharq filologiyasi” kafedrasi o‘qituvchisi
Tel: +998931332920

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamon va raqamli texnologiyalar o'rtasidagi uyg'unlik va uning zamonaviy jamiyatda ta'lim, iqtisodiyot va ijtimoiy hayotga ta'siri ko'rib chiqiladi. Raqamli texnologiyalarni ta'lim va ish jarayonlariga integratsiya qilish orqali inson resurslarining samaradorligini oshirish, shuningdek, bilim va malakalarni rivojlantirishga erishish mumkin. Maqolaning natijalari raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish va ularni hayotga tatbiq etish jarayonlarida qiyinchiliklar va imkoniyatlar bilan bog'liq muhim xulosalarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar:raqamli texnologiyalar, ta'lim, iqtisodiyot, innovatsiya, uyg'unlik

Annotation: This article examines the harmony between time and digital technologies and their impact on education, economy, and social life in modern society. Integrating digital technologies into education and work processes can enhance human resource efficiency and develop knowledge and skills. The results of the article present important conclusions related to challenges and opportunities in the process of adopting digital technologies and applying them in life.

Keywords:digital technologies, education, economy, innovation, harmony

Аннотатsiя:В данной статье рассматривается гармония между временем и цифровыми технологиями и их влияние на образование, экономику и социальную жизнь в современном обществе. Интегratsiя цифровых технологий в образовательные и рабочие процессы может повысить эффективность человеческих ресурсов и развить знания и навыки. Результаты статьи представляют собой важные выводы,

касающиеся вызовов и возможностей в процессе освоения цифровых технологий и их применения в жизни.

Ключевые слова:цифровые технологии, образование, экономика, инноватsiи, согласование

Kirish

Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalarning roli har doim o'sib bormoqda. Raqamli texnologiyalar ta'lim, iqtisodiyot va kundalik hayotda muhim o'rin egallaydi. Ushbu maqolada zamon va raqamli texnologiyalar o'rtasidagi uyg'unlik, shuningdek, bu uyg'unlikni ta'minlashda muhim omillar ko'rib chiqiladi. Zamonaviy ta'lim tizimi, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarda raqamli texnologiyalarning integratsiyasi hayotimizni qanday o'zgartirishi mumkinligini o'rganamiz.

1. Mavzu doirasida mavjud muammolar

Raqamli texnologiyalarni ta'lim va iqtisodiyotga tatbiq etishda ko'plab muammolar mavjud. Ta'lim tizimida raqamli vositalarning to'g'ri qo'llanilishi, o'qituvchilarning malakasi va talabalar uchun qulay muhit yaratish zarur. Buni Castells o'z asarida ta'kidlaydi [1]. Buning natijasida zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalarning kuchli ta'sirini ko'rsatadi.

2. Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar

Raqamli texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llash uchun o'qituvchilarni tayyorlash, infratuzilmani yaxshilash va talabalar uchun o'qish jarayonini interaktiv qilish zarur. Selwyn bu jarayonda o'qituvchilarni tayyorlashning ahamiyatini ta'kidlaydi [2]. O'qituvchilarning raqamli vositalarni qo'llashda malakasi o'zgarishlarga javob berishi kerak.

3. Raqamli texnologiyalar orqali o'qitish jarayonining samaradorligi

O'quvchilar, o'qituvchilar va ish beruvchilar o'rtasidagi aloqa yaxshilanadi, bu esa iqtisodiy rivojlanishga olib keladi. OECD raqamli iqtisodiyotning o'sishi uchun bunday aloqa va integratsiyaning muhimligini ko'rsatadi [3]. Bu jarayonda raqamli platformalar va vositalar orqali o'zaro munosabatlarni yanada kuchaytirish mumkin.

4. Raqamli texnologiyalar ijodkorlik va innovatsiyani rag'batlantiradi

Zamonaviy iqtisodiyotda raqamli yechimlar yaratish, yangi g'oyalarni amalga oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Al-Farobiy bilim va innovatsiya o'rtasidagi bog'lanishni ko'rsatadi [4]. Bu esa yangi loyihalar va dasturlar yaratish imkonini beradi.

5. Raqamli texnologiyalarni qo'llashda maqsad va motivatsiya

Maqsad va motivatsiya raqamli vositalarni o'z maqsadlariga erishishda qo'llashda muhim rol o'ynaydi. Raqamli texnologiyalar va bilim o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashda hadislar va diniy fikrlar ham muhim ahamiyatga ega. Rasulullоh (s.a.v.)ning "Ilm o'rganish har bir musulmonning farzidir" degan hadisi (Ibn Majah, 224) bilim olishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Ibn Sino esa "Bilim — bu insonning eng muhim vositasi" deb ta'kidlaydi [5].

Xulosa

Raqamli texnologiyalar va zamon o'rtasidagi uyg'unlik ta'lim va iqtisodiy sohalarda innovatsiyalarni yaratishga, bilim va tajribalarni yangilashga yordam beradi. Bu uyg'unlikni ta'minlash orqali jamiyatimizning taraqqiyotiga katta hissa qo'shishimiz mumkin. Uyg'unlik, shuningdek, jamiyatning o'zgarishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bu esa kelajakdagi rivojlanish uchun muhim omil hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Castells, M. (2010). The Rise of the Network Society. Oxford: Wiley-Blackwell.

2. Selwyn, N. (2012). Education and Technology: Key Issues and Debates. New York: Continuum.

3. OECD. (2020). The Digital Economy: Outlook 2020. Paris: OECD Publishing.

4. Al-Farobiy, A. (2000). Al-Farabi's Philosophy of Science. Cambridge: Cambridge University Press.

5. Ibn Sino. (1989). The Canon of Medicine. Kharazmi Publishing.

6. Ibn Majah. (n.d.). Sunan Ibn Majah. Hadis to'plami.

RESPUBLIKAMIZDA SPORT TURLARINI RIVOJLANTIRISH HAMDA MALAKALI MURABBIYLARNI TAYYORLASH

ALFRAGANUS UNIVERSITY
Sport faoliyati kafedrasi (PhD) dotsenti
Abdiyev Shyerzod Abduraxmonovich,
Magistr F.Yo‘ldasheva, Toshkent.
sherzodabdiev759@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada respublikamizning barcha hududlarida sport turlarini rivojlantirish hamda malakali murabbiylarni

tayyorlash tizimi bo'yicha ilmiy asoslangan nazariyalar bo'yicha ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, yuqori malakali murabbiylar, ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlari.

Abstract. This article provides information on scientifically based theories on the development of sports in all regions of our republic and the system of training qualified trainers.

Key words. Development of physical education and sports in our country, highly qualified trainers, long-term preparation stages.

Аннотатsiя. В данной статье представлена информатsiя о научно обоснованных теориях развития спорта во всех регионах нашей республики и системе подготовки квалифицированных тренеров.

Ключевые слова. Развитие физической культуры и спорта в нашей стране, высококвалифицированные тренеры, многолетние этапы подготовки.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki bugungi o'zbek sporti milliy madaniyatimizning uzviy qismi hisoblanib, u keng xalq ommasini yuksak axloqiy ruhda tarbiyalashda va salomatligini mustahkamlashda asosiy vositalardan biri bo'lib kelmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev jismoniy tarbiya sportga juda katta e'tibor qaratmoqda. Jumladan, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, yosh avlodni sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishishi uchun juda ko'p shart sharoitlar yaratib bermoqda.

Jumladan, 2017-yil 3-iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3031-son, PQ-4061-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-maydagi "O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti faoliyatini tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida" gi 331-sonli va PQ-3775 son Qarorida Ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlariga iqtidorli sportchilarni saralash, samarali tayyorgarligini ustuvor yo'nalishlarini ko'rsatib o'tiladigan sportchilar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirishga e'tibor qaratmoqda.

Dolzarbligi. Hozirgi kunda jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga vatanimiz uchun zarur bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalashning manbai sifatida nazardan chetda qolgan. Shuningdek Respublikamizda nafaqat viloyatlarda, tumanlarda hamma sport turlari

bo‘yicha yuqori malakali trenerlar yetishmasligi hozirgi kunda dolzarb muammolardan sanaladi.

Shu jihatdan jismoniy tarbiya va sport harakatini boshqarish, bu soha uchun yetuk kadrlar tayyorlash, ularning malakalarini zamon talablarini asosida oshirib borish asosiy muamolardan biridir. Ayniqsa, yosh avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk hamda ma’nan, jismonan va baquvvat bo‘lib rivojlanishi uchun malakali mutaxassislar tayyorlash muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi kadrlar tayyorlash tizimi tayyorlash tizimi takomillashtirish va ilmiy salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi 2020-yil 2-martdagi PF-5953 sonli Farmon bilan tasdiqlangan. Bu esa o‘z navbatida jismoniy tarbiya va sport sohasida xalqaro standartlarga muvofiq kompleks bilimlarga ega malakali kadrlar tayyorlash tayyorlash sifatini yaxshilash, sportda ilm-fanni jadal rivojlantirish, yuqori malakali raqobatdosh trener-o‘qituvchilar, mutaxassislar hamda ilmiy xodimlar tayyorlash jarayonlarini yanada takomillashishiga zamin yaratilmoqda.

Tadqiqot ishining maqsadi. O‘zbekistonning cheka hududlarida sport turlarini keng targ‘ib qilish orqali malakali murabbiylar tayyorlash hamda jahon arenalarida yuqori natijalarga erishishdan iborat.

Tadqiqot ishining vazifasi: 1.Yurtimizda har bir sport turini rivojlantirish va ommalashtirish hamda hamma shart sharoitlarni o‘rganish.

2. Malakali murabbiylar, kadrlar tayyorlash va ularning muommolarini o‘rganish.

Tadqiqot ishining muhokamasi. So‘ngi yillarda O‘zbekistonda sportga e’tibor kun sayin ortib bormoqda. Ayniqsa xotin qizlar sportiga bo‘lgan e’tibor hududlar miqyosida ancha avj oldi. “Xotin-qizlarni qo‘llab quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash, tizimni yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Respublikamizning ko‘pgina hududlarida pedagogik kollej va Oliy ta'lim muassasalarida ham alohida xotin-qizlar yo‘nalishlari, nafaqat pedagogika institutlarda balkim O‘zbekiston Davlat Jismoniy tarbiya va sport universitetida ham 2006 yilda xotin-qizlar yo‘nalishi ochilgani so‘zimiz isbotidir. Hozirgi kunda chekka-cheka qishloqlarda xotin qizlar sportini rivojlanishida biroz to‘xtalish mavjud. Bunga asosiy sabablardan o‘zbek

mentalitetiga xos xususiyatlar, ota-onalarning eskicha fikrlashi, urf-odat va an'analarning haliyam borligi, qizlarning psixologik jihatdan uyalishi, ayol murabbiylarimizning yetishmasligidir. Qishloqlarda xotin-qizlar va ota onalarimizning sport haqida to'g'ri, yetarlicha ma'lumotga ega emasligi, moliyaviy yetishmovchilik va shunga o'xshash ko'plab sabablar qishloqlarda xotin qizlar sportini keng ommalashishiga to'sqinlik qilmoqda. Ayniqsa xotin qizlarimiz uchun alohida sportga jalb etuvchi tanlov va musobaqalarning deyarli tashkil etilmasligi bu qishloqlarda xotin-qizlarning sportga qiziqishini tushirib yubordi.

O'zbekistonning har bir hududida xotin qizlar sportiga bo'lgan qiziqishni oshirish, ularni jismonan sog'lom va baquvvat bo'lishiga alohida e'tibor berish, xotin-qizlar sportini ommalashtirishda avvalo qizlarimizni sportga to'g'ri yo'naltira olish hamda psixologik jihatdan bilim saviyasini oshirish, ota-onalarning sportga bo'lgan tushunchasini shakllantirishga alohida e'tibor berish lozim.

Bejizga birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov "Sog'lom ona - sog'lom bola" shiorini ilgari surmaganlar va xotin-qizlar sportiga alohida e'tibor qaratmaganlar.

Shu bois qishloqlarda xotin-qizlar sportini yanada ommalashtirish uchun joylarda sportga qay darajada e'tibor qaratilganligini o'rganmoqchi bo'ldik. Va xotin- qizlarni sportga qiziqishini, tashabbuskorligini ko'rib to'g'risi odamning ancha kayfiyati ko'tariladi, ruhlanadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Xotin-qizlar sportini keng ommalashtirishida tegishli tashkilotlar va ayol murabbiylarimizning o'rni juda muhim ekanligini tushunib yetdik.

Xulosa. Yurtboshimiz tomonidan, respublikamizning barcha chekka tumanlarida sport turlarini keng targ'ib qilib, ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari ko'rish, yosh avlod uchun barcha shart – sharoitlar yaratilmoqda.

Ayniqsa, sportchilarimizning jahon arenalarida yurtimiz bayrog'ini yuqorida o'rinda bo'lishi uchun salohiyatli kadrlar tayyorlash uchun katta ahamiyat qaratmoqda. Yosh avlodni barcha qiziqqan sport turlari bilan shug'ullanishi uchun zamin yaratib kelinmoqda. So'zimiz isboti sifatida Ozbekiston Respublikasi Konstitutisiyaning yangi tahrirdagi 42 moddasida aholini jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullantirish masalasiga e'tibor berilishi bu orqali esa, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish yuzaga keladi. Bu borada esa, Jismoniy tarbiya va sportni rivojlanishiga

malakali mutaxassislarning o‘rni muhim. Shuning uchun hozirgi kunda yosh kadrlarni yetishtirish muhim ahamiyatga kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдиев Шерзод Абдурахмонович. "ПАРАЛИМПИЯ ЗАҲИРА СПОРТЧИЛАРИНИ КИНЕМАТИК ТАВСИФЛАРИ БЎЙИЧА САРАЛАШ" Research Focus, vol. 2, no. 12, 2023, pp. 76-80.
2. Абдиев Шерзод Абдурахмонович. "МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ ПРИ ПОМОЩИ СПЕЦИАЛЬНЫХ СРЕДСТВ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ" Research Focus, vol. 2, no. 12, 2023, pp. 66-69.
3. Абдиев, Шерзод Абдурахмонович. "ПАРАЕНГИЛ АТЛЕТИКАЧИЛАРНИ МАШҒУЛОТ ЮКЛАМАЛАРИНИ РЕЖАЛАШТИРИШ ОРҚАЛИ ЮҚОРИ НАТИЖАЛАРГА ЭРИШИШ." *Research Focus International Scientific Journal* 2.12 (2023): 70-75.
4. Абдиев Шерзод Абдурахмонович. "ПАРАЛИМПИЯ ЗАҲИРА СПОРТЧИЛАРНИ БИОМЕХАНИК ТАВСИФЛАРИ БЎЙИЧА САРАЛАШ" Research Focus, vol. 3, no. 5, 2024, pp. 140-146.
5. Abdiyev Sherzod Abduraxmonovich. "IMKONIYATI CHEKLANGAN SPORTCHILARNI PARA YENGIL ATLETIKANING YUGURIB KELIB UZUNLIKKA SAKRASH TURIGA O‘RGATISH USLUBIYATI" Research Focus, vol. 3, no. 5, 2024, pp. 94-101.

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

A’zamov Ruhulloh Mahmudjon o‘g‘li, dotsent, Alfraganus university
Yakubov Ikrom Farxod o‘g‘li - Alfraganus university Magistr

Annotatsiya: Ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biri - o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma, malakalarni yuqori darajada berishdan iboratdir. Jumladan, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fan yo‘nalishlari bo‘yicha uzviylashtirilgan o‘quv dasturlar, zarur me’yoriy hujjatlar va rejalarning amalga joriy etilishi bilan birga ta’limda yangi

innovatsion pedagogik texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarda bilim samaradorligini yanada oshirish imkoniyatlari yaratilmoqda.

Аннотатsiя: Одним из важнейших факторов повышения качества и эффективности образования является предоставление учащимся знаний, навыков и умений высокого уровня. В частности, при внедрении интегрированных учебных программ, необходимых нормативных документов и планов в общеобразовательных школах, за счет использования новых инноватsионных педагогических технологий в образовании будут повышаться эффективность знаний учащихся.

Annotation: One of the most important factors in improving the quality and effectiveness of education is providing students with high-level knowledge, skills and abilities. In particular, with the introduction of integrated curricula, necessary regulatory documents and plans in comprehensive schools, through the use of new innovative pedagogical technologies in education, the effectiveness of students' knowledge will increase.

Kalit so‘zlar: Jismoniy tarbiya,o'qitish metodikasi,so'z metodi,kuzatish metodi,innovatsion ta’lim metodlari,chidamlilik,jismoniy barkamollik,jismoniy mashqlar.

Ключевые слова: Физическое воспитание, методика обучения, метод речи, метод наблюдения, инноватsионные методы обучения, выносливость, физическая подготовленность, физические упражнения.

Keywords: Physical education, teaching methods, speech method, observation method, innovative teaching methods, endurance, physical fitness, physical exercises.

Jismoniy tarbiyaga o‘z davrida buyuk sohibqiron Amir Temur ham katta e’tibor bergan. Sharqda dilovarlik tarbiyasi, ya’ni yoshlarda mardlik, jasurlikni tarbiyalash asosiy masalalardan sanalgan. Yigitlar bolalikdan merganlik, chavandozlik, suvda suzish, ovchilik, qilichbozlik, shaxmat o‘yini kabilarni mohir murabbiylardan o‘rganib, bu borada mashq qilar edilar. Jismoniy tarbiya pedagogik jarayon bo‘lib, yosh avlodning sog‘ligi, jismonan yetuk, ijtimoiy faol, axloqan sog‘lom o‘suvchi avlodni shakllantirishni takomillashtirishga yo‘naltirilgan bir tarbiyaviy vositadir. Jismoniy tarbiya jarayonida organizm funksional va morfologik takomillashtiriladi, harakat ko‘nikmalari, jismoniy harakat sifatlari: epchillik, tezkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik, chidamkorlik maxsus bilim bilan shakllanadi. Shuning uchun jismoniy tarbiya darslarining

samaradorlik darajasini orttirish, unda qo‘llaniladigan usul va vositalarning zamonaviy pedagogik imkoniyatlaridan, darsda milliy o‘yinlardan foydalanish – davr talabidir. Jahon hamjamiyatida tobora mustahkam o‘rin egallay boshlagan respublikamizda boshqa sohalar qatori jismoniy tarbiya va sportga ham alohida e’tibor berilmoqda. Qadim-qadimdan yurtimiz jahonga mashhur polvonlari, barchani lol qoldirgan chavandozlari, sheryurak yigit-qizlari bilan dong taratib kelgan. Ular haqida ulug‘ bobomiz Alisher Navoiydan tortib, barcha adibu shoirlarimiz, olimu faylasuflarimiz ajoyib va o‘lmas asarlar yaratganlar, she’ru dostonlar bitganlar, qo‘shiqlar kuylaganlar. Alisher Navoiyning jahon adabiyoti xazinasidan o‘rin olgan beqiyos kuch qudratga ega Farhod obrazining o‘zini eslash kifoya. Yoki xalq og‘zaki ijodi durdonalarining qahramonlari Go‘ro‘g‘liyu Alpomish, Avazxonu Sheralilarni eslashning o‘ziyoq Turonzamin qadimdan sherbilak va sheryuraklar yurti bo‘lib kelganligini bildirib turadi. Respublikamiz ilk bor mustaqillik maqomiga ega bo‘lgan tarixiy kundan boshlab jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan hisoblangan jismoniy tarbiya va sportga alohida e’tibor berila boshlandi. Respublikamizda birinchi bo‘lib «Sog‘lom avlod uchun» ordeni ta’sis etilganligining o‘ziyoq mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportning kelajagi porloq ekanligidan dalolat beradi. Chunki aholisi sog‘lom mamlakatning taraqqiyoti ham, rivojlanishi ham sog‘lom bo‘ladi. Sport harakati bilan birlashgan turli mamlakatlardan kelgan kishilarning tinchlik uchun kurashchilar ekanliklarini tarix juda yaxshi biladi. Chunki sport o‘z tabiatiga ko‘ra jahon miqyosida tinchlik elchisi vazifasini o‘tab kelmoqda. Xalqaro sport aloqalari rivojlangan sari davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, do‘stona munosabatlar ham mustahkamlanib bormoqda. Jismoniy tarbiya va sportni har tomonlama taraqqiy ettirish bevosita iqtisodiy sharoitlarga bog‘liq. Bugungi kunda mustaqil respublikamiz uchun aqliy yetuk, jismonan sog‘lom va baquvvat yigit va qizlar zarur. Mamlakatimiz ilk bor mustaqil qadam tashlay boshlagan dastlabki kezlardanoq bu muhim ishga alohida e’tibor berila boshlandi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida sog‘lom hayot tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiya va sport asosiy omillardan biri sifatida xizmat qilmoqda. Jamoat, guruh va shaxsdagi jismoniy kamolot tarbiya sub’ekti bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu sub’ektning jismoniy kamolotga bo‘lgan eqtiyoji bilan belgilanadi. Har tomonlama rivojlangan jismoniy kamolot, jismoniy kuch va jismoniy sifatlarning namoyon bo‘lishi shaxsning shaxsiy ehtiyoji hisoblanadi. Jamoa ehtiyoji bu mehnat jamoalarining yuqori

darajadagi ishlab chiqarish koʻrsatkichlariga erishishi, guruhlar ehtiyojining maqsadi 5 hisoblanadi. Jamoatchilik ehtiyoji esa Oʻzbekiston Respublikasining har tomonlama yetuk, jismonan sogʻlom yangi avlodini tarbiyalab, voyaga yetkazishdek ulugʻ vazifaga qaratilgandir. Hozirgi kunda bu ehtiyojlar mahkama va idoralarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot rejalarida koʻzda tutilmoqda. Shuni taʼkidlab oʻtish kerakki, jismoniy tarbiya vositalariga boʻlgan shaxsiy ehtiyoj asosiy hisoblanib, uning asosida jismoniy kamolotning taraqqiy etishi hamma ishlab chiqarish tarmoqlarida shakllanadi. Sport inson organizmiga foydali taʼsiri bilan bir qatorda «mushaklar quvonchi hissiyotini» roʻyobga chiqaradi, sogʻlom dam olishni tashkil etishda muhim oʻrin egallaydi, shaxsning oʻzligini anglashda qudratli vosita vazifasini bajaradi. Sport har doim oʻzining ommaviyligi bilan odamlar eʼtiborini jalb qilib kelgan. Sport tadbirlariga tomoshabinlarni jalb etishda hozirgi zamon axborot vositalarining xizmati katta. Shuning uchun ham yuqori koʻrsatkichli sport ommaviy sportning yuqori pogʻonasi boʻlib, hamisha ijtimoiy hodisalardan hisoblanib kelgan. Tadqiqotchilar maʼlumotiga koʻra, respublikamiz aholisining 10% dan ortigʻi sport musobaqalarini tomosha qilish uchun bevosita sport mashgʻulotlari oʻtkaziladigan sport inshootlariga boradilar, 80% ga yaqini esa sport koʻrsatuvlarini televizorda tomosha qilishadi. Xullas, sport faqat jismoniy kamolot vositasi boʻlibgina qolmay, balki u maʼlum darajada oʻziga xos sanʼat vazifasini ham oʻtaydi. Jismoniy tarbiya pedagogik jarayon boʻlib, yosh avlodning sogʻligi, jismonan yetuk, ijtimoiy faol, axloqan sogʻlom oʻsuvchi avlodni shakllantirishni takomillashtirishga yoʻnaltirilgan bir tarbiyaviy vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.

1. Abdullaev A., Xonkeldiev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Farg'ona 2001.

2. Качашкин М. Методика физической культуры.-М., 1982г.

3. Шарипова Д.Д., Мусурмонов А., Таирова М. "Формирование здорового образа жизни". Т., 2005г.

4. Gancharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. T.,2005-yil.

5.Usmonxo'jayev T.S. va boshqalar. Darslik. Jismoniy tarbiya - 7-8, "O'qituvchi" nashr, 2003-yil.

YOSH KURASHCHILARNING MAXSUS O‘YINLAR ORQALI JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH

Alfraganus university
Sport faoliyati kafedrasi
(PhD)., dotsenti N.Sh.Bobomuradov
Alfraganus university
2-bosqich magistranti F.H.To‘raeyv

Annotatsiya. Maqolada yosh kurashchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishda maxsus o‘yinlardan foydalanib, funktsional va asosiysi jismoniy tayyorgarlikni oshirish, bellashuv ko‘nikmalarini rivojlantirish, taktik fikrlashni yaxshilash, qiyin vaziyatlarda bellashuv olib borish qobiliyatini oshirish va an'anaviy bo'lmagan usullarni tezkorlik bilan amalga oshirish imkoninyatlarini rivojlantiradi usullari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: sport, boshlang’ich tayyorgarlik, ko’nikma, sog‘lom bosqich ,o‘yin vazifalari,sambistlar, muvofiqlashtirish,qobiliyat, texnik faoliyat.

Tadqiqotning ahamiyati. Zamonaviy sport uchun sportchilarning har tomonlama tayyorgarligi talablarini doimiy oshirib borish xarakterlidir. Bunday sharoitda yosh kurashchilarining boshlang’ch tayyorgarlik bosqichida texnik harakatlarining muvofiqlashtirish, chuqur o‘rganish katta ahamiyatga ega. Turli yoshdagi bolalarda jismoniy fazilatlar bir vaqtning o‘zida hosil bo‘lmaydi. Har bir sifatni rivojlantirish uchun uning eng katta o‘sishiga erishish mumkin bo‘lgan ba'zi sezgir davrlar mavjud. Ular qobilyatining o‘ziga xos xususiyatlariga ega va genetik jihatdan aniqlanadigan iqtidorining rivojlanish dasturiga ega.

Kichik yoshdagi bolalarda turli xil vosita harakatlariga qiziqish sezilarli darajada oshadi. Raqobat tuyg'usining kuchayishi ularni yangi harakatlarni izlashga va ularni, ayniqsa, kutilmagan holatlarda tanish bo‘lmagan narsalarni o‘rganishga olib keladi. Har bir inson nafaqat yangi harakatlarni o‘rganishga harakat qiladi, balki uni yaxshi sheriklar bilan egallashga harakat qiladi. Bu yoshda ular eng qiyin harakatlarni osongina muvaffaqiyatli o‘zlashtirishlari mumkin.

Maktab yoshidagilarning ya’ni 7-17 yoshdagilarni puxta tuzilgan dastur bilan shug'ullanadigan harakatlarda ta'lim olish uchun eng qulaydir, bu esa o‘z navbatida texnik tayyorgarlikning shakllanishiga sezilarli ta'sir

ko'rsatadi. Hozirgi kunda koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning biologik asoslari mavjud bo‘lib, ularning rivojlanishi kup vositalar yig’indisining shakllanishi asosida amalga oshiriladi. U bolalar va o‘smirlarning vosita funktsiyasini rivojlantirishda katta tengsizlikni aniqlashga muvaffaq bo‘ladi.

Kurash turli xil ekstrimal harakatlarga boy sport turi bo'lib, muayyan vazifa, kuch, vaqt va fazoviy parametrlar, muvofiqlashtirish murakkabligi va boshqalar bilan xarakterlanadi. Murakkab taktik va texnik harakatlar va majmualari, bir qator faoliyati doirasida ifodalaydi [1, 3,]. 7-10 yoshli boshlang’ch tayyorgarlik bosqichidagi sambochilarning harakat qobiliyatini yuqori o'sish sur'atlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Bu markaziy asab tizimining yuqori plastisitivligiga va harakatlarning ma’lum-vaqt xususiyatlarini takomillashtirishda ifodalangan vosita analizatorining jadal rivojlanishiga yordam beradi [3]. Kurashi mashg'ulotlarida alohida o‘rin egallaydi. Bir qator mualliflarning fikriga ko‘ra, jismoniy rivojlantirishni takomillashtirish turli darajadagi malakali sportchilarni tayyorlashning muhim bo‘limlaridan biri sifatida qaralishi kerak. Shuning uchun, o‘quv jarayonida jismoniy rivojlantirishni takomillashtirishga katta e'tibor berilishi kerak, uni sportchilarni tayyorlashning muhim bo‘limlaridan biri sifatida ko‘rib chiqish kerak.

Tadqiqot usullari va tashkiloti. Tadqiqotni nazariy rivojlantirish maqsadida, keyinchalik yosh kurashchilarida sport va sog'lomlashtirish va dastlabki bosqichlarda jismoniy rivojlantirishni shakllanishini dasturiy jihatdan metodik ta'minlash samaradorligini eksperimental tadqiqot jarayonida sinovdan o‘tkazildi. O‘rganish uch yil davomida 8 – 11 yoshli bolalar 2022 yildan 2024 yilgacha, unda 20 ta nazorat guruhi (ng) ishtirok etdi va 20-ta tajriba (tg) guruhlari.

Tadqiqot Qibray Bolalar va o’smirlar kurash maktab internatida amalga oshirildi. NGning yosh kurashchilar bo‘yicha taqdim etilgan dastur bo‘yicha o‘qitildi. TG o‘quv dasturiga biz ishlab chiqqan texnik harakatlar maxsus harakatli o‘yinlar usuli kiritilgan. Bizning o‘yin uslubimizda, olib keladigan mashqlar, o‘yin vazifalari asosiy raqobat harakatining umumiy tuzilishini, texnik harakatlarning tashqi biomexanik tuzilishini saqlab qoladi. Ularni amalga oshirishda vosita harakatlarini rivojlantirishga yordam beradigan sharoitlar ta'minlanadi, izchillik va bosqichma-bosqichlikning pisxologik shartlari asosida amalga oshiriladi, jismoniy rivojlantirishniga katta e'tibor qaratiladi.

Maxsus o‘yinlarni, o'yin vazifalarini ishlab chiqish, jismoniy fazilatlarni rivojlantirish uchun maxsus o‘ng mashqlarni bajarish simulyatsiya mashqlariga asoslangan edi. Simulyatsiya mashqlari turli malakali sportchilarning texnik harakatlarini tayyorlash va takomillashtirishda ishlatilgan.

Yosh kurashchilarning mashg'ulotlarida foydalanish uchun tavsiya etilgan o‘yin vazifalari va mashqlari ikki guruhga bo‘lingan. Birinchisi, vosita tajribasini kengaytirish, funktsional va asosiy jismoniy tayyorgarlikni oshirishga yordam beradigan maxsus o‘yinlar, umumiy rivojlanish maqsadlari va mashqlarini o‘z ichiga oladi. Ikkinchi guruh – o‘yinlar va maxsus yo'nalishdagi vazifalar. Ular kurash san'ati qobiliyatlarini qo'lga kiritish, taktik fikrlashni yaxshilash, kurashning qiyin holatlarida harakat qilish, noan'anaviy chiqishlarni topish, boshlang'ich kurashchilarda kurash ruhini qo‘llab-quvvatlash, raqib bilan kurashishga tayyor bo‘lish tuyg'usini tarbiyalashga yordam beradi. Ikkala o‘yin guruhi ham yosh kurashchilarning umumiy va maxsus tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratilgan.

Natijalar va ularning muhokamasi. Jismoniy rivojlantirishni tarbiyalashning asosiy yo'nalishi yangi turli xil vosita ko‘nikmalarini egallashdir. Bolalarda jismoniy rivojlantirish darajasini aniqlash uchun biz ikkita testdan foydalanganmiz: 3x10 m va Rombergning murakkab namunasi.

Eksperiment boshlanishidan oldin o'tkazilgan testda ng va tg bolalarining jismoniy tayyorgarligi darajasida sezilarli farqlar yo‘qligi aniqlandi: $p > 0,05$, 0,82 studentining t-mezonlari, T = 0,07 – Romberg namunasida). Jismoniy rivojlantirishni tarbiyalashda yangilik elementlarini o‘z ichiga olgan mashqlar ishlatilgan. Jismoniy rivojlantirishga qaratilgan vazifalar o'quv mashg'ulotining asosiy qismining boshida amalga oshirildi, bu esa yuqori sifatli fazilatlarni rivojlantirish bilan bog'liq.

Xulosa 1. Asosiy raqobat harakatining umumiy tuzilishini va texnik harakatlarning tashqi biyomekanik tuzilishini saqlab turuvchi o'yinlarni olib boruvchi mashqlarni, o‘yin vazifalarini ishlab chiqish usuli, vosita harakatlarini rivojlantirishni osonlashtiradigan shart-sharoitlarni yaratishga, ketma-ketlik va bosqichma-bosqichlikning didaktik tamoyilini amalga oshirishga imkon beradi.

2. Bu usul yosh kurashchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish, vosita tajribasini kengaytirish, funktsional

va asosiy jismoniy tayyorgarlikni oshirish, kurash mahorati ko'nikmalarini olish, taktik fikrlashni yaxshilash, qiyin vaziyatlarda kurash olib borish qobiliyatini yaxshilash va ulardan an'anaviy bo‘lmagan usullarni tezda topish imkonini beradi. O‘quv mashg'ulotlarini yanada aniqroq boshqarish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Бобомуродов Н. Ш. Физическая реабилитатsiя борцов с нарушениями в позвоночнике у квалифицированных борцов //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 874-879.
2. Бобомуродов Н. Ш. Technique of Recording Technical and Tactical Actions in Fight Turon //Eastern European Scientific Journal. – 2018. – №. 4. – С. 16-19.
3. Бобомуродов Н. Ш. Юкори малакали курашчиларнинг техник-тактик харакатларини ривожлантириш методикаси //Педагогик таълим" Илмий-назарий журнал. Тошкент. – 2011.
4. Бобомуродов Н. Ш. Контроль и анализ действий в борьбе турон //Фан-спортга" илмий-назарий журнали. Тошкент. – 2011.
5. Бобомуродов Н. Ш. Физиологический подход в прогнозировании перспективности борцов-туронистов //МуРаллим х, ем узликсиз билимлендириу" илмий-методикалык журнал. Нукус.-2019. – 2019.
6. Халмурадов Р. Н., Махмудов В. В., Арисланов И. Т. О значимости использования информатsионных технологий в образовательном процессе по физической культуре учащейся молодёжи //Молодой ученый. – 2017. – №. 15. – С. 684-686.
7. Арисланов И. Т. Тактическая подготовка квалифицированных спортсменов по мини-футболу на основе специальных упражнений: состояние проблемы и перспективы ее решения //Fan-Sportga. – 2020. – №. 2. – С. 17-20.
8. Эрдонов О. Л., Махмудов В. В., Арисланов И. Т. Соревнования по мини-футболу как эффективное средство физического воспитания студентов технического вуза //Молодой ученый. – 2015. – №. 3. – С. 886.

BELBOG’LI KURASHDA TEXNIK USULLARINING

TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSIYALAR ИННОВАТSИИ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ТЕХНИЧЕСКИХ ПРИЕМОВ БОРЬБЫ НА ПОЯСАХ INNOVATIONS IN IMPROVING BELT WRESTLING TECHNIQUES

Artiqova Odinaxon Madaminovna
Alfraganus universiteti o‘qituvchisi
SP23-2gr Kamolova Shahina

Annotatsıya Mazkur maqolada kurash bo‘yicha musobaqalarda yuqori tezkorlik bilan bajariladigan texnik usullardan foydalanish samaradorligi va uning natijaviylikka ta‘siri tahlili yoritilgan.

Аннотatsия В данной стате проведен анализ эффективности исползования скоростних технических приемов в соревнованиях по борбе на поясах и ее влияние на результати.

Annotatıon This article describes the analysis of the effectiveness of using high-speed technical methods in wrestling competitions and its impact on results.

Kalit so‘zlar: belbog‘li kurash, musobaqa, texnik usullar, malakali belbog‘li

kurashchilar.

Ключевые слова: борба на поясах, соревнование, технические приеми, висококвалифицированние борси.

Key words: belt wrestling, competition, technical methods, skilled belt wrestlers.

Tadqiqotning dolzarbligi. Jahon miqyosida barcha sport turlari kabi sport kurashida ham iste‘dodli, yuqori malakali sportchilar tayyorlash, ko‘p yillik, katta hajmli va o‘ta shiddatli mashg‘ulotlar, ayniqsa, tabora keskinlashib borayotgan raqobatlashish, musobaqa yuklamalariga bardosh berish qobiliyatini oshirish, yuksak natijalarga erishish imkoniyatini kengaytirish zarurligi ustuvor vazifalardan

ekanligi yaqqol ko‘rinib turibdi. Bunday o‘ta dolzarb muammolar hal etish uchun sportchilarda jismoniy, funksional va texnik-taktik tayyorgarlikni o‘z tarkibiga oluvchi maxsus ish qobiliyatini samarali noan‘anaviy mashqlar yordamida shakllantirish, uni tiklab borish, saqlash va barqarorlashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borish bilan bir

qatorda innovatsion yangilanishlarga ega bo‘lgan pedagogik texnologiyalarni o‘quv-mashg‘ulotlariga joriy etishni taqazo qilmoqda.

Dunyodagi sport amaliyotining yetakchi ilmiy tadqiqotchilari tomonidan mashg‘ulot va musobaqalar davomida shakllangan jismoniy hamda psixofunksional tayyorgarlik darajasini yaxshilash, texnik–taktik mahoratni oshirish, turli xil malakaga ega bo‘lgan belbog‘li kurashchilarni jismoniy sifatlarini rivojlantirish bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ilmiy izlanishlar ochib borilmoqda. Kuch sifatlarini rivojlantirishning yangi vosita, metodlarida sensitiv davrlarda beriladigan yuklama hajmi va shiddatini tartibga solishga qaratilmoqda. Tabiiyki, belbog‘li kurashda qo‘llar doimo belbog‘ni ushlash bilan band bo‘lishi texnik – taktik harakatlarni goh o‘nga, goh chapga ijro etilishi kurashchilarda texnikani maqsadli rivojlantirish yetarlicha ochib berilmagan. Aynan ana shu mavzuga doir masalalar deyarli o‘rganilmagani kuzatilmoqda.

Respublikamizda malakali belbog‘li kurashchilarni tayyorlash amaliyoti, mahalliy mutaxassis–olimlar tomonidan ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar tarkibida belbog‘li kurashchilarimizni Jahon va Osiyo musobaqalarida yuksak natijalarga erishishiga qaratilmoqda, “Milliy sport turlarini rivojlantirish va ommaviyligini oshirish, ularni Osiyo va Olimpiada o‘yinlari dasturlariga kiritish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish” vazifasi belgilab berilgan. Ammo dunyo miqyosida har bir xalq va elatning asrlar davomida paydo bo‘lib rivojlangan o‘ziga xos kurash turlari mavjud, shu qatorda O‘zbekistonda ham “Buxorocha” va “Farg‘onacha” usulda o‘tkazilib kelingan milliy kurash turlari keng ommalashgan. Jumladan, belbog‘li kurash jahonning barcha qit‘alarida rivojlanib ommaviylashayotgan sport turlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda mazkur kurash turi bilan shug‘ullanuvchi sportchilarni tayyorlash tizimini zamon talablariga moslashtirish yuzasidan keng ko‘lamli ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda.

Tadqiqotning maqsadi. Kurashchilarda zamonaviy texnik usullarni tasnifiy tizim va atamalarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning natijalari va muhokamasi.

Kurash turlarida texnik usullar bir biriga yaqin yani o‘xshashli, deyarli mashg‘ulot yuklamalari ham mutanosibligi seziladi. Lekin belbog‘li kurash sport turida texnik usullar boshqa kurash turlaridan farqli o‘laroq yopiq qo‘llar bilan kurashshishga davat etadi hamda u kurash turining usullarni ko‘tarib tashlash orqali bajarilishi sport turining jozibasini yanada oshirar

ekan. Maskur kurash sport turini texnik usullarini boshqa (yunon rum, kurash, dzyudo,) kurashchilarida sinab koʻrish uchun biz belbogʻli kurash usullarini tasnifnifi tizimi va ularni atamasini ishlab chiqdik.

Belbogʻli kurash sport turini usullari atama**si** boʻyicha **tasnifiy belgilari**

Belbog‘li kurashning asosiy usullari				
Yonbosh	**Ilma**	**Qaytarma**	To‘sma	Ko‘krakdan **oshirib tashlash**
Yonbosh dan oshirib tashlashlar kiradi	Tizza yordamida ko‘tarib tashlashlar kiradi	Bir tomonga ko‘tarib ikkinchi tomonga qaytarib yoki aylantirib tashlashlar kiradi	Raqibni o‘ng yoki chap tomoniga o‘tib tizza yordamida to‘sib tashlash kiradi	Raqibni to‘g‘risidan, o‘ng yoki chap yoniga o‘tib ko‘krakdan oshirib tashlashlar kiradi

Izoh: Belbog‘li kurash o‘zbek milliy sport turi hisoblanib uning texnik usullari nomi jahon miqyosida o‘zbek tilida yoziladi.

Ishlab chiqilgan usullar tasnifini O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti (yunon rum, kurash, dzyudo,) talaba yoshlari amaliyotiga joriy qilindi, boshqa kurash turlarida taqsil oluvchi sportchilar ushbu usullarni tez va aniq o‘zlashtirish natijasida mashg‘ulot va ichki musobaqalarda o‘z mahoratlarini ko‘rsatishdi. Bundan ko‘rinib turibdiki maskur kurash turlari murabbiylari ko‘tarib tashlash usullarini o‘rgatishdan foyda yo‘q deb o‘ylashar ekan.

Xulosa. Bu borada bir qator ilmiy tatqiqotlar o‘tqazib kelinmoqda. Tatqiqot natijalari asosida belbog‘li kurashchiga xos ustuvor jismoniy sifatlarni praporsional tartibda rivojlantirish va ularni qarshi xujumda qo‘llaniladigan texnik usullarni barbod qilishga mos taktik elementlar shakllantirib borilmoqda. Ayni kunda belbog‘li kurashchilar mashg‘ulotlarini, unda qo‘llaniladigan jismoniy va texnik mashqlarni inovatsion texnalogiyalar asosida shaklantirish sirlarini ochib beruvchi mahsus o‘quv qo‘llanmalarni tayorlash kerakligini bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Artiqov Z.S. Belbog‘li kurashchilarni texnik harakatlarga o‘rgatishda noananaviy mashqlardan foydalanish. “Zamonaviy dunyoda ilm-

fan va texnologiya” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasining 2023-yil -B. 35-37.

2. Mirzaqulov Sh.A. Yosh belbog‘li kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi. / Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman “Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va uslubiyatining zamonaviy muammolari”, II qism. Toshkent, 2015, -

B. 83-84.

3. Mirzaqulov Sh.A. Belbog‘li kurash nazariyasi va uslubiyati., T., 2014.

YAKKAKURASHCHILARINING TAYANCH-HARAKAT APPARATI FUNKSIONAL HOLATINI KLASTER YORDAMIDA O‘RGANISH

Alfraganus university Sport faoliyati kafedrasi
katta o’qituvchisi p.f.b.f.d.(PhD) M.N.Shukurov
Alfraganus university Sport faoliyati kafedrasi
M-24/1-guruh magistranti Farxodov Alisher

Annotatsiya

Talaba-kurashchilarning salomatligini saqlash bo‘yicha yaratilgan pedagogik sharoitlar klasterini tajriba guruhida qo‘llanishi natijasida pedagogik tajriba davomida THAning surunkali kasalliklarini o‘zgarish dinamikasini o‘rganish natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: talaba-kurashchilar, klaster, surunkali kasalliklar, pedagogik tajriba, tayanch-harakatlanish apparati.

Аннотатsiя.

Приведены результаты изучения динамики изменения в ходе эксперимента хронических заболеваний ОДА в результате применения кластера педагогических условий, созданного по сохранению здоровья студентов-курашистов.

Ключевые слова: студенты-курашисты, кластер, хронические заболевания, опорно-двигательный аппарат, педагогический эксперимент.

Kirish. “Kurash” sport turi dunyodagi barcha mamlakatlar mutaxassislari tomonidan kurashchilarni musobaqalarga tayyorlashning va texnik usullarga o‘rgatishning yoshga xos xususiyatlari, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni oshirish, mashg‘ulot va musobaqa jarayonida

kurashchilarni jarohatlanishlarini oldini olish va qayta tiklanishiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Lekin, kurash bellashuvlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, sportchilarning tayanch-harakat apparatiga katta xajmdagi jismoniy yuklamalar sifatida ta’sir qiluvchi maxsus-tayyorgarlik va korreksiyalovchi mashqlarning pedagogik shartlari bo‘yicha mashg‘ulotlar klasterini amalga oshirishga qaratilgan izlanishlar yetarli emas. Kurashchilarning tayanch-harakat apparati tizimiga beriladigan og‘ir jismoniy yuklamalar va maxsus-tayyorgarlik mashqlarini qo‘llashda zamonoviy usullardan foydalanish, amaliy ko‘rinishdagi texnik mahorat bilan pedagogik uslublarni deyarli yo‘qligi, kurashchilarni texnik-taktik xarakatlarga o‘rgatishda klaster uslubidan foydalanishni takomillashtirish masalasi dolzarbligini taqozo etadi.

Jonajon Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportga, xususan, sportning Kurash turiga qaratilgan e’tibor jahon sport hamjamiyati tomonidan alohida e’tirof etilmokda. “Aholining barcha qatlamlarini kurash bilan shug‘ullanishga keng jalb qilish hamda O‘zbekistonda kurashni umumxalq sport turiga aylantirish” vazifasi belgilab berilgan. Kurash sport turiga qobiliyatli va iqtidorli yosh sportchilarni tanlab olish va ularni texnik harakatlarga o‘rgatishda klaster uslubidan foydalanishga qaratilgan mashg‘ulot uslubiyatini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda. Sport kurashi turlarining barchasiga xos texnik-taktik harakatlar va jismoniy sifatlarni rivojlantirish bo‘yicha kuplab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda, ammo kurashchilarni texnik-taktik xarakatlarga o‘rgatishda klaster uslubidan foydalanishni takomillashtirishga yo‘naltirilgan maxsus yordamchi mashg‘ulot yuklamalarini taqsimlash va rejalashtirishning ahamiyati va uning samaradorligini aniqlash masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar yetarli emasligi “Kurash” sport turida respublikamiz sportchilarini yuqori marralarga erishishlari uchun ularni texnik harakatlarga o‘rgatishda klaster uslubidan foydalanishni takomillashtirishni dolzarbligidan dalolat beradi.

Maqsad va vazifalar. Tayyorgarlik bosqichlarida kurashchilarni jarohatlanishi holatlarini oldini olish va musobaqa sharoitida maxsus-tayyorlov mashqlar samaradorligini oshirish. Olingan natijalarning statistik xarakteristikalarini hisoblash, hisoblashda olingan natijalarni solishtirish va muhokama qilish. Shu maqsadlar uchun kurashchilarning texnik-taktik harakatlarini takomillashtirishda qo‘llaniladigan maxsus-tayyorlov mashqlar majmuasini ishlab chiqish; kurashchilarni texnik-taktik harakatlarga o‘rgatishni takomillashtirish singari vazifalar olindi.

Tadqiqot usullari va uni tashkil etilishi. Tadqiqot davomida ilmiy-uslubiy adabiyotlar materiallarini umumlashtirish va tahlil qilish, pedagogik kuzatish, pedagogik tajriba usullaridan foydalanildi. Nazorat va tajriba guruhlari (n=14) kurashchilari uchun salomatlikni saqlash bo‘yicha yaratilgan pedagogik sharoitlar klasterini qo‘llash natijasida surunkali kasalliklarini o‘zgarish dinamikasi o‘rganildi.

Tadqiqot natijalari va ularni muhokama qilish. Kurashchilarning salomatligini saqlash bo‘yicha yaratilgan pedagogik sharoitlar klasterini tajriba guruhida qo‘llanishi natijasida pedagogik tajriba davomida THAning surunkali kasalliklarini o‘zgarish dinamikasi tajriba guruhida (nisbiy ijobiy o‘zgarish 23,13 %) nazorat gurihidagiga (nisbiy ijobiy o‘zgarish 9,58 %) nisbatan ancha yuqori ijobiy o‘zgarishga olib kelganligini ko‘rish mumkin va bu, tajriba guruhida qo‘llanilgan pedagogik sharoitlar klasterining samaradorligini tasdiqlaydi.

Kurashchilarning tayanch-harakat apparati holatini yaxshilanishi sportchining tibbiy ma’lumotnomasidagi tashhis bilan tasdiqlangan (1- va 2-jadvallarga qarang).

1-jadval

Tajriba boshida kurashchilarining tayanch-harakat apparati funksional holatini klasteri tavsifi, (n=31)

			Vazn toifalari							
	Bo‘g‘imlar klasteri		**66 kg gacha**		**73 kg gacha**		**81 kg gacha**		**90 kg va undan yuqori**	
			± σ	$\overline{X}$ isbiy o‘sish %	± σ	$\overline{X}$ isbiy o‘sish %	± σ	$\overline{X}$ isbiy o‘sish %	± σ	$\overline{X}$ isbiy o‘sish %
	Umurtqa	Bo‘yin, %	17.3±1.9	8.47	16.5±1.9	8.82	20.3±2,3	8.56	22.2±2,5	9.02
		Ko‘krak,%	16.4±1.7	7.87	18.1±1.9	8.59	20.4±2,2	8.33	21.9±2,3	7.20

		Bel, %		19.3±2,2	.538	20,4±2,5	.93	26.9±3,3	.88	31,2±3,4	.596
		Dum g‘aza,%		23,2±2,1	.739	22.9±2,1	.03	21.8±2,5	.23	26.8±3.2	.228
	Bo‘g‘imlar	Bilak, %	hap	18.1±2,1	.509	19.9±2,2	.72	21.4 ±2.6	.55	22.9 ±2,3	.768
			‘ng	17.9±2,0	.218	19.6±1.9	.26	21.6 ±2,4	.30	23.2 ±2,5	.577
		Tirsak, %	hap	18.2±2,2	.009	20.1±2,3	.80	21.2 ±2.6	.40	22.8 ±2,4	.169
			‘ng	19.6±2,2	.848	20.8±2,2	.17	22.7 ±2,5	.35	23.4 ±2,3	.877
		Yelka, %	hap	19.4±2,1	.627	19.4±2,3	.62	22.1 ±2.7	.05	23.8 ±2.9	.818
0			‘ng	19.6±2,1	.987	19.6±2,2	.41	23.0 ±2.8	.73	23.9 ±2.8	.367
1		Tos-son, %	hap	23.6±2,4	.356	22,5 ±1.8	.64	21.1 ±2,4	.26	24.8±2,6	.169
2			‘ng	24.0±2,2	.758	23.8 ±2,7	.81	21.6 ±2,5	.90	26.2 ±2.9	.078
3		Tizza, %	hap	24.4±2,0	.999	24.1 ±2,1	.02	22.5 ±2.6	.91	26.4 ±3,1	.658
4			‘ng	25.1±2,4	.727	24.3 ±2,2	.90	21.9 ±2,3	.59	26.3 ±2,6	.397

5		B oldir-tovon, %	hap	25.4±2,1	8.27	23.6 ±2,3	.88	22,6 ±2,6	.13	26.4 ±2,5	8.33
6			‘ng	24.6±2,2	8.55	24.1 ±2,2	.02	21.5 ±2,4	.28	25.8 ±2,4	9.15

2-jadval

Tajriba oxirida kurashchilarining tayanch-harakat apparati funksional holatini klasteri tavsifi, (n=31)

	Vazn toifalari									
	Bo‘g‘imlar klasteri			66 kg gacha		73 kg gacha			81 kg gacha	
				$\overline{X}$ ± σ	Nisbiy o‘sish %	$\overline{X}$ ± σ	Nisbiy o‘sish %	$\overline{X}$ ± σ	isbiy o‘sish %	
1	Umurtqa pog‘onasi	Bo‘yin, %		17.3±1.9	8.47	16.5±1.9	7.82	20.3±2,3	8.56	
2		Ko‘krak,%		16.4±1.7	7.87	18.1±1.9	8.59	20.4±2,2	9.33	
3		Bel,%		19.3±2,2	8.53	20,4±2,5	8.93	26.9±3,3	7.88	
4		Dumg‘aza ,%		23,2±2,1	9.73	22.9±2,1	8.03	21.8±2,5	7.23	
5	Bo‘g‘imlar	Bilak, %	Chap	18.1±2,1	9.50	19.9±2,2	8.72	21.4 ±2.6	8.55	
6			O‘ng	17.9±2,0	8.21	19.6±1.9	9.26	21.6 ±2,4	7.30	
7		Tirsak,%	Chap	18.2±2,2	9.00	20.1±2,3	7.80	21.2 ±2.6	9.40	
8			O‘ng	19.6±2,2	8.84	20.8±2,2	9.17	22.7 ±2,5	7.35	
9		Yelka, %	Chap	19.4±2,1	7.62	19.4±2,3	7.62	22.1 ±2.7	9.05	
10			O‘ng	19.6±2,1	7.98	19.6±2,2	8.41	23.0 ±2.8	8.73	
11		Tos-son, %	Chap	23.6±2,4	6.35	22,5 ±1.8	6.64	21.1 ±2,4	8.26	
12			O‘ng	24.0±2,2	8.75	23.8 ±2,7	8.81	21.6 ±2,5	6.90	
13		Tizza, %	Chap	24.4±2,0	8.99	24.1 ±2,1	8.02	22.5 ±2.6	8.91	
14			O‘ng	25.1±2,4	7.72	24.3 ±2,2	6.90	21.9 ±2,3	7.59	
15		Boldir-tovon, %	Chap	25.4±2,1	8.27	23.6 ±2,3	8.88	22,6 ±2,6	8.13	
16			O‘ng	24.6±2,2	8.55	24.1 ±2,2	8.02	21.5 ±2,4	9.28	

Buning uchun avvalo vazn toifasiga qarab kurashchilar xususiyatlarining o‘rtacha ko‘rsatkichlari aniqlandi. Umurtqa pog‘onasi va bo‘g‘imlarni funksional holatini tahlil qilish, ko‘rsatkichlarning barchasi o‘rtacha belgilangan me’yordan yuqori (10 %) ekanligini ko‘rsatdi, bu, kurashchilarning THA harkatchan bo‘g‘imlarida mu’tadil giperfunksional

og‘ishlar mavjudligidan dalolat beradi. Kurashchilarda kichik giperfunksional og‘ishlar umurtqaning bel, dumg‘aza va ko‘krak bo‘limlarida kuzatildi.

Xulosa: kurashchilarning salomatligini saqlash bo‘yicha yaratilgan pedagogik sharoitlar klasterini tajriba guruhida qo‘llanishi natijasida pedagogik tajriba davomida THAning surunkali kasalliklarini o‘zgarish dinamikasi tajriba guruhida (nisbiy ijobiy o‘zgarish 23,13 %) nazorat gurihidagiga (nisbiy ijobiy o‘zgarish 9,58 %) nisbatan ancha yuqori ijobiy o‘zgarishga olib kelganligini ko‘rish mumkin va bu, tajriba guruhida qo‘llanilgan pedagogik sharoitlar klasterining samaradorligini tasdiqlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Горбунов А.Ю., Корепанова Ю.А. Формирование физической культуры личности студента политехнического университета средствами спорта (на материале единоборств) (PDF) Монография. — Пермь : Изд-во Перм. нац. исслед. политехн. ун-та, 2013. — 144 с. — ISBN 978-5-398-01055-8.

2. Гофуров А.У. Курашчиларнинг техник ва тактик тайёргарлигини такомиллаштириш.: “Фан-спортга”, Т., 2016, № 4., Б.21-25.

3. Железняк Ю.Д., Кашкаров В. А., Кравцевич И.П. и др. – Педагогическое физкультурно – спортивное совершенствование. Учеб.пособ.для студен.вузов. М.: AKADEA. 2002г. С.384

4.Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва услубияти: Дарслик. – Т., 2001. – 285 б.

5. Спортда педагогик тадкикот натижаларини интерпретатsiя килиш усулларини солиштириш, Акбаров Ахматжон, Фан-спортга, № 6, 62-64, 2021.

B O‘ S M tarbiyalanuvchilarni yosh jixatlarini xisobga olib yengil atletika mashg‘ulotlari jarayonida maxsus mashqlarni qo‘llanilishi samaradorligi.

ALFRAGANUS UNIVERSITY
Sport faoliyati kafedrasi (PhD) dotsenti
Abdiyev Shyerzod Abduraxmonovich,
sherzodabdiev759@gmail.com
22-15 gurux talabasi J.Ashirov

Kirish. Yurtimizda jismoniy tarbiya va sportga katta ehtibor berilmoqda.

Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish uchun bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Bulardan 14 yanvar 1992 yildagi O‘zbekiston Respublikasi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonuni, 31 oktyabr 2002 yildagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining “O‘zbekistonda bolalar sportini rivojlantirish jamgarmasini tuzish t o‘g‘risida”gi karori va 24 sentyabr 2004 yildagi O‘zbekiston Respublikasi Perzidentining “O‘zbekistonda Bolalar sportini rivojlantirish jamgarmasini tuzish t o‘g‘risida”gi Farmoni, 2013 yil 25 fevraldagi Prizidentimizning 2016 yil Rio De Jenero (Brazilya) shaxrida bo‘lib o‘tgan XXXI yozgi olimpiyada va XV paralimpiyada o‘yinlariga tayyorgarlik t o‘g‘risidagi PҚ 19 23-sonli qarorida k o‘p yillik tayyorgarlik sikllariga zaxira sportchilarni izlab topish va tayyorlash masalalariga etibor qaratgan.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda yengil atletika bilan shuғullanuvchi yoshlarning soni kun sayin oshib bormoқda.Albatta bu yurtimizda yўlga қўyilgan isloxatlarni to‘g‘riligidan dalolatdir.Xozirda yosh sportchilarimiz ichidan iqtidorli istiqboli bor sportchilarni izlab topish ko‘p yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlariga yo‘naltirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi. B O‘ S M tarbiyalanuvchilari bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar xajmi, meyori, bajarilish surati albatta tarbiyalanuvchilarning jismoniy tayyorgarligi, rivojlanganlik darajasi, funktsional xolati xamda yosh jixatlariga mos bo‘lishi kerak.

Biz bilamizki jismoniy mashklar organizmning asab va turli xil tizimlariga ijobiy tahsir kursatadi, inson salomatligini mustaxkamlash yuli bilan ruxini, salaxiyatini yuksaltiradi.

Ko‘pgina olimlar tomonidan utkazilgan tajribalar natijalari shuni kursatadiki, shaxsning jismoniy shakllanishi va jismoniy tayyorgarlik darajasiga va shaxsni mexnat qila olish qobiliyatiga xamda doimiy bajariladigan mashqlar xarakteri va xajmiga bog‘likdir deb takidlashgan. Xozirgi vaktda sportchilar organizmiga ortikcha jismoniy yuklama qanday

tasir kursatishi bo‘yicha ko‘pgina malumotlar to‘plangan bulsada, o‘quvchi yoshlar organizmi xususiyatlarini xisobga olmasdan, ularga bir xildagi yuklamalar berish xollari xam ko‘p uchraydi. Shu tufayli mashg‘ulot (yahni mashg‘ulot) jarayonini to‘g‘ri rejalashtirish xamda yuklamalarni to‘gri taqsimlash maqsadga muvofiqdir.

Ishning maqsadi. 14-15 yoshli B O‘ S M tarbiyalanuvchilarni yosh jixatlarini xisobga olib yengil atletika mashg‘ulot jarayonida maxsus mashqlar orqali mashg‘ulot samaradorligini oshirishdan iboratdir. Sportchilar tayyorlashda ko‘p yillik mashg‘ulot jarayonining boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida asosiy maqsadimiz: xar tomonlama jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish va jismoniy sifatlarini rivojlantirishga etibor qaratiladi.

Ishning vazifasi. Yosh sportchilar yani qisqa masofaga yuguruvchida yugurish tezligiga va marafonchi chidamliligiga ega bo‘lishi kerak. Zamonaviy sport sportchilardan jismoniy sifatlarning doimiy rivojlanish va xar doim yangi darajaga ko‘tarilishni talab qiladi. Shuning uchun tayyorgarlik davrida shug‘ullanuvchilarga mashg‘ulot asoslaridan saboq berib borish lozim va amaliyotda nazorat qilish zarur, yani xar bir mashg‘ulot oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalar ularni qaysi maxsus mashqlar yordamida amalga oshirish zarurligi bilan tanishtirib borish kerak. Tajriba va nazorat guruxi shugullanuvchilarining xaftalar soni, tajriba boshidan tekshirilgan mashgulotlar soni,sinov musobaqalari,mashg‘ulotlarning umumiy vaqti aniqlandi. Nazorat guruxidan ko‘ra Tajriba guruxi shugullanuvchilari biz tamonimizdan tavsiya etilgan maxsus mashqlardan foydalanildi. 14-15 yoshli o‘quvchilarni jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash va shunga asosan mashg‘ulot jaroyonini to‘g‘ri rejalashtirishga erishildi.

Xulosa o‘rnida 14-15 yoshli o‘quvchilarni yosh jixatlarini xisobga olib mashg‘ulot jarayonini to‘g‘ri rejalashtirish va shug‘ullanuvchilarni maxsus mashqlar orqali asosiy jismoniy sifatlarini tarbiyalash kutilgan natijasini berdi.Tajribada 14-15 yoshli o‘quvchilarni mashg‘ulotlarga tayyorlashda ilmiy-uslubiy ko‘rsatmalar, mashg‘ulotlar shakllari xamda vositalari to‘g‘ri tanlanganligi amalda isbotlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

6. Абдиев Шерзод Абдурахмонович. "ПАРАЛИМПИЯ ЗАҲИРА СПОРТЧИЛАРИНИ КИНЕМАТИК ТАВСИФЛАРИ БЎЙИЧА САРАЛАШ" Research Focus, vol. 2, no. 12, 2023, pp. 76-80.
7. Абдиев Шерзод Абдурахмонович. "МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ С ОГРАНИЧЕННЫМИ

ВОЗМОЖНОСТЯМИ ПРИ ПОМОЩИ СПЕЦИАЛЬНЫХ СРЕДСТВ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ" Research Focus, vol. 2, no. 12, 2023, pp. 66-69.

8. Абдиев, Шерзод Абдурахмонович. "ПАРАЕНГИЛ АТЛЕТИКАЧИЛАРНИ МАШҒУЛОТ ЮКЛАМАЛАРИНИ РЕЖАЛАШТИРИШ ОРҚАЛИ ЮҚОРИ НАТИЖАЛАРГА ЭРИШИШ." *Research Focus International Scientific Journal* 2.12 (2023): 70-75.

9. Абдиев Шерзод Абдурахмонович. "ПАРАЛИМПИЯ ЗАҲИРА СПОРТЧИЛАРНИ БИОМЕХАНИК ТАВСИФЛАРИ БЎЙИЧА САРАЛАШ" Research Focus, vol. 3, no. 5, 2024, pp. 140-146.

10. Abdiyev Sherzod Abduraxmonovich. "IMKONIYATI CHEKLANGAN SPORTCHILARNI PARA YENGIL ATLETIKANING YUGURIB KELIB UZUNLIKKA SAKRASH TURIGA O‘RGATISH USLUBIYATI" Research Focus, vol. 3, no. 5, 2024, pp. 94-101.

ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ КАК АГЕНТ СТАНОВЛЕНИЯ ГРАЖДАНСКОЙ ПОЗИЦИИ

негосударственная учреждения высшего образования
“Alfraganus university”, **г.Ташкент, Узбекиста.**
Кафедра «Спортивной деятельности»
Доцент Джуманов Бахытжн Мухтарович
Магистрант 2- курса Садуллаев Сирожддин Илхом угли

Аннотатsiя: представлен краткий обзор государственной деятельности в деле укрепления активной гражданской позиции, патриотичности, natsионального самосознания в аспекте ценностей физической культуры.

Ключевые слова: гражданская позиция, молодежь, стратегические цели, достижение, физическая культура.

Annotatsiya: jismoniy madaniyat qadriyatlari nuqtai nazaridan faol fuqarolik pozitsiyasini, vatanparvarlikni, milliy o'zlikni anglashni kuchaytirish bo'yicha davlat faoliyatining qisqacha tavsifi taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: fuqarolik pozitsiyasi, yoshlar, strategik maqsadlar, yutuqlar, jismoniy madaniyat.

Abstract: a brief overview of the state activity in strengthening active citizenship, patriotism, national consciousness in the aspect of physical culture values is presented.

Key words: civic position, youth, strategic goals, achievement, physical culture.

Актуальность исследования. С момента приобретения Независимости в нашей стране была осуществлена колоссальная работа в целях устройства свободной и благополучной жизни, повышения потенциала и мощи Узбекистана, воспитания подрастающего поколения и, в особенности, создания предпосылок для всесторонне, гармонично развитых личностей. И, при этих социально-исторических предпосылках, при усиливающейся конкуренции, от молодёжи требуется глубокое овладение знаниями, умение взять ответственность за завтрашний день.[48] Обществу необходимы высокообразованные специалисты, воспитанные и сознательные, способные к активной деятельности в различных областях социальной и государственной жизни, в науке, в индустрии.

В своём Послании от 28 декабря 2018 г. Олий Мажлису Ш.М. Мирзиёев отметил приорететными направлениями политики государства: развитие hatsiональной идеи и самосознания, являющихся источником вдохновения и силы для достижения высоких целей, ограждение детей и молодёжи от влияния радикальных и чуждых идей. По словам Президента необходимо уделять особое внимание доведению до молодого поколения бесценного наследия наших великих учёных, поэтов, писателей, мыслителей и богословов, подвигов отважных полководцев, укреплению патриотизма и hatsiональной гордости. Становится очевидным, что это по силам только молодёжи, с активной гражданской позицией.

Известно, что активная гражданская позиция – это приобретенное качество, которое развивается и совершенствуется на протяжении всей жизнедеятельности человека. Она не является раз и навсегда приобретенным качеством, а изменяется в зависимости от условий, в которые попадает личность. Поэтому особенно важным становится деятельность государства, как ведущего координатора в деле противостояния проявлениям низкой духовности,утраты интереса к академическим знаниям, искусству, труду. Подчеркнём, что сегодня понятие “патриотическое воспитание” проходит красной нитью в разработанных законодательных актах, детерминирующих, государственную политику в сфере образования, духовно-нравственного

[48] Асатова Г.Р. Тенденции развития ФК иС в постсоветском Узбекистане /Молодой учёный № 15, 2016

воспитания, культуры и natsiональной безопасности. Так в Концепции образования до 2030г подчеркивается, что вектор духовно - просветительской работы в стране – это развитие интеллектуального потенциала, мышления, мировоззрения, укрепление идеологического иммунитета, толерантности, служение интересам народа, что при реализatsiи позволит решить магистральные цели нашего общества.

Одним из бесспорных источников инструментария для государства в решении плана-стратегии, является физическая культура и спорт. Известно, что этот социальный институт способствует не только совершенствованию физических кондиций, но и становлению гуманизма, духовности, natsiональной идентичности, принятию правил «честной игры» в философском аспекте и переноса этих качеств в социум. Здесь стоит упомянуть о дефиниции системы воспитания античной Греции (оправданность которой, несомненна) – «кологатия», т.е. об идеале соединения в одном лице нравственного и физического совершенства.

В контексте нашей статьи представлены потенции физической культуры в условиях современного Узбекистана в деле формирования активной гражданской позиции у молодого поколения.

Регулирование поведения молодого человека в условиях повседневной деятельности в формировании его здорового образа и стиля жизни составляют одну из важнейших функций духовной культуры молодежи. Благодаря этой функции культура подчиняет определенным принципам общение молодых людей, их взаимные отношения в учебной и общественной деятельности, в сфере физической культуры, быта, проявлении идеологических и гражданских позиций. Данные исследований последнего десятилетия указывают, что отсутствие необходимости в спортивной (оздоровительной) деятельности присуще, как правило, людям с неразвитыми, односторонними духовными потребностями.[49] Воздействие культуры физической на культуру духовную наиболее эффективно происходит посредством такого феномена, как массовые спортивные соревнования (рекреативный спорт), являющиеся, по существу, важнейшим стимулом физического совершенствования молодежи, что позитивно отражается на социальном поведении молодых людей

В Узбекистане мы видим примеры реализatsiи данного принципа. Деятельность учреждений дополнительного образования

[49] Лотоненко А. В., Стеблецов Е. А. Физическая культура и ее виды в реальных потребностях студенческой молодежи / Теория и практика физической культуры, 1997.

(ДЮСШ, клубы физической культуры), а также комитеты махаллей на региональном и городском уровне увеличивают пространство, в котором подростки и молодежь могут развивать свою активность, демонстрировать гражданско-патриотические качества. Так в Ташкенте в сентябре текущего года по инициативе Президента Республики Узбекистан с целью пропаганды физической культуры и спорта и их бенифитов, прошло спортивное мероприятие «Массовая ходьба» и « Старты здоровья». Также на постоянной основе проходят марафоны «Саломатлик сари» («На пути к здоровью»), которые организуются Советом Федератsiи профсоюзов Узбекистана, и проходят сразу в нескольких регионах Узбекистана и с определением победителей в следующих номинатsiях «Участник самого почтенного возраста», «Самый молодой участник», «За стремление к победе». Также в октябре месяце в столичном Экопарке прошли соревнования среди юношей и девушек по системе «воркаут» и «кроссфит». Согласно указу Президента Республики Узбекистан с 15 декабря по 15 января в стране проводится Месячник патриотизма, где принимают участие молодые спортсмены. Повсеместно проходят различные физкультурно-массовые мероприятия среди жителей махаллей, которые также несут своей целью совершенствование личностных качеств, пропаганду здорового образа жизни.

Опыт многих стран показывает, что государственная забота о судьбах натsiонального спорта, физической культуры непременно оборачивается многократной пользой. Поддержка этих статей социальной сферы первым делом создает все необходимые предпосылки для морально-физического оздоровления детско-юношеской и молодежной среды общества. Символично, что Узбекистан следует пониманию этой истины. Правительственные структуры, общественные организатsiи, спортивные ведомства страны всегда действуют сообща в решении таких важных проблем, как поступательное развитие материально-технической базы сферы спорта и физической культуры, достижение массовости в их организатsiи, усиление базы профессионального сектора и многое другое. За годы независимости был принят ряд нормативно – правовых документов, направленных на дальнейшее развитие физической культуры и спорта путем создания новых обществ, строительства спортивных сооружений, выработки условий для перевода на профессиональную основу различных групп спортсменов.

Под эгидой Республиканского фонда развития детского спорта созданного в 2002 году, а также согласно Постановление Кабинета Министров РУ № 356 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности детско-юношеских школ» построены 1700 арен, комплексов разных типов, стадионов, залов, бассейнов, кортов не только в городах, но и в отдалённых районах. Все сооружения полностью оснащены и принимают под руководством 10 075 тренеров, занимаются 2, 6 миллиона учащейся молодёжи. Одаренные юноши и девушки повышают своё мастерство в 225 детско - юношеских спортивных школах, 15 специализированных школах - интернатах Олимпийского резерва. За последние годы на развитие физической культуры и спорта из казны государственного бюджета и Hatsионального Олимпийского Комитета затрачено 1,230 триллиона сумов. Последовательная работа в данном направлении продолжается. Президент Узбекистана Мирзиёев Ш.М. утвердил программу развития физической культуры и массового спорта, согласно которой на развитие физической культуры и массового спорта в Узбекистане в 2017—2021 годах будет выделено свыше 995,2 млрд. сумов. Из них более 706,2 млрд сумов направят на строительство, реконструкцию, капитальный ремонт, оснащение и переоснащение 167 спортивных сооружений, в том числе 90 спортивных комплексов и 77 плавательных бассейнов.[50] В этом году реализован грандиозный план по запуску ледового дворца «Хумо-арена», созданы благоприятные условия для развития и массовости многих видов спорта, в том числе и шахмат. Разработаны программы «Шахматы в школах»[51]и по дальнейшей популяризatsiи этой интеллектуальной игры, т.к. именно игра в шахматы является действенным и эффективным средством умственного развития, что соответствует целям воспитания подрастающего поколения.

Огромное внимание уделяется этновидам спорта, в качестве hatsионального достояния, как фактору самоидентичности, сохранения духовных традиций и физического совершенствования. Привлечения к занятиям борьбой кураш носят массовый характер. Принято Постановление «О мерах по дальнейшему развитию hatsионального вида спорта «Кураш» Задачами документа обозначены: пропаганда традиционного вида спорта среди населения, особенно подростков и молодёжи, укреплению чувства hatsиональной гордости и патриотизма у подрастающего поколения, а также распространение здорового образа

[50] Правда Востока № 136 от 14 июля 2017г
[51] uzchess.uz. Дата обращения 05.09.2019г

жизни в обществе и обеспечение высоких достижений на мировой спортивной арене.

Выводы. В подведении итогов отметим, что в рамках государственной политики Республики Узбекистан реализуется практика на интенсификatsiю использования средств физической культуры и спорта. Поскольку, физическая культура является структурным компонентом фундаментальной культуры общества, предполагает самовыражение и выработку активной гражданской позиции, формируют ценностное отношение к своему здоровью, развивают интеллектуальные, нравственные и физические качества молодой личности. Является необходимым условием успешного развития современного общества и достижения natsiональных стратегических интересов.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Асатова Г.Р. Тенденции развития ФК иС в постсоветском Узбекистане /Молодой учёный № 15, 2016

2. Лотоненко А. В., Стеблецов Е. А. Физическая культура и ее виды в реальных по-

требностях студенческой молодежи / Теория и практика физической культуры, 1997.

3. Правда Востока № 136 от 14 июля 2017г

4. uzchess.uz. Дата обращения 05.09.2019г

Alfraganus university talabalarining voleybol sport turi orqali sakrovchanlik sifatini takomillashtirish

Sport faoliyati kafedrasi katta
o‘qituvchisi
Madaminova Gulzoda
Madaminovna
SP-23-1 guruh talabasi
Raimboyev Elbek Bakbulsin
o‘g‘li

Annotatsiya. Mashg‘ulotlarda voleybol sport turi orqali sakrovchanlik sifatini takomillashtirishga qaratilgan va voleybolchilar tayyorlash samaradorligini oshirish omillari bayon etilgan.

Mazkur maqola davlat ta’lim standartlariga muvofiq manbalar va tajribalardan

foydalangan holda tayyorlangan bo‘lib, o‘qituvchilar, talabalar, sport trenerlari,

va jismoniy tarbiya hamda sport sohasida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislarga mo‘ljallangan.

Kalit so’zlar. Jismoniy sifatlar, voleybol sport turi, samaradorlik, sakrovchanlik, jismoniy mashqlar.

Abstract. The training is aimed at improving the quality of skills through volleyball training and describes the factors for increasing the effectiveness of training volleyball players. This article is based on sources and experience in accordance with state educational standards.

prepared with the participation of teachers, students, sports coaches, and is intended for specialists working in the field of physical education and sports.

Key words. Physical qualities, volleyball sport, efficiency, bravery, physical exercises.

Kirish. Mamlakatimiz universitetlarida tahsil olayotgan bo‘lajak mutaxassisning ijtimoiy shakllanishi, uning jismoniy barkamollikka erishishi, individual, shaxsiy va professional sifatlarni faol takomillashtirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Jismoniy tayyorgarligi darajasini oshirish, maxsus bilimlar, harakatlanish malakalari va ko'nikmalari tizimi egallab olish bo’lajak mutaxassislarning professional faoliyatida psixofizik tayyorgarligini ta’minlaydi, ularga jismoniy tarbiya vositalari xamda metodlaridan yuksak darajada ish bajaruvchilik qobiliyatini va ijodiy ta’minlash uchun o‘z mehnat

jamoalarida sog'lom turmush tarzini jismoniy tarbiya va sportni targ'ib qilishda ulardan faol foydalanishga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-noyabrdagi 414-sonli qarorida ta'kidlab o'tilganidek, Jismoniy tarbiya va sport sohasida malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim jarayonini xalqaro standartlarga moslashtirish va boshqaruv tizimini raqamlashtirish, pedagogik va ilmiy salohiyatni yanada oshirish hamda ilmiy-tadqiqot ishlari sifatini tubdan yaxshilash orqali yuqori natijalarga erishish ko'zda tutilgan.Maqola jismoniy tarbiya va sport sohasida ilm-fan ta’lim muammo va yechimlari, sportchilarning jismoniy tarbiya va sport faolyatida professional ta’lim olish ko‘rasgichlarini o'rganish, sport tashkilotlari bilan sport federatsiyalarni professional sport ta’limi bo‘yicha faoliyatini chambarchas bog‘lash, kerakli yakuniy natijalarni olish uchun sport sohasida ta’limning muammoli vaziyatlar va sport tashkilotlari o‘rtasida turli sport ta’limi tadqiqotlarini shakllantirishdan iboratdir.

Maqsadi: Voleybol sport turi orqali sakrovchanlik sifatini takomillashtirishga qaratilgan va voleybolchilar tayyorlash samaradorligini oshirish omillari, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, voleybol sport turiga qiziqishini uyg‘otish hamda malakali voleybolchilarni tayyorlash. Talabalarini har tomonlama jismoniy takomillashtirish, ularni sog‘lig‘ini mustahkamlash va jismoniy tayyorgarliklarini oshirishga qaratilgan.

Vazifasi: Voleybol o‘yinida o ‘yinchilar to‘p bilan qisqa vaqt ichida harakat qilishlari lozim. Shu sababli, u yoki bu o ‘yin sharoitida o ‘yinchi to‘p bilan o ‘ynashi uchun yuqori tayyorgarlik ko‘rishi talab etiladi. Shu maqsadda turli harakat usullarini bajarish uchun turlicha holatlarni egallash kerak.

1. Hujum zarbasini berish va to‘siq qo‘yishda - baland, o‘yinga kiritilgan to‘pni qabul qilishda - o ‘rta, hujum zarbasini yoki to‘siqdan pastlab qaytgan to‘pni qabul qilishda - past holatlar egallanadi1. Bunda UOM (umumiy og‘irlik markazi)ning holati navbatdagi harakatning xususiyatiga bog‘liq bo‘ladi. Shuni ham ta’kidlash o‘rinliki, o‘yinchining bo‘yi va uning koordinatsion qobiliyati UOMga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Shuning uchun ham samarali turish holati shunday bo'lishi kerakki, bunda UOM tezda tayanch chegarasidan chiqarilib, zarur harakatlanish va faoliyat ko'rsatish imkoniyatini bera olsin.

Turish holatlari navbatdagi harakatlarning qo‘llanilish xususiyatiga qarab statik (o‘yinchining harakatsiz) yoki dinamik (asosiy tayanchni bir oyoqdan ikkinchisiga o'tkazish bilan to‘pni qabul qilish, hujum zarbasini berish yoki to‘siq qo‘yishni kutishda) holatlarda bo‘ladi. Bu turish holatlarida qo‘llar bel barobarida, barmoqlar kaftlarga qaragan, gavda esa bir oz oldinga

egilgan bo‘ladi. Gavda erkin holatda bo‘lishi kerak. Murakkab hujum kombinatsiyalarini tashkil qilishda, to‘p baland berilganda yoki to‘piling uchish vaqtini kamaytirish maqsadida sakrab to‘p uzatish usulidan foydalaniladi. Bu holatda qo‘llar bosh ustidan birmuncha baland ko‘tariladi va qo‘llarning faol ishlashi hisobiga sakarashning yuqori nuqtasidan to‘p uzatiladi. Xuddi shu holatda qisqa to‘p uzatishda asosiy harakat qo‘l barmoqlarining faol ishlashi hisobiga amalga oshiriladi.

Sakrab orqaga to‘p uzatish xuddi tayanch holatda orqaga to‘p uzatish kabi bajariladi. To‘p uzatishning eng murakkab usuli. Bu sakrab bir qo‘l bilan to‘p uzatishdir. Bu usul to‘p to‘r ustiga kelib qolgandagi murakkab sharoitda bajariladi. Bu holda qo‘ tirsaklarda bukilib., oldinga chiqariladi Kaftlar oldinga qaratiladi, barmoqlar bukilib, tarang holga keltiriladi. To‘p uzatish tirsak bo‘g‘inining bukib-yozilishi hisobiga bajariladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, siz hayotga tayyorlaydigan talabalar qaysi kasb egalari bo`lishidan qat’iy nazar ularning sog’lom, vatanparvar, mustaqil, mard, halol, maqsadga intiluvchan, komil inson bo`lib yetishishlariga ko`maklashish bizning oliy va ustuvor maqsadimiz hisoblanadi. Ertaga ushbu talabalar jamiyatimiz hayoti, shu jumladan siz va bizning hayotimizni ham belgilab beruvchi insonlar bo`lishadi. Shuning uchun ularni tayyorlashga nisbatan befarqlik bu o`zingizning kelajagingiz, farzandlaringiz kelajagiga bo`lgan befarqlikdir.

Biz, o`qituvchi-murabbiylar hamda sizlarga shunday huquq va imkoniyat – kelajakni qurishda bevosita ishtirok etish imkoni berilgan ekan, undan oqilona foydalanaylik!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ СПОРТА., И.Ю Разуваева, ГМ Мадаминова Молодой учёный международный науный журнал 1, 672-674

2. ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ЗДОРОВЬЯ СТУДЕНТОВ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ Г М Мадаминова - Проблемы педагогики, 2021., 90-92.

3.VOLEYBOL NAZARIYASI VA USLUBIYATI. *o ‘quv qo‘llanma. Toshkent 2018y. M.A. Kdirova, A.A. Pulatov, A.A. Ummatov.*

SPORT MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISH BOSQICHIDA KARATECHILARNI TAYYORLASHNING YILLIK SIKLINI MODELLASHTIRISH

Alfraganus university Jismoniy tarbiya va
sport fakulteti 2-bosqich talabasi
Erimatov Sardor
Ilmiy rahbar
Alfraganus university, Sport faoliyati
kafedrasi dotsenti, p.f.b.f.d. (PhD) Niyazova R.R.
+998909475624
regina.89@mail.ru

Anotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada ixtisoslashtirilgan adabiyotlar tahlil qilindi, unda o‘quv dasturlarini rejalashtirish va qurishni optimallashtirish, sportni takomillashtirish bosqichida karatechilarni tayyorlashning yillik tsiklida turli yo‘nalishdagi maxsus maqsadli o‘quv yukini taqsimlash bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar yo‘qligi aniqlandi. Blok davriylashtirish talablarini hisobga olgan holda o‘quv makrosiklini rejalashtirish segmentlarini qurish xususiyatlari o‘rganildi va ularning asosida karatechilarni tayyorlashning dasturiy-uslubiy ta‘minoti shakllantirildi.

Kalit so‘zlar: karate, modellashtirish, o‘quv jarayonini optimallashtirish, yillik tsikl, blok davriylashtirish, dasturiy-uslubiy ta‘minot.

Аннотатsия. В данной научной статье проанализирована специализированная литература, где выявлено отсутствие научно обоснованных рекомендатsій по вопросам оптимизатsии планирования и построения тренировочных программ, распределению специальной целевой тренировочной нагрузки разной направленности в годичном цикле подготовки каратистов на этапе спортивного совершенствования. Изучены особенности построения сегментов планирования тренировочного макроцикла, с учетом требований блоковой периодизатsии и на их основе сформировано программно-методическое обеспечение подготовки каратистов.

Ключевые слова: каратэ, моделирование, оптимизатsия тренировочного процесса, годичный цикл, блоковая периодизатsия, программно-методическое обеспечение.

Annotation. This scientific article analyzes the specialized literature, which reveals the lack of scientifically sound recommendations on optimizing

the planning and construction of training programs, the distribution of a special target training load of different directions in the annual cycle of karate training at the stage of sports improvement. The features of the construction of the planning segments of the training macrocycle are studied, taking into account the requirements of block periodization, and on their basis, software and methodological support for karate training is formed.

Keywords: karate, modeling, optimization of the training process, annual cycle, block periodization, software and methodological support.

Qirish. O‘zbekiston Respublikasi hukumati mamlakat sport hamjamiyati oldida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish bo‘yicha muhim va mas’ul vazifalarni qo‘yadi. Shu bilan birga, sport mahorati darajasini yanada oshirish va o‘zbek sportchilarining xalqaro maydonda, shu jumladan karateda yuqori natijalarga erishish zarurligiga e‘tibor qaratilmoqda. Shunday qilib, aholining keng doirasini o‘z ichiga olgan mashhur sport turlaridan biri sifatida karate nazariyasi va metodologiyasini ishlab chiqish ayniqsa dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ushbu vazifani bajarish doirasida maqsadli chora-tadbirlar faol amalga oshirilmoqda, bu haqda hukumatning "Jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-5924, "Sport ta’lim muassasalarini 2025 yilgacha rivojlantirish dasturi to‘g‘risida"gi PF-5280, shuningdek "O‘zbekiston sportchilarini tayyorlash to‘g‘risida"gi PQ-5181 kabi qarorlari va farmonlari qabul qilinganligidan dalolat beradi 2024 yilda XXXIII Olimpiya va XXII Paralimpiya o‘yinlariga.

Shuni ta‘kidlash kerakki, WKF (World Karate Federation) karate 190 dan ortiq mamlakatlarda tan olingan Sharq jang san‘atlarining yosh va tez rivojlanayotgan turlaridan biridir. Ushbu sport turi o‘zini himoya qilishning ilmiy tamoyillariga asoslanadi va intensiv mashg‘ulotlar orqali insonning jismoniy va ma‘naviy imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirishga yordam beradi. Sport mahoratini o‘zlashtirish mashg‘ulotning barcha bosqichlarida har tomonlama jismoniy, maxsus vosita va texnik tayyorgarlikni talab qiladi. Sportchilarning jismoniy, maxsus motor va funktsional qobiliyatlarining progressiv rivojlanishini ta‘minlash muhim ahamiyatga ega, shunda maksimal sport yutuqlari ularning etuklik davriga to‘g‘ri keladi.


Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, musobaqalarda yuqori natijalarga erishish uchun yuqori malakali sportchilar o‘quv jarayonini samarali boshqarish, shu jumladan karate bo‘yicha turli xil yondashuvlar asosida bir yillik o‘quv tsiklini qurishlari kerak. Ilmiy-uslubiy adabiyotlar karateda sportni takomillashtirish bosqichida o‘quv jarayonini oqilona qurish bo‘yicha

tadqiqotlar etishmasligini ko‘rsatadi. Unda o‘quv rejasini optimallashtirish va yukni taqsimlash bo‘yicha asosli tavsiyalar yo‘q [1,2,4,6].

Tadqiqot natijalari. Ilmiy va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, eng yuqori darajadagi musobaqalarda muvaffaqiyatga erishishga imkon beradigan yuqori malakali sportchilarda bir yillik o‘quv tsiklini qurish o‘quv jarayonini samarali boshqarishning turli yondashuvlari, shu jumladan blok davriylashtirishni o‘z ichiga olgan holda amalga oshiriladi sport turlari [3,4,5,6].

Karateda sportni takomillashtirish bosqichida sport mashg‘ulotlarini blok davriylashtirish asosida o‘quv jarayonini shakllantirishning tarkibiy xususiyatlarini ko‘rib chiqish etarli darajada oshkor etilmaganligi aniqlandi. Shuningdek, an’anaviy model, to‘lqinli davriylashtirish va blokli davriylashtirish kontseptsiyasi kabi mavjud tayyorgarlik davriylashtirish texnologiyalarini tahlil qilish karate mashg‘ulotlarining strukturaviy xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi [3,5].


Biz karatechilarni tayyorlashning bir yillik tsiklida o‘quv jarayonini optimallashtirish modelini ishlab chiqdik. Karatechilarning o‘quv jarayonini dasturiy-uslubiy qo‘llab-quvvatlash materiallari har xil o‘lchamdagi va maqsadli o‘quv yukini o‘z ichiga olgan holda takomillashtirildi. Dasturni optimallashtirish bo‘yicha takliflar karatechilarni tayyorgarlik jarayonining qat’iy izchilligi va uzluksizligini, o‘smirlarni tayyorlash vazifalari, vositalari va usullarining uzluksizligini, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik hajmini izchil oshirishni (o‘rtasidagi nisbat asta-sekin o‘zgarib turadi, yildan-yilga MJTning ulushi mashg‘ulot yuklamalarining umumiy hajmiga nisbatan ortib boradi va shunga mos ravishda umumiy jismoniy tayyor garlik vositalarining ulushi kamayadi), texnik va taktik ko‘nikmalarni doimiy ravishda takomillashtirishni, mashg‘ulot yuklamalarini muntazam ravishda maksimal darajada oshirishni, stressli vaziyatlarda psixologik barqarorlikni shakllantirishni ta’minlaydi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Sport mahoratini takomillashtirish bosqichida (2-o‘quv yili) karate bo‘yicha o‘quv dasturidagi mashg‘ulotlar bo‘limlari nisbatini optimallashtirish bo‘yicha takliflar

Instrumental tadqiqot usulidan, ya’ni Garmin mashg‘ulotlarini monitoring qilish tizimidan foydalanish yukning maxsus maqsadli yo‘nalishini aniqlashga va uni bir yillik siklda mezotsikllarga to‘g‘ri taqsimlashga imkon berdi. Yillik o‘quv tsiklida har xil o‘lchamdagi va yo‘nalishdagi yuklarni taqsimlashda biz sportchilar tanasining energiya ta‘minoti bo‘yicha o‘quv zonalariga tayandik (2-rasmga qarang).

Karatechilarning sport mahoratini takomillashtirish bosqichida yillik tayyorgarlik sikli 2-yil davom etgan va nazorat mashg‘ulotlarini hisobga olmaganda, 306 ta mashg‘ulot va 7 ta musobaqa kunini tashkil etgan. Makrosikl mashg‘ulot jarayoni ikki bosqichli rejalashtirilgan bo‘lib, har bir sikl o‘z navbatida uchta – o‘tish, tayyorgarlik va musobaqa bosqichlaridan iborat bo‘ldi, jumladan uch qismli mezosikl (jamg‘aruvchi, transformatsiya qiluvchi va amalga oshiruvchi) bloklari tarkibiga kiritilgan, 2 haftadan to 7 haftagacha davom



	Tayyorgarlik	Kuchga yo'naltirilgan	Aerob	Suratli	Shiddatli	Chiqaruvchi	Tiklantirish
Tiklantirish	30%	20%	15%	15%	15%	40%	70%
Aerob yordam	30%	65%	10%	10%	20%	10%	30%
ANACHgacha aerob rivojlantiruvchi	20%	13%	50%	20%	20%	0%	0%
ANACH (PANO)	15%	0%	20%	40%	20%	30%	0%
Aralash Ae-An zonalari	3%	0%	3%	10%	20%	13%	0%
Anaerob	2%	2%	2%	5%	5%	7%	0%


2-rasm. Karatechilarning mezosikllar bo‘yicha yuklamasini yillik tayyorgarlik siklida maxsus-maqsadli taqsimlanishi

etadigan 7 ta tayyorgarlik bosqichini o‘z ichiga olgan. Tayyorgarlik sikllari turli ahamiyatga ega musobaqalar – saralash, nazorat va mavsumning asosiy startlari bilan yakunlangan. Tuzilmasi bo‘yicha yillik sikl 14 ta mezosiklik blok va 51 haftalik mikrosikldan iborat bo‘lgan. Jamg‘aruvchi

mezosiklik blokining asosiy ishi bazaviy qobiliyatlar potensialini to‘plash va ilgari yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzatishga qaratilgan (3-rasmga qarang).

Tayyorgarlik mezosikli karatechilar organizmini maqsadga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarini boshlash uchun tayyorlagan, UJT va MJT vositalari, harakat ko‘nikmalarni kengaytiruvchi, kuch va tezkorlik salohiyatini oshiradigan, texnik mahoratni takomillashtiradigan mashqlarni o‘z ichiga olgan. Kuchga yo‘naltirilgan mezosikl maxsus kuchni rivojlantiruvchi mashg‘ulotlarni texnik tayyorgarlikning vositalari bilan almashtirishni o‘z ichiga olgan. Aerob mezosikli o‘tish tezligini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, mashg‘ulot jarayoni asosan mushaklar faoliyatini energetik ta’minlashning ayerob yo‘li bo‘yicha amalga oshirilgan, shu bilan birga, har bir mashg‘ulotning hajmi oshgan, shiddati ayerob rivojlantiruvchi zonasi darajasiga ko‘tarilgan. Sur’atli mezosikl barqaror yuqori sur’atni shakllantirib, sportchilar organizmini musobaqa yuklamalari katta va muhim darajadagi yuqori hajm va shiddat bilan ishlatilgan. Shiddatli – maksimal mashg‘ulot yuklamalaridan foydalanish bilan tavsiflangan bo‘lib, maksimal kislorod iste’moli (MKI) bilan mashg‘ulotlarni o‘z ichiga olgan, unda mashg‘ulotlar hajmi kamaygan, shiddati oshgan va tiklanish tadbirlariga alohida e’tibor berilgan. Chiqaruvchi mezosikl sportchilar organizmini "sport formasini cho‘qqisi"ga olib borishga, sportchining asosiy qobiliyatlarini (tezkorlik, chidamlilik, mushaklarning lokal chidamliligi va b.) sinxronlashtirishga qaratilgan, bunda, mashg‘ulotlarning shiddati ancha yuqori bo‘lib, davomiyligi qisqargan. Tiklanish vositalari sifatida dam olish kunida bug‘li hammom yoki sauna, massaj, gidroterapiya, kriosaunadan foydalanish tavsiya etilgan.

TG sportchilarining sport formasini aks etuvchi karatechilarning integral tayyorgarligi ko‘rsatkichlari mavsumning asosiy musobaqada ancha optimal holatda bo‘lganligini ko‘rsatadi, buni malaka darajasini 13,3%ga, shuningdek, musobaqa faoliyatini tavsiflovchi sport yutuqlari mezoni 14,2%ga sezilarli darajada o‘zgarganligi tasdiqlaydi (3-rasmga qarang).



3-rasm Karatechilarning malaka darajasini va tadqiqot davrida TG va NG sportchilarining integral tayyorgarligini o‘zgarishi

Xulosa qilib aytish mumkinki, sport trenirovkasini blokli davriylashtirish konsepsiyasiga asoslangan, karatechilarning yillik tayyorgarlik siklini tuzishning tajriba modeli, sportchilar organizmini funksional imkoniyatlarini sezilarli darajada yuqori (umumiy qabul qilingan usulning ta’siriga nisbatan) rivojlanishini va tajriba guruhi sportchilarining maxsus jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirishni ta’minladi, bu, ularning sport natijalarini dinamik o‘sishi bilan tasdiqlandi.

Xulosalar. Sport mahoratini takomillashtirish bosqichida karatechilarning o‘quv-mashg‘ulotlar jarayonini tuzilishi va mazmuni mikrosikl va mezosikllar (jamg‘aruvchi, transformatsiya qiluvchi, amalga oshiruvchi) bloklarida namunaviy trenirovka vazifalarini rasional taqsimlashni hisobga olgan holda, tayyorgarlikni dasturiy-uslubiy ta’minlashga asoslanishi kerak. Trenirovka bloklarini shunday tashkil etish kerakki, turli jismoniy sifatlarni takomillashtirishdan qoldiq trenirovka samaralari, oxir-oqibatda, musobaqa davriga to‘g‘ri kelsin. Jamg‘aruvchi mezosiklik blokda ayerobik chidamlilikni va maksimal kuchni rivojlantirish zarur – qoldiq trenirovka samaralarini davomiyligi 30±5 kunga to‘g‘ri keladi. Transformatsiya qiluvchi blokda kuch chidamliligi - 15±5 kun, anayerob glikolitik chidamlilik - 18±4 kun. Amalga oshiruvchi blokda maksimal tezkorlik (alaktat) - 5±3 kun. Shuningdek, yillik tayyorgarlik siklida maxsus jismoniy tayyorgarlikni takomillashtirishga ajratiladigan soatlar miqdorini 55%ga va texnik-taktik soatlar miqdorini 24%ga oshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Antipina Yu.V. Triatlon bo‘yicha tayyorgarlik mezotsiklini takomillashtirish / Yu.V. Antipina / / Ilmiy sessiyasi: ma‘ruzalar to‘plami: 3 qismdan iborat. Sankt-Peterburg Davlat Aerokosmik Asbobsozlik Universiteti. - 2017. - B. 188-190.

2. Issurin, V. B. Sport mashg‘ulotlarini blok davriylashtirish: monografiya / V. B. Issurin. M.: Sovet sporti, 2010. - 284 b.

3. Issurin, V. B. XXI asr sportchilarini tayyorlash. Treningning ilmiy asoslari va qurilishi: monografiya / V. B. Issurin. M.: - 2016. - 464 b.

4. Maltsev G.S. Sport mashg‘ulotlarini blokli davriylashtirish asosida sambist-yuniorlarni tayyorlashning bir yillik tsiklini qurish modeli: dis avtoreferati. ... pedagogika fanlari nomzodi: 13.00.04 / Maltsev Grigoriy Sergeyevich. - Sankt-Peterburg. - 2020. 25 b.

5. Niyazova R.R. Application of the hardware and software complex functional preparedness of triathletes. Euroasian Journal of sport Science (EAJSS). Vol 1 No 2, 2023 ISSN:2181-127. - P.17-20. [13.00.00 №01-10/1103].

6. Niyazova R. R. Sport mahoratini takomillashtirish bosqichida triatlonchilarning funktsional tayyorgarligi darajasini baholash / / ISSN: 2181-7804" FAN – SPORTGA " ilm-nazariyy jurnali. Chirchiq.: 2022/5. - B. 38-41. [13.00.00 №16].

ARAB TILI QOIDALARI: O'ZIGA XOS MURAKKABLIK VA MUKAMMALLIK JIHATLARI

Pulatova Shaxnoza Maxmudjanovna
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Mumtoz sharq tillari fakulteti,
Filalogiya va tillarni o‘qitish (arab tili)
nii3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Matibayeva Raziya
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
«Arab tili va adabiyoti al-Azhar»
kafedrasi dotsenti, t.f.d.

Annotatsiya: Arab filologiyasi dunyo tillari ichida o‘ziga xos o‘rin tutadi. U nafaqat arab tilini o‘rganish va tushunish bilan shug‘ullanadi, balki uning tarixiy rivoji, madaniy va diniy ta’siri, arab tilidagi adabiy merosni o‘rganish

bilan ham yaqindan bog‘liqdir. Qur’oni karim arab tilida tushirilgani sababli bu tilni o‘rganish va tushunish musulmon olamida juda katta ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ushbu maqolada arab filologiyasining rivojlanishi, uning ilmiy ahamiyati va zamonaviy davrdagi o‘rni haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so’zlar: Arab filologiyasi, morfologiya, semmatika, arab adabiyoti

Abstract: Arabic philology occupies a special place among world languages. It deals not only with the study and understanding of the Arabic language, but also with its historical development, cultural and religious influence, and the study of the literary heritage of the Arabic language. Since the Holy Qur'an was revealed in Arabic, learning and understanding this language has become very important in the Muslim world. This article talks about the development of Arabic philology, its scientific importance and its place in modern times.

Key words: Arabic philology, morphology, semantics, Arabic literature

Аннотатsiя: Арабская филология занимает особое место среди гуманитарных наук. Она изучает не только арабский язык, но и его богатую историю, влияние на культуру и религию, а также обширное литературное наследие. Священный Коран, ниспосланный на арабском языке, сделал его изучение особенно важным для мусульманского мира. В этой статье мы рассмотрим развитие арабской филологии, её научное значение и место в современном мире.

Ключевые слова: арабская филология, морфология, семантика, арабская литература.

KIRISH

Arab filologiyasining kelib chiqishi va rivojlanishi:

Arab filologiyasi o‘zining dastlabki bosqichida Qur'on tilini o‘rganish, grammatik qoidalarni aniqlash va arab shevalarini to‘plash kabi vazifalarni bajarishga qaratilgan edi. Islom dini tarqalishi bilan arab tili va uning grammatikasi butun musulmon dunyosida asosiy o‘rinni egallay boshladi. Filologlar Qur'on tilining nozik jihatlarini tushunish va arab tili grammatikasini takomillashtirish uchun katta ishlar olib bordilar. Dastlabki asarlar orasida mashhur grammatik Abu al-Asvad ad-Dualiy (vafoti 688 yil)ning hissasi juda katta bo‘ldi. U arab tili grammatikasining asoschisi hisoblanadi.

Arab tilining grammatik qoidalari va ularning taraqqiyoti:

Arab filologiyasining eng muhim jihatlaridan biri arab tilining grammatik qoidalarini tuzish va rivojlantirishdir. Bu qoidalar birinchi navbatda Qur'onni to‘g‘ri va aniq o‘qish uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan arab tilini o‘rganishning muhim asosi bo‘lib qoldi. Arab grammatikasi alohida ravishda fonetika, morfologiya, sintaksis va semantika kabi bo‘limlarga bo‘lingan. Mashhur arab filologi Sibavayh (vafoti 796 yil) tomonidan yozilgan “Al-Kitob” asari arab grammatikasining asosiy manbasi hisoblanadi va bu asar bugungi kunda ham katta ilmiy ahamiyatga ega.

Arab filologiyasining adabiy merosi:

Arab filologiyasida adabiy meros o‘rganilishi juda katta ahamiyat kasb etadi. Arab adabiyoti, jumladan, she'riyat, nasr va hikoyalar arab tilining nozik jihatlarini ochib beruvchi asosiy manbalar hisoblanadi. Islomgacha bo‘lgan davr (johiliyat davri) adabiyotidan tortib, islom davri adabiyotigacha bo‘lgan asarlar bugungi kunda arab tilini o‘rganish va tushunishning muhim qismi hisoblanadi. Arab tilining bu adabiy asarlardagi ifodalari va badiiy uslublari hozirgacha filologlar tomonidan chuqur tadqiq etib kelinmoqda.

ASOSIY QISM

Arab filologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari:

Arab filologiyasi qadim zamonlardan buyon dunyodagi eng chuqur va boy filologik tizimlardan biri sifatida tan olingan. Uning o‘ziga xos jihatlari tilning murakkab tuzilishi, keng adabiy merosi va ilmiy tadqiqot sohasidagi yutuqlari bilan bog‘liqdir. Ushbu qismda arab filologiyasining bir necha muhim o‘ziga xosliklariga e'tibor qaratamiz.

Arab tili grammatikasining mukammalligi va murakkabligi:

Arab filologiyasining eng o‘ziga xos jihatlaridan biri bu arab tilining grammatik tuzilishining murakkab va puxta tizimga ega ekanligidir. Arab tilida har bir so‘z turli xil qoidalar va shakllanish usullari orqali turlanadi. Morfologiyada so‘zlarning ildizlaridan turli shakllar yaratish, fonetikada tovushlarning talaffuzi va o‘zgarishi, hamda sintaksisda gaplarning tuzilishi va o‘zaro bog‘liqligi chuqur tadqiq etiladi.

Arab tilining morfologik tizimi, masalan, uch harfli ildizlardan so‘z hosil qilishning keng imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Uch yoki to‘rt harfli ildizlardan kelib chiqib ko‘plab yasalma so‘zlar hosil bo‘lib, ular turli ma'nolar va ma'nodosh so‘zlar hosil qiladi. Bu xususiyat arab tilini so‘z boyligi jihatidan nihoyatda keng va ifoda jihatidan juda nozik qilib qo‘yadi. Bu esa filologlar uchun so‘zlarning ma'nolarini to‘g‘ri tushunish va tadqiq qilishni qiyinlashtiradi, ammo ayni vaqtda qiziqarli ham qiladi.

Arab tilidagi semantik nozikliklar

Arab filologiyasida semantika juda muhim oʻrin tutadi. Arab tilida bir xil koʻrinishga ega boʻlgan soʻzlar turli kontekstlarda butunlay boshqacha maʼnolarni anglatishi mumkin. Bu tilning boy semantik tizimi, soʻzlar va iboralarning maʼnosidagi nozikliklar, masalan, Qurʼon tafsirlarida va islom huquqi manbalarida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Arab tilidagi iboralar va metaforalar boshqa tillar bilan taqqoslaganda juda chuqur va boy boʻlib, bu arab adabiyoti va tiliga oʻzgacha estetik goʻzallik bagʻishlaydi. Masalan, arab sheʼriyatida foydalaniladigan tajnis (soʻz oʻyini), kinoya (metaforik iboralar) kabi badiiy uslublar arab tilining oʻziga xos semantik xususiyatlarini oʻrganish uchun muhim manbalar hisoblanadi. Bu xususiyatlar arab tilini chuqur tadqiq etishni talab etadi va arab filologlari bu nozikliklarni ochib berishda muhim rol oʻynaydi.

Qurʼon tili va arab filologiyasi

Qurʼon arab tilida nozil boʻlgani sababli, arab filologiyasi Qurʼon tilining nozikliklarini tushunish va izohlashda muhim oʻrin tutadi. Qurʼon matnining grammatik, lugʻaviy va semantik jihatlarini toʻgʻri talqin qilish butun musulmon olamida filologik tadqiqotlarning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Tajvid qoidalari, yaʼni Qurʼonni toʻgʻri talaffuz qilish qoidalari, arab filologiyasining asosiy tadqiqot yoʻnalishlaridan biridir. Bundan tashqari, Qurʼon tafsiri va uning tarjimasi ham arab tilining oʻziga xosligini oʻrganish bilan chambarchas bogʻliq.

Shuningdek, Qurʼon tili islom tafakkuri va madaniyatiga juda katta taʼsir koʻrsatgan va bu arab filologiyasining rivojlanishiga katta turtki bergan. Qurʼon tili arab shevalari va adabiyotiga taʼsir qilgan boʻlsa-da, Qurʼon tili va uslubi boshqa tillar uchun ham qiziq tadqiqot sohasi hisoblanadi.

Arab adabiyotining boyligi va uning filologiyaga taʼsiri

Arab filologiyasi arab adabiyotining chuqur va keng koʻlamli oʻrganilishini oʻz ichiga oladi. Arab adabiyoti, ayniqsa islomgacha boʻlgan davr (johiliya davri) va islom davrida yaratilgan asarlar, arab tilining filologik jihatlarini chuqur tushunish uchun asosiy manba hisoblanadi. Johiliya davri sheʼriyati arab tilining boyligi va soʻz oʻyinlaridagi mahoratini koʻrsatib beruvchi eng qadimiy manbalardan biridir. Ushbu davrda yaratilgan sheʼrlar arab tilining nozik jihatlarini tadqiq etish va ularning grammatik qoidalarini oʻrganishda juda muhim ahamiyatga ega.

Arab adabiyoti keyingi davrlarda ham oʻzining boyligi va xilma-xilligi bilan arab filologiyasi rivojlanishiga katta hissa qoʻshgan. Mashhur arab shoirlari va yozuvchilari, jumladan Abu Nuvas, Al-Mutanabbiy, Ibn al-Farid

kabi buyuk ijodkorlar arab tilining uslubiy nozikliklarini oʻrganish uchun tadqiqotlarga zamin yaratgan. Bu adabiy asarlar arab filologiyasining oʻziga xos tomonlarini ochib berishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Arab tili shevalari va dialektlari

Arab filologiyasining yana bir oʻziga xos jihati arab tilidagi shevalar va dialektlarning xilma-xilligidir. Har bir arab mamlakatida yoki hududida arab tilining oʻziga xos shevasi mavjud boʻlib, ular bir-biridan baʼzan sezilarli darajada farq qiladi. Fusha (adabiy arab tili) rasmiy yozishmalar va adabiyotda ishlatilsa-da, kundalik suhbatlarda odatda shevalar ishlatiladi. Arab filologiyasi bu shevalarni oʻrganish va ularning rivojlanishi, bir-biridan farqlarini aniqlash va ular oʻrtasidagi bogʻliqlikni tahlil qilish bilan shugʻullanadi.

Magʻrib davlatlaridagi arab tili bilan Mashriq davlatlaridagi arab tili oʻrtasida sezilarli farqlar mavjud boʻlib, bu dialektologik tadqiqotlarni alohida ilmiy soha sifatida ajratib turadi. Arab filologlari ushbu shevalar va dialektlar oʻrtasidagi farqlarni oʻrganib, arab tilining tarixiy rivojlanishini kuzatishda davom etmoqdalar.

Arab filologiyasining oʻziga xosliklari shu bilan tugamaydi, chunki u juda keng va murakkab ilmiy sohaga ega. Ushbu oʻziga xos jihatlar arab filologiyasining chuqur tadqiq etilishi zarurligini koʻrsatadi. Filologlar nafaqat arab tilini, balki uning madaniy, tarixiy va diniy ahamiyatini ham oʻrganishda davom etadilar.

Arab filologiyasi grammatik qoidalari va oʻzbek tilining grammatik qoidalari orasida koʻplab oʻxshashliklar va farqlar mavjud. Ushbu qoidalar har ikki tilning oʻziga xos tuzilishini, morfologik va sintaktik tizimlarini aks ettiradi. Bu qismda arab va oʻzbek grammatik qoidalarining oʻxshash va farqli jihatlarini koʻrib chiqamiz.

Arab va oʻzbek tillaridagi oʻxshashlik va farqlar

1. Oʻxshashliklar:

(a) Soʻz turkumlari: Har ikkala tilda ham soʻzlar turkumlarga ajratiladi. Arab tilida ism, fe'l va harf kabi soʻz turkumlari mavjud boʻlib, ular oʻzbek tilidagi ot, fe'l va yordamchi soʻzlarga mos keladi.

Ot (ism): Ikkala tilda ham predmet yoki shaxs nomini bildiradi.

Fe'l: Har ikkala tilda ham harakat, holat yoki jarayonni ifodalaydi.

Yordamchi soʻzlar (harflar): Ikkala tilda ham asosiy soʻzlar oʻrtasida bogʻlovchi yoki yordamchi vazifasini bajaradi.

(b) Fe'llarning zamon shakllari: Arab va oʻzbek tillarida fe'llarning zamon shakllari mavjud. Arab tilida fe'lning uchta asosiy zamon shakli

mavjud: moziy (oʻtgan zamon), muzore' (hozirgi va kelasi zamon) va amr (buyuruq fe'li). Oʻzbek tilida ham oʻtgan zamon, hozirgi-kelasi zamon va buyruq mayli mavjud.

(c) Turlanish va tuslanish: Arab va oʻzbek tillarida soʻzlarning turlanishi va fe'llarning tuslanishi mavjud. Arab tilida otlar holatlar (raf', nasb, jar) boʻyicha turlanadi, oʻzbek tilida esa otlar koʻplik, egalik va kelishik qoʻshimchalari orqali turlanadi. Fe'llar esa har ikkala tilda ham shaxs-son, zamon va mayl boʻyicha tuslanadi.

(d) Sintaktik moslashuv: Arab va oʻzbek tillarida soʻzlar oʻrtasidagi bogʻlanishlar asosida sintaktik moslashuv mavjud. Har ikkala tilning gap qurilishi sub'ekt va predikatning mos kelishiga asoslangan.

2. Farqlar:

(a) Jins kategoriyasi: Arab tilida jins kategoriyasi mavjud boʻlib, har bir ot ma'lum jinsga mansub boʻladi: muannas (ayol jinsi) yoki muzakkar (erkak jinsi). Oʻzbek tilida bunday jins kategoriyasi yoʻq.

(b) Holatlar (arab tilidagi e'rob): Arab tilida otlar uchta grammatik holatga (raf', nasb, jar) ega. Oʻzbek tilida esa otlar koʻmakchi soʻzlar va kelishik qoʻshimchalari orqali holatlarda ishlatiladi.

(c) Fe'l tuslanishi: Arab tilida fe'llar har bir shaxs-son boʻyicha tuslanadi, ya'ni har bir shaxs-son uchun alohida fe'l shakli mavjud. Oʻzbek tilida esa fe'llar shaxs-son boʻyicha tuslanmaydi, faqat zamon va shaxs-son qoʻshimchalari yordamida shakllanadi.

(d) Oʻzaro bogʻlanish va kelishik moslashuvi: Arab tilida ot va sifatning jins va holat boʻyicha moslashuvi mavjud. Oʻzbek tilida esa ot va sifat oʻrtasida bunday jins va kelishik moslashuvi yoʻq.

(e) Morfologik tizim: Arab tilining morfologik tizimi juda murakkab va boy. Arab tilida uch yoki toʻrt harfli ildiz soʻzlar koʻplab yasalma soʻzlarni hosil qiladi. Oʻzbek tilida esa soʻzlar odatda qoʻshimchalar yordamida shakllanadi va yasaladi.

(f) Tovush tizimi va talaffuz: Arab tilida unli tovushlar qattiq va yumshoq shakllarda talaffuz qilinadi. Har bir harfning talaffuzi qattiq yoki yumshoq talaffuz qilish bilan farqlanadi. Oʻzbek tilida esa bunday talaffuz jihatidan katta farqlar yoʻq. Bundan tashqari, arab tilidagi «ayn» (ع) va «hamza» (ء) kabi tovushlar oʻzbek tilida mavjud emas.

XULOSA

Arab va oʻzbek grammatik qoidalari oʻrtasida koʻplab oʻxshashliklar va farqlar mavjud boʻlib, ular har ikkala tilning filologik tadqiqotlarida katta

ahamiyatga ega. O‘xshashliklar asosan so‘z turkumlari, fe'llarning zamon shakllari va turlanish kabi umumiy grammatik qoidalarda namoyon bo‘lsa, farqlar arab tilining murakkab jins kategoriyasi, morfologik tizimi va otlarning i'rob holatlari bilan bog‘liqdir. Ushbu farqlar va o‘xshashliklarni o‘rganish tilshunoslar uchun har ikkala tilni chuqur tushunish va filologik tadqiqotlarni rivojlantirish uchun muhim manba hisoblanadi.

Arab filologiyasini chuqur va samarali o‘rganish uchun bir nechta muhim taklif va mulohazalar quyida keltirilgan:

1. Nazariy asoslarni mustahkam o’zlashtirish.

Arab tilining boy filologik merosi keng nazariy asosga ega bo‘lib, grammatik qoidalar, morfologik va sintaktik tuzilmalarni chuqur tushunish zarurdir. Shuning uchun:

Grammatik qoidalarni o‘zlashtirish: Arab tilidagi i'rob (grammatik holatlar), jins kategoriyasi va fe'l tuslanishining nozik jihatlarini chuqur o‘rganish kerak. Ibn Molikning “Alfiyya” kabi klassik grammatika asarlarini o‘qish va tahlil qilish bu borada yordam beradi.

Lug‘at boyligini kengaytirish: Arab tilidagi ildiz so‘zlar tizimi juda murakkab bo‘lgani uchun, har bir ildizdan hosil bo‘lgan so‘zlar tarmog‘ini o‘rganish va yod olish muhim. Buning uchun lug‘at bilan muntazam ishlash talab etiladi.

2. Amaliy mashqlarni muntazam bajarish.

Arab tilining filologik jihatlarini faqat nazariy bilimlar orqali o‘zlashtirish mumkin emas. Bu tilni o‘rganishda amaliy mashqlarni muntazam ravishda bajarish juda muhim:

Matn tahlili: Arab adabiyoti, ayniqsa klassik matnlar (masalan, Qur'on va Hadislar, shuningdek, arab adabiyotining mumtoz namunalarini) tahlil qilish orqali arab tilining nafaqat grammatik, balki uslubiy va semantik jihatlarini ham o‘rganish zarur. Har qanday matnning har bir so‘zini va jumlasini sintaktik tahlil qilish va bu orqali arab filologiyasining amaliy tomonini rivojlantirish mumkin.

Mashq qilish uchun diktantlar va tarjima: Arab tilidagi matnlarni yozish va tarjima qilish orqali tilning grammatik jihatlarini mustahkamlash mumkin. Tarjima amaliyotida arabcha matnlardan o‘zbek tiliga va aksincha, o‘zbek tilidan arabchaga tarjima qilish ko‘nikmalarni yaxshilaydi.

3. So‘zlashuv va tinglash qobiliyatini rivojlantirish.

Arab tilining og‘zaki talaffuzi va nutq boyligini rivojlantirish uchun so‘zlashuv va tinglash amaliyoti muhimdir. Bu til o‘rganishda o‘ziga xos yondashuvlar:

Arab tilidagi audiomateriallar: Arab tilidagi podkastlar, ma'ruzalar yoki audio-kitoblarni eshitish orqali nutqning talaffuzi, intonasiyasi va lug‘at boyligini o‘rganish foydali bo‘ladi. Bu orqali arab tilining ifodaviy jihatlarini va turli mintaqaviy dialektlarini tushunish ko‘nikmasi shakllanadi.

Arab tili o‘qituvchilari bilan amaliy mashg‘ulotlar: Agar imkon bo‘lsa, arab tilini o‘z ona tilidek gapiradigan o‘qituvchilar bilan muloqot qilish yoki ularning darslarida qatnashish kerak. Bu tilning tirik va zamonaviy qo‘llanishini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

4. Arab madaniyati va adabiyoti bilan yaqindan tanishish.

Arab filologiyasi nafaqat til qoidalarini, balki arab xalqlari madaniyati va adabiyotini ham o‘z ichiga oladi. Bu jihatdan quyidagi takliflar muhim:

Klassik va zamonaviy arab adabiyoti bilan tanishish: Arab adabiyotining mashhur namunalari, masalan, «Ming bir kecha» hikoyalari yoki zamonaviy adabiyot namunalari bilan tanishib chiqish, tilning badiiy ifoda vositalarini tushunishga yordam beradi.

Arab madaniyati va tarixi haqida bilimlarni kengaytirish: Tilning rivojlanishi jamiyat va madaniyat bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, arab dunyosi tarixi, falsafasi va madaniyati haqida bilimlarni o‘rganish ham filologiya tadqiqotlarida muhimdir.

5. Dialektlarni o’rganish

Arab tili ko‘plab mintaqaviy dialektlarga ega bo‘lib, ularning barchasi adabiy arab tilidan ma'lum darajada farq qiladi. Shuning uchun:

Arab dunyosidagi asosiy dialektlarni o‘rganish: Misr, Shom, Fors ko‘rfazi, Mag‘rib va boshqa hududlarning dialektlari arab tilining turli xil shakllari va talaffuzlarini aks ettiradi. Dialektlarni bilish arab tilining kengroq imkoniyatlarini o‘zlashtirishga yordam beradi.

6. Ilmiy va tadqiqot ishlari bilan shug’ullanish.

Arab filologiyasi ilmiy tadqiqot va izlanishlarga boy soha. Bu sohada chuqurroq o‘rganish uchun ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanish, maqolalar va dissertasiyalar yozish muhimdir:

Filologik tadqiqotlar olib borish: Arab tilining lingvistik xususiyatlarini, uning boshqa tillar bilan o‘zaro bog‘lanishini o‘rganish arab filologiyasining muhim jihatlaridan biri. Masalan, arab tilining boshqa semit tillari (ibroniy va aramey tili) bilan qanday bog‘liqligini yoki.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdujabborov A. Arab tili, darslik. — Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2015. – 308 b.

2. Абу Адель. Курс арабского языка. 1 частью ─ Уфа: Салям, 2007. –200 с.
3. Hasanov M., Abzalov M. Arab tili darslari. ─ Toshkent: Hilol, 2010. –300 b.
4. Hikmatov A. Ad-durusun-nahviya. Arab va o‘zbek tillarining qiyosiy grammatikasi. ─ Toshkent: Hilol-Nashr, 2022. – 400 b.
5. Ibrohimov N. Arab tili gramatikasi, I jild. ─ Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1997. – 453 b.
6. Nosirova M. Tilshunoslik bilimlari va tarixi. ─ Toshkent: Navro‘z, 2019. –223 b.

Sh’eriy san’atlardan namunalar.

Azizova Nodira Husniddin qizi
ALFRAGANUS UNIVERSITETI,
Filalogiya fakulteti O‘bek tili va
adabiyoti yo‘nalishi
2-kurs talabasi:
Ilmiy rahbar: Mahmudova Shohista

Annotatasiya : Mazkur maqoalda ko‘plab badiiy san’atlar so‘zlarning she’riyatdagi ma’naviy aloqadorligini ko‘rishimiz munkin . Bu bizdagi qiziqish va hayratlarga sababchi bo‘la olgan, badiiy asarlarning ijodkorlari bo‘lgan adib va shoirlarning mahorati tufayli sodir bo‘lganini ko‘ramiz. Asrlar davomida shakl va mazmun jihatdan beqiyos taraqqiy etgan jahon mumtoz adabiyoti xazinasi yangi badiiy kashfiyotlar bilan boyitilgani haqida tanishib chiqamiz .

Kalit so‘z : San’at, ta’sir, inson, go‘zallik, badiiy, adib, shoir, she’riyat, adabiyot, his-tuyg‘u, g‘azal, bayt, so‘z, misra.

Kirish:

Adabiyot san’at turi sifatida insonga ta’sir ko‘rsatadi. San’at – arabcha “sun” yaratmoq so‘zidan olingan bo‘lib badiiylik yaratish deganidir. Buning tasiri go‘zallik tasirida amalga oshiriladi . Maskur go‘zallik esa badiiy adabiyotda namoyon bo‘ladi. Badiiy adabiyotni o‘qishni boshlaganimizda o‘zimizda o‘zgacha hislar namoyon bo‘la boshlaydi . Bu hislar oldindan namoyon bo‘lmaganligi uchun bizda ichki bir qiziqish , ajablanish , hayratni uyg‘otadi . Bu bizdagi qiziqish va hayratlarga sababchi bo‘la olgan , badiiy asarlarning ijodkorlari bo‘lgan adib va shoirlarning mahorati tufayli sodir

bo‘ladi. Asrlar davomida shakl va mazmun jihatdan beqiyos taraqqiy etgan jahon mumtoz adabiyoti xazinasi yangi badiiy kashfiyotlar bilan boyitilgan . Sharq she’riyati o‘zining boy nazariy zahirasiga ham ega bo‘lgan . Arab , fors va turkiy she’riyatining taraqqiyot tarixi jarayonida bir qator adabiy-tasviriy qonun-qoidalari ham shakillanib tobora rivojlanib va boyib bormoqda . She’riy san’atlar shular jumlasidandur :

Asosiy qism:

Tanosub

Ko‘plab badiiy san’atlar so‘zlarning she’riyatdagi ma’naviy aloqadorligiga tayanadi . Shoirning ma’naviy aloqadorligiga tayanadi . Shoirning mantiqan bir–biriga bog‘liq va bir-birini taqozo etadigan so‘zlardan foydalanishi tanosib deyiladi . Biror narsani o‘ylaganimizda ko‘z oldimizga uning belgilari , xususiyatlari kiradi . Masalan , quyosh haqida gap ketganda , avvalo , uning nur sochishini hayolga keltiramiz , yuz deganda u bilan bevosita bog‘liq ko‘z qosh , lab , og‘iz kabilar hayolda jonlanadi . Shoir biror hodisani tasvirlar ekan , ma’no jihatdan unga yaqin so‘zlarni ishlatadi va bu uning yorqinroq , ishonchliroq tasvirlashga yordam beradi . Masalan bir baytda “gul” so‘zi ishtirok etsa , u o‘z-o‘zidan “tikan” , ‘‘guliston’’ , “Shabnam” , “bulbul” , kabi so‘zlarning bo‘lishini taqozo etadi.

Olma yanoqing ko‘rgach , men bandi nechun o‘lmay ?

Bodom ko‘zi fitna , pista dahani nozuk .

Lutfiy bu o‘rinda yanoq , ko‘z , dahan kabi kishi tana qisimlarini , shuningdek , olma , bodom , pista singari meva nomlarini bir baytga jamlagan . Ayni paytda shoir olmadek yanoq, bodomdek ko‘z , pistadek dahan , tasvirlari orqali bayt mazmuniga ta’sirchanlik ham beri turibdi .

Atoyining quydagi misralarida ham tanosub she’riy san’ati juda chiroyli tasvirlab berilgan .

Uzun sochingdin uzmasmen ko‘ngulni ,

Ayog‘ing qanda bo‘lsa boshim anda .

Bu misrada soch , ko‘ngil , oyog‘ , bosh so‘zlari o‘rtasida mutonosiblik bor .

Zulfung cheriki jamol mulkin

Oldi ko‘zing ittifoqi birla

Quydagi baytda esa Atoyi cherik (askar) , mulk (mamlakat) , oldi (bosib oldi) , ittifoq (ikki mamlakatning o‘zaro kelishishi) kabi so‘zlarning mano yangiligidan foydalanilgan . Bunda sening zulfing cherigi (sochlaring askarlari-qo‘shini) ko‘zing bilan ittifoq tuzib jamol mulkin egallab oldi .

Husni ta’lil

Husni ta’lil fikrni asoslash san’atidir . Ammo bu asoslash real , hayotiy bo‘lmasdan faqat shoirona asoslash bo‘ladi . Ushbu san’at lavhalari tabiat manzaralarini hayot hodisalari , kundalik turmush voqealarini kuzatish davomida kutilmagan tasodifiy tarzda , to‘satdan shoir dilida paydo bo‘ladida uning yodida saqlanib , sayqal topib , so‘ng g‘zal yohud masnaviydan bir bayt ko‘rinishida o‘rin oladi . Shoir dilida avvalo g‘oyaviy badiiy niyat , yor chehrasining yangicha betakror vaslini yaratish maqsadi paydo bo‘ladi . Bu orzu uni tunu kun izlanishga undaydi . U hayot manzaralarini sinchiklabroq kuzatar ekan , bir qator badiiy lavhalarni kashf etadi . Ijodkorlar asarlarini mutoala qilsak , ayni vaqtda ularning badiiy salohiyatlari , sirlarini o‘rganishga intilayotgan shoir boshqa san’atlar qatorida husni ta’lil namunalarini sinchiklik bilan nazardan o‘tkazar ekan , o‘ziga manzur bo‘lgan badiiy obidalardan ilhomlanib , yaratilgan husni ta’lil ifodalarini yanada takomillashtirish yoki shu lavhalarning ochilmagan qirralarini kashf etish niyati bilan ularning yangicha talqinlarini qog‘zga tushuradi.

Quyosh oydek yuzungning xijlatidin

Qochib , to‘rtinchi ko‘k uzra chiqibdur .

Lutfiy bu o‘rinda yor – mashuqa yuzini tariflamoqda . uning yuzi quyoshdan ham , oydan ham go‘zal . Biz oy va quyoshning yerdan tepada – ko‘kda turishini bilamiz , ammo shoir bunga boshqacha izoh bermoqda . Uning nazarida quyosh yor yuzining go‘zalligi tufayli yer yuzidan qochib ketgan va to‘rtinchi ko‘k (osmon)dan makon topgan .

Lutfiy yana bir she’rida husni ta’lilni juda chiroyli ifodalagan .

Nozuklik ichra belicha yo‘q tori gesuyi ,

O‘z hadini bilib belidin o‘lturar quyi .

Shoir bunda yorining sochi uzunligini madh etadi , ayni paytda noziklik borasida bel va soch bahsida u (soch) mag‘lub . Shuning uchun ham sochning o‘rni beldan pastda bo‘lishi kerak degan shoirona asos aytilmoqda . Tabiiy ravishda beldan pastda bo‘lishi hammaga yahshi malum .

Ibodat chog‘ida boshni yerga qo‘yish odatdagi hol . Ammo shoir uni tamomila boshqacha izohlaydi .

Qutlug‘ ouog‘ing yerga tegubdur , oning uchun ,

El yerga qo‘yub bosh , qilur barcha ibodat .

Ko‘rinib turganday , shoir elning yerga bosh qo‘yib ibodat qilishini yorning “qutlug‘ oyog‘i yerga tekkani” bilan asoslamoqda .

Yoki kishilarning qandni suvga solib eritishlari tabiiy holdir . Lutfiy esa uni shunday tariflaydi .

Choyga qand solish hodisasi aks etayotgan bu tasviriy badiiy asosning go‘zalligi bilan e’tiborga molik . Adib nazarida qand shirillikni labdan “o‘g‘irlab olgan” . O‘g‘ri esa jazolanishi kerak . O‘g‘riga beriladigan jazo turlaridan biri unga suvga kiyimsiz yalang‘och holda kiritishdir . Bu tasvir albatta kishiga zavq uyg‘otmay qolmaydi .

Tajohil ul-oruf

Tajohil ul- oruf mumtoz sheriyatda o‘xshatish usullridan biri . Tajohil ul-oruf so‘zining manosi “arb tilidan olingan bo‘lib – bilib turib bilmaslikka oish” deganidir . Shir bunda o‘xshatish manbalarini kuchaytirib , bo‘rtirib ko‘rsatish maqsadida o‘sh manbaga (odatda yorga mahbubaga) nisbatan bir yoki bir necha o‘xshatishni qo‘llaydi , lekin go‘yo o‘zini nodon kishilarcha tutib , o‘zini bilmaslikka solib , ushbu o‘xshatishlarining to‘g‘ri noto‘g‘riligi haqida boshqalardan so‘raydi . aslida shoirning bilib bilmaslikka solishi shartli bo‘lib , uning o‘xshatishlaridan kamchilik , xatolik yo‘q ; uning asl maqsadi yor qiyofasini mubolag‘ali tavsifu o‘xshatishlar asosida kishi ko‘z o‘ngida aniq gavdalantirishdan iboratdir .

Malak yo hur ,bilmom , yo parisan ?

Bu ruftor ila yo kabki dariysan ?

Lutfiyning bu misrasida tajohil ul-oruf san’ati juda chiroyli qo‘llanilgan . Baytda shoir ma’shuqa siymosini , malak , hur , parilarga , uning yurishini esa kabki dariy (kaklik turi) yurishiga o‘xshatadiyu , o‘zini bilmaslikka solib , qaysi o‘xshtish to‘g‘riligini bilmaganday , bu haqda so‘rab ko‘radi . To‘g‘ridan to‘g‘ri o‘xshatishga nisbatan bu hil yashirin o‘xshtishdir, qiyoslash baytni ta’sirchanligini oshiradi va unga zavq bag‘ishlaydi .

Tajohil ul-oruf san’ati ko‘pincha g‘azalning boshidan oxirgacha davom ettiriladi , ya’ni barcha baytlar shu san’at asosida yoziladi . Masalan Atoyining bir baytida :

Mengiz yo ravzai rizvonimkidur bu ?

Og‘iz yo g‘unchai xandonmdur bu ?

Shoirning shu bayti bilan boshlanadigan g‘azali oxirgacha oxirgacha shu san’atga asoslanib yaratilgan . Tajohil ul-orif san’ati mumtoz sheriyatimizda ken qo‘llanilgan bo‘lib , undan deyarli barcha shoirlar foydalanganlar .

Xo‘blarda seningdek bir mahbub qani nozuk?

Boshdin oyoqi zebo , bel-u badani nozuk .

Aslida , bu she’r ma’shuqa madhiga bag‘ishlangan . Lutfiy “mahbub” ning “xo‘blar” orasidagi ebg a’lo mavqe tutishini biladi . Shoirning asl maqsadi ham ana shu haqiqatni ta’kidlash Bu maqsadga erishish uchun esa bilmaslikka olish , bilib turib yana so‘rash usuli qo‘l kelgan .

Talmeh

Talmeh mumtoz she’riyatda keng qo‘llangan badiiy san’atlardan biri . Talmeh (arabcha – ishora qilish , biror narsa yengil nazar tashlash) degan ma’nolarni bildiradi . Bunda shoir mashhur bir qissa , voqea yoki asarga ishora qilish orqali o‘z fikrini muxtasar qiladi . Badiiy san’at sifatida u tarixiy va afsonaviy voqea , masal , shaxs , mashhur asar va qahramonlar nomiga ishora qilish vositasida fikrni qisqa ixcham tasvirlashdir .Xorazimiyda shunda bayt mavjud .

Sulaymon saltanatlik podshosen ,

Masih anfoslik , Yusufliqosen .

Ushbu baytda uchta shaxs nomi : Sulaymon , Masih va Yusuf tilga olingan Ularning uchalasi haqida ham faqat o‘zbeklarda emas , turli halqlarda juda ko‘plab afsona , rivoyat , qo‘shiq , hatto dostonlar yaratilgan .Ular bilan bo‘liq rivoyatlar “Qur’on” da ham qayd etiladi . Malumki , Sulaymon – Dovud payg‘ambarning o‘g‘li edi , u o‘n to‘qqiz aka-uka orasida eng donishmandi bo‘lgan . Shu tufayli u barcha yer yuzidagi odamlarnigina emas , qurt-u qumursqaga qushlarga , hatto “ins-u jinslar”ga ham hukumronlik qilgan . “Sulaymon saltanatlik podshisen” misralari ana shu afsonaviy shaxs qudratini mo‘jaz shaklda eslash orqli badiiy tasvir qahramonini tavsiflashga xizmat qilmoqda .

Yusuf esa go‘zallik ramziga aylangan obraz . U Ya’qub payg‘ambarning og‘li . “Yusuf va Zulayho” dostonidagi bosh qahramon , ko‘plab shoirlar etiborini tortgan :

Solib borma meni , ey Yusufi ham ,

Bukun Yaqubtek bayt ul-hazanda .

Bu yerdagi talmeh “Yusuf va Zulayho” turkumidagi dostonlardan Xabardor bo‘lishni taqazo etadi , Malumki , Yusuf Ya’qub payg‘ambarning sevimli farzandi bo‘lgan . Ammo taqdir ayni mana shu farzandidan muayyan muddat ayrilib yashashini ravo ko‘radi .Natijada ota g‘am uyi (bayt ul hazan)da yashashga majbur bo‘ladi . Yusuf o‘zining tashqi ko‘rinishi-go‘zalligi bilan ham boshqalardan ajralib turar edi , Demak , lirik qahramonning , o‘z mahbubasiga “Yusufi husn”deb murojat etishi bejiz emas ekan .

Xulosa:

XX asr boshlariga kelib dunyoning barcha borliq narsalariga bo‘lgan munosabatlarning o‘zgargani kabi so‘z san’atiga nisbatan ham qarashlar o‘zgaradi . Endi uni tabiatga taqlid (Arastu) , obyektiv borliqning subyektiv ifodasi (Hegel) , kishilar o‘rtasidagi tuyg‘u yrtkazish vositasi (L . Tolstoy) . Adabiyot asarlarida hayot hodisalari o‘z ko‘rinishlari emas , balki

oʻzgartirilgan , boyitilgan hoda aks ettiriladi . Shoirlar adiblar koʻrgan-kechirgan , eshitgan , hayolan tassavvur etgan voqealarini oularning hissiyot , kechinmalarini boyitishadi .

Foydalanilgan adabiyot:

1 . https://adabiyot.islamonline.uz/adabiyotshunoslik/sheriyat/400-husni-talil- sanaati.html?start=1

2 . Анвар Ҳожиаҳмедов, Ҳусни таълил санъати китобидан

3 . https://uz.wikipedia.org/wiki/Tajohuli_orifona

4 . https://malumot.ru/tajohil-ul-orif/

5 . Adabiyotshunoslik Toʻrayev . A , Koʻchimov . U .

https://uz.wikipedia.org/wiki/Talmeh

6.Narimov Hamid Adabiyot tayyorlov darsligidan.

Erkin Vohidovning oʻzbek adabiyotidagi roli va shoirlik xilqatlariga bildirilgan fikrlar

Ahrorova Jasmina Asror qizi

Alfraganus universiteti Oʻzbek tili va adabiyoti yoʻnalishi 3-bosqich talabasi

ahrorovajasmin3103@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Oʻzbekiston Qahramoni, Oʻzbek xalqining sevimli shoiri Erkin Vohidovning ijodining o'ziga xos xususiyatlari shuningdek shoirning oʻzbek adabiyotida tutgan oʻrni va roli xususida fikr mulohazalar keltirilgan.Shoir haqida bildirilgan ta'riflar,fikrlar to'g'risida ham to'xtalib o'tilgan.

Kalit soʻzlar:adabiyot,tarjimon,dramaturg,pyesa,sheʻriyat,sanʻat,aruz, tafakkur

АННОТАТSIЯ: В данной статье представлены уникальные особенности творчества Эркина Вахидова, героя Узбекистана, любимого поэта узбекского народа, а также место и роль поэта в узбекской литературе.

Ключевые слова: литература, переводчик, драматург, пьеса, поэзия, искусство, мечта, мысль.

ABSTRACT: In this article, the unique features of the work of Erkin Vahidov, the hero of Uzbekistan, the beloved poet of the Uzbek people, as well as the poet's place and role in Uzbek literature are presented.

Key words: literature, translator, playwright, play, poetry, art, dream, thought.

KIRISH: O'zbek xalqining taniqli va sevimli shoiri,dramaturgi,adabiy tarjimoni hamda davlat arbobi bo‘lmish Erkin Vohidovning adabiyot,tarjima sohalarida katta mavqega ega desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Oilada ham otadan ham onadan ham erta ayrilgan shoir tog‘asi Karimboy Sohiboyev qo‘lida katta bo‘lgan.Shoir G‘ayratiy tomonidan O‘quvchilar saroyida tashkil etilgan adabiy to‘garak uning kitobga mehr qo‘yishida, adabiyotga bo‘lgan havasini yanada oshirgan.Erkin Vohidovning she’riyatga bo‘lgan qiziqishi ham shu yo‘sinda ortib borgan.Adabiyotga qiziqish uyg‘onishida tog‘asining o‘rni ham bag ‘oyatda salmoqli bo‘lgan. Tog‘asining kasbi yurist bo‘lsa ham, adabiyot va san’atga qiziqqan, she’riyatni nozik tushunadigan kishilardan bo‘lgan.

Vohidov she'r yozishni o'quvchilik yillarida yoza boshlagan.Ilk she'ri 14 yoshida ‘‘Mushtum’’ jurnalida chop etilgan.Shoirning ilk she’riy to‘plami "Tong nafasi" kitobi bo‘lgan.Kitob 1961-yilda bosilib chiqqan.Shoir bolalik xotiralarini eslab,o ‘z tarjimayi holida shunday yozgan: ‘‘O‘ylab qarasam,bolalik xotiralarimning ko‘pchiligi she‘rlarga,dostonlarga ko‘chgan ekan.Jumladan ‘‘ Nido’’, ‘‘Quyosh maskani’’, poemalari, ‘‘Bolalik’’, ‘‘Oqsoqol’’, ‘‘Bolalik ekan-da...’’ she‘rlari o‘sha murg‘ak tasavvur,ilk xotiralarining mevasi bo‘lgan”,- deb xotirlaydi Erkin Vohidov.

Shoirning asar, she'r yozishdan tashqari bizga ma'lum bo‘lgan pyesa va tarjimalari ham ahamiyatlidir.Badiiy ruhdagi tarjimalarini o'quvchilar katta mehr-muhabbat bilan mutolaa qilishadi.U bir qancha rus shoirlarining asarlarini o‘zbek tiliga so'ylatgan.Erkin Vohidovning adabiy nuqtayi nazari,fikrlari "Shoir-u she'r-u shuur" nomli kitobida yaqqol gavdalanadi."Ko’z ochib nur qo’ynida ko’rdim yorug' dunyoni.Bu olamda neki bor,Bari tortar havasim.Lolalar qahqahasi,Chechaklarning xandasi,G’unchalar yuzidagi sal uyatchan tabassum ". Shoir she'riyati o’quvchilarda go’zalllikni his etish tuyg‘usini shakllantirishni o’rgatadi.Yuqoridagi "Bir tomchi quyosh o’ynar"she’ridan olingan parcha orqali tabiat go‘zalligini,insonning ma’naviy -intelektual ko’rkini kuylash,ulug‘lash orqali hayot go’zalliklarini tasdiqlash shoirning bosh estetik prinsiplaridan ekanligini ko‘rsatadi.Shu jihatdan she’r ushbu xususiyatlarni yorqin namayon etadigan mukammal ijod mahsulidir.

Shoir inson ruhiyatining nozik va ilg‘ash mushkul manzaralarini ta’sirchan va mazmundor tarzda aks ettirgan. Odamni komil ko‘rmoq istagi uning she’rlari asosini tashkil qiladi.

XULOSA:O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini har tomonlama o‘rganish uni keng targ‘ib qilish, bugun yuz berayotgan murakkab jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etib, zarur xulosalar chiqarish ma’naviy hayotimizni yuksaltirishda, hech shubhasiz, katta ahamiyatga egadir. Ayniqsa, hozirgi notinch va tahlikali zamonda milliy o‘zligimizni anglash, azaliy ezgu qadriyatilarimizni saqlash va boyitish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etayotgani barchamizga ma’lum.

Bunday o‘ta muhim vazifalarni amalga oshirishda xalqimizning Erkin Vohidov kabi buyuk va ardoqli farzandlarining qutlug‘ va o‘lmas merosi albatta beqiyos o‘rin tutadi.Erkin Vohidovning asarlari milliy adabiyotimizning “oltin fondi”dan, yurtimiz va chet ellardagi ming-minglab adabiyot muxlislarining qalbidan munosib va mustahkam o‘rin olgani bilan har qancha g‘ururlansak, arziydi.Ushbu teran va mazmunli fikrlarni shoirning 80 yilligiga bag‘ishlangan konferensiyada Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan e’tirof bilan aytilgan.Ushbu jumlalardan ko’rinib turibdiki,shoir elning ardog’idagi barchaga birdek samimiy va oqko‘ngil inson ekanliklari yaqqol ko‘zga tashlandi. Hayotda buyuk iste’dodli insonlar o‘zlarining mehnati va ijodi bilan millat, xalq ma’naviyati va madaniyatiga yuksak hissa qo‘shishi bilan bir qatorda, favqulodda noyob qobiliyat egasi, butun bo‘y-basti bilan millat, xalq qiyofasini o‘zida aks ettiradigan kuchli bir tarixiy shaxs sifatida ham o‘chmas iz qoldiradi.Erkin Vohidov o’zbek adabiyoti tarixida shunday iz qoldirdiki,uning ismi zarhal harflar bilan qalblarda qoldi. Erkin Vohidovning nafaqat ulkan ijodi, balki millat va xalq, davlat tarixi, ijtimoiy hayoti, kerak bo‘lsa, taqdirida hal qiluvchi o‘rin egallagan shaxsi haqida ko‘p va xo‘p gapirish mumkin...

Erkin Vohidov har qanday qiyin, murakkab, og‘ir sinovlar onida ham, voqealar hattoki hayoti va taqdiriga qarshi tus olgan taqdirda ham, o‘zining halol vijdonidan chekinmagan, og‘ishmagan, irodasi-yu e’tiqodida sobit turgan, faqat va faqat xalq, millat, vatan manfaatlari uchun o‘zini fido qilgan jasur, qat’iyatli insondir. Shuning uchun ham butun xalqimiz o‘zining ushbu sadoqatli o‘g‘loni bilan hamisha faxr-u iftixor hissini tuyadi... Erkin Vohidovning tashabbusi bilan qonunchiligimizdagi “proba” so‘zi “asillik belgisi” degan g‘oyatda o‘zbekona ibora bilan almashtirilgan. Bu kabi misollarni judayam ko ‘p uchratishimiz mumkin. Erkin Vohidovdek o‘zbek tili bilimdoni va so‘z zargarining tafakkuri va iqtidori, mahorati va tajribasi

qonun ijodkorligi jarayonlarida milliy qonunlarimizning yuridik tili hamda uning sayqal topishi, tom ma’noda o‘zbekona bo‘lishini ta’minlash borasida nihoyatda qo‘l kelgan. Ulug‘ adib o‘zining butun umri davomida vatanparvarlik, xalqimiz tarixi va buyuk ajdodlarimizdan faxr-iftixor tuyg‘ulari madh etilgan she’r va g‘azallari, dostonlari, dramalari bilan yurtdoshlarimiz qalbidan mustahkam o‘rin egallagan.

‘‘Mumtoz g‘azaliyotimizning oltin eshiklari abadiy bekildi, deya karomat qilishayotganda yosh avlod orasidan birinchilardan bo‘lib Erkin Vohidov aruzning tabarruk ostonasida posbon yanglig‘ paydo bo‘ldi’’, deb aytgan samimiy fikrlari Erkin akaning adabiyotimiz oldidagi xizmatlariga berilgan tom ma’noda yuksak, xolis va eng munosib baho, demakdir.Ushbu iliq va dildan chiqqan samimiy izhorlar Erkin Vohidovga qarata Abdulla Oripov tomonidan berilgan.Abdulla Oripov Erkin Vohidovni posbon misol paydo bo‘ldi deydi.Bu fikrlar tag zamirida juda katta ma ‘no va mazmun uyg‘unlashgan.

O‘zbek adabiyotining takrorlanmas iste’dodli namayondasi Erkin Vohidov yaratgan nodir va qimmatli asarlar,ijod namunalari biz uchun qolaversa,kelajak avlod uchun tengi yo‘q meros bo‘lib qoladi desam aslo adashmagan bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. No‘mon Rahimjonov O‘zbekiston adabiyotshunoslari,Toshkent “ Yosh avlod matbaa’’ 2021
2. Erkin Vohidov Inson o‘zing kitobidan
3. Erkin Vohidov .-Toshkent:Yangi avlodi,.2017
4. Akmal Saidovning ‘‘ O‘zbegimning erkin o‘zbegi ” kitobi.

YUSUF IDRISNING “SHO‘RPESHONA” HIKOYASIDA IJTIMOIY MUAMMOLARNING BADIIY TALQINI

Madina Tursunova
Alfraganus universiteti
4 –bosqich AF-2101 guruhi talabasi
Ilm.rahbar:fil.f.n.,dots.Sh.I.Ahmedova

Annotasiya

Ushbu maqolada misrlik taniqli adib Yusuf Idrisning asari tahlil qilingan. Shuningdek, adib ijodi, u haqidagi ayrim ilmiy tadqiqotlar nomi zikr

qilingan, asardan olinadigan xulosalar bayon qilingan. Maqola o‘zbek tilida Yusuf Idris hikoyasi tadqiqiga bag‘ishlangan dastlabki izlanishlar sirasiga kiradi.

Kalit so‘zlar. Hikoya, Misr, Yusuf Idris, obraz, timsol, jamiyat , yozuvchi.

Аннотатsiя

В данной статье анализируется рассказ известного египетского писателя Юсуфа Идриса. Также упоминается название произведения автора, некоторые научные исследования о нем, излагаются выводы из повести. Статья является одним из первых исследований, посвященных изучению повести Юсуфа Идриса на узбекском языке.

Ключевые слова:История, Египет, Юсуф Идрис, образ, символ, общество, писатель.

Annotation

In this country, the story by the famous Egyptian writer Yusuf Idris is analyzed. The title of the author’s work, some scientific research about it, and conclusions from the story are also mentioned. The article is one of the first studies devoted to the study of the story of Yusuf Idris in the Uzbek language

Keywords:*Story, Egypt, Yusuf Idris, image, symbol, society, writer.*

Yusuf Idris 1927-yilda Misrda tug‘ilgan. Asl kasbi shifokor bo‘lgan. Ammo arab hikoyanavisligida o‘ziga xos iz qoldirdi. Uning hikoyalari dunyo bo‘ylab turli xalqlar tillariga o‘girildi, ko‘plab o‘qirmanlar diqqatini tortdi. Yusuf Idris ijodi tadqiqiga bag‘ishlangan tadqiqotlar, xususan, Viktor Ivanovich Kripchenkoning “Misrlik hikoyanavis Yusuf Idris ijodi” (1970-y.) [4], Teodor Prochazka “Yusuf Idris asarlarida mavzu qo‘llash va xarakterlantirish” (1972-y.) [7], Ranya Faruq Shalabiyning “Adabiy yaqinlik: Yusuf Idris hamda Uilyam Folkner hikoyalarida tematik va stilistik antitezis” (2002-y.) [2] mavzularida yoqlangan ilmiy ishlar uning jahon munaqqid va adabiyotshunoslari e’tirofiga sazovor bo‘lgan yirik adib ekanligidan xabar beradi.

Yozuvchining bolaligi turli qiyinchiliklar va sinovlar og‘ushida kechgani uning kelajakda adabiy faoliyat bilan shug‘ullanishiga ruhiy-ma’naviy zamin hozirladi. Bo‘lg‘usi hikoyachi hayot maktabida jiddiy “tahsil ko‘rdi”. Yusufning otasi shaharlik bo‘lib, ijtimoiy jihatdan o‘ziga to‘q, davlat xodimi edi. Ota uchinchi xotiniga uylangach, Yusuf onasi bilan qishloqqa, buvisining uyiga qaytadi. Ana shunda u uchun murakkab kunlar boshlanadi [3]. Yusuf asarlarining aksari ijtimoiy hayotdan ezilgan kishilar hayotini yoritishi mazkur sabablar bilan bog‘lanadi. Jumladan, biz tahlilga tortmoqchi

bo‘lganimiz “Sho‘rpeshona” hikoyasi ijtimoiy muhitdan xabar beruvchi asarlardan biridir. Unda bosh qahramon Abduning misolida butun boshli kambag‘al va ishsizlar jamiyatini ko‘ramiz.

Hikoya ilk bor 1954-yilda nashr qilingan “Eng arzon kechalar” to‘plamida keltirilgan. Ushbu to‘plam kitobxonlar orasida o‘z o‘rniga ega bo‘lganligidan internet sahifalarida to‘plamning ovozlashtirilgan shaklini ham topdik [5]. Ushbu hikoya tahlili bo‘yicha qisqa muddatli izlanishimiz davomida bor yo‘g‘i ikkitagina tahlilni uchratdik.

Asar qisqa hikoya janrida yozilgan. Unda qo‘shnilarning qiyin paytlarda bir-biriga yordam berishi, ba’zi vaqtlar bir-birining ortidan g‘iybat qilishi, ayollarning bir-birlariga qilgan ta’nalarida to‘laqonli realizmni ko‘ramiz.

Asar nomi muallif tomonidan “Shug‘lana” [6] (mashg‘ulot, ish) deb nomlangan. Ammo tarjimon uni “Sho‘rpeshona” deb atagan. Tarjimon Sarvar Abdullayev hikoyaning umumiy mazmunidan kelib chiqib, bosh qahramonning achinarli holatini hikoya uchun unvon qilib olgan bo‘lsalar, ajab emas.

Hikoyaning umumiy syujeti haqida qisqacha so‘z yuritadigan bo‘lsak, voqealar Abdu ismli yigitning pulga muhtojligi bilan boshlanadi. Hikoya avvalida muallif bosh qahramonning kelib chiqishi, qanday ishlar qo‘lidan kelishi va har qanday ishga borini berib, kamchiliksiz bajara olishi to‘g‘risida so‘z yuritgan. Abduning ishsiz qolishi ayolini tashvishga soladi. Eridan pul topib kelishini talab qiladi. Talba ismli qo‘shni kishi Abduga pul evaziga donorlik qilishni maslahat beradi. Abduga bu taklif ma’qul tushib kasalxonaga otlanadi. Ammo donorlik qilish uchun maxsus talablar borligi Abduni tashvishga soladi. Baxtiga qoni talablarga mos keladi va ma’lum mablag‘ evaziga donorlik qiladi, ya’ni, qonini sotadi. Bu ishni davomli tarzda qiladi. Natijada hayoti yaxshi tomonga o‘zgaradi. Oilasida ham halovat topa boshlaydi. Ammo bir muddat o‘tgach unda kamqonlik aniqlangani sababli hamshira undan qon olishni rad etadi. Abdu donorlik qilishga harchand urinmasin hamshira uni fikridan qaytarishga majbur bo‘ladi. Hikoya qahramoni yana avvalgidek kambag‘allikka mahkum bo‘ldi. Bu ham yetmagandek bemor va quvvatsiz edi.

Muallif Nafisa obrazi orqali ba’zi ayollarning “xislatlari”ni ko‘rsatib bergan. Uning eri bilan munosabatida o‘zgaruvchanlikni ko‘ramiz. U eriga maishiy ahvolidan kelib chiqib muomala qiladi. Ular boshlaridan kechirayotgan qiyinchilik va nochorlik Abduga bog‘liq emasligiga muallif ochiq-oydin ishora qilgan. Ushbu mulohazalardan kelib chiqib, asarning g‘oyasi insonlarni har qanday holatda yaqinlariga nisbatan insofliroq bo‘lish

va sabr qilib, hamisha yaxshilikdan umid qilishga chaqiriq deb hisoblaymiz. Qolaversa, o‘z ishiga jiddiy mas’uliyat bilan yondashuvchi yigitning ishsiz yurishi, kasalxonada kishilar qon sotish uchun turna qator navbatda turishi, qo‘shnilar Abduga achinsalar ham unga yordam qo‘lini cho‘za olmasliklari muallifning jamiyatdagi ishsizlik va kambag‘allik darajasining yuqori ekanini ko‘rsatib bermoqchi bo‘lganini anglatadi.

Asarda keskin burilish yasagan voqea Talbaning Abduga donorlik qilishni maslahat berishidir. Kulminatsion nuqta esa, so‘ngi qismida, bosh qahramonda bemorlik aniqlanishi va hamshira Abduga o‘lishini aytsa ham qarorida qat’iy turib olishi. Bu hikoya qahramonining pul topish uchun hamma narsaga tayyor ekanini ko‘rsatadi.

Asar hajman kichik bo‘lgani uchun obrazlar tizimi u qadar keng emas. Unda bosh qahramon Abdu, uning ayoli Nafisa, shifoxonadagi hamshira, ish topib beruvchi Talba va bir martadangina eslangan qo‘shni Hamida bilan nonvoy Foidlarni ko‘ramiz. Hikoyada badiiy tasvir vositalari ham nihoyatda kam qo‘llangan. “Ularning yuzlari choyshabdek oqarib ketganidan yaltirar edi”, “ularning inoq shivir-shivirlari naru moda kabutarlarning g‘uv-g‘uv ovoziga o‘xshardi”, “ora-sira ona bolasini erkalagandek erini erkalab qo‘yar edi” jumlalarini tashbeh san’atiga misol qilsak bo‘ladi. Asarda milliy kolorit hamda folklor namunalari umuman ko‘zga tashlanmaydi. Hikoya so‘ngida hamshira Abduga qon bersa o‘lishi haqida aytadi. Uning beparvolarcha: “Roziman”, – degan javobiga “Bu g‘ayriinsoniylik” , – deydi. So‘ng Abdu, bizningcha, asardagi eng yaxshi falsafiy mushohada bo‘lgan jumlani aytadi: “Bu-chi, insoniylikmi?”

Ha, u pul uchun qonini sotayotgani qanchalik tuban ish ekanligini, insoniylikdan yiroq ish qilayotganini chuqur anglardi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Nafisaning besabrligi erining davomli ravishda o‘z qonini sotishiga, natijada kasallik orttirib, o‘sha ishga ham yaramay qolishiga olib keldi. To‘g‘ri, vaqtincha bo‘lsa ham hayotlari yaxshilandi, ammo bir kishining sog‘lig‘i oldida jig‘ildonning vaqtincha “yayrashidan” ne naf?! Axir hikoya so‘ngida yana ishsizlik va ochlikka giriftor bo‘lishdi-ku! Asardagi yechim Nafisa sabr qilishi, to‘qlikda ham, ochlikda ham erini hurmat qilishi kerak. Boshqa tarafdan biz Yusuf Idrisni o‘tgan asr Misr jamiyatidagi fojia, odamlar dardi, og‘riqlarini teran tuygan adib o‘laroq ko‘ramiz hamda zamonaviy Misr adabiyotidagi ijtimoiy muammolarga bo‘lgan umumiy yondashuvning xususiy ifodasiga guvoh bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jahon adabiyoti jurnali. O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi. – 2017, 9-son. 208 b.
2. Ranya Farouk Shalaby. Literary Kinship: Thematic and Stylistic Antithesis in the Short Stories of Yusuf Idris and William Faulkner.– The American University in Cairo AUC, 2002 – 75 pp.
3. Rogger Aller. Selected studies in modern arabic narrative: history, genre, translation. – Atlanta, Georgia: 2019. – 227 pp.
4. В.Н. Кирпиченко. Творческий путь египетского новеллиста Юсуфа Идриса. Канд. дисс. филол. наук… – Москва, 1970. – 349 с.
5. أرخص ليالي - يوسف إدريس [https://www.youtube.com/watch?v=_5uifED1-mY] – Фойдаланилган сана: 04.03.2024.
6. يوسف إدريس. أرخص ليالي – القاهرة : مؤسسة هندوي الناشر، 2019. – 156 ص.
7. Theodore Prochazka. Treatment of theme and characterisation in the works of Yusuf Idris. University of London School of Oriental and African Studies, August 1972. – 350 pp.

Ot so‘z turkumi tahlili

Shodmonov Muhammadsodiq Navruz o‘g‘li
Alfraganus universiteti 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Baxtiyarova Fotima Sodiqovna
Alfraganus universiteti o’qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ot so‘z turkumi tahlili turli yillarda nashrdan chiqqan Qalandar Sapayev. “Hozirgi o‘zbek tili” , M. Qurbonovaning “O‘zbek tilshunosligi” metodik qo‘llanma, R.Sayfullayeva, B.Mengliyeva, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalovalarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” o‘quv qo‘llanmalarida ot so‘z turkumidagi o‘xshash va farqli jihatlar haqida qisqacha mulohazalar bildirib o‘tishga harakat etildi.

Kalit so‘zlar: ot, aniq ot, mavhum ot, kategoriya, grammatik ma’no, morfologiya.

Abstract. This article analyzes the noun phrase of different years published by Qalandar Sapayev "Current Uzbek language", M.Kurbanova's "Uzbek Linguistics" methodological guide, R.Sayfullayeva, B. Mengliyeva,

G.Boqiyeva, M. Kurbanova, Z.Yunusova, M.Abuzalova's "Current Uzbek Literary Language" "in the training manuals, an attempt was made to give brief comments about the similarities and differences in the noun phrase.

Key words: noun, concrete noun, abstract noun, category, grammatical meaning, morphology.

Абстрактный. В данной статье анализируется именное словосочетание разных лет, изданное Каландаром Сапаевым «Современный узбекский язык», методическим пособием М.Курбановой «Узбекское языкознание», Р.Сайфуллаевой, Б.Менглиевой, Г.Бокыевой, М.Курбановой, З.Юнусовой, М. .Абузаловой «Современный узбекский литературный язык»» в учебных пособиях сделана попытка дать краткие комментарии о сходстве и различии именного словосочетания.

Ключевые слова: существительное, конкретное существительное, абстрактное существительное, категория, грамматическое значение, морфология.

Ot so‘z turkumiga to‘xtalishdan avval so‘z turkumi haqidagi bilimlarimizni yangilab olamiz.“So‘zlarning mavhum grammatik ma’nosi, morfologik va sintaktik belgilariga qarab guruhlarga bo‘linishi so‘z turkumi deyiladi”[52].

Hozirgi o‘zbek tilida so‘zlar mavhum grammatik ma’nolari, morfologik va sintaktik belgilariga qarab besh guruhga bo‘linadi: 1) mustaqil so‘zlar; 2) yordamchi so‘zlar; 3) modal so‘zlar; 4) undov so‘zlar; 5) taqlidiy so‘zlar. Mustaqil so‘zlar leksik va grammatik ma’noga ega bo‘lib, gapning biror bo‘lagi vazifasida keladigan, shunga muvofiq shakl yasash xususiyatiga ega bo‘lgan so‘zlardir”[53].

Shaxs va narsa ma’nosini anglatadigan va son, kelishik hamda egalik kabi grammatik ma’nolarni ifodalaydigan mustaqil so‘z turkumi ot deyiladi. Otlar shaxsga oid (bola, kishi, yigit, qiz, ota, ona), aniq narsalar (daftar, kitob, olma, gul, bug‘doy) hamda mavhum tushuncha bildiruvchi (shodlik, sevgi, go‘zallik) nomlarni ifodalaydi.

Q.Sapayev, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalovalarning asarlarida bir turdagi narsalardan birining nomini yoki shu turdagi narsalarning umumiy nomini ifodalashiga ko‘ra otlar atoqli va turdosh otlarga bo‘linadi. Atoqli otlar biror shaxs yoki narsaga atab qo‘yiladigan otlardir. Q.Sapayevning Hozirgi o‘zbek tili kitobida atoqli otlar

52 Qalandar Sapayev. Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, 2009 – B. 60

53 Qalandar Sapayev. Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, 2009 – B. 61.

quyidagi guruhlarga bo‘linishini ta’kidlaydi: 1) kishilarning ism-sharifi, taxallusi: Rahim Mahmudov, Oybek,; 2) hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlar: Olapar, To‘rtko‘z, 3) geografik nomlar (bularga oddiy ko‘cha nomlaridan tortib qit’a nomlarigacha barchasi kiradi): Navoiy ko‘chasi, Toshkent shahri, 4) tashkilot, muassasa va idora nomlari:, Nizomiy nomdagii TDPU; 5) kitob, gazeta, jurnal, kinofilm, spektakl nomlari: “O‘tgan kunlar” romani, “Ma’rifat” gazetasi, 6) suv havzalari va inshoot nomlari: Amudaryo, 7) tarixiy voqealar, bayram nomlari: Mustaqillik kuni, Navro‘z bayrami, 8) astronomik nomlar, ya’ni planeta, meteorit, asteroid nomlari: Yupiter, Zuhro yulduzi. kabilardir.

R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalovalarning “hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida esa quyidagicha guruhlariga bo‘linadi:

1. Kishilarning ismi, familiyasi, taxallusi: Ikrom, Jumayev, Imomzoda. 2. Jo‘g‘rofiy nomlar: O‘zbekiston, Xisor, Dehqonoobod. 3. Tashkilot, muassasa, korxona nomi: Qarshi universiteti, Xalq ta’limi vazirligi. 4. Samoviy yoritqich nomi: Mushtariy, Zuhro, Yarqiroq. 5. Tarixiy hodisa nomi: Mustaqillik kuni, Loy janggi. 6. Hayvon nomi: Boychibor, Yo‘lbars 7. Mahsulot nomi: Siltama (go‘shtli ovqat), Qoraqum (shkolad). 8. Ilohiy tushunchani ifodalovchi nom: Olloh, Buroq kabilardir. Q. Sapayev, R.Sayfullayeva, B.Mengliyeva, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova va M.Abuzalovalarning atoqli otlarni guruhlarga bo‘lishda ba’zi farqlarni ko‘rish mumkin. Q. Sapayevda asarida bor bo‘lgan kitob, gazeta, jurnal, kinofilm, spektakl nomlari va suv havzalari va inshoot nomlari atoqli ot ekanligini R.Sayfullayeva, B.Mengliyeva, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalovalarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” asarida uchratmaymiz.

Shuningdek, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalovalarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” asarida atoqli otlarning guruhlarida ko‘rishimiz mumkin bo‘lgan ilohiy tushunchani ifodalovchi nom va mahsulot nomini ifodalovchi so‘zlarni Q. Sapayevning “Hozirgi o‘zbek tili” asarida uchramaydi.

M.M. Qurbonovaning “O‘zbek tilshunosligi ” metodik qo‘llanmasida “1925-yilda nashr etilgan “O‘zbek tili saboqligi” asarida ham ot so‘z turkumi haqida qiziqarli ma’lumotlar uchraydi. Bu kitob mualliflari Munavvar Qori, Qayum Ramazon va Shorasul Zunnunlardir. Ular ot so‘z turkumiga kiruvchi so‘zlarni dastlab ikki guruhga bo‘ladilar: 1) atoqli otlar va 2) turdosh otlar (asarda ism atamasi bilan berilgan).[54]

54 M. Qurbonovaning “O‘zbek tilshunosligi ” metodik qo‘llanma.- Toshkent Universitet nashriyoti 1997 – B 24

Ushbu asradan olgan ma'lumotddan kelib chiqib, otlarni atoqli va turdosh otlarga bo'linishi o'tgan asrning 20-yillarida ham mavjud ekanligini ko'rish mumkin.

Turdosh otlar bir turdagi narsalarning umumiy nomlarini ifodalaydi: kitob, daftar, shahar, daryo, qishloq kabi. Ifodalangan tushunchaning xarakteriga ko'ra: aniq (jismiy) va abstrakt (mavhum) otlarga bo'linadi. Aniq (jismiy) (beshta sezgi - ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, teri orqali sezish) yordamida sezish mumkin bo'lgan narsalarni ifodalaydi: daftar, kitob, qalam, gul, paxta, olma. Mavhum (fikriy) otlar mavhum tushunchalarni ifodalaydi: baxt, do'stlik, tinchlik, tuyg'u, ozodlik, sevgi, muhabbat[55].

Turdosh otlar aniq va mavhum otlarga bo'linadi dedik R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalovalarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" asarida turdosh ot ifodalagan tushunchaning harakteriga ko'ra bo'linishda aniq otni "muayyan ot" deb berishadi. Muayyan so'zining izohiga e'tibor beradigan bo'lsak," tayin etilgan, belgilangan, aniqlangan" degan ma'nolarni anglatadi,56 ya'ni aniq va muayyan so'zlari sinonim so'zlar hisoblanadi.

U, Tursunova, J. Muxtorov, Sh. Rahmatullayevlarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobida aniq ot konkret ot deya ifoda etiladi. Konkret so'zi rus tilidan olingan bo'lib "aniq" degan ma'noni anglatadi.

Ot turkumi uchun xos bo'lgan asosiy xususiyat son, egalik va kelishik kategoriyasiga ega bo'lishdir.[57]

Otlarning grammatik xususiyatlaridan biri uning egalik kategoriyasiga ega bo'lishidir. Narsaning 3 shaxsdan (so'zlovchi, tinglovchi, o'zgadan) biriga taalluqli ekanligini anglatuvchi umumiy ma'nolar va ularni ifoda qiluvchi shakllar tizimi egalik kategoriyasi deyiladi. Narsaning uch shaxsdan biriga mansubligini ko'rsatuvchi morfema egalik qo'shimchasi deyiladi. Egalik qo'shimchalari shaxs ma'nosi bilan birga uning (shaxsning) sonini (birligi va ko'pligi) ham ko'rsatadi: do'stim=do'stimiz, qishlog'im= qishlog'imiz, uyim=uyimiz, vatanim=vatanimiz kabi

Egalik kategoriyasi qo'shimchalari shaxs va sonda quyidagi ko'rinishga ega: Birlik I sh. -(i) m. II sh. -(i) ng. III sh. -i, -si. Ko'plik I sh. -(i) miz, II sh. -(i) ngiz, III sh. -i, -si[58]

Otlarga xos morfologik belgilardan biri uning grammatik son kategoriyasiga ega bo'lishidir. O'zbek tilidagi grammatik son kategoriyasini

55 Qalandar Sapayev. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, 2009 – B. 66

56 O'zbek tilining izohli lug'ati

57 Qalandar Sapayev. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, 2009 – B. 64

58 Qalandar Sapayev. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, 2009 – B. 67.

bir-biriga qarama - qarshi qo‘yilgan birlik va ko‘plik shakllari tashkil etadi. Birlik shakldagi otlar bir jinsdagi narsalardan bittasini tashkil etadi: kitob, daftar, qalam; olma, o‘rik, shaftoli. Ko‘plik shakldagi otlar esa bir jinsdagi narsalarning ikki yoki undan ortiq, lekin aniq bo‘lmagan miqdorini ifodalaydi: daftarlar, kitoblar, qalamlar; olmalar, o‘riklar, shaftolilar kabi.[59] R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalovalarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitoblarida “Mantiqiy va grammatik sonni aralashtirmaslik kerak. Masalan, jamlovchi ot (xalq, qo‘shin, poda) mantiqan predmet jamini bildiradi, lekin grammatik jihatdan birlikni bildiradi”[60] deb aytib o‘tiladi.

Otning boshqa so‘zlar bilan sintaktik munosabatini ko‘rsatuvchi ma’nolar va bu ma’noni ifodalovchi shakllar tizimi kelishik kategoriyasi deyiladi. Kelishik kategoriyasi 6 grammatik ma’no yoki 6 kelishikni o‘zida birlashtiradi: bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, o‘rin-payt kelishigi, jo‘nalish kelishigi va chiqish kelishiklaridir. Kelishik kategoriyasi ot va otlashgan so‘zlarning boshqa so‘zlar bilan grammatik aloqasini ko‘rsatadi va shu so‘zlarning gapdagi vazifasini belgilaydi[61]

Qalandar Sapayev “Hozirgi o‘zbek tili” qo‘llanmalaridan bizga ma’lum bo‘lyaptiki “ot turkumi uchun xos bo‘lgan asosiy xususiyat son, egalik, kelishik kategoriyalariga ega bo‘lishi” hisoblanadi. R.Sayfullayeva, B.Mengliyeva, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalovalarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitoblarida otning asosiy grammatik kategoriyasini to‘rtta qilib berishadi. Ular son, egalik, kelishik va kesimlik kategoriyalarini tashkil qiladi.

Kesimlik kategoriyasi ot turkumida o‘z mohiyatini cheklangan darajada namoyon qiladi. U bu turkumda ikki ko‘rinishga ega bo‘ladi: a) hozirgi zamon ko‘rinishi; b) o‘tgan va kelasi zamon ko‘rinishi. Ko‘p holda ot turkumida kesimlik kaytegoriyasi bog‘lamavositasida yuzaga chiqadi. Bog‘lama kesimlik kategoriyasini ot va boshqa kesimlik vazifasiga unchalik moslashmagan so‘zda yuzaga chiqaruvchi vosita. To‘liqsiz fe’l va bo‘lmoq, sanalmoq, deyilmoq kabi mustaqil fe’l bog‘lama vazifasini bajaradi.

Kesimlik kategoriyasining ot turkumidagi hozirgi zamon ko‘rinishida quyidagi tusga ega bo‘ladi:

59 Qalandar Sapayev. Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, 2009 – B. 68

60 R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma.- Toshkent 2009. – B. 216

61 Qalandar Sapayev. Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, 2009 – B. 69

Birlik	Ko‘plik
Ishchi + man	ishchi+miz
ishchi + san	ishchi+siz
ishchi + 0	ishchi +(lar)

-man, -san, -miz, 0, -lar kesimlikning barcha ma’nosini yig‘iq holda bir affiksda ifodlaydi. Bo‘lishsiz shakli analitik usulda yuzaga chiqadi: (ishchi emasman), (ishchi emassan).

O‘tgan zamonda kesimlik ma’nosi bog‘lama vazifasida keluvchi to‘liqsiz fe’llar va bog‘lamalashgan so‘z bilan kesimlikning analitik ifodasini tashkil etadi:

Birlik	Ko‘plik
Ishchi + edim	Ishchi + edik
ishchi + eding	Ishchi + edingiz
Ishchi + edi	ishchi + edi(lar)

Yuqoridagi jadvalda ikki shakl (edi va shaxs-son) kesimlikning to‘rt ma’nosini ifoda etadi. Bular to‘liqsiz fe’l zamon, tasdiq, mayl ma’nolarini yaxlit holda yuzaga chiqaradi.

Xulosa qilganda shaxs va narsa ma’nosini anglatadigan, son, kelishik va egalik kabi grammatik ma’nolarni ifodalaydigan mustaqil so‘z turkumiga ot so‘z turkumi deyilishi ma’lum bo‘ladi. Shuningdek, kishilarning ism va taxalluslari, hayvonlar nomlari, geografik nomlar, tashkilotlar nomlari, kitob, gazeta va jurnallar nomlari, suv havzalari nomlari, tarixiy voqealar, bayramlar hamda astranomik nomlar, ilohiy atamalarning barchasi ot so‘z turkumiga kirishi ma’lum bo‘ldi. Bundan tashqari maqolada ot so‘z turkumining boshqa so‘z turkumi bilan sintaktik aloqasida kelishiklar asosiy rol o‘ynashi ham tahlil qilindi.

Bir narsani ta’kidlab o‘tish joizki Hozirgi o‘zbek adabiy tili fani ham nazariy ham amaliy fan hisoblanadi. Shu kungacha qilingan tadqiqotlar o‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki hali bu fanda qilinishi kerak bo‘lgan

tadqiqotlar juda ko‘p. Hozirgi o‘zbek adabiy tili fani keng qamrovli va sermahsul fan hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qalandar Sapayev. Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, 2009
2. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma.- Toshkent 2009
3. M.M. Qurbonovaning “O‘zbek tilshunosligi ” metodik qo‘llanma.- Toshkent Universitet nashriyoti 1997
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati

MUSTAQIL TA’LIMDA TURIZMGA OID ATAMALARNI INGLIZ TILIDA O’RGANISHNING MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YECHIMLARI

Mirtillayev Davron
ALFRAGANUS UNIVERSITETI
2-kurs talabasi
Ilmiy maslahatchi:
Sitora Toshmatova

Abstract

Tourism is an important branch of the global economy, which creates many new opportunities. However, there are a number of difficulties in the process of learning tourism terms in English. In this article, we will analyze these difficulties and give our solutions to overcome them.

Keywords: self-study, tourism, difficulties, tourism terms, terminology, special words, cultural differences, online resources

Annotatsiya

Turizm global iqtisodiyotning muhim tarmog'i bo'lib, u ko'plab yangi imkoniyatlar yaratadi. Biroq, turizmga oid atamalarni ingliz tilida o'rganish jarayonida bir qator qiyinchiliklar mavjud. Ushbu maqolada biz shu qiyinchiliklarni tahlil etamiz va ularni bartaraf etish bo’yicha o’z yechimlarimizni beramiz.

Kalit so’zlar: mustaqil ta’lim, turizm, qiyinchiliklar, turizm terminlari, terminologiya, maxsus so’zlar, madaniy farqlar, onlayn resurslar

Mustaqil ta'lim — bu shaxsning o'z-o'zini o'rganish jarayonidir. U nafaqat bilim olish, balki o'z qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini ham beradi. Turizm sohasida mustaqil ta'lim olish, talabalar va mutaxassislar uchun muhim ahamiyatga ega. Ammo mavjud va jarayonda kelib chiqadigan qiyinchiliklar o'rganuvchining nafaqat ta'lim jarayonidagi qiyinchiliklari, balki unga individual-psixologik ta'sir ko'rsatish natijasida motiv yo'qolishi va ishtiyoqi so'nishiga ham olib kelishi mumkin.

Turizm sohasidagi terminologiya juda keng va murakkabdir. Har bir atama o'ziga xos ma'noga ega bo'lib, uni to'g'ri tushunish va qo'llash talab etiladi. Masalan, "hospitality" (mehmondo'stlik) va "tourism" (turizm) atamalari ko'plab sub-atamalarga ega bo'lishi mumkin. Oddiygina "tourism" so'zi o'z ichiga "adventure tourism", "cultural tourism", "ecotourism", "medical tourism", "sustainable tourism", "Business tourism", "cruise tourism", "religious tourism" kabi o'ndan ortiq terminlarni oladi. Shu jumladan, "food and beverage service", "event management", "hotel management", "guest services", "resort management", "travel agency services", "tour operator", "SPA and wellness services" kabi atamalar esa "hospitality" so'zining sub-terminlari hisoblanadi va har biri alohida o'rganilishni talab etadi.

Turizm sohasida ingliz tilida ko'plab maxsus so'zlar mavjud. Ularning barchasini o'rganish vaqt va kuch talab qiladi. Misol uchun, "itinerary" (sayohat rejasi), "resort rep" (agentlikning dam olish maskanidagi vakili) yoki "long-haul" (uzoq davom etuvchi parvoz) kabi atamalarni tushunmaslik, o'qish jarayonini qiyinlashtirishi mumkin.

Turizm global bir soha bo'lsa-da, har bir mamlakatning o'ziga xos madaniyati va an'analari bor. Bu madaniy farqlar ingliz tilidagi atamalarni tushunishda qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Misol uchun, ba'zi atamalar faqat ma'lum bir madaniyatga xosdir. "Glamping", "staycation", "foodie", "bleisure", "road trip", "bucket list" kabi tushunchalar o'zbek madaniyatida uchramaydi va ularni o'rganishda bir so'z bilan ifodalash emas, ta'rif usulidan foydalaniladi.

Mustaqil ta'lim jarayonining o'ziga yarasha qiyinchiliklari mavjud bo'lib, bu o'rganuvchi uchun bir qator noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Masalan, bunday ta'lim turida ko'pincha o'qituvchi yoki mentor yo'q bo'ladi. Bu esa talabalarni qiyinchiliklarga duchor qiladi, chunki ular murakkab atamalarni to'g'ri tushunish va qo'llashda yordamga muhtoj bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, quyida sanaladigan qiyinchiliklar ham mustaqil ta'limda muammo bo'lishi mumkin:

1. Maxsus atamalar va jargon

Turizm sohasida koʻplab maxsus atamalar va jargon mavjud. Masalan, "accommodation" (joylashish), "itinerary" (sayohat rejasi), "sightseeing" (koʻrish) kabi atamalar turizmning asosiy tushunchalarini anglatadi. Bu atamalarni oʻrganish jarayonida talabalar koʻpincha ularning aniq ma'nolarini tushunishda qiynalishadi. Har bir atama oʻziga xos kontekstda ishlatilishi mumkin, bu esa oʻrganishni yanada murakkablashtiradi.

2. Tilning oʻziga xosligi

Ingliz tilining oʻziga xos xususiyatlari ham qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Turizm sohasidagi atamalar koʻpincha sinonimlar, antonimlar va frazeologik iboralar bilan toʻldirilgan. Misol uchun, "tourist" va "traveler" soʻzlari bir-biriga yaqin boʻlsa-da, ularning ma'nolari va ishlatilish joylari farqlidir. Bunday nozik tafovutlarni tushunish talabalarni qiynashi mumkin.

3. Madaniyat va kontekst

Turizm atamalarini oʻrganishda madaniyat va kontekst ham muhim rol oʻynaydi. Har bir mamlakatda turizmga oid atamalar oʻziga xos madaniyat va an'analar bilan bog'liq. Masalan, "hospitality" (mehmondo'stlik) atamasi Amerika Qoʻshma Shtatlarida bir xil ma'noga ega boʻlishi mumkin, ammo boshqa mamlakatlarda bu atama boshqacha talqin qilinishi mumkin. Shuning uchun, talabalar turizm sohasidagi atamalarni oʻrganayotganda madaniy kontekstni ham inobatga olishlari zarur.

4. O'qituvchilar va resurslar yetishmovchiligi

Mustaqil oʻrganishda talabalar koʻpincha sifatli oʻqituvchilar yoki resurslarga ega boʻlmaydi. Internetda mavjud boʻlgan ma'lumotlar juda koʻp, lekin ularning ishonchliligi va aniqligi har doim kafolatlanmaydi. Bu esa talabalarni notoʻgʻri yoki noaniq ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, talabalar ishonchli manbalarni tanlashda ehtiyot boʻlishlari kerak.

5. Amaliyot yetishmasligi

Teoretik bilimlarni amaliyot bilan birlashtirish muhimdir. Turizm sohasidagi atamalarni oʻrganishda amaliyot etishmasligi talabalarni qiynaydi. Misol uchun, "booking" (buyurtma berish) kabi atamani bilish yetarli emas; talabalar bu jarayonni amalda qanday amalga oshirishni ham bilishlari kerak. Amaliy tajriba etishmasligi koʻplab talabalar uchun qiyinchilik tug'diradi.

6. O'zaro aloqa va muloqot

Ingliz tilida mustaqil oʻrganayotgan talabalar koʻpincha oʻzaro aloqa va muloqot qilishda qiynalishadi. Turizm sohasida muloqot qilish uchun kerakli boʻlgan atamalarning koʻpligi va ularning konteksti talabalarni chalkashtirib

yuborishi mumkin. Shuningdek, boshqa odamlar bilan muloqot qilishda o‘z fikrlarini aniq ifodalash qiyin bo‘lishi mumkin.

Qiyinchiliklarni yengish yo'llari:

Turizmga oid atamalarni ingliz tilida mustaqil o‘rganishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengish uchun bir nechta strategiyalarni qo‘llash mumkin:

1. Maxsus kurslar va resurslar: Turizm sohasiga oid maxsus kurslar yoki onlayn resurslardan foydalanish orqali talabalar kerakli bilimlarni olishlari mumkin.

2. Amaliy tajribalar: Sayohat qilish yoki turizm sohasida ishlash orqali amaliy tajribani oshirish zarur.

3. Muloqot qilish: Ingliz tilida gaplashadigan do'stlar yoki hamkasblar bilan muloqot qilish orqali til ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin.

4. Madaniyatni o'rganish: Turizm sohasidagi madaniy kontekstni o'rganish orqali talabalar atamalarni yaxshiroq tushunishlari mumkin.

5. O'z-o'zini baholash: O'z bilimlarini baholash va kamchiliklarni aniqlash orqali o'rganishni yanada samarali qilish mumkin.

Turizmga oid atamalarni o'rganishda onlayn resurslardan foydalanish juda samarali bo'lishi mumkin. Veb-saytlar, videodarslar va elektron kitoblar orqali talabalar kerakli ma'lumotlarga osongina ega bo'lishlari mumkin.

Ko'plab onlayn platformalar turizm sohasida ingliz tilini o'rganishga qaratilgan kurslarni taklif etadi. Coursera, Udemy yoki edX kabi platformalarda turli darajadagi kurslarni topish mumkin.

O'zaro muloqot qilish va amaliyot o'tkazish orqali atamalarni yanada yaxshi o'zlashtirish mumkin. Turizm sohasida ishlovchi mutaxassislar bilan muloqot qilish, seminarlar va treninglarda ishtirok etish foydali bo'lishi mumkin.

Atamalarni o'rganishda samarali o'qish strategiyalaridan foydalanish muhimdir. Masalan, flashcardlardan foydalanish, atamalarni kontekstda o'rganish yoki ularni vizual materiallar bilan bog'lash orqali ularni yodda saqlashni osonlashtirish mumkin.

Turizmga oid atamalarni ingliz tilida mustaqil o‘rganish jarayoni qiyinchiliklarga to‘la bo‘lishi mumkin, ammo to'g'ri strategiyalar yordamida bu qiyinchiliklarni yengib o'tish mumkin. Maxsus atamalar, madaniyat, amaliy tajribalar va muloqot orqali talabalar turizm sohasida muvaffaqiyat qozonishlari uchun zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari mumkin. Bunday yondashuvlar yordamida ular nafaqat tilni o'rganadilar, balki global turizm industriyasida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Brown, H. D. Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education, 2007.
2. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching. Pearson Education, 2015.
3. Nation, I. S. P. Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge University Press, 2001.
4. Richards, J. C., & Schmidt, R. Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics. Routledge, 2010.
5. Thornbury, S. How to Teach Vocabulary. Pearson Education, 2006.
6. Toshmatova, S.A. Turizm yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarning ingliz tilini o'qitishdagi muammolar va ularning yechimlari tahlili. "Pedagog" Respublika ilmiy jurnali, 2023. 32-37betlar.

"NIL SHOIRI" HOFIZ IBROHIM IJODIDA VATAN TUYG'USI MASALASI

Alfraganus universiteti,
4- bosqich AF-2101 guruhi talabasi
Maxmudaxon Sobirova
Ilm.rahbar: f.f.n.,dots. Sh.I.Ahmedova

Annotasiya

Mazkur maqolada "Nil shoiri" Hofiz Ibrohim ijodiy faoliyati xususida so'z yuritiladi vatan tuyg'usi masalasi badiy tahlil qilingan.

Kalit sozlar: mumtoz she'riyat, Hofiz Ibrohim, Mustafo Komil, Sa'd Zag'lul, Qosim Amin, Abu Nuvos, Abu Tammom, al-Buxturiy, Ibn ar-Rumiy, Abu-l-Alo al-Maarriy.

Аннотатsiя

В статье говорится о творчестве «Поэта Нила» Хафиза Ибрагима, художественном анализе чувства родины.

Ключевые слова:классическая поэзия, Хафиз Ибрагим, Мустафа Камиль, Саад Заглул, Касим Амин, Абу Нувас, Абу Таммам, аль-Бухтури, Ибн ар-Руми, Абу-л-Ало аль-Маари.

Annotation

This article talks about the creative work of "Poet of the Nile" Hafiz Ibrahim, artistic analysis of the sense of homeland.

Keywords:classical poetry, Hafiz Ibrahim, Mustafa Kamil, Sa'd Zaglul, Kasim Amin, Abu Nuwas, Abu Tammam, al-Bukhturi, Ibn al-Rumi, Abu-l-Alo al-Maari.

Misr yangi mumtoz she'riyatining yana bir yirik namoyandasi- Hofiz Ibrohimdir [2:101]. U Ahmad Shavqiyning zamondoshi va doʻsti edi. Ahmad Shavqiydan uch yil keyin 1871 yilda tugʻilgan Hofiz Ibrohim u bilan bir yilda (1932) vafot etgan. Ijodda maslakdosh boʻlgan ikki shoirning haèt yoʻli bir-biridan katta farq qiladi. Agar Shavqiy Qohirada zodagon oilasida tugʻilib, yoshligidan hayotning barcha ne'matlaridan bahramand boʻlib, tahsil olish uchun Yevropaga yuborilgan boʻlsa, Hofiz Yuqori Misrning Beyrut nomli kichkina shaharchasida kambagʻal oila sida tugʻildi va yoshligidan otadan yetim qolib, hayotning ogʻir tashvishlarini boshidan kechirdi. Oʻzi xohlamasa ham akasi maslahati bilan 1888 yilda Qohiradagi harbiy bilim yurtiga kirdi va 1891 yili kichik zobit unvonida uni bitirib chiqdi. 1896 yilda ingliz generali Kitchener boshchiligidagi ingliz va misr-liklardan tashkil topgan armiya safida Sudanga yuborildi. Hofizning harbiy xizmati ogʻir oʻtdi. Armiyada hukm surgan qoʻpol munosabatlar, ayniqsa, ingliz qoʻmondonining misrliklarga nisbatan oʻzlarini takabburona tutishlari va mensimasdan muomalada boʻlishlari Hofizning nozik tabiatiga qattiq botardi va nafrat tuygʻusini uygʻotardi. Harbiy bilim yurtida she'rlar yoza boshlagan Hofiz, Sudandan Qohiradagi doʻstlariga askar hayotidan shikoyat qiluvchi koʻp hazin she'rlar yoʻllardi [2:102]. Shoir inglizlarning Sudanga qilgan harbiy yurishining haqiqiy maqsadi Sudanni ozodlikdan mahrum qilish va yangi mustamlakaga ega boʻlish ekanini yaxshi anglagan edi.Hofiz bir nechta misrlik zobitlar bilan inglizlarning mustamlaka siyosatiga qarshi chiqadi va gʻalayonda ishtirok etishda ayblanib, oldin sudga beriladi, keyin esa iste'foga chiqarib yuboriladi. Xizmati uchun nafaqa olishdan butunlay mahrum etilib, 1900 yil armiyadan haydalgan Hofiz Ibrohim Misrga, Qohiraga qaytadi. Qoʻlida tayinli kasbi yoʻqligi uchun u juda qiyin iqtisodiy ahvolda qoldi. Bu ogʻir sharoit uni xalqqa yana ham yaqinlashtirdi, u endi kambagʻallarning qanday hayot kechirishini tashqaridan emas, balki ich-ichidan oʻz koʻzi bilan koʻrdi va boshdan kechirdi.

Shu yillari Hofiz Ibrohim Misrdagi joʻshqin vatanparvar siyosiy doiralarga yaqinlashdi. Bu doiralarda Mustafo Komil, Sa'd Zagʻlul, Qosim

Amin, Hasan Osin, Mahmud Sulaymon kabi milliy-ozodlik harakatining sarkardalari qatnashar edilar. Ularning faoliyati ta'sirida shoirning dunyoqarashi shakllandi. Yig‘inlarda vatan mustamlakaga aylanganligi, uning boyliklari tortib olinganligi, diyorning talanishi, hurriyatning toptalishi haqidagi nutqlar, suhbatlar, tortishuvlar va muzokaralar Hofizning shu yillardagi she'rlarida o‘z aksini topdi. Ko‘p o‘tmay yosh shoir o‘zining vatanparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan she'rlari bilan keng jamoatchilik ichida tanila boshladi.

Hofiz Ibrohimning mafkurasiga kuchli ta'sir ko‘rsatgan yana bir omil bu shayx Muhammad Abduhning dinni isloh qilishga qaratilgan harakati bo‘ldi. Shayx Muhammad Abduh da'vatlari din masalasida erkinroq fikr yuritishga va dinni hozirgi kun talabiga moslashtirishga qaratilgan edi. Hofiz islom dini islohoti masalasida ustozi Muhammad Abduhga yondoshdi va vatandoshlarini insoniyat yutuqlaridan foydalanib, qoloqlikdan va jaholatdan chiqib taraqqiyot yo‘lidan borishga undadi. Yosh avlod insoniyat erishgan fan va texnika ixtirolaridan to‘la foydalanish kerakligini uqtirdi. Shoir Misr xalqining taqdiri va kelajagi to‘g‘risida ko‘p o‘yladi, uning aql-idrok va ilmiy yo‘ldan borishga targ‘ib etdi. Shunday qilib Hofizning hayoti birinchi bosqichdaèq xalqining haèti bilan chambarchas bog‘lanib ketdi. O‘zi xalqdan chiqqan bu shoirning orzu-niyatlari xalq tuyg‘usi, istak-xohishi, ezgu niyatlari bilan bir xil edi. Uning she'rlarida oddiy mahallalarda yashovchi misrliklar tug‘yoni, qalblaridagi g‘alayoni aks etardi. Shuning uchun ko‘p o‘tmasdan u muxlislar tomonidan “shoir al- Nil” – “Nil shoiri” unvoniga sazovor bo‘ldi, bu ibora haqiqiy Misr shoiri ma'nosida ishlatilardi. Balki uning bu unvonga sazovor bo‘lishi Nil daryosiga go‘yo jon bag‘ishlab jo‘shqin murojaatlar qilgani sabab bo‘lgandir!

Ey, Nil, uyg‘on! O‘tdi uyqu payti, o‘rningdan tur!
Xudo sening xalqingga yangi haèt bag‘ishladi.
Bu haètni endi o‘ndirolmas hech Zolimlar zulmiyu, tahdidi, hukmi.
Ey, yangi tong avlodi, jasur bo‘linglar.
O‘z uyingiz himoyasida mag‘rur turinglar! [3]

Hofiz Ibrohim o‘n yil ishsiz yurdi. Ammo tirikchilik yuzasidan yukori mansabli amaldorlarga yoki puldor boylarga madhiyalar yozmadi, chunki bu yo‘lni hassos, nozik tabiati inkor etardi. Shoir G‘arb adabiyoti namunalaridan qilgan tarjimalari evaziga topgan ozgina mablag‘i bilan qoniqdi. Jumladan, Viktor Gyugoning mashhur “Xo‘rlanganlar” romanini arab tiliga tarjima qildi.

1911 yil Hofiz Ibrohim do‘stlari tavsiyasi bilan Qohiradagi Davlat kutubxonasiga bo‘lim boshlig‘i qilib ishga tayinlandi. Bu joyda u to vafotigacha ishladi.

Hofiz Ibrohim shoir sifatida mumtoz she'riyat namunalari ta'sirida shakllandi. U, ayniqsa, abbosiylar xalifaligi davridagi shoirlarga alohida mehr qo‘ygan edi. Abu Nuvos, Abu Tammom, al-Buxturiy, Ibn ar-Rumiy, Abu-l-Alo al-Maarriy kabi IX–XI asrlarda ijod qilgan shoirlarning she'rlarini yod olib, ifodali o‘qishdan charchamas edi.

Qadimgi shoirlardan u she'r shakllarini, jarangdor qofiyalar tanlashni, vaznlarda muvozanat saqlashni va boshqa she'riy texnika fazilatlarini o‘rgandi. Ammo Hofiz Ibrohim mumtoz she'riyatga ko‘r-ko‘rona yondashmadi va o‘zi uchun qadimgi mumtoz she'riyatning sun'iy muhitini yaratmadi. U eski qoliplarni yangi mavzu bilan to‘ldirib, she'rlarida yangi ijtimoiy-siyosiy ong tafakkurini gavdalantirdi:

Qachon ko‘rar ekanman:
Nil suvlaridan Faqat mo‘minlar bahramand bo‘lar
Kuylasam agar Misr holatini
Tinmay yosh to‘kaman misoli gavhar.
So‘yilishini sezgan zotli tuyadek
Arosatda qoldim: qochish yo o‘lim.
Gar so‘zlasam - tashlarlar meni zindonga
Agar so‘zlamasam - kuyadi dilim.

Nochorlik barcha o‘tgan - ketganlarda namoyon Bo‘lsada yashagan yerimiz misoli oltin.

1905 yildagi Denshavay fojeasiga atab Hofiz bir nechta she'rlar èzdi:

Oftob urib o‘lim topgan bizga hayotni meros ayladi,
Uyg‘otdi odamlarni mudroq uyqudan [3].

Hofizning 1906–1911 yillarda yozgan asarlarida mustamlaka mavzusi salmoqli o‘rin egallaydi. Bular “Lord Kromer bilan vidolashuv”, “Ser Goritni kutib olish” va boshqa qasidalardir. Masalan, 1906 yil inglizlar tashabbusi bilan Misr hukumati matbuot haqidagi qonunni e'lon qildi. Bu qonun vatanparvar partiyalar faoliyatiga qarshi qaratilgan edi. Uning asosida vatanparvarlarning ovozini bo‘g‘ish, matbuotga yaqinlashtirmaslik siyosati yotar edi. Necha-necha nashriyotlar faoliyati to‘htatildi, bosmaxonalar yopildi, ro‘znoma va jurnallar musodara qilindi. Hofiz o‘sha kunlari kuyunib yozgan edi:

Misr – hamon chayqov bozori,
Hamma narsa sotilar unda – kulfatimiz bu,

Matbuot yaramizga bo‘lar edi malham
Balo kelib, uni ham bo‘g‘ishdi bu dam [3].

Hofiz yoshlarni kelajak bunyodkorlari deb bilar va shuning uchun u yoshlarga boshqacha e'tibor bilan qarar, ularning his- tuyg‘ularini yaxshi tushunar va qo‘llab-quvvatlardi, payti kelganda rag‘batlantirib madad qo‘lini cho‘zar edi:

Salomlar bo‘lsin nihol kabi o‘sib unib chiqqan yosh avlodga,
Sizlar bilan yangilandi bu ko‘hna dunyo.
Aslo ma’yuslikka tushmangiz, shuhratimiz tez tiklanmasa ham
Necha bor yiqilgan ko‘tarilib qaddin rostlar takror.
Qaddin rostlar agar falaklarga cho‘zilsa orzu - umidlar,
Agar osmonlarga ketsa niyat iltijolari,
Men bilaman, shuhratni qaytarish emasdir oson,
Lekin jipslashtiring uning uchun irodangizni [3].

Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, Hofiz Ibrohim “Nil shoiri” sifatida vatanni sevmoq, uning ozodligi uchun kurashmoq, millat obro‘sini ko‘tarib yurmoq kabi oldiga qo‘ygan burchini to‘la-to‘kis va oliy darajada ado etdi.

Foydalanilagan adabiyotlar:

1.Xodjayeva.R.U Yangi davr arab adabiyoti tarixida ma'rifatparvarlik jarayoni. O‘quv qo‘llanma.T.,:TDShI,1999.

2. Akbarova.M.H Yangi davr arab adabiyoti(XIX-XX) asrlar. Darslik. T-.: TDShI, 2009.

3.https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/arab-she-riyati/muhammad-hofiz-ibrohim-1871-1932

‘‘ADABIY TA’LIMDA O‘ZBEK ADABIYOTINI O‘QITISH MUAMMOLARI’’

Norsaidova Munisa Zafarjon qizi
Alfraganus Universitety filologiya fakulteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Mahmudova Shoxista Abdusalomovna
“Sharq filologiyasi” kafedrasi o‘qituvchisi
Tel:+998990166104
munisanorsaidova@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotini o‘qitish jarayonida uchraydigan asosiy muammolar tahlil qilinadi. O‘quvchilarning adabiyotga bo‘lgan qiziqishini oshirishda yangi usullar va interaktiv texnologiyalarning ahamiyati yoritiladi. O‘qituvchilarning malakasini oshirish va o‘quv dasturlarini yangilash bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Ushbu maqola ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish masalalariga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar:

O‘zbek adabiyoti, ta’lim, metodika, interaktiv usullar, o‘quv dasturi, madaniyat, tarbiya, motivatsiya, innovatsiya, raqamli ta’lim.

Аннотатsiя:

В данной статье анализируются основные проблемы преподавания узбекской литературы. Рассматривается роль интерактивных технологий и новых методов в повышении интереса учащихся к литературе. Особое внимание уделено повышению квалификатsii преподавателей и обновлению учебных программ. Статья посвящена модернизатsii учебного процесса.

Ключевые слова:

Узбекская литература, образование, методика, интерактивные методы, учебная программа, культура, воспитание, мотиватsiя, инноватsii, цифровое обучение.

Abstract:

This article analyzes the main problems in teaching Uzbek literature. It highlights the importance of new methods and interactive technologies in increasing students' interest in literature. The article also discusses the need for teacher training and curriculum updates. It focuses on the modernization of the educational process.

Keywords:

Uzbek literature, education, methodology, interactive methods, curriculum, culture, upbringing, motivation, innovation, digital education.

Kirish

O‘zbek adabiyoti nafaqat milliy madaniyatimizning ajralmas qismi, balki o‘quvchilarning badiiy tafakkurini, ma’naviy-ma’rifiy dunyoqarashini shakllantiruvchi kuchli vosita hamdir. Ta’lim jarayonida adabiyot fanini to‘g‘ri o‘qitish nafaqat o‘quvchilarning bilimini kengaytiradi, balki ularda milliy qadriyatlarni, madaniy o‘zlikni rivojlantiradi. Biroq, zamonaviy ta’lim tizimida o‘zbek adabiyotini o‘qitish jarayonida uchraydigan muammolar bu jarayonning samaradorligiga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Asosiy qism

O‘zbek adabiyoti fanini samarali o‘qitish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ta’limning barcha bosqichlarida adabiyotning ta’sirchan o‘rni ta’kidlanadi. Ammo bugungi kunda adabiyot fanining o‘quvchilar orasida qiziqish uyg‘otmasligi muammo bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy yoshlar ko‘proq texnologik asrda yashayotganlari sababli, ularning diqqat-e’tibori o‘zbek adabiyotidan uzoqlashib borayotgani kuzatilmoqda. Shuningdek, o‘qitish uslublarining eski qolipda qolishi ham bu jarayonga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbek adabiyoti darslaridagi muammolar

Birinchidan, adabiyot darslarida foydalaniladigan usullar va materiallar yetarlicha zamonaviy emas. O‘quvchilar darslarga faqatgina matn o‘qish orqali qiziqishni yo‘qotadilar. Bu holat o‘quvchilarni faollashtiruvchi usullarni joriy etish zaruratini tug‘diradi. Ko‘p hollarda, o‘qituvchilar adabiyot darslarini faqatgina an’anaviy tarzda olib boradilar, bu esa o‘quvchilarning qiziqishini pasaytiradi.

Ikkinchidan, o‘zbek adabiyotini jahon adabiyoti bilan qiyoslash orqali o‘qitish yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Bugungi kunda globalizatsiya ta’siri kuchayib borayotgan bir paytda, o‘quvchilarning o‘zbek adabiyotini xalqaro nuqtai nazardan ko‘ra bilishi ham muhimdir. Ammo, o‘quv dasturlarida bunday tahliliy yondashuvlarga yetarli darajada e’tibor berilmayapti.

O‘quv dasturlari va o‘qituvchilarning malakasi

O‘quv dasturlari ham zamonaviy o‘quvchilarning talablari va ehtiyojlariga mos kelmasligi yana bir jiddiy muammolardan biridir. Ta’lim dasturlari doimiy ravishda yangilanib, zamon talablariga moslab borilishi

lozim. Masalan, hozirda ko‘plab davlatlarda raqamli ta’lim vositalari keng joriy etilmoqda.

Bu jarayon o‘zbek ta’lim tizimida ham joriy qilinsa, o‘quvchilarni adabiyotga bo‘lgan qiziqishini oshirishi mumkin.

O‘qituvchilarning malakasi ham o‘zgaruvchan ta’lim muhitiga mos ravishda yangilanib turishi kerak. Ko‘p hollarda, o‘qituvchilar adabiyot fanida faqat bir xil metodlardan foydalanishadi va bu usullar zamonaviy o‘quvchilarning ehtiyojlariga javob bermaydi. Shuning uchun o‘qituvchilarni yangi pedagogik texnologiyalar va metodlarga o‘rgatish zarurati mavjud.

Adabiyotni o‘qitishda innovatsiyalar

Raqamli va interaktiv ta’lim texnologiyalari orqali adabiyotni o‘qitish samaradorligini oshirish mumkin. Bunday usullar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi va ularning faolligini oshiradi. Masalan, elektron kitoblar, audio va video materiallardan foydalanish, interaktiv o‘yinlar yordamida darslarni qiziqarli qilish mumkin.

Shuningdek, adabiyot darslarida o‘quvchilarni mualliflarning hayotini sahnalashtirish, ularning asarlarini ko‘rgazmalar shaklida taqdim etish ham ijodiy yondashuvlarni rivojlantiradi. Bu usullar orqali o‘quvchilar adabiyotni o‘rganishda ijodiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar.

Muhokama

O‘zbek adabiyotini o‘qitishda ilgari uchrayotgan muammolar so‘nggi yillarda bir qator yangi yondashuvlar va texnologiyalar yordamida bartaraf etilmoqda. Ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv usullar keng joriy etilib, bu o‘quvchilarning adabiyotga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilmoqda. Yangi o‘quv dasturlari va darsliklarda milliy adabiyotimizga yangicha yondashuv joriy etilib, ularni xalqaro adabiy oqimlar bilan bog‘lab o‘rgatish yo‘lga qo‘yildi.

Dars uslublari va texnologiyalarning yangilanishi

Ilgari adabiyot darslarida qo‘llanilgan an’anaviy usullar o‘rnini yangi interaktiv metodlar egallamoqda. Masalan, raqamli ta’lim vositalari, video-ijodiy loyihalar, muallif asarlarini multimedia orqali o‘rganish va jahon adabiyoti bilan qiyoslash adabiyotni o‘qitish sifatini oshirdi. Bugungi kunda darsliklarga adabiy asarlarning audio, video va elektron versiyalari qo‘shilib, o‘quvchilar uchun oson tushunarli materiallar tayyorlanmoqda. Bu esa, o‘quvchilarni adabiyotga yanada ko‘proq jalb qilmoqda.

O‘qituvchilar malakasining oshirilishi

Yana bir dolzarb o‘zgarish o‘qituvchilar malakasini oshirish masalalarida amalga oshirildi. So‘nggi yillarda o‘qituvchilar muntazam

ravishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, yangi metodologiyalar va raqamli ta’lim platformalaridan foydalanish bo‘yicha malaka oshirish kurslarida ishtirok etishdi. Bu esa o‘qituvchilarga adabiyot darslarini zamonaviy texnologiyalar yordamida olib borishga imkon berdi. Ularning o‘quvchilarga interaktiv, ijodiy va qiziqarli tarzda adabiyotni o‘rgatishi bugungi ta’limda muhim o‘rin tutmoqda.

O‘quv dasturlarining yangilanishi

O‘quv dasturlari ham zamonaviy talablarga mos ravishda yangilandi. O‘zbek adabiyoti darsliklari keng ko‘lamda qayta ko‘rib chiqilib, o‘quvchilarning yoshiga va qiziqishlariga mos keladigan asarlar va topshiriqlar qo‘shildi. Bunda xalqaro tajribalardan foydalanish, o‘zbek adabiyotini jahon adabiyoti bilan qiyoslash va globallashuv sharoitida milliy adabiyotni o‘rganish kabi yondashuvlar e’tiborga olindi. O‘quvchilarning qiziqishini oshirish uchun elektron platformalarda darslar yaratilib, ular bilan doimiy ravishda yangi materiallar almashish imkoniyati ta’minlanmoqda.

O‘quvchilarni faollashtirish

O‘quvchilarning adabiyot darslarida faol ishtirok etishlari uchun rag‘batlantiruvchi tizimlar joriy qilindi. O‘quvchilarning ijodiy topshiriqlari, mualliflarning asarlarini tahlil qilishda ulardan mustaqil fikrlash va o‘z nuqtai nazarlarini himoya qilishlari talab etiladi. Bu esa o‘quvchilarni faollashtirib, ularda ijodiy tafakkurni rivojlantiradi. Adabiyot darslari jamoaviy loyiha ishlari, muallif hayoti va asarlarining sahnalashtirilgan ko‘rinishlari orqali ham boyitilmoqda.

Takliflar

1. O‘quv dasturlarini zamonaviy o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos ravishda yangilash lozim. Bu jarayonga zamonaviy asarlarni kiritish va ularni jahon adabiyoti bilan taqqoslash kiradi.

2. Interaktiv va raqamli ta’lim vositalaridan keng foydalanish zarur. O‘quvchilarning qiziqishini oshirish uchun elektron resurslar, onlayn darslar va raqamli platformalardan foydalanish taklif qilinadi.

3. O‘qituvchilarning malakasini oshirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilishi lozim. Ular pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish uchun maxsus o‘quv kurslaridan o‘tishi zarur.

4. Adabiyotni o‘qitishda motivatsiyani oshiruvchi yangi usullarni kiritish. O‘quvchilarning ishtirokini faollashtiruvchi rag‘batlantiruvchi tizim joriy etilishi kerak.

Natija

Ta’lim tizimida o‘zbek adabiyotini o‘qitishda yangi metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshirish mumkin. Zamonaviy texnologiyalar va yangilangan o‘quv dasturlari yordamida bu jarayonni samarali qilish imkoniyati mavjud. Shuningdek, o‘qituvchilarning malakasini oshirish ham muhim omillardan biri hisoblanadi.

Xulosa

O‘zbek adabiyotini ta’lim jarayonida o‘qitish ko‘p jihatdan o‘quvchilarning ma’naviy rivojlanishi va madaniy bilimlarini shakllantiradi. Biroq, zamonaviy ta’lim tizimida duch kelinayotgan muammolar, xususan, o‘quv dasturlari va o‘qitish uslublarining yangilanmaganligi o‘quvchilarning bu fanga bo‘lgan qiziqishini pasaytiradi. Ushbu maqolada ta’kidlanganidek, raqamli texnologiyalar va interaktiv usullarning joriy qilinishi o‘zbek adabiyotini o‘qitishda muhim yangilik bo‘lib, bu orqali o‘quvchilarning fanga bo‘lgan ishtiyoqini oshirish mumkin.

O‘qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo‘llash orqali ta’lim sifatini yaxshilash imkoniyatlari kengaytirilishi zarur. Jumladan, o‘quvchilar adabiyot darslarini yanada qiziqarli va samarali o‘zlashtirishi uchun dars jarayonida sahnalashtirish, asarlarni tahlil qilish va o‘quvchilarning faol ishtirokiga yo‘l ochuvchi texnologiyalarni joriy etish muhimdir.

O‘zbek adabiyotini o‘qitishda jahondagi ilg‘or tajribalarni o‘rganish, taqqoslash uslublarini kiritish orqali adabiyotimizni dunyo miqyosida talqin qilish o‘quvchilarda yangi, kengroq dunyoqarash shakllanishiga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish orqali o‘quvchilarning bilim va tafakkurini rivojlantirish, ularni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish zarur.

Maqolada bildirilgan tavsiyalar va takliflar adabiy ta’limni yanada samarali qilishda va ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishda muhim o‘rin tutadi. Buning natijasida o‘zbek adabiyotiga bo‘lgan hurmat va e’tiborni oshirib, milliy madaniyat va ma’naviyatni mustahkamlashga katta hissa qo‘shiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. "Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch." Toshkent: Ma’naviyat, 2015.

2. Usmonov O. "O‘zbek adabiyoti tarixi." Toshkent: Sharq, 2015.

3. Saydullayev A. "Adabiy ta’lim metodikasi." Toshkent: O‘qituvchi, 2017.

4. Turaev M. "Adabiyot darslarini interaktiv o‘qitish." Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

5. Qayumov S. "Raqamli ta’lim va adabiyot." Toshkent: Innovatsiya, 2020.

TAVFIQ HAKIM ASARLARINING MAVZULAR KO’LAMI

Shahnoza Sotiboldiyeva
Alfraganus universiteti,
4- bosqich AF-2101 guruhi talabasi
Ilm.rahbar: f.f.n.,dots. Sh.I.Ahmedova

Annotasiya

Mazkur maqolada Misr yozuvchisi Tavfiq Hakiming ijodiy faoliyati yoritilgan. Shuningdek, asarlarining badiiyati tahlilga tortilgan.

Kalit sozlar: Misr modernistlari, Tawfiq al-Hakim, Misr qishlogi, marifatparvarlar, badiiy goya.

Аннотатsiя

В данной статье описывается творческая деятельность египетского писателя Тауфика Аль Хакима, а также анализируется художественность его произведений.

Ключевые слова:Египетские модернисты, Тауфик аль-Хаким, египетская деревня, интеллектуалы, художественный гений.

Annotation

This article describes the creative activity of the Egyptian writer Tawfiq Al Hakim. It also analyzes the artistry of the works.

Keywords: Egyptian modernists, Tawfiq al-Hakim, Egyptian village, intellectuals, artistic genius.

Arab adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri bo’lgan va nomi Misr modernistlari qatorida tilga olinadigan Tavfiq al-Hakim 1898-yil 9-oktabrda Misrning Iskandariya shahrida badavlat misrlik qozining oilasida dunyoga keldi [1:85]. U yoshligidan adabiyot va san’atga mehr qo’ydi, shu uchun bo’lsa kera tez-tez teatrlarga Jorj Abyad kabi mashhur aktyorlarning spektakllarini tomosha qilish uchun borardi. O'rta ta'limni davom ettirayotib, yosh iste’dod egasi pyesalar yozishni mashq qila boshladi. Keyinchalik Tavfiq al-Hakim Qohira universitetining huquqshunoslik fakultetiga o'qishga kirdi, hattoki bir necha yil davomida prokratura organlarida faoliyat ko’rsatdi, lekin bu sohaga

ota-onasining qistovi bilan qadam qo'ygan bo'lajak adib tez orada uni butunlay tark etdi.

Shunday qilib Tavfiq al-Hakim hayotini to'liq adabiyotga bahshida etdi. Ijodining boshida adib ota-onasining jamiyatdagi obro'siga putur yetkazmaslik uchun Husayn Tavfiq nomi ostida faoliyat ko'rsatdi, bunga sabab o'sha davrda yozuvchilik yuqori qatlam orasida qoralangan va unga bema'ni ish sifatida qaralgan. Adib uchun esa yozuvchilik kasbi hayotining mazmuni edi, yozuvchi bo'lish go'yoki uning taqdiriga bitilgandek edi. Asarlarining xilma-xilligi, badiiy g'oyasining naqadar chuqur ma'noga ega ekanligi, xalq dardini o'z dardidek aks ettirgani bunga yaqqol dalildir.

Tavfiq al-Hakimning ko'plab arab ijodkorlaridan farqli tomoni shundaki, adib G'arb adabiyotiga taqlid qilishdan qochdi va «o'z daraxtlarini chet el o'simliklari to'sib qo'ymasligini» yoki «ishqilib, biz o'zgalar ovozi bilan baqiradigan to'tiga aylanmasak bo'ldi» degan g'oyalarini ilgari surdi.

1937-yilda Tavfiq al-Hakim qalamiga mansub "Viloyatdagi tergovchining xotiralari" asari bosmadan chiqadi [1:87]. Asar kundalik shaklida yozilgan bo'lib, undagi voqealarbir dehqonning qotilini qidirayotgan tergovchi asosiga quriladi. Uni o'qigan kitobxon XX asr Misr qishlog'idagi hayot nechog'li zerikarli va g'amgin bo'lganiga guvoh bo'ladi. Qishloq aholisi tun-u kun qora mehnat bilan band, odamlarning buguni ham ertasi ham dehqonchilik bilan bog'liq. Dehqon oilasida tug'ilgan farzand ham kelajakda dehqon bo'lishga mahkum. Dehqonlar tomi g'o'zapoya va makkajo'xori bilan to'lgan o'zlarining pastak va tor uylarida kun kechirishga majburlar. Ularning mashg'uloti halol mehnatdir, ammo maqtov sifatida eshitadiganlari faqat xaqoratdir.

Asarning birinchi bobida sodir etilgan jinoyat yopiqligicha qolaveradi, lekin voqealar rivoji davomida hukmdorning xalqqa qilgan jinoyatlari fosh bo'ladi. Qissada tergov va sud sahnalari yozuvchi tomonidan aks ettiriladi. Aslida xalq manfaatlarini himoya qilishi lozim bo'lgan qonun, xiyonatkor adliya xodimlari qo'lida xalqqa qarshi to'qmoqqa aylanadi. Tergovchi asar oxirida alam bilan «Qani o'sha adolat? Men uni tasavvur ham qilolmayman, hech qayerda uni ko'rmadim. Bizga hech kim hech qachon uni ko'rsatmagan», - deydi.

Sud tizimi yozuvchi tomonidan keskin tanqid ostiga olinadi. Sudlanayotgan insonlar qaysi gunohlari uchun sud majlisida ayblanuvchi sifatida ishtirok etayotganlarini ham bilmaydilar. Sud ularning bo'yniga son-sanoqsiz osmondan olingan soliqlarni marjon kabi osib qo'yadi. Hukm qat'iy

e’tirozga esa aslo o’rin yo’q, insonlarning achchiq qismatga taslim bo’lishdan o’zga ilojlari yo’q. Osmon yiroq – yer qattiq.

Tavfiq al-Hakim Misr adabiyotida “Arab dramaturgiyasining kashshofi” sifatida tarixda qoldi. “Rangba rang teatr” pyesalar to’plamining so’zboshisida adib go’yoki uni “parishon san’atkor” deya tanqid qiluvchilarga quyidagicha javob qaytaradi: «har qanday Yevropa dramaturgi o‘z ishida ellinlar davridan meros qolgan mumtoz obrazlarga asoslanadi, bizning mamlakatlarimizda esa dramatik asarlar yaratish tajribasi hali oz, chunki arab adabiyoti dramaturgiyani janr sifatida bilmasdi. Menda tur va janrlarning shunday rang-barangligi ana shu joydan boshlanadi: ijtimoiy yoki maishiy romandan falsafiy dramalarga yoki siyosiy komediyalarga, goh adabiy tilda, goh shevada yozishlarim shundan.

Yozuvchining hammaning nazariga tushishiga sabab bo’lgan pyesasi “G’orda uxlayotganlar” [1:90] pesasi bo’ldi. Bu asarga talab yuqori bo’lganidan o’sha yiliyoq qayta nashr qilindi, bir yil o’tar-o’tmas Qohiradagi milliy teatrda sahnalashtirildi. “G’or ahli” afsonasi butun sharq olamida mashhurlikka erishgan. Hattoki Muqaddas Qur’oni Karimning Kahf surasida ham bu qissa keltirilgan. Tavfiq al-Hakim bu pyesasida hind afsonasi bo’lgan “Uxlayotgan yetti o’smir”dagi syujetdan foydalangan.

Voqealar rivoji Rim vrovinsiyalaridan birida kechadi, uch nasoro yigit Rim imperatori ta’qibida qochib bir g’orga boradilar va u yerda qattiq uyquga ketadilar. Oradan uch yuz yil o’tgach ular qayta uyg’onadilar va atrofdagi barcha o’zgarib ketganligiga guvoh bo’ladilar. Uch nasoroning biri cho’pon edi, endi uning ulkan podasi yo’q. Ikkinchisining uyi o’rnida bozor qurilgan, yaqinlari va do’stlari allaqachon bu yorug’ dunyoni tark etishgan. Uchinchisi esa sevgan insoni huzuriga shoshiladi bir fursat uni topgandek ham bo’ladi, lekin keyin bilsaki bu qiz boshqa suyuklisining o’ziga juda ham o’xshash chevarasi ekan. Bosh qahramonlar yangi dunyoga ko’nikishga harakat qilsalarda, afsuski bu hayotda o’z o’rinlarini topa olmaydilar va yana g’orga qaytib chuqur uyquga ketadilar.

Hayotning asl mohiyati va qimmati insonni o’rab turgan tevarak dunyodagi insonlar va ular bo’ladigan aloqalardadir. Inson ayni bir zamon va makonda yaratilar ekan, bu hech ham behikmat bo’maydi. Odam bolasi turli xom hayollarni qilmasdan o’ziga berilgan umrning qadriga yetib, har soat va har daqiqada mazmunli hayot kechirmog’i lozim. Aynan shunday falsafiy g’oyalarni Tavfiq al-Hakim “G’orda uxlayotganlar” pyesasi orqali insonlarga aytishni maqsad qilgan.

1952-yilda Misr yurtida katta inqilob bo'ldi, har bir sohada bo'lganidek adabiyotda ham ulkan o'zgarishlar kuzatildi. Realistik tamoillar ham she'riyatning ham nasrning asosiga aylandi, matbuot esa g'oyasiz va zamondan orqada qolgan adabiyotga qarshi urush e'lon qildi.

XX asrning 50-yillaridan keyin Tavfiq al-Hakim bir necha bor komediya janriga murojaat qildi. Bu orqali adib jamiyatda ildiz otgan va taraqqiyot tomiriga kishan solib turgan bir necha muammolarni ko'rsatib berdi. 1954-yilda dramaturg "Nozik qo'llar" komediyasini yozdi. Asarda inqilob tufayli barcha mol-mulkidan ayrilgan aristokrat haqida hikoya qilinadi. Bu xudbin, o'ta dimog'dor va mutakabbir aristokrat har qanday mehnatga nafrat ko'zi bilan qaraydi. Haqiqiy baxt mehnatda va uning ortidan keladigan barakada deb hisoblovchi oddiy xalq vakili g'oyaviy jihatdan aristokratga qarshi qo'yiladi.

1956-yilda esa "Bitim" komediyasi kitobxonlar hukmiga havola etiladi. Asarda dehqonlarning feodal zamindor zulmiga qarshi kurashi ko'rsatilgan. Dehqonlar o'zlarining nochor qismatlariga ko'nikib yashashlari, erkinlikka intilmasliklari, hayotlarini yaxshi tomonga o'zgartirishga harakat qilmasliklari doimo Tavfiq al-Hakimni ranjitgan. Shu uchun ham bo'sa kerak adib bu asarda dehqonlarni o'z haq-huquqlari uchun kurashadigan insonlar sifatida gavdalantirgan.

Yozuvchi inqilobdan keyingi davrda "Haqqoniylik va san'at" hikoyalar to'plamini yozadi. G'oyaviy jihatdan bu asar "Viloyatdagi tergovchining xotiralari"ni esga soladi. Chekka viloyatlar ham davlatning bir qismi ekanligini ta'kidlagan holda, adib u yerdagi muammolar soyasida davlar apparatining nosozligini ochib beradi. "Sud vrachi" hikoyasida esa dehqonlarning o'ta qashshoq hayot tarzi tasvirlangan. Inson yashashi mumkinligini tasavvur qilib bo'lmaydigan kulbalardan dehqonlar holsiz, rangpar va och holda chiqib keladilar. Ularning farzandlari esa o'rmalab yuruvchi jonzotlardek qozrinlarida sudralib yuradilar. Hammalarining tanalariga ko'plab kasalliklar in qurgan. Aslida insonlarni beminnat va tekinga davolashi kerak bo'gan vrach va feldsherlar shu dehqonlardan foydalanib boyiydilar, ularning so'nggi qonigacha so'rib oladilar. "Qishloqdagi dachaliklar" hikoyasida qishloqdagi chidab bo'lmas shart-sharoitlardan qochib, dengizdagi kurortga kelgan tergovchi haqida so'z yuritiladi. Ilgari tergovchi qishloqqa borib ayblanuvchilarni tergov qilgan bo'lsa, endi ayblanuvchilar uning oldiga keltiriladi. Ayblanuvchilar uchun bu ayni muddao bo'ladi, chunki bu yerda qishloqda yo'q dam olish va hattoki dengizda cho'milish kabi baxtga ega bo'ladilar. Ba'zi ayblanuvchilar aybsiz

deb topilib, ozod qilinsalarda qishloqqa qaytishni hech ham xohlamaydilar. Bu kulgili holat ortida ayanchli bir xulosa bor: dehqon uchun qishloqdagi ozod hayotdan ko'ra qamoqdagi hayot afzal. Chunki qishloqdagi og'ir mehnatga to'la hayot qamoqdagi hayotdan ham yomonroq va achinarliroqdir.

1966-yilda Tavfiq al-Hakim "Tashvishlar banki" nomli roman-pyesasini yozib tugatdi. Bu asar ham shaklan ham mazmunan juda qiziqarlidir.Oldin talaba bo'lgan, hozir esa ishsiz ikki talab do'st tungi Qohira ko'chalarini kezadilar. Ulardan biri odamlar o'z dard va muammolarini olib keladigan, ularning o'zniga esa xayrixohlik va yechimlar olishadigan antiqa bank ochishni taklif qiladi. Bu g'oyaga bir ishbilarmon qiziqib qoladi va ikki do'stga homiylik qiladi. Mamlakatning turli yerlaridan ishsizlik, yuqori narx-navo va oilaviy kelishmovchiliklar kabi muammolar bilan qiynalayotgan insonlar bu bankka yopirilib keladilar. Keyinroq, do'stlar ishbilarmon va uning tanishlari oddiy xalqdan hukumatga qarshi fitna qilishda foydalanmoqchi ekanini bilib qoladilar. Ular fitnachilarni fosh etishga harakat qiladilar. Bu asar o'qimishli ommaga mo'ljallangan. Chunki chekka viloyatlarda teatrlar yo'q, oddiy xalq esa yoppasiga savodsiz.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, XX asrda "Misr modernistlari" nomi ostida bir qancha ma'rifatparvarlar paydo bo'la boshladi. Ular eskilikdan qochib, yangilik tomon intildilar, quruq va bema'ni voqealarni hikoya qilishdan uzoqlashib, real xalqchil asarlar yozishni, bu orqali oddiy xalqni ma'rifatli qilishni maqsad qildilar. Ular Misrni qoloqlik botqog'idan chiqib, taraqqiyotga yuz burishining tarafdori bo'ldilar. Aka-uka Muhammad va Mahmud Teymurlar, Toha Husayn, Muhammad Husayn Haykal kabi ma'rifatparvarlar o'z asarlarida faqat va faqat haqiqatni tarannum etdilar. Tavfiq al-Hakim ham arab adabiyotining ana shunday realistik yozuvchilaridan edi. U Misrdagi dehqonlar qashshoqligini, ma'muriy apparatning shavqatsizligini, byurokratizmni va sud xodimlarining vijdonsizligini butun millatga ko'rsata oldi. Doimo xalq dardini qo'rqmay baralla kuyladi, oddiy xalqning manfaatlarini o'z manfaatlaridek himoya qildi va ular uchun ma'rifatparvarlik bilan kurash olib bordi. Haqiqatdan ham shunday, bir asarni qog'ozga tushirishdan oldin yozuvchi qo'liga qalam olar ekan, u har qachon o'z vijdonining, unga non va tuz bergan Vatanining, uni voyaga yetkazgan xalqining oldida mas'uldir.

Foydalanilagan adabiyotlar:

1. Akbarova.M.H Yangi davr arab adabiyoti(XIX-XX) asrlar. Darslik. T-.: TDShI, 2009.

2. Xodjayeva.R.U Yangi davr arab adabiyoti tarixida ma'rifatparvarlik jarayoni. O‘quv qo‘llanma.T.,:TDShI,1999.

OTNING GRAMMATIK VA SEMANTIK KATEGORIYALARINING QIYOSIY TAHLILI

Qo‘chqorova Shohista Baxodir qizi
Alfraganus universiteti
Filologiya va tillarni o‘qitish
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
O‘F -23-27 guruh talabasi
Tel: 77 350 32 20
Ilmiy rahbar: N.Mamajonova

Annotatsiya: Ushbu maqolada ot so‘z turkumi va uning grammatik kategoriyalari, sintaktik vazifalari, otning ma’no turlari haqida fikr yuritilgan. Ot so‘z turkumi haqida turli olimlarning izlanishlari va qarashlari qiyosiy tahlil qilinlgan.

Tayanch so‘zlar: Atoqli otlar, turdosh otlar, mavhum otlar , aniq otlar, grammatik va semantik guruh.

Аннотатsiя: В данной статье рассматривается группа существительных и ее грамматические категории, синтаксические функции, а также типы значений существительного. Проведен сравнительный анализ исследований и взглядов разных ученых на группу существительных.

Ключовые слова: существительные, нарицательные существительные, абстрактные существительные, видовые существительные, грамматико-семантическая группа.

Annotation: This article discusses the noun group and its grammatical categories, syntactic functions, and the meaning types of the noun. Researches and views of different scientists about the noun group were comparatively analyzed.

Key words: nouns, common nouns, abstract nouns, specific nouns, grammatical and semantic group.

Kirish. Ushbu maqolani yozar ekanmiz. Eng avvalambor, ot so‘z turkumi mavzusida ilmiy ish olib borgan. olim va olimlarimizning qo‘lyozmalariga nazar solib ketmasak bo‘lmaydi . Ot so‘z turkumi mavzusida Qalandar Sapayev , Ra’no Sayfullayevalarning ilmiy ishlarini o‘xshash va farqli tomonlarini ko‘rib chiqamiz

Asosiy qism. Qalandar Sapayev ot so‘z turkumi mavzusida ilmiy izlanishlar olib borar ekan. Ot so‘z turkumi haqidagi barcha ma’lumotlarni keltirishga uringan.Shaxs va narsa ma’nosini anglatadigan va son , kelishik hamda egalik kabi grammatik ma’nolarni ifodalaydigan mustaqil so‘z turkumi ot deyiladi - deydi .Otlar shaxsga oid (bola ,kishi yigit ,qiz ,ota ,ona) , aniq narsalar (daftar, kitob , olma , gul , bug‘doy) hamda mavhum tushuncha bildiruvchi (odob , arvoh qorbobo, qo‘rqinch) nomlarni ifodalaydi.Ot o‘zi olgan kelishik shakliga muvofiq ega, aniqlovchi, to‘ldiruvchi, izohlovchi , hol va kesim vazifasida , shuningdek nominativ (atov) gap , undalma vazifasida keladi . Qalandar Sapayev otlarni semantik va grammatik xususiyatlariga ko‘ra quyidagicha tasnif qiladi :

1 Bir turdagi narsalardan birining nomini yoki shu turdagi narsalarning umumiy nomini ifodalashiga ko‘ra .

2 Kim ? yoki nima ? savollariga ko‘ra.

3 Sanalish yoki sanlamasligiga ko‘ra.

Birinchi tasnifiga ko‘ra otlar 2 ga bo‘linadi.

1 Atoqli otlar.

2 Turdosh otlar.

Atoqli otlar biror shaxs , narsaga atab qo‘yiladigan otlardir : Shahlo, Laylo , Ozod , Sirdaryo , Buxoro .

Ular quyidagi guruhlarga bo‘linadi :

1) Kishining ism- sharifi , hamda taxallusi: Elmurodova Nargiza, Aliyeva Sevinch

2) Hayvonlarga atab qo‘yiladigan nomlar: G‘irko‘k , Olachipor , To‘rtko‘z .

3) Geografik nomlar : Kavkazorti, Boltiqbo‘yi, Uraloldi.

4) Tashkilot muassasa va idora nomlari: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi.

5) Kitob , gazeta , jurnal nomlari: " Ma’rifat" " jahon adabiyoti" jurnali.

6) Suv havzalari va inshoat nomlari: Orol dengiz katta Farg‘ona kanali.

7) Tarixiy voqealar, bayram nomalari; Navro‘z bayrami, mustaqillik kuni.

8) Astronomik nomlar: Somon yo‘li, Zuhro yulduzi, Yupiter.

2. Turdosh otlar bir turdagi narsalarning umumiy nomlarini ifodalaydi: qalam, ruchka, shahar, daryo. Ayrim hollarda turdosh ot atoqli otga atoqli ot turdosh otga ko‘chishi mumkin, ifodalaydi: sumka , oyna , piyola , kiyim .

Mavhum (fikriy) otlar mavhum tushunchani ifodalaydi : idrok , his - tuyg‘u ,orzu, muhabbat . Bunday otlar odatda ko‘plik affiksini olmaydigan otlar hisoblanadi - deydi Qalandar Sapayev.

Endilikda biz tanishib chiqadigan olima Ra’no Sayfullayevalarning Ot so‘z turkumi mavzusidagi ilmiy ishi. Ot kim , nima , qayer so‘roqlariga javob bo‘lib mavjudot , narsa , joy , voqea jarayonini atovchi leksik birlik - ot . " Borliq yoki uning parchasini predmet sifatida atash " - ot so‘z turkumining umumiy grammatik ma’nosi hisoblanadi.Bunda predmet tushunchasi mantiqiy emas, balki grammatik mohiyatiga ega -deydi Ra’no Sayfullayeva " Hozirgi o‘zbek adabiy tili" kitobida . Ra’no Sayfullayeva ham ot so‘z turkumini quyidagi xususiyatlarga ko‘ra tasniflanadi.

1 Bir turdagi predmetdan birining nomini yoki shu turdagi predmetning umumiy nomini bildirishiga ko‘ra.

2 Kim yoki nima so‘roqlariga javob bo‘lishiga ko‘ra .

3 Sanalish sanlamasligiga ko‘ra.

Ot borliqdagi bir turdagi predmetdan birining yoki shu turdagi predmetning umumiy nomini bildirishiga ko‘ra atoqli ot va turdosh otlarga bo‘linadi.

Atoqli ot bir xil predmet yoki hodisaning birini ajratib ko‘rsatishiga xizmat qiladi - deydi .Masalan : qiz bir turdagi shaxsning shaxsdan birini ajratib ko‘rsatish uchun xizmat qiladigan va qiz atamasidan keyin qo‘yiladigan ikkilamchi nom.

Ra’no Sayfullayeva ham Qalandar Sapayevga o‘xshab atoqli otlarni 8 ta turga ajratgan .

1 Kishining ismi

2 Jug‘rofiya nomi

3 Tashkilot muassasa nomi

4 Samoviy yorituvchilar nomi

5 Tarixiy hodisa nomi

6 Hayvonlar nomi

7 Mahsulot nomi

8 Ilohiy tushunchalar nomi

Turdosh ot ifodalangan tushunchaning harakatiga ko‘ra :

a) Muayyam otlar

b) Mavhum otlar

Ra’no Sayfullayeva o‘z navbatida muayyam otlarni 8 ta guruhga bo‘ladi .

1 Modda nomi : oltin , suv , qum .

2 Shaxs tavsifi nomi : yigit ,chol , oʻzbek , tojik .

3 Bayram nomi : qalam , kitob , kosa .

4 Oʻsimlik nomi : daraxt , buta , ot .

5 Oʻrin- joy nomi : qishloq , shahar .

6 Miqdor nomi : tonna , botmon , misqol .

7 Tashkilot va muassasa nomi: maktab , idora , doʻkon .

8 Vaqt- payt nomi : kecha ,tong , fasl .

Mavhum ot turli narsada mavjud boʻlgan bir xil yoki oʻxshash sifatni bir alohidalik tarzida ifoda etadi.

Masalan : (shaftoli) , (uzum) , (banan) otining mavhumligi sifatida belgisi uning shirinlik boʻlsa mavhum otida yuqoridagi narsalarda mavjud boʻlgan umumiy belgi bir alohidalik sifatida belgilanadi - deydi Raʼno Sayfullayeva

Xulosa. Ot soʻz turkumi mavzusida Qalandar Sapayev, Raʼno Sayfullayevalarning ilmiy ishlarini koʻrib chiqdik. Baholanki, bu olim va olimlarimizning mavzuga doir fikrlarini bildik.Qalandar Sapayev va Raʼno Sayfullayevalarning oʻxshash va farqli tomonlari mavjud. Qalandar Sapayev Aniq (jismiy) ot deb taʼkidlagan boʻlsa Raʼno Sayfullayeva muayyan deb hisoblaydi. Qalandar Sapayev aniq (jismiy) otlarni oʻz navbatida 5ga boʻlsa, Raʼno Sayfullayeva 8 ga boʻlib oʻrganish mumkin degan. Qalandar Sapayev mavhum otlar mavhum tushunchani ifodalaydi desa Raʼno Sayfullayeva mavhum otlar narsada mavjud boʻlgan sifat belgisi deb qaraydi. Bunday olib qaralsa ikki olim va olimalarning fikrlari, gʻoyalari albatta, ularning bu mavzu yuzasidan oʻxshashlik jihatlari bor. Masalan, Qalandar Sapayevda Atoqli otlar 8 guruhga ajratilgan boʻlsa , Raʼno Sayfullayevada ham shu jarayonlarni koʻrish mumkin. Mavzu bor doirada boʻlsada lekin fikr, gʻoya bir biridan farq qiladi, lekin oʻxshash boʻlib qolishini ham kuzatishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1 . Qalandar Sapayev . Hozirgi oʻzbek adabiy tili.T.2009 .

2 . Raʼno Sayfullayeva va b. Hozirgi oʻzbek tili (darslik)

Toshkent : Universitet 2006 http: //www. ziyonat . uz / files/ znuz _ 366_ 201010 29170452

3.Shavkat Rahmatullayev Hozirgi oʻzbek adabiy tili (darslik) .

Toshkent: Universitet. 2006http://www.ziyonet.uz/files/znuz_366_ 20101028150633.

4. https : //uz . wikipedia.org/wiki/Ot_(so%BBz_turkumi).

Til ta’limi istiqbollari va zamonaviy yondashuvlar

Egamberdiyeva Lobar Abduxalil qizi
Alfraganus Universiteti Filologiya fakulteti
O‘zbek tila va adabiyot yo‘nalishi 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Mahmudova Shoxista Abdusalomovna
Egamberdiyevalobar330@gmail.com

Annontatsiya: Ushbu maqolada Til ta’limi istiqbollari va zamonaviy yondashuvlar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: bilim, tafakkur, innovatsiya, salohiyat, mahorat, kreativ fikr, ta’lim texnologiya, ijodkor, tajriba.

Перспективы языкового образования и современные подход

Аннотatsiя: В данной статье рассматриваются перспективы и современные подходы к языковому образованию.

Ключевые слова: знание, мышление, инноватsии, потенциал, навык, творческое мышление, технология образования, творческий, опыт.

Globallashuv sharoitida shiddat bilan rivojlanib borayotgan davr davlat va jamiyat oldiga dolzarbligi va qamrovi kun sayin ortib borayotgan zamonaviy talablarni qo‘ymoqda. Rivojlanib kelayotgan davlatlar qatorida o‘rin olishlik uchun mamlakatda salohiyatli, bilimli, tajribali va o‘z ishining ustasi hamda yuksak salohiyatli kadrlarni o‘rni beqiyos hisoblanadi. Ta’limning asosiy vazifasi shuki o‘quvchining jamiyatda muvaffaqiyatli hayot, kechirishi uchun bugun va ertangi kelajak uchun kerak bo‘ladigan ko‘nikmalarni shakllantirish lozimdir. Ta’lim va tarbiyaning asosi, poydevori maktab hisoblanadi . Hamda zamonaviy maktablarning rivojlanib borayotganining eng muhim vazifasi ham - kreativ salohiyatni rivojlantirish, va o‘sib ulg‘ayotgan yetuk farzandlarni ijodkorliligini oshirish hamda noan’anaviy g‘oyalarni yaratishdir.

Kreativlik- pedagogik faoliyatning muhim sharti. Ko‘rib chiqilayotgan muommaning nazariy asoslari bo‘yicha tadqiqotlar, tahlil va tushunchalar hamda ijodkorlik yoki kreativ g‘oyalarni yaratish, keng fikrlash, o‘ziga xos yechimlarni topish hamda yangi sxemalardan chetga chiqish tushuniladi.

Bu masalani **J.Gilford, E.P.Torrens, R.Sternberg, A.Maslou** hamda boshqa ko‘plab olimlar o‘rgangan.

O‘quvchilarni kreativ fikrlashi hamda yangi g‘oyalarni targ‘ib qilishlari uchun nazariy va amaliy manbaa tajribasini o‘rgangan holda o‘qituvchiga zarur bo‘lishi aniqlangan.

- Har bir o‘quvchda ijodkorlikni rivojlantirish, o‘z- o‘zini bilish va o‘z- o‘zini rivojlantirish imkoniyatini beruvchi kreativ ta’lim muhitini shakllantirish;
- Har bir o‘quvchining individual qiziqishi va moyilligini shakllantirish;
- O‘quvchilarni doimiy rag‘batlantirish va o‘z- o‘zini rag‘batlantirishni ta’minlash;
- O‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish;
- Xavfsiz kreativ maydonni tashkil etish;
- O‘quvchilarni o‘z kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish.

Zamonaviy yondashuv texnologiyalari asosida ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarish. Adabiyotlarda boshqaruv ma’nosini turlicha talqin etiladi, masalan**, Fransuz** olimi **A.Fayol** boshqarishni kelajakni ko‘ruvchi , tashkilotni idora qiluvchi, faoliyatni tashkillashtiruvchi, faoliyat turlarini muvofiqlashtiruvchi, qaror va buyruqlarning bajarilishini nazorat qiluvchi **kuchli qurol** deb ataydi**. “**Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohatlarning asosiy qismini oliy ta’lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Ilg‘or ta’lim texnologiyalarga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bormoqda.

Davlatimiz rahbarining Janubiy Koreya, Angliya, Yaponiya, Xitoy, Rossiya va boshqa mamlakatlarning nafuzli mutaxassislarini ta’lim jarayoniga jalb qilish, yurtimizda xorijiy mamlakatlar universitetlarning filiallarini ochish, yoshlarimizning xorijda malaka oshirishi yoki o‘qishi uchun imkoniyat yaratishga alohida e’tibor qaratilishining ham boisi shunda. Demak ta’lim va tarbiya jarayonlariga yana bir yondashuv, ya’ni o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishga xizmat qiluvchi ijodiy yondashuv tatbiq etiladi. Ta’lim va tarbiya vujudga kelayotgan vaziyatlarga ko‘ra o‘quvchilar faoliyatini muvofiqlashtirib borish eng samarali usullardan biri hisoblanadi, bunda vaziyatli yondashuv ta’lim va tarbiya jarayonlarini samaradorligini aniq vaziyatlarga kora aniqlashni kozda tutadi. Bizning fikrimizcha, vaziyatli yondashuvning o‘ziga xos jihatlarini quyidagi yo‘nalishlarda ko‘rish mumkin: ta’lim- tarbiya jarayonining vaziyatlarini tahlil qilish asosida muhim

ahamiyatga ega bolgan muammolarni aniqlash. Ta’lim va tarbiya jarayonlarida maqsadlarni aniqlashtirish , o‘rganiladigan ob’yektni tanlash , maqsadga erishish uchun eng qulay bo‘lgan vositalarni aniqlash, ko‘zlangan natijalarning samaradorligini belgilash ko‘rsatkichlari va usullarini tanlash boshqaruvning ijodiy yo‘nalishlari hisoblanadi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarni kreativ faoliyatini rivojlantirishda o‘qituvchining o‘rni beqiyos hisoblanadi. Bu jarayonda u ijodkorlikni rivojlantirish uchun qulay yosh davrlarini bilishi, dars o‘tish davomida zarur bo‘lgan tamoyillarga amal qilishi, shu bilan birga vazifasini bajarishga ajratilgan vaqt va baholashlar bo‘yicha zamonaviy va kreativ fikrlar orqali oquvchilarni o‘ziga zalb qila olishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev.SH. M. Qonun ustuvorligi va inson mufaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi. Toshkent. O‘zbekiston.2017.

2. Nazarov.T. (2021). Tanqidiy fikrlash- kelajak kasblarning mukamal poydevori.

3. Alimova. Q. (2021). Ta’lim tizimida innovatsiya jarayonlarini boshqarish.

4. Xudoyberdiyevich, X. B. (2022).Yangi Renessans sharoitida pedagogika ta’lim sohasini rivojlantirishning ayrim dolzarb masalalari.

5. Sayibova, Z.Y. (2023). Innovatsion texnologiyalarning ta’lim sohasidagi o‘rni.

6. Yo‘ldoshev. J. Yangi pedagogic texnologiyalar yo‘nalishlari, muammolari. Xalq ta’limi 1999.

Improving memory in Simultaneous interpreting
Улучшение памяти при синхронном переводе.

Toshkent gumanitar fanlar universiteti
Amaliy va gumanitar fanlar fakulteti
Lingvistika (tillar bo`yicha) yo'nalishi magistranti
Egamberdiyeva Umida Akmalovna
egamberdievaumida19@gmail.com

Abstract

